

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK INSTITUTI

QOSIMJON SODIQOV

TURKIY TIL TARIXI

5220700 – Sharq mumtoz filologiyasi ta'lif yo'nalishi
bo'yicha bakalavrlik bosqichida o'qiyotgan talabalar
uchun qo'llanma

Toshkent – 2009

Ushbu qo'llanmada turkiy yozma yodgorliklar asosida o'zbek adabiy tilining yuzaga kelishi va uning tarixiy taraqqiyoti, yozma yodgorliklarning fonetik, morfologik o'zgachaliklari, atamashunoslik tarixi, matn uslubi masalalari yoritib berilgan.

Qo'llanma Toshkent Davlat Sharqshunoslik institutining Sharq mumtoz filologiyasi bo'limida o'qiyotgan talabalar uchun yozildi.

Toshkent Davlat Sharqshunoslik institutining O'quv-uslubiy kengashi nashrga tavsija etgan (2009 yilning 13 noyabrida bo'lib o'tgan 1- majlis bayonnomasi).

T a q r i z ch i l a r:
filologiya fanlari doktori, professor **H. Dadaboyev**
filologiya fanlari nomzodi, dotsent **Q. Omonov**

SO‘Z BOSHI

Toshkent Davlat Sharqshunoslik instituti Sharq mumtoz filologiyasi ta’lim yo‘nalishining o‘quv rejasiga “Turkiy til tarixi” fani kiritilgan. Ushbu fan turkiy (o‘zbek) adabiy tilining yuzaga kelishi va taraqqiyoti, ko‘hna turkiy bitiglarning til o‘zgachaliklari to‘g‘risidagi yalpi bilimlarni qamraydi. Fanni o‘qitishdan murod – talabalarga o‘zbek adabiy tilining kelib chiqishi, uning ildizlari, yuksalish bosqichlari, fonetik, grammatik o‘lchovlarining qat’iy lashuv yo‘llari, turkiy til lug‘at boyligining ko‘lam-qamrovi, atamalarning yuzaga kelish tarixi, yozma til uslublari va ularning o‘ziga yarasha belgilari haqida bilim berishdir. Bosh vazifa – o‘tmishdan qolgan turkiy manbalarni, badiiy ijod namunalarini o‘qiy olish va ularni hozirgi o‘zbek tiliga ag‘darish uchun yetarli bilimlarni shakllantirish, turkiy yozma yodgorliklar ustida ilmiy ish yaratish yo‘llarini o‘rgatish hamda shu yo‘nalishda yetuk mutaxassislarni yetishtirishdan iborat.

Turkiy tilning ko‘p asrli tarixini bir yo‘la bir qo‘llanmada bayon qilish qiyin. Shuning uchun ushbu kitobda adabiy til tarixining eng eski – uning yuzaga kelishidan boshlab XVI yuzyillikning oxirlariga qadar kechgan taraqqiyoti to‘g‘risida so‘z yuritiladi.

Ilgingizdagi qo‘llanma bir urinishda, o‘quv rejasidagi bo‘shliqni to‘ldirish uchungina yozilgani yo‘q. U uzoq yillik izlanishlarim, talabalarga til tarixini o‘qitish yo‘lida to‘plangan tajribalarga tayangan holda yaratildi. Shu choqqacha yiqqan bilimlarimni, talabalar fan bo‘yicha bilishi kerak bo‘lgan narsalarning eng keraklilarini ushbu kitobga bitdim.

Qo‘llanmani chop ettirishda yaqindan ko‘maklashgan Sharq filologiyasi va tarix fakultetining dekani, himmatli va ochiqko‘ngil yigit **Jasur Ziyamuhamedovga** cheksiz hurmatimni bildiraman.

Qosimjon Sodiqov.

KIRISH

T a y a n ch t u s h u n ch a l a r: *umumxalq tili, adabiy til, og‘zaki til, yozma til, yozma yodgorliklar; yozma tilning tarixiy bosqichlari.*

E’ t i b o r q a r a t i l a y o t g a n m a s a l a l a r:

Og‘zaki va yozma tilning o‘tmishdagi atamalari.

O‘zbek tilining tarixiy bosqichlari. Til tarixini davrlashtirish.

Til tarixini o‘rganishning tayanch manbalari.

Turkiy tillar, jumladan, o‘zbek tilining tarixi meloddan burungi davrlarga ildiz otgan, uning tarixi qadimgi oltoy davridan boshlanadi.

Tilning tarixiy taraqqiyoti to‘g‘risida so‘z borganda *umumxalq tili* va *adabiy til* tushunchalari amal qiladi.

Bundan tashqari, jonli tilning *og‘zaki* va *yozma* ko‘rinishi bor. O‘tmishda har ikkovining ham o‘z atamasi bo‘lgan. Yusuf Xos Hojib o‘zining “Qutadg‘u bilig” asarida *yozma tilni bitig söz* deb atagan edi. Qadimgi turkiy tilda *bitig* – “bitig, yozuv; xat, kitob; yozma hujjat” anglamlariga ega. U “yozmoq, bitmak” ma’nosidagi *biti-* fe’lidan yasalgan. *Bitig söz* atamasi “bitilgan so‘z; kitobiy so‘z; matn”, tilshunoslik tushunchasi bilan aytganda, “yozma til, adabiy til” ma’nosini beradi. Mana o‘sha atamaning Yusuf Xos Hojib baytlaridagi misoli:

Balağat bilä xat teñässä qalí,

Eði eðgü til bu bitig söz tili.

(Balog‘at bilan xat tenglashsa agar,

Yozma til juda ezgu til bo‘ladi) (QB.2655).

Fikrni yozma ko‘rinishda, ya’ni matnda ifodalash usuli *bitig söz yanji* deyilgan. Yusuf Xos Hojib yozma til fikrni ifodalashning eng yaxshi yo‘lidir, deya ta’kidlaydi:

Nekü ter eşitkil İlä sir teñi,

Eði eðgü yan bu bitig söz yanji.

(Ila-sir tengi [ya’ni yoshi Ila daryosiday uzun, ko‘pni ko‘rgan donishmand] bu to‘g‘rida nima degan, eshitgil:

Yozma til usuli juda yaxshi usuldir) (QB.2656).

“Og‘zaki til”ni Yusuf Xos Hojib *tilin söz* deb atagan. O‘sha atamaning misoli:

Yoq ersä bitig bu kişilär ara,
Tilin sözkä kim bütgäy erdi kör-ä.

(Bu kishilar orasida yozuv yo‘q erta,

Og‘zaki so‘zga kim ham ishongan bo‘lar edi, ko‘rgin) (QB.2660).

Adib Ahmad Yugnakiy o‘zining “Hibatu-l-haqoyiq” asarida *ağiz til* degan atamani qo‘llagan. Bu atamadagi ağiz – “og‘zaki” degani, *ağiz til* esa “og‘zaki til”, ya’ni “nutq” degan ma’noni anglatadi. Demak, bu atama ostida “kishining nutqi” ko‘zda tutiladi. Mana o‘sha misol:

Ağiz til bezägi koni söz turur,
Köni sözlä sözni, tiliñni bezä. –

(Nutqning bezagi to‘g‘ri so‘z turur,

To‘g‘ri so‘zla so‘zni, tilingni (nutqingni) beza) (AH.155–156).

Muhimi shundaki, umumxalq tilining ham, adabiy tilning ham o‘z tarixi bor. Jumladan, o‘zbek umumxalq tilining tarixi oltoy davridan boshlanadi. Yozma adabiy tilning tarixi esa turkiy matn tuzish an’anasining boshlanishi, yozma til o‘lchovlarining yuzaga kelishi va ularning qat’ylashuvi bilan bog‘liq. Shunga ko‘ra, o‘zbek adabiy tilining tarixi yozma yodgorliklari ma’lum bo‘lgan qadimgi turk davridan (Birinchi va Ikkinci turk xoqonliqlari davrida yaratilgan bitiglar tilidan) boshlanadi. Turkiy xalqlarning bulardan-da eski, hatto meloddan burungi davrlarga tegishli yozuv yodgorliklari ham topilgan. Biroq ular yirik matnlar emas, turli buyumlar sirtidagi bir-ikki so‘z va yo qisqa jumlali yozuvlardir. Ular yozma til tarixini o‘rganish uchun ozlik qiladi. Shuning uchun, hozircha, adabiy til tarixini turklarda yozuv madaniyati yuksalgan,

savodxonlik darajasi yuqori bo‘lgan ko‘k turk xoqonliqlari davridan boshlaganimiz ma’qul.

O‘zbek tili o‘zining uzoq asrli tarixiy takomili davrida bir qancha bosqichni o‘tgan.

Tilimiz tarixining ilk bosqichi eng eski chog‘lardan boshlab melodning V yuzyilliklariga qadar bo‘lgan davrni o‘z ichiga oladi. Bu bosqichni shartli ravishda *eng qadimgi turkiy til* deb ataymiz. Ilmiy asarlarda bu davrning ilk bosqichi “oltoy”, keyingi bosqichi “xun davri” deb yuritiladi. Melodiya VI asrdan *qadimgi turkiy adabiy til* davri boshlanadi. Bu davr adabiy, ya’ni yozma til tarixining ilk bosqichidir, chunki turkiy yozma adabiy til ana shu kezda yuzaga kelgan. Bu davr to‘g‘risida so‘z ketganda unga *yozma adabiy til* atamasini qo‘sib ishlatganimiz ma’qul. Keng e’tirof etilishicha, “qadimgi turkiy yozma adabiy til” davri VI–X yuzyilliklarni qamraydi. Turkiy tilning eng ko‘hna yozuv yodgorliklari o‘sha chog‘lardan qolgan. Turkiy, xususan, o‘zbek adabiy tilining tarixi ham mazkur yozma yodgorliklar tilidan boshlanadi. Bu davr quyidagi bosqichlarga bo‘linadi: 1) Ko‘k turk yozma yodgorliklari tili (Bu guruhga Birinchi va Ikkinci turk xoqonliqlari davrida yaratilgan ko‘k turk yozuvli urxun va yenisey, tuva, talas, farg‘ona yodgorliklarining tili kiradi); 2) Uyg‘ur xoqonliq va davlatlarida yaratilgan ko‘k turk, uyg‘ur, moniy, brahma, sug‘d yozuvlaridagi yozma yodgorliklar tili (turkshunoslik asarlarida “qadimgi uyg‘ur tili” deb ham atalmoqda).

XI asrdan *eski turkiy adabiy til* davri boshlanadi. Bu bosqich XIV yuzyillikning boshlariga qadar davom etgan. Muhim shundaki, bu davrning ilk bosqichlarida, xususan, qoraxoniylar davrida yaratilgan yozma yodgorliklar tili “qadimgi turkiy til” davrida yaratilgan bitiglar tiliga juda yaqin, ularda qadimgi yozma til an’analari davom etgan. Birgina misol: Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘atit turk” asarida keltirilgan turkiy og‘zaki ijod namunalari ham til, ham

badiiy jihatdan ancha burungi davrlarga ildiz otgan. Yoki mashhur “Qutadg‘u bilig” dostonining tili, lug‘at qatlamidagi sanoqli arabcha, forscha so‘zlarni demaganda, ko‘k turk bitiglarining tili bilan aytarli birday.

Eski turkiy adabiy til davri quyidagi bosqichlarni birlashtiradi: 1) Qoraxoniylar davri tili (qoraxoniylar davrida yaratilgan yozma yodgorliklar tili); 2) “Chig‘atoy turkiysi”; 3) Eski xorazm turkiysi (Oltin O‘rda va Xorazm muhitida amal qilgan adabiy til); 4) Eski qipchoq tili (Misrda yozilgan grammatik asarlar va lug‘atlar hamda g‘arbiy turk o‘lkalarida qipchoqlar yaratgan asarlar tili); 5) Eski anato‘li turkchasi (Bu XIII–XV asrlarda o‘g‘uz turklari qo‘llagan yozma adabiy tildir. Keyinchalik buning negizida *usmonli turkchasi* otini olgan adabiy til yuzaga keldi);

Eski o‘zbek adabiy tili (XIV asrdan XX yuzyillikning boshlariga qadar). Bu davrda ham “chig‘atoy turkiysi” davom etdi. XIII–XVI asrlarning adabiy tili “chig‘atoy turkiysi” oti bilan yuritiladi. Bu davr eski o‘zbek adabiy tilining eng yashnagan bosqichidir. O‘scha yuksalishning ta’siri va an’analari XX yuzyillikning boshlariga qadar keldi.

Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Bu davr XX asrning boshlaridan to shu kungacha amal qilmoqda.

Boshqa fanlarda bo‘lgani singari til tarixining ham o‘z chegarasi, o‘rganishga asos bo‘lib xizmat qiluvchi manbalari bor. Til tarixi yozuv yodgorliklariga tayangan holda muayyan tilning yuzaga kelishi, uning tarixiy taraqqiyoti, hozirgi ko‘rinishiga kelgunga qadar yuz bergan o‘zgarishlar, ularning yuz berishida amal qilgan qonuniyatlarni tadqiq etadi. Turkiy, xususan, o‘zbek tilining tarixi quyidagi tayanch manbalar asosida o‘rganiladi:

1. *O‘tmishdan qolgan yozma yodgorliklar*. Til tarixini o‘rganishda eng ishonchli manba bizgacha yetib kelgan yozuv yodgorliklaridir. Turkiy tilda yaratilgan diniy-falsafiy asarlar, badiiy adabiyot namunalari, tarix kitoblari, epigrafik matnlar,

qabrtosh yozuvlari, huquq ishlariga, xo‘jalik ishlariga tegishli bitiglar va boshqa yozma obidalar turkiy tillar tarixini o‘rganishda eng muhim manbalar sanaladi. Muhimi shundaki, ilk va o‘rta asrlarda turkiy tildagina emas, xitoy, sug‘d, fors, arab tillarida turkiy tillar to‘g‘risida ma’lumot beruvchi asarlar, lug‘at va grammatika kitoblari yaratilgan. Ushbu asarlar ham turkiy tillar tarixini o‘rganishda tayanch manbalar bo‘la oladi.

2. *Xalq og‘zaki ijodi (folklor) materiallari*. Xalq afsonayu dostonlari, rivoyatu ertaklari, qo‘shiqlari, maqol va iboralarining ayrimlari juda eski zamонlarga ildiz otgan. Folklor materiallari badiiy tafakkurdagi eski an’analarga, til an’analara izchil amal qiladi. Asrlar bo‘yi yuzaga kelgan ushbu ijod namunalari eski til belgilarini yaxshi saqlaydi. Shuning uchun xalq og‘zaki ijodi asarlari tilidan til tarixi materiali sifatida ham foydalanish mumkin.

3. *Hozirgi turkiy tillar va ularning shevalari*. Turkiy tillar va xalq shevalari eski turkiy tilning yuzyilliklar osha fonetik, leksik-semantik, grammatik, stilistik jihatdan o‘zgarib, takomillashib, turkiy xalqlarning ijtimoiy-siyosiy, madaniy hayoti talablariga bo‘ysungan holdagi hozirgi ko‘rinishidir. Ayniqsa, xalq tili o‘tmish an’analarni o‘zida yaxshi saqlaydi.

4. *Joy otlari (toponimlar), geografik atamalar, xalq otlari (etnonimlar)*. Shahar, qishloq otlari, suv otlari (gidronimlar) va boshqa geografik atamalar, etnonimlar tilning eski qoldiqlarini o‘zida aks ettirgan bo‘ladi. Shuning uchun ham ular til tarixini o‘rganishdagi muhim manbaldan bo‘la oladi.

S o‘ r o q v a t o p s h i r i q l a r:

Lutfan *umumxalq tili* va *adabiy til*, *og‘zaki* va *yozma til* tushunchalarini izohlab bering. O‘tmishda bular qanday atalgan?

O‘zbek tilining tarixi qanday bosqichlarga bo‘lib o‘rganiladi?

O‘zbek tilining tarixi qanday manbalar asosida o‘rganiladi? O‘rnaklar bilan tushuntiring.

BIRINCHI BO‘LIM. O‘ZBEK ADABIY TILINING YUZAGA KELISHI VA YUKSALUVI

T a y a n ch t u sh u n ch a l a r: *tilning o‘tmishdagi atalishi; türkçä, türk tili, türkî, čiğatay türkîsi, özbek tili; til vaziyati; qadimgi turk dialektlari; tilshunoslik tarixi.*

E’ t i b o r q a r a t i l a y o t g a n m a s a l a l a r:

O‘zbek tilining o‘tmishdagi atalishi.

O‘tmishda adabiy til qanday atalgan?

Ilk va o‘rta asrlarda Markaziy Osiyodagi til vaziyati.

O‘zbek adabiy tilining yuksalushi.

Shoir-yozuvchilar, tarix bituvchilar, olimlar, tarjimon va kotiblarning adabiy til yuksaluviga qo‘sghan ulushi.

Qadimgi turk dialektlari va ularning yozma adabiy tilga bog‘liqligi.

O‘zbek tilshunosligining tarixi. Uning yuzaga kelishi va tarixiy bosqichlari.

O‘ZBEK TILI O‘TMISHDA QANDAY ATALGAN?

Xalq va tilining yoshi har qachon ham u atalayotgan ot tarixi bilan o‘lchanavermaydi. Chunki muayyan til o‘z tarixi davomida bir qancha nom bilan yuritilgan bo‘luvi mumkin. Buning misoli: hozirgi *o‘zbek*, *o‘zbek tili* atamalarining kelib chiqish tarixi uning qadar eski emas. Aslida esa o‘zbek xalqi va tilining tarixi juda eski zamonlarga ildiz otgan bo‘lib, hozirgi otining tarixi uning yoshini o‘zida aks ettirmaydi. O‘tmishda hozirgi o‘zbeklar va ularning tili bir qancha nom bilan atab kelingan.

Qadimgi turk ijtimoiy-siyosiy muhitida “xalq, ulus” tushunchasini *äl~el*, *bodun~bodun*, *el-kün*, *el-ulus* so‘zlari ifoda etgan. Bizgacha yetib kelgan ilk yozma obidalarda turkiy qavmlarning otlari ham tilga olinadi. Masalan, ko‘k turk bitiglarida turkiy qavmlarning umumiy oti *türk* (*türk*, *türk*

bodun, türk eli) deb atalgan. Turkiy qavmlar esa *oğuz* (bu qavm uyushmalari *säkiz oğuz, toquz oğuz* deyilgan), *uyğur, tatar* (*tatar, toquz tatar, otuz tatar*), *qarluq, qıpçaq, qırqız, basmıl* otlari bilan qayd etiladi. Ba'zan bular *bodun* so'zi bilan birikma shaklida ham qo'llangan: *oğuz bodun, toquz oğuz boduni, qarluq bodun*, “mamlakat, yurt” tushunchasini *el* so'zi ifodalagan: *türk qıpçaq eli* singari. Muhimi, yozma manbalarda turkiy til va uning dialektlari ana shu qavmlarning oti bilan atog'liq. Bu atamalar *til* so'zi bilan ham qo'shib ishlatilgan. Masalan: *oğuz tili, uyğur tili*.

Endi turkiy (o'zbek) tilning o'tmishdag'i otlarini yozma yodgorliklar misolida ko'rib chiqaylik.

Turkiy tilning o'tmishda keng qo'llanilgan otlaridan biri *türk* (*türkçä, türk tili*) atamasidir. Bu ot buddizmning VII–IX asrlarga mansub “Maytri simit no'm bitig” asarida qo'llangan. Chunonchi, asarda Partanarakshit Karnavajiki otli kishi uni to'xri (tohar) tilidan turk tiliga tarjima qilganligi qayd etiladi: *Partanarakshit Karnavajiki türk tilinčä ewirmiš Maytri simit nom bitig* (MS.145).

X asrda yashab o'tgan beshbaliqlik mashhur tarjimon Shingku Sheli tudung ham o'z tarjimalarida ana shu atamani qo'llagan. Uning tavg'achcha (xitoycha) versiya asosida turkiyga o'girilgan “Syuan-szan kechmishi” asari turk tilida ekanligi ta'kidlanadi: *Tawǵač tilintin yana beşbaliqlıq Šinǵu Šeli tuduň yayırtı türk tilinčä ewirmiš* (Tavg'ach tilidan yana beshbaliqlik Shingku Sheli tudung turk tiliga o'girdi) (ST.V.87). *Türk tili* atamasi Shingqu Shelingin boshqa bir tarjimasi – “Vujud va ko'ngilni anglash kitobi”da ham uchraydi. Unda asar qanday tildan o'girilgani to'g'risida shunday ma'lumot berilgan: *Šinǵu Šeli tuduň tawǵač tilintin türk tilinčä ewiriü tegintim* (Shingqu Sheli tutung tavg'ach tilidan turk tiliga tarjima qildim) (Hazai 1975,95). Lekin bu tarjimon ijodiga mansub “Oltun tusli yorug” sutrasining yakunida asar tavg'achchadan turk-uyg'ur tiliga o'girilgan deb

qayd etilgan: *beşbaliqlıq Şinqqu Şeli tuduj tawğacı tilintin türk uyğur tilinčä ikiläyü ewirmiš Altun öylüğ yaruq yaltırıqlıq qopta kötrülmüş nom eligi atlıq nom bitig tügädi* (Beshbaliqlik Shingqu Sheli tudung tavg‘ach tilidan turk-uyg‘ur tiliga tarjima qilgan “Oltin rangli nurli yaltiroqli hammadan ustun turadigan no‘m tojdori” otli no‘m bitig tugadi). Chamasi, mazkur atama asar qulyozmasining ko‘chirilgan davri (XVII asr) bilan bog‘liq qo‘llangan chiqar.

Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” dostonida asarning tili *türkçä* deb atalgan (*türkçä qoşuq, türkçä masal* singari):

Bu türkçä qoşuqlar tüzättim seňä,

Oqırda unütma du‘a qıl meňä.

(Bu turkcha qo‘shiqlarni sen uchun bitdim,

O‘qirda unutma, meni duo qil) (QB.58).

Alisher Navoiy o‘z asarlarida turkiy tilda so‘zlashuvchilarni *türk* (*türk, türk ulusi*), *türkigoular, atrāk* nomlari bilan tilga oladi. Turkiy tilni esa *türk* (*türk tili, türk lafzi, türk alfazı*), *türkçä* (*türkçä, türkçä til*), *türkî* (*türkî, türkî alfâz*) deb ataydi. Ulug‘ mutafakkirning ta’kidlashicha, uning asarları ana shu tildadir. Masalan, “Lisonu-t-tayr”da bu to‘g‘rida shunday satrlarni o‘qiymiz:

Türk alfâzî bilä sürdüm maqâl (LT.253).

Türk alfâzî bilä taptî adâ (LT.271).

Shundan kelib chiqib, Navoiy turkiy she’riyatni *türk nazmi* deb atagan edi.

Navoiy qo‘llagan atamani Zahiriddin Bobur asarlarida ham uchratamiz. Masalan, u “Boburnoma”da Andijon to‘g‘risida ma’lumot bera turib, elini *türk*, uning tilini *türkî* deb ataydi (BN.6). Yoki Navoiy ijodi haqida fikr yuritib, turkiyda “hech kim uningdek ko‘p va xo‘p” bitmaganligini ta’kidlaydi: *türkî* til bilä tâ še‘r aytupturlar, heč kim anča köp va xob aytqan emäs (BN.153).

Muhammad Solih o‘zining “Shayboniynoma” asarida Shayboniyxon fazilatlarini ta’riflar ekan, uning turkiy asarlarini *türkî ab’yât*, tilini esa *türkçä til* deb atagan:

Türkî ab’yâtî erür şarbat-î nâb,
Fârsî şe’rları ham serâb (ŞN.29).

Türkçä til bilâ îmâlari bar (ŞN.30).

Bu atama keyingi asrlarda yaratilgan asarlarda ham uchraydi. Lekin *türk* atamasining xalq nomi sifatidagi qo‘llanuv doirasi toraygan: uni Anato‘li turklarigina o‘zining va tilining oti sifatida saqlab qoldi. Butun turkiy tillar oilasiga nisbatan esa *tirkî* (*türkî*, *türkî tillär* singari) atamasini qo‘llaymiz.

Hozirgi zamon orientalistikasida XV asrning ikkinchi yarmi – XVI asr boshlaridagi turkiy adabiyotning klassik bosqichini *chig’atoy adabiyoti*, tilini esa *turkiy*, *eski o’zbek tili* nomlari bilan yonma-yon “*chig’atoy tili*”, “*chig’atoy turkiysi*” deb atalmoqda. Ushbu atamaning kelib chiqishi Chingizzxonning o‘g‘li Chig’atoxxon otiga bog‘lanadi. Ma’lumki, Chingizzxon o‘zi bosib olgan yerlarni o‘g‘illariga ulashganda, O‘rta Osiyo yerlari Chig’atoypa tekkan edi. Shunga ko‘ra, bu yerlar “*Chig’atoy eli*”, yerli xalqlar esa “*Chig’atoy ulusi*”, xalqning tili esa “*Chig’atoy tili*” deb atalgan. Bu ot o‘zining semantik taraqqiyoti davomida kishi otidan ma’muriy, ijtimoiy-siyosiy va madaniy atamaga aylangan. Ta’kidlash kerakki, “*Chig’atoy ulusi*”, “*Chig’atoy tili*” atamalarining mo‘g‘ullarga yoki ularning tiliga hech bir bog‘liqlig‘i yo‘q. Chunki, bu o‘lkada mo‘g‘ullar emas, turkiy ulus yashagan. “*Chig’atoy tili*” atamasi ham turkiy tilning (eski o‘zbek tilining) nisbiy atamasidir.

Čiğatay so‘zi atama sifatida XIII asrdan boshlab qo‘llanilgan. Manbalarga qaraganda, bu atama boshlab (XIII–XIV asrlarda) Chig’atoxxon sulolası (turk-mo‘g‘ullar), davlat hokimiyatining oliy tabaqa vakillari, shuningdek, cherikka nisbatan qo‘llanilgan. Keyinchalik (XV asrda) butun

Mavoraunnahr va Xurosondagi turk ulusiga nisbatan, XVI asrdan boshlab Mavoraunnahrda ham turkiy, ham forsiy tilli ulusga nisbatan qo'llanilgan (Благова 1982, 155–156).

XV–XVI asrlarda bu atamaning ijtimoiy-siyosiy vazifasi o'ta kengaygan bir sharoitda butun Mavoraunnahr elini, uning xalqini, xalqining tilini ham ifodalay boshladi: yurtini, elini *Čiğatay*, *Čiğatay eli*, xalqini *Čiğatay ulusı*, uning tilini esa *čiğatay türkisi* deyildi. Jumladan, Muhammad Solihning “Shayboniynoma” asarida:

Čiğatay el meni özbek demäsün,
Behuda fikr qılıp ġam yemäsün (ŞN.111).

“Abushqa” lug‘atida “yurt” ma’nosida *Čiğatay*, *Čiğatay diyarı* atamalari qo'llanilgan (DDT.96,276).

XVI asrda yuz bergen temuriylar sultanatining inqirozi va Mavoraunnahrda shayboniylar hokimiyatining o‘rnataluvi, o‘zbek-qipchoqlarning bu o‘lkaga kirib keluvi oqibatida ushbu atama ham iste’moldan chiqa boshladi.

XIV asrda yaratilgan “Kitob-i tarjumon-i turkiy” asarida “turkiy”, “turkiy qipchoq tili” hamda “turkmancha”, “turkman tili” atamalari uchraydi. Muallifning ta’kidicha, kitob “turkiy qipchoq tili” qoidalariga bag‘ishlangan. “Turkmancha” yoki “turkman tili” materiallari esa o‘rni-o‘rni bilan qiyoş sifatida keltiriladi. Chamasi, ushbu asarda “turkiy”, “turk qipchoq tili” atamasi bilan qipchoq lahjası, “turkmancha”, “turkman tili” deyilganda esa o‘g‘uz lahjası ko‘zda tutilgan.

“Attuhfatu-z-zakiyatū fil-lug‘atit turkiya” asarida ham kitob turkiy (qipchoq) tili grammatikasiga bag‘ishlanganligi ta’kidlangan. Ushbu asarda ham, o‘rni bilan, “qipchoq tili”, “turkman tili” atamalari uchraydi.

Alisher Navoiy “Nasoyimu-l-muhabbat”da Sayid Nasimiyy haqida ma’lumot bera turib, shunday yozadi: Sayid Nasimî - ‘Irāq va Rum tarafidağı mülkin erkändür. Rumî va türkmänî til bilä nazm aytipdur (NM.437). Bu jumlada Navoiy *Rumi* va

türkmäni til atamasi ostida turkiyning o‘g‘uz lahjasini ko‘zda tutgan.

O‘tmishda o‘zbek xalqi va uning tilini anglatgan atamalardan boshqa biri *sart* dir. *Sart* (<skr. *sartha*) so‘zi Yusuf Xos Hojib va Mahmud Koshg‘ariy asarlarida “savdogar” ma’nosini bildirgan. Masalan, “Qutadg‘u bilig”da: Nekü ter eşitkil bu sartlar başı (Bu savdogarlar boshi nima deydi, eshitgin) (QB.474). Yoki: Sartnij azuqī arīg bolsa, yol üzä yer (Savdogarning moli toza bo‘lsa, yo‘l ustida yoyadi. So‘zma-so‘z: Savdogarning ozig‘i halol bo‘lsa, yo‘l ustida yeydi) (MK.I.97).

Ushbu so‘z etnonim sifatida keyingi davrlardan boshlab ishlatilgan. U boshlab forsigo‘ylarni, keyinchalik turkiy o‘troq ulusga nisbatan ham qo‘llanilgan.

“Muhokamatu-l-lug‘atayn”da Alisher Navoiy forsiy tilda so‘zlovchilarni *sart* (*sart*, *sart ulusi*, *sart eli*) hamda *fārsīgoy* otlari bilan tilga oladi. Ularning tilini esa *sart tili*, *sart lafzi*, *fārsī* (*fārsī*, *fārsī til*, *fārsī alfāz*) deb ataydi.

Bu so‘zning “Boburnoma”dagi ma’nosi e’tiborga molik. Zahiriddin Bobur Marg‘ilon (Marğınān)ni ta’riflar ekan, uning eli sartlar ekanini ta’kidlaydi. U yozadi: Eli sarttur va muştzan-u purşaru şor eldür. Janjaralıq rasmī Māvarāunnahrda šāye‘dur. Samarqand-u Buxārāda nāmdār jańalar aksar marğınānidur (BN.7).

Kobul viloyatining ta’rifida sartlarni tojik va atrok (turklar) bilan qorishtirmaydi; ayri oladi. U shunday yozadi: *Julgasıda* va *tüzləridə atrāk-u aymaq* va *'arābdur*. *Şahrıda* va *ba'zi kentləridə* sartlardur. *Yana ba'zi kentləridə* va *vilāyatıda pašāyi-vu parāji* va *tājik-u baraki* va *afḡāndur* (BN.120). Ushbu viloyatda yashovchi ellarning tili xususida yozadi: *On bir-on ikki lafz bilä Kābul vilāyatıda talaffuz qılurlar*: ‘arabî, *fārsī*, *türkî*, *moğulî*, *hindî*, *afḡānî*, *pašāyi*, *parājî*, *gabrî*, *barakî*, *lamğānî*. *Munča muhtalif aqvām-u muğāyir alfāz* ma'lum emäs-kim, heč vilāyatta bolğay (o’sha joyda).

“Boburnoma”dan olingen misollarga e’tibor berilsa, muallif Kobul viloyatidagi xalqlarning tili to‘g‘risida ma’lumot berar ekan, sart yoki tojik tilini eslamaydi, u arabiyl, forsiy, turkiy, mug‘uliy va boshqa tillarni eslaydi, xolos. Yana Bobur Marg‘ilon elini ham *sartlar* deb ataydi. Chamasi, marg‘ilonlik sartlar deyilganda ustachilik bilan shug‘ullanuvchi (o‘troq hayot kechiruvchi) toifa ko‘zda tutilgan ko‘rinadi. Bularidan anglashiladiki, *sart* atamasi o‘sha chog‘lar ham forsiy, ham turkiy tilli o‘troq, shahar aholisiga nisbatan qo‘llanilgan.

Muhammad Solih ham “Shayboniynoma”sida Samarqand qamalini ta’riflab, uning xalqini *sart* deb tilga oladi: *Sartlar asru zabun boldilar* (ŞN.125). Bu o‘rinda ham *sart* atamasi o‘troq, shahar eliga nisbatan qo‘llanilgan.

XVII asr tarixchisi Abulg‘oziy asarlarida ham *sart* atamasi bor. Shuningdek, XIX asr Qo‘qon tarixchilarining asarlarida-da bu ot tez-tez uchrab turadi. Bu kezlar XIII asrda O‘rta Osiyoga kelib o‘rnashgan o‘zbek qavmidan boshqa tub aholi (turkiy va tojiklar) *sart* deyilgan, chamasi. Shu sabab bo‘lib, XIX asrning ikkinchi yarmida rus tilshunoslari o‘z grammatikalarida o‘zbek tilini *sart tili* (сартовский язык) deb ataganlar.

Endi *özbek* atamasi to‘g‘risida ikki og‘iz. Bu atamaning kelib chiqishini turlicha talqin qiladilar. Ba’zi olimlar bu atamani Oltin O‘rda xoni O‘zbekning (1312–1342) otiga bog‘laydilar. Ularning fikricha, O‘zbekxon qaramog‘idagi ulus keyinchalik *özbek* otini olgan. Boshqa bir olimlar bu qarashni qo‘llamaydilar. Ularning ta’kidlashicha, XIV–XV asrlarda Oq O‘rdadagi turk-mo‘g‘ul qavmlari shu ot bilan yuritilan. O‘zbekxon esa Ko‘k O‘rdanining xoni bo‘lib, o‘zbek qavmlari unga bo‘ysunmaganlar (qarang: Ахмедов 1992, 10–11).

Özbek atamasi XIII–XIV asrlarda yaratilgan forscha va arabcha manbalarda (jumladan, Juvayniy, Rashididdin, Xondamir va boshqalarning asarlarida) ham uchraydi. Ularda bu atama Dashti Qipchoqda yashovchi turk-mo‘g‘ul qavmiga nisbatan qo‘llanilgan. Hatto ayrim manbalarda To‘xtamishning

o‘zbek xoni ekanligiga ishora bor (qarang: o‘sha joy va keyingi betlarda).

Keyingi davr manbalarining guvohlik beruvicha, bu atamaning ma’nosи kengayib, urug‘lar uyushmasini ham anglata boshlagan. Chunonchi, Mas’ud ibn Usmon Ko‘histoniyning yozishicha, o‘zbeklarning tarkibiga yigirmadan ortiq turk-mo‘g‘ul qavmlari kirgan. Yoki Ro‘zbekaxon (XVI asr) o‘zbeklarning uch toifadan iborat ekanini ta’kidlaydi: ular Shaybon ulusiga qarashli barcha qabilalar, qozoqlar va mang‘itlardir (Ахмедов 1992, 13–14).

Keyinchalik Dashti Qipchoqdagi o‘zbeklar uyushmasiga kirgan qavmlarning muayyan qismi o‘sha yerdagi qozoq, qoraqalpoq, boshqird va b. tarkibiga qo‘silib ketganlar. Muayyan qismi Shayboniyxon qo‘sini bilan birga O‘rta Osiyoga kirib kela boshladilar va shu yerda turg‘un yashab qoldilar. Shayboniyxon cherigining katta qismi ham o‘zbeklardan edi.

XIII asrga qadar Mavoraunnahr va Xuroson turklari o‘zlarini özbek demaganlar. Bora-bora bu o‘lkaga kelib o‘rnashgan o‘zbeklarning mavqeい orta boradi; davlat boshqaruvi ham ko‘proq shularning qo‘liga o‘ta boshlaydi. Ana shunday tarixiy jarayon ta’sirida yerli turklar ham özbek deb atala boshladidi. Shunisi diqqatga sazovorki, kelib o‘rnashgan qavmlar burun qaysi urug‘-qabilaga tegishli bo‘lsalar, keyinchalik ham, hatto XX asr boshlarigacha ajdodiy-qabilaviy bo‘linish-belgilarini saqlab keldilar. Yaqin-yaqingacha o‘zbeklar orasida “qo‘ng‘irot urug‘i”, “nayman urug‘i”, “mang‘it urug‘i” singari otlarning saqlanib kelganligi bejiz emas.

Yuqoridagi ma’lumotlardan hozirgi o‘zbek xalqi XIV yuzyillikda Dashti Qipchoqda yuzaga kelgan, degan mutlaqo g‘ayri ilmiy xulosa kelib chiqmasligi kerak. O‘rta Osiyoda qadimdan yashab kelgan turkiy tub aholi hozirgi o‘zbek xalqining ota-bobolaridir. Dashti Qipchoqdan “o‘zbek” nomini

olgan qavmning kelib o‘rnashishi hozirigi o‘zbeklarning to‘liq tarkib topishidagi keyingi bosqichlardan biri, xolos. Ularga qadar yerli turkiy xalq boshqa otlar bilan atalar edi. Hozirgi otini esa, keyinchalik, o‘zlariga kelib qo‘shilgan o‘zbeklardan oldilar. Demak, atama tarixi xalq tarixiga mutlaqo teng emas.

Shu o‘rinda ta’kidlash kerak, hozirgi o‘zbeklarning shakllanuvida Dashti Qipchoqdan kelgan turkiy ulusning ta’sirini mutloq inkor etib ham bo‘lmaydi. Hozirgi o‘zbek xalqi uzoq tarixiy taraqqiyot ta’sirida, turli elat-urug‘larning birikuvidan tashkil topgan. Buni o‘zbek shevalarining o‘ta xilma-xilligida ham ko‘rish mumkin.

Özbek atamasi etnonim sifatida XIV asrdan boshlab qo‘llanilgan bo‘lsa-da, tilga nisbatan kech amal qilgan. Chunonchi, o‘sha kezlar o‘zbek qavmining shevasi *özbek tili* deb emas, *türkî, qıpçaq tili* deb atalgan. Qipchoq shevalari keyinchalik hozirgi tilshunosligimizda “eski o‘zbek adabiy tili” deb atalayotgan yozma tilga ham ta’sir eta boshlagan. Lekin u eski o‘zbek adabiy tilining tayanch dialektiga aylangan emas. Ya’ni adabiy til situatsiyasida keyin qo‘shilgan ulusning dialekti u qadar hal etuvchi o‘ringa ko‘tarila olgani yo‘q. Chunki bu davr Mavoraunnahr va Xuroson adabiy muhitida qadimgi va eski turkiy adabiy til an’analari va ta’siri ustuvor edi. Binobarin, XIII–XVI yuzyilliklardagi klassik adabiy til (“chig‘atoy turkiysi”) shu an’ana ta’sirida shakllangan. O‘zbek adabiy tilining keyingi davrlardagi taraqqiyoti ham bevosita ayni adabiy til davomida turadi. Bu tadrijiy jarayonni XVII asrdan XX asr boshlarigacha yashab o‘tgan Abulg‘oziy, Mashrab, Ogahiy, Muqimiyy, Furqat va b. o‘nlab mumtoz adabiyotimiz namoyandalarining asarlari tilida yaqqol kuzatish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, o‘zbek tili juda uzoq tarixga ega bo‘lib, uning hozirgi oti til tarixini o‘zida tugal aks ettirmaydi. Xuddi shunday holni boshqa turkiy (masalan, uyg‘ur, qozoq va b.) tillarda ham kuzatamiz. Bu hodisa turkiy tillarning, shular

qatori, o‘zbek tilining o‘ta murakkab jarayonni bosib o‘tganidan dalolat beradi.

O‘zbeklar hozirgi otini keyinchalik qabul qildi va uzoq asrli tilini ham shunday atay boshladi. Bunga qadar o‘zbek tili *türkçä*, *türk tili*, *türkî*, *čiğatay tili* va boshqa nomlar bilan atab kelingan.

Adabiy tilning o‘tmishdagi atalishi

Yozma manbalarda, turkiy adabiy til turlicha atalgan. Mahmud Koshg‘ariy “Devonu lug‘atit turk”da o‘z davri yetakchi dialektlarini (sharqiylarini) birlashtirib *turk tili*, qolganlarini esa o‘z nomlari (o‘g‘uzcha, qipchoqcha) va b. bilan ataydi. Ana shu *turk tili* o‘rnida *xoqoniya tili*, *xoqoniya turkchasi* nomini ham qo‘llagan. Bu bilan u qoraxoniylar davlatining markaziy o‘lkalarida yashovchilar lahjasi (adabiy tilga asos bo‘luvchi yetakchi lahjalar)ni nazarda tutadi: “Tillarning yengili o‘g‘uzcha, eng to‘g‘risi, yaxshisi yag‘ma, tuxsi kabilarning tili va shuningdek, Ila, Ertish, Yamar, Etil vodiylaridan uyg‘ur shaharlarigacha bo‘lgan joylarda yashovchilar tilidir. Bularning ichida eng ochiq va ravon til *xoqoniya* o‘lkasida yashovchilarning tilidir “...” Shahar o‘rtasida turuvchilar *xoqoniya turkchasi* so‘zlaydilar” (MK.I.66). Mahmud Koshg‘ariy ushbu *turk tili*, *xoqoniya tili*, *xoqoniya turkchasi* atamalari bilan o‘z davri turkiy adabiy tilini ko‘zda tutgan edi.

Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asarida *türkçä* bilan bir qatorda *buğraxon tili*, *xan tili* atamalari ham qo‘llangan. Misoli shunday: *Türkistän ellärindä buğraxon tilinčä bu kitābdin yaxšıraq hargez-kim ersä tasnif qilmadī* (Turkiston ellarida bug‘raxon tilida biror kimsa hargiz bu kitobdan yaxshiroq yozgan emas) (QB.48). Bu bilan, chamasi, Bug‘raxon qaramog‘idagi o‘lkalarda yashovchilar lahjasiga tayangan adabiy til ko‘zda tutiladi.

Adib Ahmad Yugnakiy o‘zining “Hibatu-l-haqoyiq” asari to‘g‘risida so‘z yuritib, uning turkiy tilda ekanligini ta’kidlaydi. Uning keltirgan bayti: *Anin uš čiğardim bu türkî kitâp* (Shuningdek, bu turkiy kitobni ijod qildim) (AH.473). Asarning 1444 yili ko‘chirilgan samarqand qo‘lyozmasida Amir Arslon tarxon masnaviysi dostonga ilova qilingan. Amir Arslon masnaviysida qayd etilishicha, muallif bu kitobini *kaşgar tili~kaşgarî til* da yozgan:

Tamami erür kaşgarî til bilä,
Ayitmış adib riqqat-i til bilä.
Äğär bilsä kaşgar tilin har kişi
Bilür ol adibniy nekim aymışi.
((Kitob) koshg‘ar tili bilan yozib tugallandi,
Adib uni badiiy tilda ijod qildi.
Agar kim koshg‘ar tilini bilsa,
Adibning aytganlarini anglab yetadi) (AH.499–502).

Ushbu baytlardagi *kaşgar tili~kaşgarî til* atamasi qoraxoniylar markaziy o‘lkasidagi koshg‘ar (=qashqar) lajhasi (adabiy til) nazarda tutilgan deyish mumkin. Ushbu atama Mahmud Koshg‘ariy qayd etgan *xoqoniya tilining* o‘zidir. Chunki devonda qashqarliklar “xoqoniya turkchasi” da so‘zlashlari ta’kidlangan (MK.I. 66).

Mahmud Koshg‘ariy, Yusuf Xos Hojib, Amir Arslon tarxon ma’lumotlaridan qoraxoniylar davri turkiy adabiy tiliga yetakchi dialektlar asos bo‘lib xizmat qilganligi ayon bo‘ladi. Ushbu yozma adabiy til *turk tili*, *xoqoniya tili*, *bug‘raxon tili*, *koshg‘ar tili* singari otlar bilan atalgan. XIII–XV asrlarda yuzaga kelib takomil topgan “*chig‘atoy tili*”, “*chig‘atoy turkchasi*” ana shu adabiy tilning davomida turadi.

Bu kezlarda *čiğatay tili* atamasi *türkçä*, *türkî* atamalari bilan yonma-yon qo‘llanilib, kitobiy adabiy tilni farqlash uchun ham xizmat qila boshladi. Abulg‘oziyning “Shajara-yi tarokima”da keltirgan quyidagi ma’lumotlari bunga dalildir. Tarixchi yozadi: *Hamma uluğlar ham āddi kişilär tüşünsün*

dep, men bu tarixni türkî til bilän aytdim. Türkîni ham andaq aytup-men-kim, beş yaşar oğlan tüşünür. Tüşüniş asan bolsun dep men čigatay türkîsidin, fârsîça va arabçadin bir dâna ham söz qoşmadim. Bu o'rinda čigatay türkîsi deyilganda XV–XVI asrlardagi kitobiy til ko'zda tutilgan. Ushbu atama ham qoraxoniylar davri manbalarida qo'llangan "bug'raxon tili", "xoqoniya tili", "koshg'ar tili" atamalari singari adabiy tilni anglatadi. Temuriylar zamonida Mavoraunnahr va Xuroson adabiy, madaniy muhitida shakllangan adabiy til ("chig'atoy turkiysi") shu o'lkadagina emas, balki butun turk-musulmon muhitining kitobiy adabiy tili darajasiga ko'tarilgan edi.

ILK VA O'RTA ASRLARDA MARKAZIY OSIYODAGI TIL VAZIYATI

VI–VIII asrlarda bir chegarasi Oltoydan tortib markiziy Mo'g'ulistonga qadar, ikkinchi yog'i Sharqiy Turkistondan tortib Kaspiyga qadar ulkan hududda amal qilgan Birinchi va Ikkinci ko'k turk xoqonliqlarining rasmiy tili turkiy til edi. Saltanatning davlat va jamiyat boshqaruvi, xalqaro diplomatik munosabatlari, rasmiy yozishmalar turkiy tilda olib borilgan. Rasman ko'k turk yozuvi amalda bo'lgan. Badiiy adabiyot, ilmiy va tarixiy asarlar, xonlarning tuzuklari, yorliqlari va chet ellar bilan yozishmalari turk tilida va ko'k turk yozuvida bitilgan. Hatto turkiy til Buyuk Ipak yo'li bo'ylab xalqaro til sifatida amal qilgan. Ko'k turk xoqonliqlari keyinchalik uning o'rnida yuzaga kelgan uyg'ur xoqonlig'i zamonida Markaziy Osiyoda, ayniqsa Buyuk ipak yo'lida keng yoyilgan sug'd tiliga, o'rni bilan tabg'ach (xitoy) tiliga ham e'tibor qaratilgan. Masalan, monumental matnlar bitishda, turkiy til bilan barobar, sug'd, ba'zan tabg'ach tillaridan ham foydalanilgan. Buni o'sha kezlardan qolgan ikki, uch tilli bitiglarda ham kuzatishimiz mumkin. Chunonchi, 732 yili tiklangan Kul tigin bitigi ikki tilli: asosiy matn turkchada, toshning ters yuzida xitoycha yozuvi ham bor. To'quz o'g'uz (uyg'ur) xoqoni Alp

Bilga (xitoy manbalarida Baoi) xotirasiga 820–821 yillarda tiklangan Qorabalg‘asun obidasi uch til – turkiy, sug‘dcha va xitoy tilida bitilgan. Bu dalillar turk muhitida, ona tili bilan birga, mazkur tillarga ham alohida e’tibor qaratilganidan dalolat beradi. Ko‘k turk xoqonliqlarining ayrim o‘lkalarida, xoqonliqqa qaram va unga qo‘snni yurtlarda, turklar bilan aralash yashaydigan boshqa qavmlar ichida ikki tillilik ham amal qilgan. Masalan, Sug‘dda va xoqonliq hududidagi sug‘dlar ko‘chib kelib o‘rnashgan ayrim kentlarda, sug‘d-turk qo‘shtilliligi, Xorazmda xorazm-turk, qo‘snni Toharda va turk xoqonlig‘i, keyinchalik uyg‘ur xoqonlig‘ining Toharga qo‘snni viloyatlarida, asosan, to‘xrilar orasida to‘xri-turk qo‘shtilliligi ham amalda bo‘lgan.

O‘tmishda yaratilgan matnlar ichida ikki, uch tillilari ham anchagina. Lekin matn ikitilliligi bilan jamiyat orasidagi bilingvizm (qo‘shtillilik) hodisasini qorishtirmaslik kerak. Chunonchi, yuqorida qayd etilgan o‘lkalarda xorazm-turk, sug‘d-turk, to‘xri-turk qo‘shtilliligi bo‘lgan. Lekin tabg‘ach-turk qo‘shtilliligi turk jamiyati o‘tmishida uchramaydi. Turkiy yodgorliklarda xitoycha matnlarning berilishi xitoy tilining mavqeini nazarda tutgan holda shakllangan. Islom davrida turklar orasida arab tilining o‘rganilishi va arabiyy savodxonlikning yuqori darajada bo‘lganligini ham qo‘shtillilik hodisasi deb sanamaslik kerak. Turkiy til keyingi davrlarda yuzaga kelgan turkiy davlat va saltanatlarning rasmiy tili sifatida amal qildi. Mahmud Koshg‘ariy o‘zining “Devonu lug‘atit turk” asarida turkiy tilning obro‘-e’tibori, boshqa tillar o‘rtasidagi mavqeい, O‘rta va Markaziy Osiyodagi til vaziyati to‘g‘risida to‘la ma’lumot bergen edi. U turkiy tilning Sharq xalqlari o‘rtasidagi mavqeい xususida to‘xtalib, uni “arab tili bilan ikki uloqchi ot singari teng poyga qilib o‘zib borayotgan turk tili” deya ta’riflaydi (MK.I.46).

Turk bo‘limgan jamoalar ichida turk tilini o‘rganishning kerakligi xususida yozadi: “Ularning [turklarning] o‘qlaridan

saqlanmoq uchun ularning xatti-harakatlarini mahkam tutmoq har bir aqli kishiga loyiq va munosibdir. Bularga yaqin bo‘lish uchun eng asosiy yo‘l – ularning tillarida so‘zlashishdir, chunki ular bu tilda so‘zlashuvchilarga yaxshi quloiq soladilar, o‘zlarini yaqin tutadilar, ularga zarar bermaydilar. Hatto ular o‘z panohida turgan boshqalarning gunohini ham kechib yuboradilar.

Ishonchli bir buxorolik olimdan va nisoburlik boshqa bir ishonchli olimdan shunday eshitgan edim, ular bu so‘zni payg‘ambarga nisbat berib aytgan edilar: payg‘ambar qiyomatning belgilari, oxir zamon fitnalari va o‘g‘uz turklarining xuruji haqida gapirganda, shunday degan edi: turk tilini o‘rganing, chunki ularning hukmronligi uzoq davom etadi.

Hidisning to‘g‘ri yoki to‘g‘ri emasligining javobgarligi aytgan kishilar gardaniga. Agar to‘g‘ri bo‘lsa, turk tilini o‘rganish vojib(zarur)dir; hadis to‘g‘ri bo‘lmagan taqdirda ham uni o‘rganish zarurligini aql taqazo qiladi (MK.I.43–44).

Mahmud Koshg‘ariy o‘z asarida turkiy qavmlarning yerlashuvi, bu o‘lkalardagi xalqlarning tillari to‘g‘risida ham keng ma’lumot beradi. Asarda ta’kidlanishicha, Rumga yaqin birinchi qabila *päčänäk*, so‘ng *qiwčaq*, *oğuz*, *yämäk*, *başğırt*, *basmıl*, *qay*, *yabaqu*, *tatar*, *qırqız* keladi. Qirqizlar Chin yaqinidadir. Bu qabilalarning yeri Rum yonidan kun chiqargacha cho‘zilgan. “Devonu lug‘atit turk”ka kiritilgan xaritada ko‘rsatiluvicha, bu yurtlar G‘arbdan Sharqqa tomon cho‘zilgan.

Muallif yana davom etadi: So‘ng *čigil*, so‘ng *tuxsi*, so‘ng *yağma*, so‘ng *iğraq*, so‘ng *čaruq*, so‘ng *čumul*, so‘ng *uyğur*, so‘ng *tajut*, so‘ng *xitay*. Xitoy – Chindir. So‘ngra *tawğac*, bu Mochindir (MK.I.64). “Devonu lug‘atit turk” asariga kiritilgan xaritada bu qabilalarning yurtlari janub bilan shimol o‘rtasida berilgan.

Turk ellarining chegaralari to‘g‘risida ham Mahmud Koshg‘ariyning o‘z qarashlari bor. Chunonchi, u *Qaz* so‘ziga izoh berar ekan, yozadi: “*Qaz* – Afrasiyob qizining nomi... Ba’zilar turk shaharlari chegarasi Marvash – Shohijondan boshlanishini so‘zlaydilar. Chunki Qazning otasi *Toja Alp Er* – Afrasiyobdir. U Tahnurasdan uch yuz yil keyin Marvni bino qilgan. Ba’zilar butun Mavoraunnahrni turklar o‘lkalaridan deb hisoblaganlar. U *Yankänd* dan boshlanadi. Uning bir oti *Dizruijn* dir. U sariqligiga ko‘ra, mis shahri demakdir. Bu Buxoroga yaqindir. Bu yerda Afrasiyobning qizi – Qazning eri *Siyavuš* o‘ldirilgan. Majusiy-otashparastlar har yili bir kun bu yerga kelib, *Siyavuš* o‘lgan joy atrofida yig‘laydilar. Mollar so‘yib, qurbanlik qiladilar. So‘yilgan mol qonini uning mozori tepasiga to‘kadilar. Ularning odatlari shunday. Butun Mavoraunnahr, Yankand dan Sharqqacha bo‘lgan o‘lkalarni turk shaharlari deb hisoblashning asosi shuki, *Samarqand* – *Semizkänd*, *Taškänd* – *Šaš*, *Özkänd*, *Tünkänd* nomlarining hammasi turkchadir. *Känd* turkcha shahar demakdir. Ular bu shaharlarni qurdilar va shunday nom qo‘ydilar. Hozirgacha ham shunday kelmoqda. Bu yerlarda forslar ko‘paygach, so‘ng ular Ajam shaharlari kabi bo‘lgan. Hozir turk o‘lkalarining chegarasi *Äbisgün* dengizi bilan o‘ralgan. Rum o‘lkasidan va *Özjänd* dan Chingacha cho‘ziladi. Uzunligi besh ming farsax, eni uch ming farsax, hammasi sakkiz ming farsaxdir” (MK.III.163–164). Mahmud Koshg‘ariyning “*Känd* turkcha shahar demakdir. Ular bu shaharlarni qurdilar va shunday nom qo‘ydilar. Hozirgacha ham shunday kelmoqda. Bu yerlarda forslar ko‘paygach, so‘ng ular Ajam shaharlari kabi bo‘lgan” degan ma’lumotlari Mavoraunnahrning sanab o‘tilgan o‘lkalari turklar tomonidan bunyod etilgani, keyinchalik bu yerlarda forsiyabonlar nufuzining ham oshganligi, joy otlarining esa forschcha atab ketilganidan dalolat beradi (*İncüögüz* – *Sirdaryā*, *Keş* (~*Käš*) – *Shahrisabz* singari joy otlarining yuzaga kelishi bunga misol).

Mahmud Koshg'ariy yuzyilliklar osha Markaziy Osiyo tuproq‘ida yashab kelgan etnik guruhlar va ularning tillari to‘g‘risida ham aniq-taniq ma‘lumot keltiradi. Jumladan, u mazkur o‘lkalarda yashovchi *sogdaq*, *känçäk*, *arğu* larni “ikki tilda so‘zlashuvchilar” deya ta’kidlaydi. Uning yozishicha, xo‘tanliklar, tubutlar va tangutlarning ba’zilari kabi ikki tilda so‘zlaydiganlar va boshqa shaharlarga borib yurganlar tilida buzuqlik bor. Bular bu yerlarga so‘ng kelganlar (MK.I.65).

Mochinliklar va chinliklarning ayricha tillari bor bo‘lsa ham, shaharliklar turkchani yaxshi biladilar. Olimning yana ta’kidlashicha, ularning turklar bilan yozishmalarini turkchadir (MK.I.65).

Tubutlarning tillari alohida. Shuningdek, xo‘tanliklarning ham ayrim yozuvlari va ayrim tillari bor. Tubutlar ham, xo‘tanliklar ham turkchani yaxshi bilmaydilar (MK.I.65).

Mahmud Koshg‘ariyning yozishicha, *Balasağun*, *Tıraz*, *Madinätülbäyzä* shaharlarining xalqlari sug‘dcha va turkcha so‘zlaganlar (MK.I.66). Ushbu fakt ikki masalaga e’tibor qaratishni talab etadi: birinchidan, bu o‘rinda shu o‘lkalarda ikki tilda so‘zlashuvchi ikki xalq yashaganligi ko‘zda tutilmoqda; ikkinchidan esa bu o‘lka xalqlarining (*sogdaq*, *känçäk*, *arğu* larning) ikki tilliligi. Ma‘lumki, ko‘k turk, uyg‘ur xoqonliqlari va qoraxoniylar davrida bu o‘lkalarda turklar bilan birga savdo yohud boshqa ijtimoiy-siyosiy jarayonlar ta’sirida kelib o‘rnashib qolgan sug‘dlar ham yashar edi. Mahmud Koshg‘ariy *sogdaq* (ya’ni sug‘d) xalqini ikki tilda so‘zlashuvchilar deb ta’kidlaganda (MK.I.65) ko‘proq shu o‘lkalardagi sug‘dlarni ko‘zda tutgan ko‘rinadi.

Ko‘k turk, uyg‘ur xoqonliqlari va qoraxoniylar davrida Balasag‘un aholisi ikki tilli edi. Mahmud Koshg‘ariyning yozishicha, balasag‘unliklar sug‘dcha va turkcha so‘zlaganlar (MK.I.66). Xalqning ikki tilli ekanligining boisi, bu yerda turklar bilan birga sug‘dlar ham yashagan. Lekin qoraxoniylar davriga kelib, bu yerlik sug‘dlarning turklashuv jarayoni yuz

bera boshlagan ko‘rinadi. Mahmud Koshg‘ariy *soğdaq* so‘ziga izoh bera turib: “*Soğdaq* – Balasag‘unga joylashgan bir qavm. Ular Samarqand va Buxoro o‘rtasidagi So‘g‘ddan bo‘lib, keyin turklashib ketgan odamlar” deb yozgan edi (MK.I.437).

Olim koshg‘arliklar to‘g‘risida ma’lumot berar ekan, “Qashqarda kanchakcha so‘zlashadigan qishloqlar bor. Shahar o‘rtasida turuvchilar “xoqoniylar”da so‘zlaydilar” deb yozadi (MK.I.66). Bundan anglashiladiki, Koshg‘ar tevaragida kanchaklar yashaydigan qishloqlar ham bo‘lgan va ular ikki tilli edi. Shahar ichidagilar esa turkiy adabiy tilda (“xoqoniylar”da so‘zlaganlar).

Muhimi shundaki, Mahmud Koshg‘ariy *känčäk* larni turklarning bir toifasi deb ta’riflaydi (MK.I.444). Shunga ko‘ra, “kanchakcha” atamasini turkiy shevalarning biri deb qarash mumkin.

“Devonu lug‘atit turk”da *Uyğur* mamlakati va uning eli to‘g‘risida ham keng ma’lumot berilgan. Mahmud Koshg‘ariya ko‘ra *Uyğur* – besh shaharli viloyat ismidir. Uning yozishicha, Uyg‘ur viloyatida beshta shahar bo‘lib, u yerning aholisi g‘irt kofirlar va nihoyatda mohir otuvchilardir. U shaharlarni Zulqarnayn bino qilgan. Bular: *Sülmü*, *Qoçu*, *Çanbalıq*, *Beşbalıq*, *Yayıbaliq* shaharlaridir (MK.I.136).

“Devonu lug‘atit turk”da keltirilgan xaritada bu o‘lka *Bilādu Uyğur* deb qayd etilgan.

Mahmud Koshg‘ariy bu o‘lka xalqining tili va yozuv madaniyati haqida ham ma’lumot bergen. U yozadi: “Uyg‘urlarning tili sof turkcha. Lekin o‘zlari so‘zlashadigan yana bir xil shevasi ham bor. Uyg‘urlar kitobning bosh qismida ko‘rsatilgan 24 harfdan iborat turkiy yozuvni qo‘llaydi. Kitob va xat-janglarini shu yozuv bilan yozadi. Uyg‘urlarning chinliklarnikiga o‘xshaydigan yana bir xil yozuvi ham bor. Rasmiy xat-jang va hujjatlarini shu yozuvda yozadi. Bu yozuvni musulmon bo‘limgan uyg‘urlar bilan chinliklardan boshqalar o‘qiy olmaydi” (MK.I.40).

Mahmud Koshg‘ariy *Qoču* ni uyg‘urlar viloyatidagi bir shahar sifatida keltirgan (MK.I.136).

“Devonu lug‘atit turk”da keltirilgan xaritada ham bu shaharlar bir chiziq bo‘ylab joylashgan. Ushbu xaritada ko‘rsatilishicha, bu viloyat janubdan *Küčä*, sharqiy tomonidan *Kemi Talas* bilan chegaralanadi. Buning bayoni asarda yaxshi berilgan. Chunonchi, Mahmud Koshg‘ariy *Küčä* haqida yozib, uni uyg‘urlar chegarasidagi shahar (MK.I.384), *Kemi Talas* ni esa musulmonlar chegarasidagi shahar deb ta’kidlaydi (MK.I.347).

Oltin O‘rda davlatida til vaziyati. XIII–XIV asrlarda mo‘g‘ulning o‘z ulusida rasmiy davlat tili mo‘g‘ulcha edi. Chingizzon davrida mo‘g‘ullar ilk bor o‘z davlatini qurdi, keyin bu davlat kuchli sultanatga aylandi. Bunga qadar bu yerlar ko‘k turk xoqonliqlari, so‘ng uyg‘ur xoqonliqlariga qarashli o‘lka edi. Mo‘g‘ullar esa turk davlatlari qaramog‘idagi, uning ichidagi bir qavm sifatida (asosan, *tatar*, *mogul* atamalari bilan) yashab kelgan. Chingizzxonning buyrug‘i bilan mo‘g‘ul xati yaratildi, yozuvni ular turklar(uyg‘urlar)dan oldi. Bu davrda mo‘g‘ul adabiy tiliga asos solindi, adabiy tilning rasmiy uslublari ishlab chiqildi. Fikrimizni XIII asrda yashab o‘tgan yevropalik sayyoh Gilom Rubrikning yozmalari ham dalillashi mumkin. Sayyoh o‘z esdaliklarida yozishicha, mo‘g‘ullar yozuvni uyg‘urlardan (turklardan) olgan, saroylarida uyg‘urlar kotiblik qilgan, o‘zlarining mo‘g‘ulcha yorliqlarini uyg‘ur xatida bitganlar (Григорьев 1981, 81–82). Mo‘g‘ul tili Chingizzon zamonida davlat tili maqomini oldi va mamlakatning ichki hamda xalqaro munosabatlarida yetakchi o‘ringa chiqib oldi.

Biroq, chingiziyilar qo‘l ostidagi ellarning, xususan, Oltin O‘rda davlati(Jo‘ji ulusi)ning rasmiy tili qay til bo‘lganligi fanda turli bahslarga olib kelmoqda. Gap shundaki, turkiy xalqlar tarixida chuqur iz qoldirgan Oltin O‘rda davlatida bitilgan rasmiy hujjatlar oz qolgan.

Mo‘g‘ul xonlarining sultanatning ilk davrlaridan qolgan davlat miqyosidagi va chet ellar bilan olib borgan bir qancha yozishmalariga tayanib, A.P. Grigorev XIII–XIV asrlarda (1380 yilga qadar) Oltin O‘rda davlatida rasmiy til mo‘g‘ul tili edi, degan fikrni bildiradi (Григорьев 1981). Biroq o‘sha zamonlardan qolgan turkiy yodgorliklar, o‘sha davr tarixchilarining yozmalarini va ulardagi aniq-taniq qaydlar bu xulosani tamom inkor etmoqda.

Oltin O‘rda davlatida, qisman, mo‘g‘ul tilining ham amal qilganligini e’tirof etmoq lozim. Bunga Volga bo‘yidan topilgan XIV asrdan qolgan yodgorlikni misol keltirish mumkin. Qo‘lyozma uyg‘ur xatida yozilgan bo‘lib, matnning katta qismi mo‘g‘ul tilida, kichikroq bo‘lagi esa turkiyda. Bundan boshqa ham uyg‘ur xati bilan mo‘g‘ul tilida bitilgan rasmiy hujjatlar ma’lum. Aftidan, mo‘g‘ul zadagonlari o‘z saroylarida, uy ichida (tor doirada) mo‘g‘ulcha so‘zlashganlar. Hatto Botuxon davrida (1227–1255) rasmiy yozishmalar ham mo‘g‘ulcha olib borilganligi to‘g‘risida ma’lumotlar bor. Lekin, bu hodisani Oltin O‘rda davlatining rasmiy tili mo‘g‘ulcha edi, deb tushunmaslik kerak.

Tarixiy manbalardan ma’lumki, XIII asrda dunyo yuzini ko‘rgan mo‘g‘ul ipmeriyasiga qaram o‘lkalar turklarning asl yurti bo‘lgan. Imperiya chog‘ida ham bu yerlarda turklar yashagan. Mo‘g‘ul zadagonlari boshda davlat ishlarni mo‘g‘ul tilida olib borishga urinib ko‘rdilar. Buning imkonini bo‘limgach, rasmiy ishlarni turkiyda olib borishga majbur bo‘ldilar. Hatto mo‘g‘ul zadagonlari orasida islomni qabul qilganlari ham bo‘ldi. Mashhur sayyoh Ibn Battuta sayohatnomasida turk o‘lkalariga kelib qolgan tatarlar (mo‘g‘ullar)ning islom dinini qabul qilganligini tasdiqlovchi dalillar bor. Chunonchi, u Samarqand tashqarisidagi Qusam ibn Abbas ibn Abdul Muttalib muqaddas ziyyaratgohi to‘g‘risida yoza turib ta’kidlaydi: “Tatarlar ham qabrni tavvof etish uchun kelib, ko‘plab pul sadaqa qiladilar, sigir va qo‘ylarini

qurbanliqqa olib keladilar, dirham va dinor ehson etadilar... Tatarlar hali o‘tparast ekanliklarida ham mana shu muqaddas maqbaraga tegmaganlar, hatto uning mo‘jizalariga guvoh bo‘lib sig‘ina boshlaganlar” (Иброҳимов 1993, 75).

Oltin O‘rdada davlat ishlari, ichki va rasmiy munosabatlar, xalqaro diplomatik aloqalar, asosan, turkiyda yuritilgan. Bunga Tuxtamishxonning 1393 yili polyak qiroli Yag‘ayliga yo‘llagan uyg‘ur yozuvli yorlig‘i, Temur Qutlug‘ning 1397 yili uyg‘ur xati bilan bitilgan yorlig‘i misol bo‘la oladi.

XIV–XV asrlarda Xorazm adabiy muhitida “chig‘atox turkiysi”da yozilgan badiiy asarlar ham Oltin O‘rda til vaziyati to‘g‘risidagi ko‘zqarashlarga oydinlik kiritadi. Xorazm shoirlari qadimgi turk adabiyoti va tili an’analarni saqlagan holda turkiy tilda ijod etganlar. Muhimi shundaki, Oltin O‘rda adabiy muhitida yaratilgan asarlarning bari “chig‘atox turkiysi”dadir. Bu hodisa “chig‘atox ulusi” va Oltin O‘rda, qolaversa, mo‘g‘ullar qaramog‘idagi barcha turk o‘lkalarida umumiy bo‘lgan adabiy til amal qilgangidan dalolat beradi. Nasiruddin Rabg‘uziyning “Qisasi Rabg‘uziy” asari, Xorazmiyning “Muhabbatnoma” dostoni Oltin O‘rda (Xorazm) adabiy maktabining qimmatli namunalaridir.

Qutbning “Xusrav-u Shirin” dostoni ham Oltin O‘rda adabiyoti va adabiy tilining yorqin o‘rnaklaridan. Mahmud bin Ali bin as-Saroyining “Nahju-l-faradis” asari ham ayni maktab ta’sirida yuzaga keldi. Asar 1357–1358 yili Oltin O‘rdaning poytaxti Saroy shahrida bitilgan.

Demak, yozma manbalar, Oltin O‘rda adabiy muhitidan qolgan o‘nlab badiiy asarlar, o‘sha zamonlardan qolgan tarixiy asarlardagi ma’lumotlarga tayanib, XIII–XIV asrlarda Oltin O‘rda davlatining rasmiy tili turkiy til, yozuvi esa uyg‘ur xati edi, degan qat’iy xulosaga kelish mumkin.

O‘rta Osiyoning mo‘g‘ul istelosi davri tarixi xususida XIV asrning birinchi yarmida o‘tgan mashhur tarixchi sayyoh Ibn Battutaning “Tuhfatu-n-nuzzar fiy g‘aroyibu-l-amsor va

ajoyibu-l-Asfor” degan sayohatnomasi katta o‘rin tutadi. Sayyohning O‘rtta Osiyoga sayohati Tarmashirin hukmronligi davriga to‘g‘ri keladi. Mavoraunnahr sulton Alouddin Tarmashirin haqida Ibn Battuta shunday ma’lumot beradi: “U qudratli hukumdar, qo‘smini ham juda ko‘p. U juda katta podsholik ustidan hukmron, o‘zi baquvvat va adolatli odamdir. Mamlakati jahonning to‘rt ulug‘ podshosi: Xitoy podshosi, Hindiston podshosi, Iroq podshosi va podsho o‘zbek mulklari orasida o‘rinalashgan. ... U mamlakatni o‘z birodari al-Jakatoydan keyin qo‘lga olgan. Bu al-Jakatoy esa o‘tparast bo‘lib, taxtga katta akasi Kabakdan keyin o‘tirgan. Kabak ham g‘ayridin, ammo o‘z ra‘iyatiga adolatli, musulmonlarni hurmat qiladigan kishi bo‘lgan” (Иброхимов 1993,67). Alouddin Tarmashirin bilan bo‘lgan uchrashuvida sultonning turkiy tilda so‘zlaganini ta‘kidlaydi.

Ibn Battuta yozadi: “Men u yerda “o‘rdu” deb ataladigan qarorgohda bir necha kun turib qoldim. Bir kuni odatdagidek masjidga kirib bomdod nomozini o‘qidim. Nomoz tugagach, kimdir menga sulton ham shu masjidda ekanligini aytdi. Men o‘rnimdan turib unga salom berish uchun yaqiniga bordim. Shayx Hasan va faqih Hisomiddinu-l-Yoqiy sultonga mening to‘g‘rimda, bu yerga bir necha kun muqaddam kelganligim haqida so‘zlab berishdi. Sulton menga turkiy tilda murojaat qildi: “Xushmisan, yaxshimisan, qutlug‘ o‘lsun” (Иброхимов 1993,68).

Sulton bilan boshqa bir uchrashuvi to‘g‘risida yozadi: “Shoh huzuriga – chodirga kirib, uni oltin qadalgan ipak mato to‘shalgan taxtda o‘tirganini ko‘rdim, bu taxt minbarga o‘xshab ketardi. Chodirning ichi zar ipak bilan to‘qilgan mato bilan qoplangan, sultonning tepasida bir tirsak balandligida qimmatbaho toshlar ila bezatilgan toj osig‘liq turardi. Ulug‘ amirlar sultonning o‘ng va so‘l tarafida o‘rindiqlarda o‘tirib olishgan, ular oldida esa podishohning bolalari qo‘llarida yelpig‘ich tutib turishardi. Chodirga kiraverishda noib, hojib,

Sohibu-l-alloma (muhr egasi) turishibdi. Ular (mehrni) “ol tamg‘a” deb atashadi. “ol” – “qizil” va “tamg‘a” – “muhr” ma’nosini bildiradi. Men chodir ichiga qadam qo‘yganimda shu to‘rt kishi menga peshvoz chiqib, men bilan birga ichkariga kirishdi. Men sultonga salom berdim, u savollar berdi. Sohibu-l-alloma so‘zlarimni tarjima qilib turdi. Suhbatimiz mavzui Makka, Madina, Quddus (Allah ularni yanada yuksaltirsin), al-Xalil, Damashq, Misr haqida, al-Maliku-n-Nosir, ikkala Iraq va ularning podshosi, shuningdek, fors mamlakatlari to‘g‘risida edi” (o‘scha kitob, 69- bet).

Muhimi, Ibn Battuta Mavoraunnahrda o‘tib Hindistonga borgan chog‘dagi xotiralarida ham turklarga oid bir misolni keltiradi. Bu misol Tarmashirinning o‘g‘li bilan bog‘liq. Sayyoh yozadi: “Hind tuprog‘iga qadam qo‘yganidan ikki yil o‘tgach, shunday bir xabar eshitdim: Sultonning (ya’ni Tarmashirinning) heshlari va amirlari Xitoy bilan chegaradosh uzoq viloyatga uning ko‘pchilik qo‘shini turgan joyga to‘planib, sultonning Buzan-o‘g‘li ismli o‘g‘liga qasamyod etganlar. U yerda shahzodalarni “o‘g‘li” deb atashadi” (Иброҳимов 1993, 70).

Temuriylar sultanati davrida til vaziyati. Temuriylar zamonida davlat tili turkiy til edi.

Temuriylar davlatida rasmiy, diplomatik ishlar asosan, turkiy tilda olib borilgan. Turonning sultonni Temurbekning o‘zi turkiy tilga katta e’tibor qaratgan. Uning yetti yuz to‘qson uchinchi yilning ko‘klamida (=1391 yilning apreli) To‘xtamishxonga qarshi yurish boshlagan chog‘da yozdirgan xotira bitigtoshining turkiy tilda va qadimgi turkiy (uyg‘ur) xatida bitilganligi bejiz emas. Temurbek taxtda ekanligi chog‘idagi ham, butun sultanat bo‘yi eski til va yozuv an’anasiga amal qilindi. Buni temuriylar tomonidan bitilgan rasmiy hujjatlar isbotlab turibdi. Chunonchi, Shohruhning hijriy 825 sigir yili muharram oyining 22 kuni (=1422 yilning 16 yanvari) Hirot yaqinidagi Bog‘i shaharda bitilgan suyurg‘al

bitigi, Sulton Abu Saidning hijriy 873 yilning 22 rabiul-avvalida (=melodiy 1468) Uzun Hasanga yuborgan bitigi, Sulton Umarshayxning 1469 yili bitilgan yorliqlari turkiy tilda va uyg'ur xatidadir.

Temuriylar davri til vaziyati xususida Alisher Navoiy muhim ma'lumotlarni berib o'tgan. Navoiy Sharqda turkiy tilning obro' va mavqeい to'g'risida alohida to'xtalgan edi. Uning ta'kidlashicha, tillarning barchasidan arab tili nafisligi bilan ajralgan va balog'at bezagi bilan mo''jiza ko'rsatuvchandir-ki, hech takallum ahlining bunda da'vosi yo'q, so'zi sidq va ishi taslim bo'lishdir. Malik-i olam jalla va a'loning kalom-i mo''jiznizomi ul til bilan nozil. Rasul alayhi-s salovati vas-salomning hadis-i saodat anjomi u lafz bilan vorid bo'libdir...

Bundan so'ngra uch nav til borkim, asl va mo''tabardir. Va ul tillarning har biri o'z gapiruvchilarining so'zlashuvlariga mosdir va har qaysisining tarmoqlari bag'oyat ko'pdir. Ammo turkiy, forsiy va hindiy asl tillarning chiqish o'rnidir-ki, Nuh payg'ambar salavatullahi alayhining uch o'g'liga: Yofas, Som va Homga tutashadi... Uch til-ki: turkiy, forsiy va hindiy bu uchovining avlod va qaramlari orasida tarqaldi (ML.167–168).

Navoiyning yozishicha, turkning ulug'idan kichigigacha, navkaridan begigacha sart tilidan bahramanddirlar. Andoq-kim, o'z tirikchiligi xususida so'zlasha olurlar. Ba'zi fasohat-u balog'at bilan ham takallum qilurlar. Hatto turk shoirlari forsiy til bilan rangin she'rlar va shirin guftor zohir qilurlar (ML.169).

Navoiyning yozishicha, mamlakat arab xalifalari va sultonlari qo'lida ekan, falak ul kezda dibirg'a arab tili bilan jilva berdi. Andoq-ki, Hasson Sobitdek va Laqitdek maliku-l-kalom suxanguzorlar va ma'ni yaratuvchi go'zal so'z egalari paydo bo'ldilar va o'z tillarida she'r adosining dodini berdilar. Bu munosabat bilan arab podshohlaridan Ibrohim Mahdiydek, Ma'mun xalifadek va bulardan o'zga

salotunzodalar, she'rlardan qasidalar aytdilar, foydalar keltirdilar.

Dunyoning ba'zi iqlim va o'lkasida sart (fors) podshohlari mustaqil bo'lgandan keyin forsigo'y shoirlar paydo bo'ldilar. Qasidada Xoqoniy, Anvari, Kamol Ismoil, Zahir va Salmondek; masnaviyda ustod-i fan Firdavsiy, zamonining nodiri shayx Nizomiy va hind sehrgari Mir Xusravdek; g'azalda o'z vaqtining yaratuvchisi Shayx Muslihiddin Sa'diy va asrning yagonasi Xoja Hofiz Sheroziy kabilar yetishdi... Bu munosabat bilan sart sultonlaridan ham sulton Tug'ruldek va shoh Shijodek yuqori qadrli podshohlar va baland martabali yulduz sipohlar rangin baytlar, shirin g'azallar aytdilar, o'z va o'z zamonlarida mashhur bo'ldilar va turmushlari varaqlarida yozildi.

Mamlakat arab va sart sultonlaridan turk xonlariga o'tgandan so'ng, Xulaguxon zamonidan sulton sohibqiron Temur Kurgon zamonigacha turk tili bilan ijod qiluvchi ta'rifga loyiq shoir paydo bo'lmadi, varaqqa yozilguvchi asar zohir bo'lmadi. Sultonlardan ham qasida aytishga loyig'i bo'lmadi. Ammo sulton sohibqiron Temur Kurgon zamonidan farzandi Shohruh sulton zamonining oxirigacha turk tilida yozuvchi shoirlar paydo bo'ldilar va ul xazratning avlodlaridan ham xushta'b podshohlar paydo bo'ldilar. Shoirlardan Sakkokiy, Haydar Xorazmiy, Atoiy, Muqimiy, Yaqiniy, Amiriy va Gadoiy kabi. Lekin yuqorida aytilgan forsiy shoirlarga tenglashadigani paydo bo'lmadi. Ularga yolg'iz Mavlono Lutfiy tenglasha oldi. U kishining tab ahli qoshida o'qisa bo'ladigan bir necha ma'tlalari bor...

Podshohlar ichidan ham, sulton Boburdan boshqa hech qaysisidan she'riy asar chiqmadi va varaq yuziga naqsh qilarli biror narsa qolmadi... to bu vaqtgachaki... Abulg'ozи Sulton Husayn Bahodirxon... podshohlik taxtiga o'tirgach... so'z ahlini yuqori darajaga ko'tarish va rivojlanтирish yuz berdi. Har ilmda foydali asarlar, har fanda natijali yozishmalar yaratdilar,

qiziq kitoblar va ajoyib devon, g‘azal, qasida va masnaviy kabi she‘r turlari hamma yoqqa yoyildi. O‘zлari ham, garchi ham forsiy, ham turki tilda aytmoqqa qodir bo‘lsalar-da, ammo asl tab’larining tortishi va shu tilning tarqalgan bo‘lishi munosabati bilan turkiy tilda devon yaratishga mayl qildilar va ko‘ngilga yoquvchi baytlar, tengi yo‘q g‘azallar tuzdilar (ML.188–190).

Temuriylar sultanatining ayrim hududlarida ikki tillilik ham amal qilgan. Buni biz Hirot adabiy muhitida ijod etgan adabiyot ahllari asarlarida yaqqol kuzatishimiz mumkin.

Turk davlatlaridan tashqi o‘lkalarda turkiy tilning mavqeи masalasi. Misr va Suriya tarixida mamluklar davlati (1250–1517 yillar) nomi bilan ataluvchi ijtimoiy-siyosiy tuzum chuqur iz qoldirgan. Mamluklar ayyubiy sultonlarning qo‘lida xizmat qilgan, kelib chiqishi qipchoq qullandan edi. Zamona zayli bilan qachonlardir bu yurtlarga qul (mamluk) sifatida sotib olib keltirilgan qipchoqlarning yetakchilari, qo‘sish boshliqlari mahalliy sultonu amirlarning kuchsizlanuvidan foydalanib, davlatni qo‘lga oldilar. Ushbu mamluk-qipchoq davlatining asoschisi Sulton Baybars edi.

Mamluklar zamonida davlat va jamiyat boshqaruvi turklarning qo‘liga o‘tdi. Mamlakatning madaniy, siyosiy ishlarida turklarning ta’siri kuchaydi. Buning oqibatida hukumdlarning tili bo‘lmish turkiy tilga e’tibor qaratildi, hukumdlarning tili sifatida turkiyning mavqeи ko‘tarildi. Turkiy til mamluklar davlatining rasmiy tiliga aylandi. Bu kezlar arablarning turkiy tilni o‘rganishlari uchun grammatika va lug‘atlar, turli qo‘llanmalar yaratilgan. Misr va Suriyada turkiy adabiyot ham yuzaga kela boshladi. Amir va sultonlarning buyrug‘i bilan turkiy tilda badiiy asarlar ijod etildi, arab va fors tillaridan tarjimalar qilindi. Eng sara turkiy asarlar ularning kutubxonalari uchun ko‘chirtirildi. Bu kezlar Misr va Suriya bilan Anato‘li, Xuroson, Turkiston, Oltin O‘rda, Ozarbayjon o‘rtasida madaniy, adabiy aloqalar kengaydi.

Yozishlaricha, Qohira madrasasida Oltin O’rda va Turkistondan kelgan olimlar mudarrislik qilganlar (Eckmann 2003,52).

Mamluk-qipchoq adabiyotining eng eski namunasi Berka Faqihning she’ridir. Berka Faqih 1383 yili Iskandariyada Oltin O’rdaning mashhur shoiri Qutbning “Xusrav-u Shirin” masnaviysini ko‘chirgan. Uning oxiriga o‘zi 51 baytli xotima ham yozib kiritgan.

Mamluk-qipchoq adabiyotining yirik namoyandası Sayfi Saroiydir. Uning kelib chiqishi Saroy shahridan edi, keyinchalik Misrga ketdi. U 1391 yili Sa’diyning “Guliston” asarini turkiyga erkin tarjima qildi. Asar “Kitob-i Guliston bit-turkiy” deb ataladi.

Mamluklar davlatining ba’zi hukumdorlari ham ijod qilganlar. Ularning turkiy tildagi she’rlaridan yetib kelgan (Eckmann 2003,57–59).

Mamluk-qipchoq adabiyotida tarjima asarlar ham yuzaga keldi. 1510 yili Firdavsiyning “Shohnoma”si turkiyga tarjima qilingan. Tarjimoni Husayn b. Husan b. Muhammad al-Husayniydir.

Mamluklar davrida turkiy tilda ilmiy asarlar ham yaratilgan, arab yoki fors tillaridan turkiyga tarjima qilingan. O’sha davrda yaratilgan fiqh kitoblari, tibbiy asarlar, chavandozlikka oid asarlardan bizgacha yetib kelgan (Eckmann 2003,60–66).

Fiqh(islom shariat ilmi)ga tegishli asarlar quyidagilardir: arab tilidan o‘girilgan “Irshodu-l-muluk vas-salotin”, “Kitobu-l-fiqh” asarları, “Kitob muqaddimat Abil-Lays as-Samarqandiy”, fatvolar majmuasidan iborat “Kitob fil-fiqh bilisoni-turkiy” risolalaridir.

Tibbiyotga oid asarlar otlarning qiliqlari, otlarda uchraydigan kasalliklar va ularni davolash choralarini to‘g‘risida, ot parvarishi bilan bog‘liq. Bular arabchadan tarjima qilingan

“Kitob baytaratu-l-vozih” hamda forschadan o‘girilgan “Kitobu-l-xayl” risolasidir.

Chavandozlikka tegishlilari arabchadan tarjima etilgan “Xulosa” yoki “Kitob fi ilmun-nussob” hamda “Munyatul-quzob” asarlaridir.

Arablarga turkiy tilni o‘rgatish uchun yirik grammatik asarlar, qo‘llanmalar yaratilgan.

Turkiy til ayrim davrlarda Hindistonda ham amal qilgan. Hindistonda turkiy tilga Dehli sultonligi davrida, keyinchalik Boburiylar hukumronligi zamonida katta e’tibor qaratilgan edi. Atoqli jamoat arbobi, Zahiriddin Bobur o‘z sultanatida turkiy va forsiyning amal qiluviga katta e’tibor qaratdi, turkiy adabiyotning gullab yashnashiga imkoniyat yaratib berdi. U va uning farzandlari zamonida Hindistonda turkiy tilda yirik tarixiy, badiiy asarlar yaratildi. Bobur o‘z asarlarining ko‘pini o‘sha tuproqda ekanligi chog‘ida bitdi. “Boburnoma”, “Mubayyan”, she’riy devoni ham o‘sha chog‘lar Boburning sultanat davrida yozib tugallandi. Boburdan so‘ng turkiyda ijod etish an’anasini Kamron Mirzo va boshqalar davom ettirdi. Hindistonda yaratilgan badiiy adabiyot o‘zbek adabiyoti tarixi, adabiy tili (“chig‘atoy turkchasi”)ning noyob namunalaridir.

O‘ZBEK ADABIY TILINING YUKSALUVI

O‘zbek adabiy tili o‘z tarixini qadimgi turkiy til – ko‘k turk bitiglari hamda uyg‘ur, moniy, brahma, sug‘d yozuvlarida bitilgan eng ko‘hna turkiy obidalar tilidan boshlaydi.

Turkiy adabiy tilning shakllanishi va uning takomilga erishuvida VI–VIII yuzyilliklarda hukum surgan Birinchi va Ikkinchi ko‘k turk xoqonliqlari davri ayricha o‘rin tutadi. O‘sha kezlar qudratli turk sultanatlarining yuzaga kelishi turkiy xalqlar madaniyati, adabiyoti va adabiy tilining taraqqiyotiga keng yo‘l ochib berdi. Davlat va jamiyat boshqaruvi, davlat ish yuritish va xalqaro diplomatik munosabatlarni tartibga solish, ilm-fan va adabiyot uchun sultanat tuproqlarida yagona adabiy

tildan foydalanish ehtiyoji tug‘ildi. Turk xoqonlari va dovrug‘li kishilar sharafiga tiklangan yodnomalar ana shu adabiy tildadir. Bitiglar butun turk uluslariga qarata yozilgan. Ular xoqonning o‘z yaqinlari, urug‘lari, yurt egalari, to‘rt yoqdagi o‘lkalarga, butun turk ulusiga, kelajak o‘g‘il-qizlarga murojaatidir. Jumladan, 732 yili ulug‘ sarkarda Kul tigin sharafiga tiklangan yodgorlik bitigi shunday so‘zlar bilan boshlangan: *Sabimin tüktäti esidgil: ulayu ini yägünüm, oğlanüm, biriki oğuşum, bodunum, biryü şadapit böglär, yürya tarqat, buyruq böglär, otuz ... toquz oğuz bögläri, boduni, bu sabimin edgiuti esid, qatiğdi tiylä.* – So‘zimni tugal eshitgil ketimdagи ini, jiyanim, o‘g‘lonim, ittifoq, urug‘im, xalqim, o‘ngdagи shadapit beklar, chapdagи tarxonlar, buyruq beklar, o‘ttiz ... to‘qqiz o‘g‘uz beklari, xalqi, bu so‘zlarimni yaxshilab eshit, diqqat bilan tingla (Ka.1–2). Bu jumlalar ko‘k turk bitiglarining butun turk uluslariga tushunarli, ular uchun umumiy bo‘lgan til bilan bitilganligidan dalolat beradi.

Ko‘k turklar zamonida yuzaga kelgan adabiy til an’analari uyg‘ur xoqonliqlari davrida ham davom etdi.

Uyg‘ur xoqoni Mo‘yun-cho‘r sharafiga tiklangan yodgorlik bitigida davlat nizomi bilan bog‘liq misol bor. Bitigda 750 yil voqealari hikoya qilinar ekan, shunday bitiladi: *Ol yil ...başı anta aqsıraq ordu örgin anta ititdim, čit anta toqitdim, yay anta yayladım, yaqa anta yaqalandım, belgümín bitigimin anta yaratitdim.* – O‘scha yili ... (Kem) boshida oq o‘rda chodirini tiktirdim, mudofaa devorlarini qurdirdim, yozni o‘scha yerda o‘tkazdim, o‘scha yerda tangriga ibodat qildim, tug‘roimni, bitigimni (tuzugimni) o‘scha yerda yarattirdim (MČ.20). Qadimgi turkiy tilda *belgü* – “belgi”, forschadagi “nishon” ma’nosini beradi, *belgü bitig* esa juft holda “davlat tuzugi, nizomi, bosh qonuni” ma’nosini anglatadi. Bitigdan olingan misolda o‘scha chog‘lar Mo‘yun-cho‘r tomonidan uyg‘ur xoqonlig‘ining davlat nizomi (tuzugi) yaratilgani ta’kidlanmoqda. Yoki bitigda tovushqon yil, beshinchи oy

voqealari shunday ta’riflanadi: *Anta İduqbaş kedintä, Yabaş, Toquş beltirintä anta yayladim, örgin anta yaratitdim, čit anta toqütdim, bij yilliq, tümän künlik bitigimin belgiumin anta yasi taşqa yaratitdim.* – O’shanda g‘arbda Iduqboshda, Yabash va To‘qush (daryolarining) quyilishida yozni o‘tkazdim. O‘sha yerda saroyimni qurdirdim, mudofaa devorlarini o‘sha yerda tiklatdim, ming yillik, tuman kunlik bitigimni-tuzugimni o‘sha yerda yassi toshga yozdirdim (MČ.21). Ushbu misoldagi “ming yillik, tuman kunlik bitig” uyg‘ur xoqonlig‘i davrida qadimiyl til va yozuv, matn tuzish an’analari davom etganligi, ming yillik an’analar asosiga qurilgan davlat nizomining yassi toshga yozdirilganligi qayd etilmoqda.

Uyg‘ur xoqonliqlari davrida eski an’analar davom etishi bilan birga, adabiy til yangi bir bosqichga ko‘tarildi. Bu jarayon sharqiy turklarda buddizm, moniylikning keng yoyilushi bilan bog‘liq. Turkiy muhitga buddizmning tarqalishi, avvalo, tarjimachilik sohasida katta burilish yasadi. Ko‘plab budda yodgorliklari qadimgi turkiyga tarjima qilina boshladi. Odatda, ushbu asarlar sanskrit, tohar, sug‘d va xitoy tillaridan o‘girilar edi. O‘sha kezlar sharqda budda asarlarining toharcha, sug‘dcha, xitoycha versiyalari ham keng tarqalgan edi. Buddha yodgorliklari faqat sanskritchadan emas, o‘rni bilan, ana shu tillardagi versiyalaridan ham tarjima qilingan. Bunday tarjimalarda boshida toharcha nusxalardan foydalanildi. Keyinchalik, tohar tilining mavqeい susayganligi uchun bo‘lsa kerak, xitoychadagi budda asarlari turkiyga o‘girilgan. Shuningdek, turk ijodkorlari diniy mazmundagi asarlar ijod etdilar. Bu kezda yaratilgan budda no‘m kitoblari, sutra va shastarlar diniy-falsafiy asarlarga emas, ular qadimgi turk yozma adabiyoti va adabiy tilining qimmatli namunalari hamdir.

Budda asarlari uzoq davr taraqqiy etib takomilga erishgan klassik yozma adabiy tilda, uning kitobiy uslubida yaratilgan. Diniy asarlarda bu kitobiy ko‘tarinki uslub qat’iyashib

me'yorga aylangan. Keyinchalik, asar nusxalari qay zamonda ko'chirilishidan qat'i nazar, tarixiy o'chovlarga amal qilinavergan.

X asrda qoraxoniylar davlatida islom dini rasman qabul qilindi. Bu jarayon adabiy til, yozma adabiyot, madaniy hayot va falsafiy qarashlarga ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. Ayni kezlardan adabiy tilning yangi bir bosqichi boshlanadi.

Mo'g'ullar sultanati davrida ham butun sultanatga qaram yerlarda, to'rt ulusda – Chig'atoy, Jo'ji, Xulagu, O'ktoy (Ugadoy) uluslarida mo'g'ul tili emas, qoraxoniylar adabiy tili an'anasi saqlagan turkiy til amalda bo'ldi.

Adabiy til xususida so'z ketganda Oltin O'rda davlatida yoki boshqa qipchoq ellarida o'sha chog'lar yuzaga kelgan yozma til an'anasi ham unutmaslik kerak. Bu muhitda yaratilgan yodgorliklar tili ayrim dialektal o'zgachaliklari bilan o'zga muhitda yaratilgan asarlar tilidan farqlanib turadi. Ushbu yodgorliklar tilida qipchoq elementlarining ta'siri kuchli. Ayrim asarlarda ularning "qipchoq tili"da ekanligi ham ta'kidlangan (manbalardagi "qipchoq tili" atamasi qipchoq lahjasи ta'sirida bo'lgan yozma adabiy tilni anglatadi). Oltin O'rda zamonidagi yozma-adabiy til "chig'atoy turkiysi"ning qipchoq ta'siriga berilgan bir ko'rinishi edi. Keyinchalik bu til hozirgi qipchoq tillarining shakllanuvida asos bo'lib xizmat qildi.

Ko'k turk, qadimgi uyg'ur, qoraxoniylar davri adabiy tili, Oltin O'rda davlatida yuzaga kelgan yozma yodgorliklar tili an'analari ta'sirida o'rta asrlarda turk musulmon dunyosida ikki ulkan yozma-adabiy til shakllandi. Shulardan biri tilshunoslik tarixida "chig'atoy turkiysi" otini olgan. "Chig'atoy turkiysi" tarixda qo'llangan atama bo'lib, XIII–XVI asrlardagi eski o'zbek adabiy tilining boshqa bir otidir. Bu til O'rta Osiyoda temuriylar davrining adabiy tili sifatida yuzaga keldi. Mavlono Lutfiy, Atoiy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur singari ulug' allomalarimiz

o‘zlarining o‘lmas asarlari bilan eski o‘zbek tilini yuksak bosqichga ko‘tardilar, uning keyingi takomil yo‘lini belgilab berdilar. “Chig‘atoy ulusi” deyilganda O‘rta va Markaziy Osiyodagi turkiy ulus, “chig‘atoy turkiysi” deganda esa uning uzoq asrlardan beri rivojlanib, takomil bosqichiga erishgan yozma adabiy tilini anglamog‘imiz kerak.

E‘tiborga sazovor yeri shundaki, o‘rta asrlarda eski o‘zbek tili (“chig‘atoy turkiysi”) O‘rta Osiyodagi barcha turkiy xalqlar uchun umumiy adabiy til sifatida xizmat qildi. Temuriylar davrida takomillashib, yuksak bosqichga erishgan eski o‘zbek adabiy tilining an‘analari O‘rta Osiyo turkiy xalqlari orasida uzoq davom etdi. Turli o‘lkalarda – kerak Qashqarda, kerak Hirot, Yazd yoki Samarqanda bo‘lsin yashab ijod etgan adabiyot ahlining asarlari bir-biriga tushunarli tilda ekanligining boisi ham shunda. O‘zbek tili tarixida ushbu an‘analalar XX asr boshlariga qadar saqlanib qoldi.

Ko‘k turk, qadimgi uyg‘ur, qoraxoniylar davri adabiy tili an‘anasi ta’sirida XIII asrda saljuqiylar davrida o‘g‘uz guruhi asosidagi ikkinchi bir adabiy til ham tarmoq ota boshladi. U ilmiy adabiyotlarda “eski anato‘lu turkchasi” otini olgan. Saljuqiylar davlatida ham, undan keyingi chog‘larda ham O‘rta va Markaziy Osiyoda bo‘lgani singari turkiy tilga katta e‘tibor qaratilgan. 1277 yili Anato‘lidagi Karaman bekligining hukumdori Karamano‘g‘lu Mehmetbey davlat ishlarida turkiy tilni joriy etish bo‘yicha farmon chiqqargan edi. Farmonda shunday deyiladi: Šimdän girü hič kimesnä qapuda-vu divānda va majālis-u seyranda turki: dilindän ġayri dil söylämäyä.

Eski Anato‘li turkchasi asosida keyinchalik usmoniy turkchasi yuzaga keldi. Usmoniy turkchasi eski o‘zbek adabiy tiliga parallel holda amal qilgan. Mazkur adabiy til usmoniyalar saltanatining, Anato‘lida yuzaga kelgan adabiy va madaniy muhitning yozma tili edi. Shu o‘rinda ba’zi usmoniy shoirlarining Navoiy va boshqa o‘zbek klassiklariga ergashib,

o‘z adabiy tili bilan bir qatorda, “chig‘atoy turkiysi”da ham ijod qilganliklarini eslash o‘rinlidir.

Usmoniylar zamonida Anato‘li adabiy muhitida shakllangan usmoniy adabiy tili eski o‘zbek adabiy tiliga juda yaqin turadi. Buni Qonuniy Sulton Sulaymon she’ridan olingen quyidagi baytda ham ko‘rish mumkin:

Xalq içindä mo’tabar bir näsnä yoq davlat kibi,
Olmaya davlat jihända bir nafas sihhät kibi.

Hozirgi o‘zbek tili eski o‘zbek adabiy tili (“chig‘atoy turkiysi”) negizida shakllangan bo‘lsa, turk adabiy tili usmoniycha asosida yuzaga kelgan.

Shoir-yozuvchilar, tarix bituvchilar, olimlar, tarjimon va kotiblarning adabiy til yuksaluviga qo‘shtgan ulushi

Turkiy adabiy tilining yuzaga kelishi, yozma uslublar va grammatic me’yorlarning muayyan qolipga tushuvi, ularning yuksaluvida shoir-yozuvchilar, tarix bituvchilar, olimlar, tarjimonu kotiblarning xizmati kattadir.

Qadimgi turk adabiyotining eng keksa namoyandalaridan biri Ikkinci turk xoqonlig‘i davrida yashab, ijod etgan adib va tarixnavis, yirik davlat arbobi To‘nyuquqdir. U uch xoqon – Eltarish, uning inisi Bo‘gu, Eltarishning o‘g‘li Bilga xoqon taxtda ekanligi chog‘ida maslahatchi va sarkarda edi. Saksondan o‘tib vafot etgan. To‘nyuquqning bir asari ma’lum. Asar adibning o‘z xotirasiga tiklangan qabrtoshga bitilgan.

Bitigda adibning oti **uu#vc AGlib** *bilgä Toňuquq* deb qayd etilgan. Otiga qo‘shilayotgan **AGlib** *bilgä* so‘zi uning unvoni bo‘lib, “bilimdon, alloma” degan ma’noni bildiradi. U ulug‘ donishmand, xoqon maslahatchisi bo‘lgani uchun shunday unvonga erishgan.

Qadimgi turk adabiyotining yana bir namoyandasasi adib va tarixnavis Yo‘llug‘ tigindir. U ham Ikkinci turk xoqonlig‘i davrida yashagan, o‘zi Bilga xoqonning o‘g‘li edi. Bitigda

adibning oti ngitxLvJ *Yol(l)uğ tigin* ko‘rinishida yozilgan. Otiga ngit *tigin* so‘zining qo‘shib aytilishi ham shundan, *tigin* – qadimgi turkiy tilda “shahzoda” degani.

Turkiy adabiyot va turk tarixnavisligi o‘tmishida Yo‘llug‘ tiginning ikki asari dovrug‘ qozongan. Biri Bilga xoqonning inisi, Yo‘llug‘ning amakisi Kul tigin sharafiga, ikkinchisi Bilga xoqon sharafiga bitilib, ularning qabrtoshiga yozdirilgan. Bitiglar fanda yodgorlik atalgan kishilarning oti bilan yuritiladi. Kul tigin bitigi 732 yili, Bilga xoqonga bag‘ishlangani 735 yili tiklangan.

E’tiborlisi shundaki, Kul tigin kichig bitigining 1–11-qatorlari Bilga xoqon bitigi muqaddimasining 1–7- qatorlarida, Kul tigin ulug‘ bitigining 1–30- qatorlari Bilga xoqon ulug‘ bitigining 3–23- qatorlarida qaytalaydi.

Mashhur sarkarda Kul tingga atalgan bitig Bilga xoqonning buyrug‘i bo‘yicha tiklangan, undagi matn ham xoqon tilidan so‘zlanadi. Ehtimol, uni xoqonning o‘zi aytib turib yozdirgan chiqar. Yozuvchi Yo‘llug‘ tigin otasining so‘zlarini matnga tushirgan. Endi oradan uch yil o‘tib, Bilga xoqon vafot etgach, unga bag‘ishlangan bitigni ham Yo‘llug‘ tigin yozdi. Xoqonning burungi yodgorlikka bitilgan murojaatini olib, bunisiga ham kiritdi. Biroq, keyingi bitidagisi burungi matnning so‘zma-so‘z qaytarig‘i emas, balki yozuvchi tomonidan qayta ko‘rilgan, tahrir etilgan variantidir. Matnning qolgan qismi o‘zicha davom etadi: Kul tigin bitigida sarkardaning faoliyati yoritilgan bo‘lsa, Bilga xoqon bitigida xoqonning el erki, ulus farovonligi yo‘lida ko‘rsatgan qahramonliklari bayon etilgan.

Bilga xoqon bitigning asosiy qismi xoqon tilidan, xotima qismi va ilovalar esa muallif Yo‘llug‘ tigin tilidan keltirilgan.

Ushbu tarixiy asarlar o‘zining bayon uslubi, tili bilan badiiy asar darajasida. Bitiglarda turk xoqon va sarkardalari milliy qahramon sifatida ulug‘lanadi, ularning faoliyati, qahramonliklari xalqqa ibrat qilib ko‘rsatiladi. Bitiglarda ular

turk xalqining xalaskori, ulug‘ yo‘lboshchilar deya ta’rif etilgan. Muallif turli badiiy vositalardan foydalanadi. Unda og‘zaki va yozma adabiyotning sara an’analari umumlashgan. Muhimi, adib bu ta’riflar bayonida turkiy tilning bor badiiy-uslubiy imkoniyatlari, boyligini ishga solgan. Bu asarlarni qadimgi turk adabiyoti va adabiy tilining eng ajoyib namunalari deyish mumkin.

Qadimgi turk adabiy tilining rivoji, adabiy til me’yorlarining turg‘un bir shaklga tushuvida tarjimonlarning ham ulushi bor. Sharqiy turklar orasida moniylik, buddizm, nasroniylikning yoyilishi oqibatida sharq xalqlarining madaniy, adabiy aloqalari kengaydi. Turkiy dunyoda buddashunoslar, moniy falsafasining donishmandlari, sharq tillarining bilimdonlari yetishib chiqdi. Bu jarayon tarjimachilikning rivojiga keng yo‘l ochib berdi. Anatkak (sanskrit), tabg‘ach (xitoy), eroniy tillardan qadimgi turkiyga diniy-falsafiy asarlar tarjima qilindi.

Turk-budda muhitida yashab o‘tgan tarjimonlardan biri yirik buddashunos, sanskrit va tohar tillarining bilimdoni Partanarakshiddir. Uning qadimgi toharchadan turkiyga o‘girgan “Maytri simit no‘m bitig” otli asari yetib kelgan.

Turk-budda adabiyotining boshqa bir yirik vakili, xitoyshunos Shingqu Sheli (~Singqu Seli) tudung edi. Bu olim Partanarakshiddan ancha keyin – X asrda yashagan. Shingqu Sheli o‘z asarlarini tabg‘ach tilidan tarjima qilgan. Uning otiga qo‘shilayotgan tuduq so‘zi qadimgi turkiy tilda “hokim, yuqori mansab”ni bildiradi. Bu unvon Singqu Selining mansabdor kishi, shuning bilan bir qatorda, zamonasining yetuk o‘qimishli kishisi o‘tganidan darak beradi. Uning xitoychadan qadimgi turkiy tilga tarjima qilgan uch asari yetib kelgan. Bular: “Oltun tusli yorug” (“Altun öjläg yaruq”=“Suvarnaprabhasa sutra”), “Syuan-szan kechmishi” (“Tsi-in-čün kavi nom bitig”) va “Vujud va ko‘ngilni anglash kitobi” (“Etözüg könjülg körmäk atlıg nom bitig”)dir.

Qizig‘i, Shingqu Sheli tarjimalarini asarlarning asl nusxalariga chog‘ishtirib ko‘rgan olimlar ularning xitoycha matnlardan so‘zma-so‘z o‘girilmaganligini ilg‘aganlar. Ta’kidlash joizki, Shingqu Sheli tarjimalarining qay birini olmang, oddiy matnlar emas. Ular qadimgi turk yozma adabiyotining sara asarlari qatorida. Tarjimonning kuchli bilim egasi ekani, turkiy til imkoniyatlaridan ustalik bilan foydalana olgani, qolaversa, uning shoir o‘tganidan belgi berib turadi bari. Matnlarning til va uslubi hayratga soladi asarlarni asliyatdan o‘qib, tushunib yetgan kishini. Anglashiladiki, tarjimon turk o‘quvchisiga budda g‘oyalarini chuqurroq singdirish, matnlarni o‘qishli qilish maqsadida ayricha yo‘l tutgan: u asarlarning asosiy mazmunini saqlagan holda, turklar tasavvuriga to‘g‘ri keladigan tushunchalar bilan bergan. Atamalar tizimi ham, bayon uslubi ham, badiiy-tasviriy vositalar ham – barisi shunga bo‘ysunadi. Shingqu Sheli tudung ularni qayta ishlab, mustaqil asar darajasiga ko‘targan. Shuning uchun ham turk-budda asarlarini badiiy tarjimalar sifatida emas, balki qadimgi turk adabiyotining o‘z namunalari deb qaramog‘imiz maqsadga muvofiq. Tarjimachilik amaliyoti tarixidagi ushbu metod prinsiplarini, qonun-qoidalarini chuqur o‘rgangandan keyingina, uning to‘g‘risida tugal, aniq-taniq yechimga kelish mumkin.

Muhimi, o‘sha davr tarjimonlari matnga ijodiy yondashganlar. Bu ularning o‘ziga xos yutug‘i, qadimgi turk adabiyoti va adabiy tiliga qo‘sghan katta ulushi edi.

Turkiy adabiy tilning rivoji, adabiy til me’yorlarini tartibga solishda qadimgi turk adabiyotining buyuk namoyandası, XI asrda yashab o‘tgan ulug‘ faylasuf Yusuf Xos Hojibning xizmati katta. Uning “Qutadg‘u bilig” asari qadimgi turkiy tildan eski turkiy tilga o‘tishda katta bir ko‘prik bo‘lib xizmat qildi; bu asari bilan adib yangi musulmon davri turk adabiy tili me’yorlarini belgilab berdi.

“Qutadg‘u bilig”ning muqaddimasida shunday yozilgan: *Čin-u Mačin ‘alimlari qamuğit it(t)ifaq boldilar-kim, Mašriq vilayatida, qamuğ Türkistän elindä Buğraxan tilinčä, türk luğatiča bu kitaptin yaxšíraq hargiz kimersä tasnif qilmay turur. Bu kitap qayu ma padşahqa, qayu ma iqlimqa tegdi ersä, ġayat uzluqündin, uruqtin nečä körklüglüğindin ol ellärniň hakimlari, ‘alimlari qabul qılıp, tekma biri bir türlüg at-laqap urdilar: činliğlar “Adabbu-l-muluk” atadilar; Mačin malikiniň hukamalari “Ayinu-l-mamlakat” tedilär; mašriqlığlar “Zinatu-n-umara” tep aydilar; eranlığlar “Şahnama-yi türki” atamişlar, ba’ziları ma “Pandnama-yi muluk” temişlär; turanlığlar “Qutadğu bilig” tep aymışlar* (Радлов 1890, 2–3).

Muqaddimada eranlığlar “Şahnama-yi türki” atamişlar, ba’ziları ma “Pandnama-yi muluk” temişlär deyilishiga qaraganda, bu asar forsiyga ham tarjima qilingan chiqar. Tarjimasi topilmagani sabab biron hukum chiqara olmynamiz.

Yana asar “Şahnama-yi türki” ataluvining boisi, uning turkiydagı shoh kitob, kitoblarning tojdori sifatida tan olinganligida edi.

Eski turkiy adabiyot va adabiy tilining ravnaqiga katta hissa qo’shgan mualliflardan yana biri, turk didaktik adabiyotining yirik namoyandası, buyuk faylasuf Adib Ahmad (Adib Ahmad bin Mahmud Yugnakiy)dir. Adib Ahmadning yashab o’tgan davri aniq emas. Meros qolgan asarlarining til xususiyatlariga qarab, u taxminan XII asrda yashab o’tgan deb biladilar. Adibning bizgacha “Hibatu-l-haqoyiq” dostoni, shuningdek, pand-nasihat mazmunli to’rtligi va she’riy baytlari yetib kelgan.

Alisher Navoiy o’zining “Nasoyimu-l-muhabbat” otli tazkiräsida turk mashoyihlari qatorida Adib Ahmadni yodga oladi, uning ijodiga yuksak baho berib, baytlaridan o’rnaklar keltiradi. Navoiy yozadi: “*Adib Ahmad ... Türk elidin ermış... Derlär-ki, közläre bütäw ermış-u aslā zâhir ermäs ermış. Basır bolup özgä basirlär-deg andaq emäs ermış-ki, köz bolğay-u,*

*körmäs bolğay, ammā bağāyat zîrak-u zakî va zâhid-u muttaqî
kişı ermiš. Haq subhānahu va ta’ālā agarči zâhir közin yapuq
yaratqandur, ammā köyli közin bağāyat yaruq qılğandur...
anıj tili türk alfazı bilä mavā’iz-u nasāyiħqa goyā ermiš, balki
aksar Türk ulusında hikmat-u nuktaları şâye’dur va nazm tarîqi
bilä aytur ermiš”* (NM.390–391).

Navoiy o‘rnak sifatida keltirgan baytlar quyidagilar (misolni Rossiya FA Sharqshunoslik instituti Sankt-Peterburg bo‘limida saqlanayotgan 97a qo‘lyozmadan keltiramiz – 98abet):

Uluğlar ne bersä, yemäs-men demä,
İlik sun, ağız ur, yemäsäj yamä.
Ikkinchı o‘rnak:
Tiliñni tiyä tut, tişin sünmasun,
Bu turğan xalayıq sejä külmäsün.
Uchinchi bayt mana bu:
Söňäkkä iligdür, erängä bilig,
Biligsiz erän-ol iligsiz söjäk.

Navoiy keltirgan birinchi va ikkinchi baytlar “Hibatu-l-haqoyiq”dan olingen emas. Chamasi, Adib Ahmadning pandasihat mazmunidagi boshqa bir asari bor: misol o‘sandan. Navoiy o‘rnagidagi uchinchi bayt “Hibatu-l-haqoyiq”da o‘zga bir ko‘rinishda. Adibning o‘z asarida baytning to‘rtlik tarkibidagi o‘qilishi shunday:

Söňäkkä yilig-teg erängä bilig,
Erän körki ’aql-ol, söňäknij yilig.
Biligsiz yiligsiz söjäk-teg xalî,
Yiligsiz söňäkkä sunulmaz elig (AH.89–92).

Temuriylar davri matnshunosligida matn tuzish prinsiplari, qiyosiy matn yaratishning ilmiy asoslari tugal bir ko‘rinishda ishlab chiqilgan edi. 1444 yili Samarqandda yirik davlat arbobi, adabiyot va ilm-fan homiysi, shoir Amir Arslon Xo‘ja Tarxon buyrug‘i bilan Adib Ahmad Yugnakiy “Hibatu-l-haqoyiq” dostonining tayanch matni tuzib chiqildi. Doston yakunida

keltirilgan Amir Arslon Xo‘ja Tarxonning she’rida bu xususda shunday deyiladi:

Köp elni körür-biz Adib sözini
Bilä bilmägändin ular özini.
'Ayibqa qoyuptur xalayiq ara,
Ğalat ma'nilarni ayitmiş yana.
Sabab erdi bu iş bitidük kitab,
Keräk qıl ijabat, keräk qıl 'itab.

(Ma’nosi: Ko‘p kishilarni ko‘rarmiz-ki, adib so‘zini bilib-bilmay, o‘zidan har turli gap qo‘shadilar.

G‘alati ma’nolar chiqarib, xalq ichida uni aybga qo‘ymoqdalar.

Shu sabab bo‘lib, ushbu kitobni tuzdik. Istanasang qabul qil, istamasang yo‘q) (AH.505–510).

Mazkur baytlardan o’sha kezlar Adib Ahmadning mashhur o‘gitlari ba’zan xato talqingga uchray boshlaganligi anglashiladi. Arslon Xo‘janing asarni qayta kitob holiga keltirishdan maqsadi, xato talqinlarga chek qo‘yish, ularni tuzatish va asarning tayanch, ishonchli nusxasini yaratish edi. Tayanch matn tuzilgach, keyingi nusxalari uning asosida ko‘paytirilgan.

“Hibatu-l-haqoyiq” (“Atabatu-l-haqoyiq”)ning tayanch matnnini samarqandlik Zaynul Obidin baxshi tuzdi.

Navoiyga qadar yaratilgan turkiy adabiyot va adabiy tilining rivojida Mavlono Lutfiy, Atoyi, Sakkokiy singari shoirlarning xizmati katta. Alisher Navoiy o‘zining “Majolisu-n-nafois” tazkirasida Mavlono Lutfiyni ehtirom bilan tilga oladi, “Öz zamānasiniy maliku-l-kalāmī erdi, fārsī va tütkidä naziri yoq erdi, amā türkidä šuhratī köpräk erdi” deya baho beradi. “Mavlānāniy “Zafarnāma” tarjimasida on müj baytdin artuqraq masnavisi bar, bayazga yazmağan üçün, šuhrat tutmadı” deydi (Maj.56).

Navoiy “Majolisu-n-nafois”da Atoyi haqida yaxshi yozgan. Uning “İsmāil ata farzandlarıdır” deya ta’kidlashiga

qaraganda, shoir “ota”lar avlodidan ekani, taxallusining esa *ata so‘zi* bilan bog‘liqligi ayon bo‘ladi.

Navoiy uning ijodiga baho berib shunday bitadi: *Türkīgoy erdi. Öz zamāniða še’r-i atrāk arasida köp šuhrat tutti. Bu matla’ aniýdur-kim:*

Ul sanam-kim suw qırğığında pari-deg olturur,
Ğayati nāzuklügidin suw bilä yutsa bolur.

Qafiyasiða aybḡinası bar. Amā Mavlānā köp türkāna aytur erdi. Qafiya ihtiyatiǵa muqayyad emäs erdi (Maj.57).

“*Mavlānā köp türkāna aytur erdi*” deganda Atoyining she’rlari o‘ta samimiyl, sodda ekanligiga ishora qilinmoqda. Eski o‘zbek tilida *türk* so‘zining “sodda, samimiyl” ma’nosini ham bor, *köp türkāna* – “juda sodda” degani. Qiyoşlang, hozirgi o‘zb.: *türkana dāri* – sodda usulda, o‘t-giyohlardan tayyorlangan dori.

Turkiy adabiy tilning rivojida Sulton Husayn Boyqaro (Abulg‘oziy Sulton Husayn Bahodirxon)ning xizmatlarini alohida ta’kidlamoq kerak. Husayn Boyqaro hukumador va ma’naviyat jonkuyari sifatida, turkiyning davlat tili darajasida keng amal qilushi va katta mavqega ko‘tariluvida, badiiy adabiyot tili sifatida gullab-yashnashiga bor imkoniyatni yaratib berdi.

Muhimi, Husayn Boyqaroning o‘zi ham turkiyda devon bitdi. Uning ijodi xususida “*Ul hazratnij̄ xob aš’āri va marḡub abyāt̄ı baǵāyat köp-dür va divān ham murattab bolup-tur*” deb yozgan edi Alisher Navoiy. U “Majolisu-n-nafois”ning sakkizinchı majlisini (Maj.136–149) Husayn Boyqaro ijodiga bag‘ishlagan. Tazkirada uning baytlarini tahlil etib, shoir ijodiga yuksak baho beradi.

O‘zbek adabiy tili rivojida Zahiriddin Muhammad Bobur (Zahiriddin Muhammad Bobur podshoh bin Mirzo Umarshayx bin Sulton Abusaid Ko‘ragon bin sulton Muhammad bin Amironshoh Mirzo bin Amir Temur Ko‘ragon)ning xizmatlari benihoya ulug‘. U o‘tmishda ulug‘ hukumador va sarkarda,

buyuk adib, mashhur tarixchi, adabiyotshunos va tilshunos, ajoyib san'atlar egasi sifatida iz qoldirgan.

Hasanxoja Nisoriy “Muzakkiri ahbob” tazkirasing Chig‘atoy sultonlariga bag‘ishlangan bo‘limida Zahiriddin Muhammad Boburni hurmat bilan yodga oladi (MA.51–54). U yozadi: “Chig‘atoy sultonlarining eng sarasi va zo‘r shijoatlisi edi..... Bobur podshohning fazilatlari bisyor va kamolotlari beshumordir. Aruz bo‘yicha yozgan risolasi bir dengizdir-kim, ichi to‘la javohiru durdona, fiqh masalalarini dag‘i bir risolada mubayyan qilgan-kim, yozg‘uvchisi donishmandligidin bir nishona; turkiy va forsiyda yaxshi she’rlari bor. O’shal fiqh risolasining nomi “Mubayyan”dir”.

Tazkiravisi Bobur she’rlaridan o‘rnaklar beradi. Uning Bobur baytlari orasida “G‘oyatda dilpazir va ajoyibu benazir chiqqan matla” deb baholagan bir bayti bu:

Ölüm uyqusidin boldum jihān fikridin āsuda,

Meni istäsäjiz, ey dostlar, tapqaysiz uyquda.

“Ko‘p sudmand va va’zda aytish uchun dilpisand” deya baholagan boshqa bir bayti:

Ne-kim taqdir bolsa, ul bolur, tahqiq bilgay-sen,

Erür janj-u jadal, ranj-u riyāzat – barča behuda (MA.53–54).

Mirza Muhammad Haydar o‘zining “Tarix-i Rashidiy” asarida Bobur haqida shunday yozadi (misolni asarning XIX asrda amalga oshirilgan turkiy tarjimasidan keltiramiz): *Bābur pādshāh pādshāh-e edi-kim, anvā’ fazāil birlä ārasta-vu fasāl hamida birlä parasita va hamma xislatdin šijāat-u martabası ziyāda erdi. Amir ’Alişir Navāyīdīn heč kim anij-deg türkī še’r aytmağan erdi. Türkī divāni bar-dur-ki, nazākat-u latāfat va dağı nazm masāili bar-dur-kim, Mubayyan atlığ risāla-dur. Nihāyati mufid-u hamma xalqga maqbul va yana türkī Risāla-i aruz tasnif qılıp-dur-ki, anijdīn ilgäri heč kim ’ilm-i aruzni türkī ibāratı birlä bu nav’ latāfatlik adä qılmağan-dur. Va yana hazrat Eşānnīj atalarınıj risālasınıj Risāla-i vālidiyya ta’zim nazm qılıp-dur.*

Vaqāi' atlīg türkī tarix kitabī tasnif qılıp-dur-ki, nihāyati saläsatlıq-u ibäratı pākiza ham-ki, yaqın bu kitābda ul tarixdīn ba'zi rivāyatlar bayānğa kelgüsü-dür. Anüjdīn ilgäri pādşählar arasında 'ilm-i musiqi va özgä anvā' 'ilm-i fazl bayānında barābari kelmägän bolğay (TR.179). Yuqoridagi ma'lumotlardan anglashiladiki, Boburning “ilm-i musiqiy” va “ilm-i fazl” sohasida ham boshqa podishohlarda uchramaydigan iste'dodi bo‘lgan.

Shoh va shoir o‘tganlardan yana biri Muhammad Shayboniydir (Muhammad Shayboniy ibn Shoh Budog‘ bin Abulxayrxon). U tarixda xon, hukumdorgina emas, shoir, tilshunos sifatida ham iz qoldirgan. Hozirgi zamon kitoblarida muallifning taxallusi Shayboniy, Shayboniyxon deb berilmoqda. Biroq uning devonida shoir taxallusi ŠBANÎ, ŠBAN, ŠIBANÎ, ŠIBAN deb yozilgan. Shunga ko‘ra uning taxallusini Shibaniy yoki Shiboniy deb atagan ma’qul.

Mirza Muhammad Haydar qalamiga mansub “Tarixi Rashidiy” asarining turkiy tarjimasida u Šāhibeg~Šāhibeg xan deb tilga olingan.

Hasanxoja Nisoriy o‘zining “Muzakkiri ahbob” tazkirasida Muhammad Shayboniyni shoir va olim, fozil kishi sifatida hurmat bilan yodga olgan. U yozadi: “Sohibqiron xon ilmu fazilatlardan xabardor, aniqrog‘i, ularni to‘la egallagan kishi edi. She’riyat sohasi va shoirlarga e’tiqod-e’tibori katta bo‘lgan. Mudom olimu fozillarni o‘ziga hamsuhbat qilgan. Yaxshi she’rlari bor” (MA.20). Tazkiravavis shu o‘rinda uning she’rlaridagi soddalik, kishilarga manzur bo‘larli tomonlarni ko‘rsatish uchun quyidagi tuyuqni misol keltirgan:

Soğd içidä oltururlar yabular,
Yabularniň minjän atıi yabular.
Yabularniň ilgidin el tünmadıi,
Ya bular bolsun bu yerda ya bular.

Adabiyot tarixida Sulton Saidxon (Sulton Saidxon ibn Ahmadxon ibn Sulton Yunusxon ibn Sulton Uvaysxon ibn Sher

Alixon ibn Muhammadxon ibn Xizr Xojaxon ibn Tug‘luq Temurxon) ham yaxshi iz qoldirgan. Bobur podshoh Sulton Saidxonning xolavachchasi edi. Mirza Muhammad Haydar o‘zining “Tarix-i Rashidiy” asarida Sulton Saidxonni ta’riflab, “*‘Ilmda allāma edi-ki, xāh fārsī, xāh türkī bolsun še’r aytmaqda va inšā rastlamaqda benazir erdi. Xan majlislarda še’rlarini-ki aytip erdi*” deb yozgan (TR.147). Muarrix shoirning o‘ziga ma’qul tushgan baytlaridan ham o‘rnaklar keltirgan. Mana o‘sha baytlar:

Qaysi gulšanniň yüzün-deg bir gul-i ranāsi bar,
Qaysi gulniň bir meniň-deg bulbul-i şaydāsi bar.
Hur birlä jannatu-l ma’vanı könlüm näyläsün,
Yärniň köyidä yüz mïň jannatu-l ma’vasi bar.
Yüz üzrä kákul-i zulfî parişān bolğusı,
Ey Said, äsufta könlümniň ajab savdāsi bar.
Şukrullah, hälätim zâhir bolup-tur yârğıa,
Emdi yâr alïda özni körsätäy ixtiyârğıa.
Sayr üçün kirsä gulstân içrä ul sarvardan,
Banda bolsun sarv äzâd ul qad raftârğıa.
Ahd qıldiň-ki, vafâ qılğay-sen,
Yoq-ki, jânimga jafâ qılğay-sen.
Atma sen ğamza oqı birlä meni,
Qorqaman-ki, xatâ qılğay-sen.
Mejä dersän-ki, vafâ qılğum-dur,
Elgä qılğanča mejä qılğay-sen.

Xullas, turkiy yozma adabiy til me’yorlarini ishlab chiqishda shoir va yozuvchilar, tarixchilar, tilshunoslarning hamda tarjimonlarning xizmati katta bo‘ldi. Kotiblar esa matn savodxonligini ta’minlab bergenlar.

Alisher Navoiyning o‘zbek adabiy tilini yuksaltirishdagi ulushi

Turkiy adabiy tilning rivojiga ulkan hissa qo‘sghanlar orasida ulug‘ mutafakkir Alisher Navoiyga (Nizomuddin Mir Alisher Navoiy bin G‘iyosuddin Bahodur) tenglashadigani chiqmadi.

Alisher Navoiy merosini quyidagi turkumlarga ajratish mumkin:

I. Devonlari: 1) “Xazoyinu-l-moniy” (“Ma’nolar xazinasi”). Bu to‘rt devonni o‘ziga birlashtiradi: “G‘aroyibu-s-sig‘ar” (“Bolalik qiziqlqliqlari”); “Navodiru-sh-shabob” (“Yigitlik nodiralari”); “Badoyiu-l-vasat” (“O‘rta yosh badialari”); “Favoyidu-l-kibar” (“Qarilik foydalari”).

2) Forscha devoni (“Devon-i Foniy”).

II. Dostonlari. Bularning beshtasi “Xamsa” tarkibida: 1) “Hayratu-l-abror” (“Yaxshilarning hayrati”); 2) “Farhod-u Shirin”; 3) “Layli-vu Majnun”; 4) “Sab’a-i sayyora”; 5) “Sadd-i Sikandari” (“Iskandar devori”). Yana bir dostoni “Lisonu-t-tayr” (“Qush tili”)dir.

III. Tazkiralari: 1) “Majolisu-n-nafois”; 2) “Nasoyimu-l-muhabba min shamoyimi-l-futuvva”.

IV. Filologik asarlari: 1) “Risola-i muammo”; 2) “Me’zonu-l-avzon” (“Vaznlar mezoni”); 3) “Muhokamatu-l-lug‘atayn” (“Ikki til muhokamasi”); 4) “Sab’at abhur” lug‘ati.

V. Tarixga oid asarlari: 1) “Tarix-i anbiyo-vu hukamo”; 2) “Tarix-i muluk-i Ajam”; 3) “Zubdatu-t-tavorix” (“Tarixlar xulosasi”).

VI. Diniy-axloqiy asarlari: 1) “Munojot”; 2) “Arbain” (“Qirq hadis”) = “Nasru-l-laoliy” (“Marvaridlar sochmasi”); 3) “Nazmu-l-javohir” (“Javharlar tizmasi”); 4) “Siroju-l-muslimin” (“Musulmonlar chirog‘i”); 5) “Mahbubu-l-qulub”.

VII. Manoqiblar (avtobiografik asarlar): 1) “Holat-i Sayyid Hasan Ardsher”; 2) “Xamsatu-l-mutaxayyirin”; 3) “Holat-i Pahlavon Muhammad”.

VIII. Hujjatlar: “Vaqfiyya”; 2) “Munshaot”.

Alisher Navoiy asarlari tilining hozirgi o‘zbek shevalariga munosabati xususida o‘zbek tilshunoslari orasida har turli qarashlar yuradi. Shulardan biri Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma”da Navoiy asarlarining tili haqida keltirgan so‘zлari asosida yuzaga keldi. Chunonchi, Bobur Farg‘ona viloyatiting poytaxti Andijon ta’rifida yozadi: Eli türkdür. Шәхри-ву бázärísida türkî bilmäs kişi yoqtur. Eliniј lafzi qalam bilä rästtur. Ne üçün-kim, Mir ‘Ališer Navāyînij musannafatı bāvujud-kim, Hirida našu namā tapiptur, bu til bilädür (B.critical.5).

Zahiriddin Boburning ushbu so‘zlarini ro‘kach qilib, ba’zi olimlar Navoiy asarlari tilining asosini andijon shevasi tashkil etgan deya qaraydilar (Дониёров 1968). Boshqa bir olimlar Navoiyning Andijonda bo‘lmaganligini vaj’ qilib, bu fikrni inkor etadilar (Абдуллаев 1968).

Ta’kidlash joizki, bu o‘rinda Bobur haq. Tarixda Navoiy merosiga, qolaversa, uning ijodiga, mahoratiga xolis baho bergenlardan biri ham Bobur bo‘ladi. Biroq, “Boburnoma”dagи ma’lumotlarni, to‘g‘rirog‘i, matnni xato tushunish, noto‘g‘ri talqin etish oqibatida olimlarimiz ichida turli bahslar kelib chiqmoqda.

Anglashilmovchilik matndagi Eliniј lafzi qalam bilä rästtur jumlasining xato talqin etilayotganida. Buni ular “andijon elining tili (ya’ni shevasi) adabiy til bilan mos keladi” deya izohlaganlar. Shunday bo‘lgan taqdirda buning davomidagi Navoiy asarlari xususida aytilgan mulohazalar ham o‘z-o‘zidan shunga bog‘lanadi-qoladi. O’sha qarashni quvvatlaydigan bo‘lsak, matnni “Hirotda yuksakliklarga erishgan Navoiy asarlarining tili ham ayni shevaga mos” deya talqin etishdan boshqa yo‘l qolmaydi.

Fikrimizning isboti uchun Bobur aytgan o'sha jumlalarning ma'nisini bir boshdan chaqib ko'raylik. E'tibor berilsa, muallif, matnda Farg'ona viloyati to'g'risida ma'lumot bera turib, bu yurtning xalqi turklar, tilining esa turkiy til ekanligini ta'kidlamoqda. Matndagi *Eliniň lafzı qalam bilä rästtur* jumlesi ikki xulosaga olib keladi: 1) mazkur jumlada Farg'ona (Andijon) elining lafzi (ya'ni turkiy til) yozma shaklda (badiiy adabiyot orqali) mashhur ekanligi ta'kidlanmoqda; 2) bu jumla mantiqan xalq tili adabiy tilga yaqin ekanligini ham anglatadi. Adabiy til tarixida bunday hodisa uchrab turadi. Masalan, qoraxoniylar davri adabiy tilida koshg'ar shevasi yetakchilik qilgan. Shundan kelib chiqib, o'sha davr adabiy tili ayrim manbalarda "koshg'ar tili" deb ham atalgan. Boburning yozmalaridan ham o'sha davrda farg'ona shevasi adabiy tilga yaqin ekanligi ma'lum bo'ladi.

Matn tahlilida davom etamiz. Bobur Hirot adabiy maktabining namoyandasini bo'lgan Alisher Navoiy haqida so'zlab, uning ham asarlari ushbu turkiy adabiy tilda ekanligini ta'kidlaydi. Buning bilan Bobur Navoiy asarlarining tiliga andijon shevasi asos bo'lganligini emas, balki Farg'ona va Hirot adabiy muhitlarida yagona adabiy til amal qilganini ta'kidlamoqda. Boburning ushbu ma'lumoti temuriylar davlatining barcha o'lkalarida yagona turkiy adabiy til (eski o'zbek adabiy tili // "chig'atoy turkiysi") amal qilganiga guvoh.

Mulohazalardan kelib chiqib, Boburning Farg'ona elining tili to'g'risida yozgan so'zlarini shunday talqin qilish mumkin: "Eli turkdir. Shahri va bozorlarida turkiy bilmas kishi yo'qdir. Elining lafzi qalam bilan [yozma adabiyot tili, yozma adabiy til bilan] mosdir. Ne uchun-kim [ajablanarlisi], Mir Alisher Navoiyning tasniflari [asarlari], (uning o'zi) Hiriyya o'sib-ulg'ayganligiga qaramay, ushbu tilda [Farg'ona va Hirot adabiy muhitlari uchun yagona bo'lgan adabiy tilda]dir".

Navoiy asarlarining tili haqida so‘z ketganda uni o‘sha kezlardagi mavjud shevalarning birortasiga bog‘lab qo‘yish mumkin emas. U Xurosondagina emas, butun Temuriylar sultanatida, Oltin O‘rda, qolaversa, musulmon turk ellarida amal qilgan adabiy tilda ijod qildi. U o‘z ijodi bilan temuriylar zamonida amal qilgan butun bir adabiy oqimning boshida turdi, turkiy adabiy tilga yetakchilik qildi. Buni “Lisonu-t-tayr” asarida uning o‘zi ham ta’kidlagan edi:

Türk nazmüda ču men tartip ’alam

Äylädim ul mamlakatni yakqalam (LT.268).

Navoiy *mamlakatni yakqalam äylädim* deganda o‘z asarlarining hamma uchun tushunarli bo‘lgan adabiy tilda ekanligini qayd etmoqda.

Alisher Navoiy asarlarining tili Navoiydan burun o‘tgan yoki unga zamondosh shoirlarning asarlari tilidan o‘zlashgan so‘zlar sonining ortiqligi bilan ajralib turadi. Mavlono Lutfiy, Sakkokiy, Atoiy, hatto Husayn Boyqaro asarlari ham tilining soddaligi bilan ajralib turadi. Buni o‘sha kezlar Hirot aholisi asosan forsiyzabonlar edi, bu jarayon Novoiy asarlarining tilida o‘z aksini topgan, deya baholamaslik kerak. Bu, avvalo, adabiy muhitning ta’siri, qolaversa, Navoiy asarlari uslubining ko‘tarinkiligi, o‘ta murakkabligi bilan bog‘liq. Adabiy ta’sir, adabiy an‘analar bilan til vaziyati boshqa hodisa. O‘sha davr Hirot adabiy muhitida turkigo‘y shoirlar orasida fors tilida ijod etish an‘anaga aylangan edi. Buni “Muhokamatu-l-lug‘atayn”da Navoiyning o‘zi ham ta’kidlaydi. Temuriylar zamonida Samarqand, Andijon yoki boshqa o‘lkalarda ikki tillilik buning qadar emasdi. Navoiy o‘z asarlarini o‘ta badiiy ko‘tarinki uslubda yaratdi, arabiy, forsiy so‘zlardan keng foydalandi. Bu xizmatlari bilan u eski o‘zbek adabiy tili tarixida o‘ziga xos bir uslubga asos soldi.

Muhokamatu-l-lug‘atayn” asari

Ulug‘ mutafakkir Alisher Navoiy o‘zining “Muhokamatu-l-lug‘atayn” (“Ikki tilning muhokamasi”) asarini hijriy 905 (melodiy 1499) yilda yozdi. Ushbu risola muallifning yigitlik zhtiroslari va jo‘shqin hissiyotlar ta’sirida yaratilgan emas. Navoiy bu asarini tirikligining so‘nggi kezlarida – uzoq hayotiy tajriba to‘plagan, ilmiy dunyoqarashi maqomiga yetgan, tafakkur doirasi peshlangan bir chog‘da yozdi.

“Muhokamatu-l-lug‘atayn”ning to‘rt qo‘lyozma nusxasi ma’lum:

1. Nusxalardan birinchisi Istanbuldagı To‘pqopi saroyi muzeyi Revan kutubxonasida 808 raqami ostida saqlanayotgan Navoiy kulliyoti tarkibida. Ushbu qo‘lyozma 1497 yili ko‘chirilgan.

2. Asarning yana bir nusxasi Istanbuldagı Sulaymoniya kutubxonasining Fotih bo‘limida saqlanayotgan 4056 raqamli Navoiy kulliyotiga kirgan.

3. Parij nusxasi. Ushbu nusxa Milliy kutubxonada saqlanayotgan (Suppl. Turc. 316–317- raqamli qo‘lyozma) Navoiy kulliyoti tarkibida. Qo‘lyozma 1526–1527 yillarda ko‘chirilgan.

4. Asarning yana bir qo‘lyozmasi Budapestda saqlanmoqda.

“Muhokamatu-l-lug‘atayn” birinchi marta 1841 yili Parijda M. Katremer tomonidan nashr etildi. 1882 yili Bog‘chasaroyda I. G‘aspirali, 1895 yili Istanbulda Ahmad Javdat nashr ettirdi. Asar 1917 yili Qo‘qonda toshbosma usulda chop etilgan. Toshkentda Parso Shamsiev asarni uch qayta bostirdi: 1940 yili O. Usmon bilan birgalikda lotin alifbosida kirish so‘z, matn va hozirgi o‘zbekcha talqinini berdi. Ushbu nashrga asarning parij nusxasi asos qilib olingan edi. Yana 1948 va 1967 yillarda yakka o‘zi kirill xatida nashr ettirdi.

Asar Anqara, Ashgabad, Urumchida ham chop etilgan.

1996 yili asar Anqarada Turk tili qurumi tomonidan yangidan chop ettirildi (*'Ali Sir Nevayi*. Muhakemetü'l-lugateyn (İki Dilin Muhakemesi). Hazırlayan F. Sema Barutçu Özönder). Mazkur nashr asarning mavjud qo'lyozmalari asosida yig'ma-qiyosiy matn ko'rinishida tayyorlangan.

Asarning toshkent nashrlari ichida eng to'lig'i 1940 yildagisi sanaladi. Unda matn boshdan oxir keltirilgan. Lekin keyingi ikki nashri (1948 va 1967) ayrim qisqartishlar bilan bosilgan: siyosat taqazosi bilan asarning ayrim o'rirlari, arabcha diniy mazmunli iboralar tushirib qoldirilgan. Jumladan, kitob muqaddimasi dagi tangriga bag'ishlangan hamdu sano berilmagan. Muhimi shundaki, bu qismda Ollohnning marhamatu qudratini madh etuvchi uch ajoyib ruboiy ham bor. Yana toshkent nashrida Navoiyning arab tilini ta'riflab yozgan ayrim jumlalari ham tushirilgan.

Anqara nashrida qayd etilganlarning bari to'liq.

"Muhokamatu-l-lug'atayn" turkiy tilning gullagan bir chog'ida, uning ilmiy grammatikasi sifatida dunyoga keldi.

"Muhokamatu-l-lug'atayn" – tilshunoslik asari. Muallif ushbu risolasi bilan turkiy tilshunoslik tarixiga o'zining katta ulushini qo'shdi. Navoiyning ushbu asarni yozishdan niyati turli oilaga tegishli ikki buyuk til – turkiy va fors tilini (*fārsī, fārsī til, sart tili, sart lafzi* deb ataydi uni) shunchaki chog'ishtirib chiqish emas. Uning maqsadi turkiyning fonetik, lug'aviy, morfologik va uslubiy imkoniyatlari cheksiz ekanligi, uning badiiy adabiyotda ham, davlat ishlari, diplomatik munosabatlarda, fan sohasida ham to'la javob bera olishini ilmiy jihatdan asoslاب berish edi. Shuning uchun ham u til faktlarini ilmiy nuqtai nazardan tahlil etadi.

Navoiy Sharqda dovrug'i ketgan to'rtta tilga e'tiborni tortadi: arab, turkiy, forsiy, hindiy. Bularning baridan arab tili nafislik bilan ajralgan va badiiylik bezagi bilan mo'jiza ko'rsatuvchandir. Bu tilda Olloh (maliki allam jalla va alo)ning kalomi nozil bo'lgan va payg'ambarning saodatga elituvchi

hadislari o'sha tilda aytilgan. Bundan so'ng uch nav til borki, bular asl va mo'’tabardir.

Shundan so'ng muallif turkiy va forsiyning qiyosiy tahliliga o'tadi. U turkiy lug'atning uslubiy afzalliklarini ko'rsatish maqsadida forsiyda tengdoshi yo'q yuzta fe'lni keltiradi. Ularning yuzta (yuz lafz) ekanligini muallifning o'zi ham ta'kidlaydi. Qizig'i shundaki, toshkent nashrida ushbu fe'llar to'qson to'qqizta. Buning boisi, asarning bizga yetib kelgan qo'lyozma nusxalarida ularning soni turlicha: to'pqopi va parij nusxalarida to'qson to'qqiz, fotih va budapesht nusxalarida yuztadir. Ushbu ikki nusxada boshqa qo'lyozmada tushib qolgan yuzinchi fe'l ham bor. U čimdilamaq fe'li bo'lib, tartibda qicigliamaq so'zidan keyin keladi. Tanqidiy matn tayyorlash jarayonida anqara nashrida matnga ana shu fe'l ham kiritilgan. Bundan ko'rnatadi, haligi nushani ko'chirayotgan kotib bu so'zni tasodifan tushurib qoldirgan.

Navoiy keltirgan nozik ma'noli fe'llar quyidagi tartibdadir:
quwarmaq-u quruqšamaq va üşärmäk-u jiyjaymaq va öydäymäk-u čigräymäk va dumsaymaq-u umunmaq va osanmaq-u igirmäk va egärmäk-u oxranmaq va tariqmaq-u aldamaq va arğadamaq-u işänmäk va iglänmäk-aylanmaq va erikmäk-u igränmäk va awunmaq-u qistamaq va qiynamaq-u qozgalmaq va sawrulmaq-u čayqalmaq va devdäsimäk-u qimsanmaq va qızğanmaq-u nikämäk... va b.

Alisher Navoiy sinonim fe'llarga ayricha etibor qaratadi. Fe'llarning ma'nolari ularning sinonimlari misolida ochib beriladi. Muallifning ta'kidicha, takallum chog'ida kishi ularga muhtoj bo'lur. Navoiy bularga o'rnak qilib turkiy baylardan keltiradi. Jumladan, turkcha nazmda may ta'rifida mubolag'a uchun *sipqarmaq* so'zini qo'llaydilar, lekin forsiy she'rda aynan shu mazmunni bir so'z bilan ifodalab bo'lmaydi. Navoiy bu so'zning ochiqlamasi uchun ushbu baytni misol qilib keltiradi:

Sāqiyyā, tut bāda-kim, bir lahza özümdin baray,

Şart bu-kim, har nečä tutsaŋ, labā-lab sıpqaray.

Sıpqarmaq ning sinonimi *tamšımaq* dir, bunda Navoiyning so‘zi bilan aytganda, “ğayat-i zavqdin bat içmäs, lazzat tapata-pa az-az içär”. Buning misoli quyidagi baytda yaxshi ko‘rinadi:

Sāqi ču ičip menjä tutar qos,

Tamši-tamši anï qilay nuš.

Turkiy ash’orda “yig‘i” ma’nosи uslubiy jihatdan o‘zaro farq qiluvchi *boxsamaq*, *yüglamsınmaq*, *injrämäk*, *sıjrämäk*, *sıqtamaq*, *ökürmäk*, *inčirmäk*, *hay-hay yüglamaq* so‘zları bilan ifoda etiladi.

Navoiy *boxsamaq* so‘zining ta’rifi uchun shunday baytni keltirgan:

Hajr anduhüda boxsap-men, bilä alman, netäy,

May ’iläjimdur, qopup dayr-i fänäga ’azm etäy.

Yüglamsınmaq kalimasida Navoiyning so‘zi bilan aytganda, ““āşıqlıqda yüglamaqdin kulliräk-u däyimiräk amr yoqtur va anda tanavvu’ bar”. Misoli:

Zāhid ’išqin desä qılğay fāš,

Yüglamsıninur-u közigä kelmäs yaš.

Injrämäk va *sıjrämäk* so‘zları-kim, “dard bilä yaşurun āhistä yüglamaqdur va aralarida tafāvut az tapılur”. Misoli:

İstäsäm davr ahlidin ’išqijnī pinhān äylämäk,

Keçälär gah injrämäkdür ‘adatim, gah sıjrämäk.

Sıqtamaq so‘zi-kim, “yüglamaqda mubālağadur”. Misoli:

Ul ay-ki külä-külä qıtaqlattı meni,

Yüglattı meni demäy-ki, sıqtattı meni.

Navoiyning ta’rificha, “biyik ün bilä-kim e‘tidälsiz āshub bilä yüglägaylar”, uni *ökürmäk* derlar. Keltirgan bayti:

İşim tağ üzrä har yan aşk seläbinī sürmäkdür,

Firäq āshubidin har dam bulut yanlığ ökürmäkdür.

Yana *inčirmäk* so‘zi ham bor, ma’nisи “inčäk ün bilä yüglamaqdur”. Bayti shunday:

Čarh zulmida-ki boğzumni qırıp yiğlar-men,

İgirür čarh kibi inčkirip yiğlar-men.

Turkiy uslubda *hay-hay yiğlamaq* ham bor. Navoiy she'rining mashhur maqtai budir:

Navāyi, ul gul üçün hay-hay yiğlama köp,

Ki hay degünčä nä gulbun, nä günča, nä gul bar.

Yana turkcha *yasanmaq* uchun sart tilida *ārasta*, *ārāyiš* so'zi bor, ammo *bezänmäk* o'rnida hech narsa demaydilar. *Bezänmäk – yasanmaq* ning mubolag'asidir. Buning misoli:

Erür bas ču husn-u malāhat seňä,

Yasanmaq, bezänmäk nä hājat seňä.

Turklar go'zallarning ko'z va qoshlari orasini *qabağ* derlar, forsiyda bu uzvning oti yo'kdir. Yoki husn ta'rifida ulug'roq xolni turklar *mey* deydilar, ular esa bunga ot qo'yaganlar. Masnaviyda bir jamoat go'zal ta'rifida, bunday degan:

Meñizläri gul-gul, mijalarï xär,

Qabaqları kej-kej, ağızları tär.

Navoiyning ta'kidicha, turkiy she'riyatda omonimlarning ham o'rni katta. Tuyuq tildagi ana shu hodisaning mahsulidir, forsiy she'riyatda yo'kdir. Masalan, *at* so'zining bir ma'nisi "alam"dir, yana bir ma'nisi "markab"dir, boshqa bir ma'nisi "amr, buyruq"dir. Bu tajnisda shunday kelgan:

Čun pari-vu hurdur atij begim,

Sur'at ičrä dev erür atij begim.

Har xādangi-kim, ulus andin qačar,

Nātavān jāním sarï atij begim.

Yana *it* so'zida ham uch ma'no bor. Misoli:

Ey raqib, özni aja tutsaq ham it,

Bizgä rahm äyläp, anij köyidin it.

Garči bar dozahča išqirj šu'lasï,

Bizni öz ilgiň bilä ul sarï it.

Turkiyda uch, to'rt va undan ortiqroq ma'no anglatadigan so'zlar ko'p. Jumladan: *sağın* so'zining bir ma'nosi "yodga olmoqqa buyruq", biri "sutli qo'yning oti", yana biri "ishqdan bo'lgan mastlik". Yoki *tüz* ning ma'nolari: *tüz I* – "o'q" yoki

“nayzaga o‘xshash narsa”, *tüz* II – “tekis joy”, *tüz* III – “to‘g‘ri kishi”, *tüz* IV – “cholg‘uni sozlamoqqa amr”, *tüz* V – “ikki kishi orasida yarashtirish” demakdir. Yoki *kök* ning birinchi ma’nosи – “osmon”, *kök* II – “ohang”, *kök* III – “köklä so‘zining o‘zagi”; *köklä* –“tikarda ko‘klamak”dir, *kök* IV – “bo‘yoq”, *kök* V – “maysa, ko‘kat”ni ham deydilar.

Navoiy turkiy tilning tovush xususiyatiga ham alohida ahamiyat beradi.

Asarda yegulik va ichimliklar, qarindosh-urug‘chilikka tegishli, madaniy-maishiy hayotga tegishli so‘zlar, qush va parrandalar, hayvonlarning atalishi, ot va uning jihozlari, kiyim-boshlar, mansablar, hunar va kasb otlari har ikki tilda qanday atalishiga ham o‘rin berilgan. Masalan, sartlar ulug‘ qardosh va kichik qardoshni *birādar* derlar. Turklar ulug‘ni – *ağa*, kichikni *ini* deydilar. Ular ulug‘ va kichik qiz qardoshni *hāhar* derlar, turklar ulug‘ni *egäči*, kichikni esa *siyil* deydilar. Turklar kiyikning erkagini *xona*, tishisini (*urg‘ochisini*) *qulčaqqi* der, suyqunning erkagini *buğu*, tishisini *maral* der, sart esa *āhu*: va *gavazn* deydi, xolos. Turklar to‘ng‘izning erkagini *qaban*, tishisini *megäjin*, ushog‘ini *čurpa* deydilar, sartlar esa barchasini *xu:k* va *gurāz* ataydilar.

Qushlar ichida aniq va mashhuri ilbasun va o‘rdakdir. Sart ilbasunning o‘zini bilmaydi. Turk o‘rdakning erkagini *sona*, tishisini *borčin* deydi. Sart bularning har ikkovini *murgābī* deb ataydi. Qushchilar o‘rdakning xillarini yaxshi biladilar: *čörkä*, *erkä*, *suqsur*, *almabaš* ... bular yetmish xilga boradi. Sart esa barchasini faqat *murgābī* deydi. Agar bir-biridan ajratmoqni istasa, turkcha ataydi va b.

Navoiy turkiy tilning o‘ziga xos morfologik xususiyatlariga ham e’tibor qaratadi. Masalan, arab sarfida bir bob borki, uni “mufoala bobи” deb ataydilar. Bunda bir so‘z aytilsa ham, ikki kishining ish-harakatini o‘z ichiga oladi (mushoara – she’r aytishmoq). Forsiyda yozuvchilar shuncha ustalik va mohirlilik da’vosi bilan bu foydadan mahrumdirlar. Ammo turkning so‘z

ustalari masdarga bir “shin” (ش) harfini qo’shish bilan o’sha maqsadni topganlar: *tapišmaq*, *qučušmaq*. Navoiy turkiyning bundayin o’ziga yarasha belgilariga ko‘plab o’rnaklar keltiradi. U yozganidek, “bunday so‘zlarni yasagan ulug‘larga bag‘oyat yaxshi ishlari uchun, bosh egib, tahsinlar aytmoq kerak” (*Va bu lafz vāzi’i ‘azīzlarğā jā-i taslīm-ü tahsīndur-ki bağāyat xub qılıpdurlar*).

QADIMGI TURK DIALEKTLARI VA ULARNING ADABIY TILGA BOG‘LIQLIGI

Turkshunoslikda qadimgi turk dialektlari, ularning adabiy tilga bog‘liqliq yeri, bizgacha saqlangan yozma yodgorliklar tilining dialektal o‘zgachaliklari o‘rganilganicha yo‘q. Bu jumboqning yechimi, tabiiyki, qadimgi yozma adabiy til asosida qay bir dialect yetakchi o‘rin tutganligi, shuning bilan birga, hozirgi dialektlar tarixini o‘rganishda muhim ahamiyatga ega. Yozma yodgorliklar tilining dialektal asoslari turkiy tillarning yuzaga kelish tarixini o‘rganish uchun ham muhimdir.

Ko‘k turk bitiglari bilan uyg‘ur, moniy yozuvlarida bitilgan yodgorliklar yagona adabiy til an’anasi ta’sirida, oldinma-ketin yaratilgan bo‘luviga qaramay, matnlar tilida xos xususiyatlar kuzatiladi.

Masalan, yodgorliklar tilida [b]~[m] hodisasini kuzatish mumkin. Urxun bitiglari tilidagi so‘z boshida kelgan [b] uyg‘ur yozuvli matnlarda [m] ga o‘zgaradi: *ben – men*, *biŋ – miŋ* singari. Matnlarning buning kabi o‘zgachaliklari ko‘k turk xatidagi yodgorliklar tili qadimgi uyg‘ur, moniy, brahma yozuvidagi yodgorliklardan ayri bir dialect asosida yuzaga kelganidan dalolat beradi.

Mahmud Koshg‘ariy o‘zining “Devonu lug‘atit turk” asarida eski turk dialektlari to‘g‘risida keng ma’lumot bergan. Uning bu asari eski turkiy tilining dialektal o‘zgachaliklarini o‘rganish uchun eng kerakli manbadir.

Mahmud Koshg‘ariy turkiy dialektlar to‘g‘risida

Mazkur asarida Mahmud Koshg‘ariy, o‘rni bilan, o‘sha zamondagi turk dialektlari o‘rtasidagi o‘zgachaliklar, ularning fonetik, leksik-semantik, morfologik belgilarini o‘ritib o‘tadi. Muallif ta’biri bilan aytganda unda “har bir qabilaning o‘ziga xos xususiyatlariga ko‘ra qiyosiy qoidalar tuzilgan” (I.47).

Mahmud Koshg‘ariy turk dialektlarining katta bir guruhini (bu o‘rinda yetakchi shevalarga asoslangan adabiy til nazarda tutiladi) “turk”, muayyan dialekt, qabila, urug‘larni ularning o‘z nomlari bilan (jumladan, o‘g‘uz, qipchoq, chigil va b.) ataydi. Ora-ora ularning yetakchi shevalardan (ya’ni “turkcha”dan) farqli yeri, o‘ziga xosliklari qayd etib o‘tiladi.

Sug‘daq, kanjak, arg‘ular, xo‘tanlilar, tubut va tangutlarning ba‘zilari sug‘dcha va turkcha so‘zlashuvchilar guruhiga kiritilgan. Muallif turkcha va sug‘dcha so‘zlashuvchilar haqida gapirib, ularning tilida “buzuqlik bor”ligini qayd etadi (I.65). Chamasi bu o‘rinda mazkur ikki tilli xalqlarning turkiy tilni buzib gapirishlari nazarda tutilgan.

Endi devonda keltirilgan turkiy dialektlar haqidagi ma’lumotlarga to‘xtalamiz.

Dialektlarning **fonetik o‘zgachaliklari** quyidagicha:

Turklardagi so‘z boshida keluvchi [y] o‘g‘uz va qipchoqlarda tushib qoladi yoki [j (~č)] ga aylanadi: *yelkin – elkin* “musofir”, *yiliğ suw – iliğ suw* “iliq suv”, *yinjü (yinčü?) – jinjü* (činčü?) “dur, marvarid”, *juğdu – juğdu* (čuğdu?) “tuyaning uzun yungi” (I.67), *yetti – jetti* (četti?) “etishdi”, *yundum – jundum* (čundum?) “yuvindim” (II.364), *yigi – jigi* (čigi?) “pishiq” (III.249). Koshg‘ariyning ta’kidlashicha, turklar bilan o‘g‘uzlar tili orasidagi bu xususiyat o‘zgarmovchi, doimiy bo‘lgan) (II.364).

So‘z boshidagi [m] ni o‘g‘uzlar, qipchoq va suvorinlar [b] ga aylantiradilar: *men – ben* “men”, *mün – büñ* “sho‘rva” (I.67).

So‘zdagi [t] ni o‘g‘uzlar va ular yaqinidagilar [d] ga aylantiradilar: *tewey* – *dewe(y)* “tuya”, *öt* – *öd* “teshik” (I.67), *taqii* – *daqii* “tag‘in” (II.227).

Turkiy qabilalarning ko‘pgina so‘zlaridagi [d] o‘g‘uzlarda [t] ga aylanadi: *bügdä* – *büktä* “xanjar”, *yigdä* – *yiktä* “jiyda” (I.67).

So‘z o‘rtasida va oxirida kelgan [y] ni arg‘ular [n] ga almashtiradilar: *qoy* – *qon* “qo‘y”, *čiğay* – *čiğan* “kambag‘al”, *qayu* – *qanu* “qaysi” (I.67).

“*ـ bilan ـ maxrajlari orasidagi*” (I.68) [w] ni o‘g‘uzlar va ularga yaqin turuvchilar [v] ga aylantiradilar: *ew* – *ew* “uy”, *aw* – *av* “ov” (I.68). O‘g‘uz va qipchoqlar (xalachlarning bir toifasi) so‘z boshidagi [q] ni [x] ga aylantiradilar: *qayu* – *xayu* “qaysi” (III.237), *qizüm* – *xizüm* “qizim”, *qanda* – *xanda* “qaerda” (III.238).

Tish-tish [ð] li so‘zlarni qo‘llashda Mahmud Koshg‘ariy turkiy dialektlarni uch guruhga bo‘ladi:

1. Tish-tish [ð] bilan so‘zlovchilar. Bularga chigil va boshqa turkiy qabilalar kiritiladi. Jumladan, “chigilcha” deb ko‘rsatilgan so‘zlar: *boðun* “xalq” (I.379), *aðin* “boshqa, bo‘lak” (I.105).

2. Yag‘mo, tuxsi, qipchoq, yabaqu, tatar, qay, jumul va o‘g‘uzlar [j] ga aylantiradilar, hech mahal [ð] bilan so‘zlamaydilar: *qazij* – *qayij* “qayin daraxti”, *qazin* – *qayin* “qaynag‘a” (I.68), *azriq* – *ayriq* “ajriq, yumshoq bir o‘t” (I.136), *baðram* – *bayram* “shodlik kuni” (I.447). Ayrim o‘rinlarda bu dialektlar “[ð] ni [y] ga aylantiruvchilar” deb ko‘rsatilgan: *boðun* – *boyun* “jamoa” (III.183), *keðük* – *keyük* “namat va kigizlardan qilingan yomg‘ir yopinchig‘i” (III.182), *toðti* – *toydi* “to‘ydi” (III.262).

3. Qipchoq, yamak, suvor, bulg‘orlar hamda ruslarga va Rumga qadar borib taqaladigan boshqa qabilalar [z] ga aylantiradilar: *aðaq* – *azaq* “oyoq”, *toðdi* – *tozdi* “to‘ydi” (I.68), *qaðin* – *qazin* “qayin” (I.383).

Shuningdek, o‘g‘uzlardagi [y] ni qipchoqlar [z] ga aylantiradilar: *öylä – özlä* “peshin, tush vaqtî” (I.137).

O‘g‘uz va qipchoqlarda tovush tushishi hodisasi kuzatiladi: *čumčuq – čumuq* “olaqarg‘a”, *tamğaq – tamaq* “bo‘g‘iz”, *barağan – baran* “boraveradigan”, *urağan – uran* “hadeb uraveradigan” (I.69).

Dialektlarda, Koshg‘ariyning misol keltirishiga ko‘ra, [č] ning [ž] (sirg‘aluvchi) ga ko‘chishi [*erinč – erinž* “maishat, farog“at” (I.152)], jaranglining jarangsizlashuvi [*bišiq – yag‘* molarda *bišiq* “pishiq” (I.360)] kabi fonetik parallelizmlar, shuningdek, metateza [*qošni – o‘g‘uzlarda qonši* “qo‘shni” (I.408)] va boshqa fonetik hodisalar ham kuzatiladi.

Morfologik o‘zgachaliklar. Devonda o‘sha davr dialektlari orasidagi morfologik o‘ziga xosliklar ham yoritilgan. Jumladan, ko‘philik turklarda buyruq birlik uchun *bar*, ikki kishi bo‘lsa, *bariňlar ikigü* (ikkovingiz boring), ko‘plik uchun *bariňlar qamuğ* shaklida qo‘llanilgan. *Bariň* shakli hurmatni ifodalagan. O‘g‘uz va qipchoqlar birlikda *bar*, ko‘plikda esa *bariň* deydilar. Hurmat ma’nosida *bariňiz* deydilar (II.51).

Turklar o‘tgan zamonda hurmat ma’nosida *bardijiz* deydilar. O‘g‘uzlar esa buni faqat ko‘plikda (hammangiz boardingiz) qo‘llaganlar (II.52).

Fe’lning o‘tgan zamon shaklini hosil qilishda dialektlar ikki guruhga ajraladi: yag‘mo, tuxsi, chigil, arg‘u, uyg‘ur, to Chingacha bo‘lgan hamma qabilalar *-di, -di // -ti, -ti* affiksini qo‘shib yasaydilar: bardi “bordi”, keldi “keldi” kabi. Bu shaklini o‘g‘uz va qipchoqlarning ba’zilari – suvorinlar *-duq, -düük* affiksi orqali yasaganlar. Bularda birlik va ko‘plik shaklda farq qilmagan: *men ya qurduq* “men yoy qurdim”, *biz ya qurduq* “biz yoy qurdik” (II.64), *ol keldiük* “u keldi”, *biz keldiük* “biz keldik” (II.65). Bo‘lishsiz shaklini ham solishtiring: *barmadï* (turklarda) – *barmaduq* (o‘g‘uzlarda) “bormadi” (II.66). Fe’lning kelasi zamon shakli o‘g‘uzlarda qisqargan

affiks orqali yasalgan: boshqa turklarda *barirman* – o‘g‘uzlarda *bariran* “boraman”, boshqalarda *ya qurar-men* – o‘g‘uzlarda *ya quraran* “yoy quraman” (II.68).

II sh. birlikda shaxs-son -*y* affiksi bilan yasalgan: *tapindij*. Ba’zi arg‘ular tilida u -*g* (-*g*) ga aylantirilgan: *tapinduğ* “topinding”, *sen ani qacurduğ* “sen uni qochirding” (II.194).

Chigil, qashqar, arg‘u, barsag‘an, uyg‘ur va yuqori Chingacha bo‘lgan qabilalarning hammasi -*ğuci*, -*güci* // -*quci*, -*küci* affiksli sifatdoshni qo‘llaganlar: *qapğuci* “o‘g‘irlovchi”, *suwğarğuci* “sug‘aruvchi”, *sağquci* “sog‘uvchi” (II.55). O‘g‘uz, qipchoq, yag‘mo, ug‘roq, suvorin, bajanak, to rusrargacha bo‘lganlar uning o‘rnida sifatdoshning -*daci*, -*däci* // -*taçi*, -*täçi* affiksli shaklini qo‘llaganlar: *bardaçi* “boruvchi”, *turdaçi* “turuvchi” (II.53).

Chigil, yag‘mo, tuxsi, arg‘u, uyg‘ur, to yuqori Chingacha bo‘lgan hamma qabilalarda “ismi zamon”, “ismi makon” fe’l o‘zagiga -*ğu*, -*gü* // -*qu*, -*kii* affiksi qo‘sib yasalgan bo‘lsa, o‘g‘uzlar, qipchoq, pachanak, bulg‘orlarda fe’lning buyruq shakliga -*ası*, -*äsi* affiksi qo‘sib yasalgan: *Bu ya qurgu oğur ermäs.* – *Bu ya qurası oğur tägül* “Bu yoy quradigan payt emas”, *Bu turgu yer ermäs.* – *Bu turası yer tägül* “Bu turadigan joy emas” (II.71).

Leksik o‘zgachaliklar. Mahmud Koshg‘ariy o‘z davridagi dialektlarning leksik xususiyatlarini ham ko‘rsatishga harakat qilgan. Mazkur asarda o‘sha davrda iste’molda bo‘lgan so‘zlar o‘rin olgan bo‘lib, umumxalq tilining leksik boyligi aks ettirilgan. Ayrim o‘rirlarda turkiy bo‘lmagan so‘zlar ham (jumladan, sug‘dcha) keltiriladiki, bu esa o‘zlashgan so‘zlarning ma’lum qismi ham lug‘atdan o‘rin olganini ko‘rsatadi. Muallif so‘zlarni izohlar ekan, o‘rni bilan ularning qaysi bir dialektga mansub ekanligi, dialektlardagi o‘ziga xos ma’no xususiyatlari va boshqa muhim tomonlari haqida ham to‘xtalib o‘tadi. Bu esa ana shu so‘zning dialektal xarakterini ochib beradi. Shu o‘rinda Mahmud Koshg‘ariy tomonidan

ma'lum bir dialektga mansub deb izohlangan so'zlardan keltiramiz:

O'g'uzlar qo'llaydigan so'zlar: *aşaqt* “tuban, quyi” (I.97), *aliq* “qush tumshug‘i” (I.98), *ekin* “ekin; ekin ekiladigan yer” (I.107), *üyäz* “kichik chivin” (I.112), *arsu* “har bir jo‘n narsa” (I.148), *jar* (*čar?*) “vaqt” (I.312), *čer* “ro‘para” (I.312), *endäk* “sath” (I.130), *örkän* “qayish” (I.132), *eylä* “shunday” (I.137), *eträk* “rangi sariq odam” (I.127), *pamuq* “momiq, paxta” (I.360), *töläk* “tinch va og‘ir kishi” (I.368), *sündu* “qayichi” (I.395), *qarınčaq* “chumoli” (I.460), *sečä* “chumchuq” (III.238) va b.

Chigillar qo'llaydigan so'zlar: *ud* “sigir” (I.80), *ažun* “dunyo” (I.106), *üzi* “ikki tog“ orasidagi keng yo‘l” (I.116), *aybañ* “kal” (I.139), *ötki* “evaz, badal” (I.149), *čekäk* “chechak kasalligi” (I.369), *saman* “somon” (I.392), *qučgundi* quchg‘undi “piyoz” (I.454).

Qarluqcha so'zlar: *ulicim* “o‘g‘ilcham, qarog‘im” (I.86), *suğut* “suzma” (I.337), *it kerdi* “it vovulladi” (II.15).

Qipchoqcha so'zlar: *ökil ekil* “ko‘p” (I.103), *aba* “ayig” (I.113), *sulaq* “qora jigar” (I.390), *ajan* “ikki yelkanli kema” (I.144).

Arg‘ucha so'zlar: (arg‘ular ikki tilda so'zlashuvchilar deb ko‘rsatiladi I.65): *uðluq* “og‘il, molxona” (I.124), *iðrik* (<*irik*) “qattiq narsa” (I.128), *oðla* “yosh yigit” (I.149), *qiz kiþi* “baxil odam” (I.315), *bük* “burchak” (I.321), *čigit* “paxta urug‘i, chigit” (I.337), *ködäj* “ko‘za” (I.341), *qaðið* “yog‘och idish” (I.363), *tudrič* “go‘ng” (I.422), *baþtar* “o‘roq” (I.424), *bitrik* “pista” (I.441).

Yag‘mocha so'zlar: *čarun* “chipor daraxti” (I.392), *čignä* “surgi” (I.408).

Bulg‘orcha so'zlar: *awus* “mum” (I.91).

Barsag‘ancha so'zlar: *arið* “chodir pardasi” (I.94), *tünäk* “zindon” (I.387), *sökti* “kepak” (I.394), *ači* “keksa xotin” (I.114).

Qashqarcha so‘zlar: *sibüt* “kashnich” (I.337), *butiq* “kichik mesh” (I.358).

Turkmancha so‘zlar: *qarit* “o‘g‘irlash, talash” (I.338), *taquq* “tovuq” (II.330).

Kanjakcha so‘zlar: *kenbä* “bir o‘simlik” (I.393), *körkä* “yog‘och kosa” (I.405).

Devonda bir guruh so‘zlar bir qancha dialektlar uchun umumiy bo‘lgan deb ko‘rsatiladi. Jumladan, quyidagi so‘zlar o‘g‘uz va qipchoqlarda qo‘llanilishi ta’kidlangan: *alig* “har narsaning qaytarilishi” (I.95), *ariq* “oriq, zaif” (I.97), *čufga* (*čuwğā?*) “yo‘l boshlovchi, rahbar” (I.400). Yoki yana misollarni kuzating: *ebmäk* “non” (yag‘mo, tuxsi va ba’zi o‘g‘uz va qipchoqlar so‘zi) (I.126), *urğa* “katta daraxt” (o‘g‘uz va arg‘ucha) (I.148), *benäk* “urug” (arg‘u va ba’zi dialektlarda) (I.367).

Ayrim so‘zlar bir dialektda ma’lum bir shaklda bo‘lsa, ikkinchi dialektda uning o‘rnida boshqa so‘z qo‘llanilgan. Bu narsa Mahmud Koshg‘ariy tomonidan ham alohida qayd etilgan: Masalan, boshqa turklar idish, kosa, piyolani *ayaq* desalar, o‘g‘uzlar uning o‘rnida *janaq* (*čanaq?*) so‘zini qo‘llaganlar (I.112), turklar *aðiñ* (boshqa, bo‘lak) desalar, o‘g‘uzlar *aðruq* deganlar (I.124), boshqalar kamar, to‘qa va egarning boshiga o‘rnatish uchun oltin-kumushdan ishlangan ziynatni *üstäm*, o‘g‘uzlar esa *saxt* deganlar (I.131), turklar *almila* (ya’ni olma) desalar, o‘g‘uzlar *alma* so‘zini qo‘llaganlar (I.150), boshqa turklar har bir oq rangni *örüñ*, o‘g‘uzlar *aq* // *a:q* deganlar (I.153), boshqalar sharob, musallas, mayni *süçik*, Ila vodiysida yashovchilar (yag‘mo, tuxsi va chigillar) mayni *qızıl süçik* deb ataganlar (I.387). Ko‘pchilik turklar *čiqtı* desalar, yag‘mo, tuxsi, yaboqu, qipchoq va ba’zi turkman urug‘lari xuddi shu ma’noda *taşıqtı* so‘zini qo‘llaganlar: *er ewdin taşıqtı* “odam uydan tashqari chiqdi” (II.131).

Leksik qatlam orasida bir dialektda ma’lum ma’noda, boshqasida ikkinchi ma’noda qo‘llanuvchi so‘zlar ham

bo‘lgan: Chigil turklarida *ulus* “qishloq” ma’nosida qo‘llanilgan bo‘lsa, Balasag‘un va ularning yuqori yonidagi arg‘ular tilida “shahar” ma’nosini anglatgan (I.94), boshqa turklarda *iňäk* so‘zi “sigir” ma’nosida qo‘llanilgan bo‘lsa, o‘g‘uzlar toshbaqaning urg‘ochisini shu so‘z bilan ataganlar (I.135), boshqalar oshxonani *aşlıq*, o‘g‘uzlar bug‘doyni *aşlıq* deganlar (I.137), boshqa turklar burgutni va Mushtariy yulduzini *qara quš* deb atagan bo‘lsalar, o‘g‘uzlar tuyu oyoqlarini uchiga ham shu so‘zni qo‘llaganlar (I.319). “Kend – o‘g‘uzlar va ular bilan yaqin turuvchilar tilida qishloq. Ko‘pchilik turklar nazdida viloyatdir” (I.330), boshqa turklar qurt (hasharot)ni *qurt* deganlar, faqat o‘g‘uzlar bo‘rini shunday deb atagan (I.328), boshqalar odamlar orasidagi shodlik va kulgini *baðram*, o‘g‘uzlar hayat kunini *bayram* deydilar (I.447). Turklar *sen* so‘zini kichiklarga, xizmatchilarga hamda so‘zlovchidan daraja, martaba, yoshda quyi bo‘lgan kishilarga nisbatan qo‘llaganlar. O‘zlaridan yuqori hurmatli kishilarni *siz* deganlar. O‘g‘uzlar esa, aksincha, kattalarga *sen*, kichiklarga *siz* deb qo‘llaydilar. Ko‘plikda ham shuni ishlatganlar (I.326). Ko‘pchilik turklarda *čapildi* so‘zi “suvaldi, chapildi” ma’nolarini anglatgan bo‘lsa, uyg‘urlarda bu so‘z “bo‘yniga urmoq” ma’nosidadir (II.135).

Polisemantik so‘zlarning ba’zi bir ma’nolari ayrim dialektlarda amal qilgan. Chunonchi, o‘g‘uzlarda *čaqdi* so‘zining “eshittirdi, aytdi” ma’nosи ham qo‘llanilgan: ol sözüг anij qulaqqa *čaqdi* “u so‘zni uning qulog‘iga eshittirdi” (II.24). *Soqdi* (maydaladi; cho‘qidi; chaqdi) so‘zining “chaqmoq” ma’nosи o‘g‘uzlarga xosdir: *ani yilan soqdi* “uni ilon chaqdi” (II.26).

Bir guruh so‘zlar dialektlarda stilistik jihatdan ham chegaralangan edi. Jumladan, *qildi* salbiy ma’noda ham qo‘llanilgани sababli, o‘g‘uzlar undan qochib, uning o‘rnida *etti* so‘zini qo‘llaydilar: er yükünč etti “odam namoz o‘qidi”. Turklar esa *qildi* so‘zini qo‘llaganlar (II.33). Yoki turklardagi

tegindi – “erishdi, tuyassar bo‘ldi” ma’nosidagi so‘zini, devon muallifining yozishicha, o‘g‘uzlar “yoqtirmaydilar” (II.166).

O‘zlashgan so‘zlarning miqdori bo‘yicha ham dialektlar orasida farq bo‘lgan. Buni Mahmud Koshg‘ariyning quyidagi ma‘lumotida ham ko‘ramiz: “O‘g‘uzlar forslar bilan aralashgach, ba’zi so‘zlarni unutdilar va ularning o‘rniga forscha so‘zlar qo‘llay boshladilar: *qumğan* o‘rnida *āftāb*; *baqan* o‘rnida *qalida* (bo‘yin tumor)” (I.406).

O‘ZBEK TILSHUNOSLIGINING YUZAGA KELISHI VA YUKSALUV BOSQICHLARI

Turklarning o‘qimishli kishilari o‘z tillarining tarixiga, uning qonuniyatlarini o‘rganish, sirlarini bilishga burundan qiziqib keladilar. Bu istak va urunishlar turkiy tilshunoslikning fan sifatida yuzaga keluviga turki bo‘ldi. Eski chog‘lardayoq tilni tadqiq etishning metodologik asoslari ishlab chiqilgan. Har bir davrning o‘ziga xos usullari, metodologik asoslari bor.

O‘zbek tilini o‘rganish va o‘qitishning hozirgi metodlari XX asrning 30- yillarda shakllandi. O‘zbek tilshunosligining yangi, zamонавиј метод va usullari G‘arb, xususan, rus tilshunosligi ta’sirida yuzaga kelgan. Bunga qadar turkiy tillar, jumladan, o‘zbek tili sharq, xususan, arab tilshunosligi etkisida yuzaga kelgan metod va usullarda o‘rganilar, maorif ishlarida ayni prinsiplar asosida o‘qitilar edi.

Tadqiq etish metodologiyasiga ko‘ra turkiy, jumladan, o‘zbek tilshunosligi tarixini uch bosqichga ajratish mumkin: 1. Eng eski davr turk tilshunosligi. 2. Arab tilshunosligi ta’sirida yuzaga kelgan turkiy tilshunoslik. 3. Hozirgi o‘zbek tilshunosligi.

Eng eski davr (ko‘k turk va uyg‘ur xoqonliqlari davri) turk tilshunosligi (bu VI–X yuzyilliklarni qamraydi). Ko‘k turk va qadimgi uyg‘ur xoqonliqlari davridan grammatic asar uzindilari, alifbolar va lug‘at parchalarigina qolgan. Lekin tilshunoslikka bag‘ishlangan maxsus yirik asarlar saqlangan

emas. Shunga qaramay, o'sha kezlar tilshunoslik bilimlari yuqori darajada bo'lganidan darak beruvchi belgilar bor. Jumladan, turkiy yozuvlar o'sha davr tilshunosligining darajasini belgilovchi omillardan biridir. Turklar o'sha kezlar bir emas, bir qancha takomillashgan fonetik yozuvlardan foydalangan. Shulardan biri ko'k turk alifbosi. E'tiborlisi, ko'k turk yozuvi ibtidoiy qarashlar, sodda lisoniy bilimlar asosida yaratilgan emas. U turkiy xalqlarning tarix davomida qo'llagan yozuvlari ichida eng yetugi, qadimgi turkiy tilning fonetik-fonologik o'zgachaliklarini o'zida yorqin aks ettirgan alifbosi edi. Bizgacha saqlangan bitiglar ko'k turk yozuvining alifbo tizimi va imlo prinsiplari puxta ishlab chiqilganidan dololat beradi. Tabiiyki, ilmiy-falsafiy qarashlar tarixida tilshunoslik bilimlari shakllanmay turib, bundayin yetuk bir yozuvning yaratilishi mumkin emas.

Qadimgi turk tilshunosligining darjasini uyg'ur, moniy, suryoniy yozuvlarining alifbo tizimi, grafik o'zgachaliklari, harf-tovush bog'liqliklari, imlo prinsiplarining til qonuniyatlariga mos holda tuzilganligida ham ko'zga tashlanadi. Masalan, uyg'ur xati sug'd alifbosi negizida kelib chiqqan. Turklar bu yozuvni yaratish chog'ida sug'd xatining imlo xususiyatlarini o'z tillariga moslaganlar. Turkiyning fonetik qonuniyatlariga muvofiq holda o'zakdosh yozuvga qo'shimcha ishoratlar kiritilgan, ayrim harflarga qo'shimcha vazifalar yuklangan. Turkarning o'qimishli kishilari uyg'ur xatini yaratish chog'ida qanday ixtiolar qilgan bo'lsalar, moniy va suryoniy xatlarini ham shunday o'zgartish bilan qabul qildilar. Shuning uchun moniy hamda suryoniy yozuvlaridagi turkiy matnlarning grafik va imlo xususiyatlari boshqa tillar, xususan, sug'd tilidagi moniy hamda suryoniy yozuvli matnlardan ajralib turadi. Demak, o'sha chog'lardayoq til bilimi yuqori bo'lgan. Qadimgi turkiy yozuvlar ayni bilimlarga tayangan holda o'ylab topilgan.

Yozma yodgorliklar uslubi, qadimgi turkiy tilda amal qilgan fan va madaniyatning turli sohalariga tegishli atamalar tizimi ham tilshunoslikning darajasini belgilaydi. Demak, tilshunoslik bilimlari, tilni tadqiq etishning metod va uslublari ko‘k turk va qadimgi uyg‘ur xoqonliqlari davridayoq shakllanib ulgurgan edi.

O‘sha kezlardan qolgan ko‘k turk, uyg‘ur, moniy yozuvlaridagi bitiglarda savodxonlik masalasiga jiddiy e’tibor qaratilgan. Savodxonlikni ta’minalashda o‘sha kezlar yashab ijod etgan shoir va yozuvchilar, matn bituvchi kotiblarning xizmati katta.

Arab tilshunosligi ta’sirida yuzaga kelgan turkiy tilshunoslik. Buning tarixi XI yuzyillikdan boshlanadi. Tarixda turkiy tillarni o‘rganish va o‘qitish metodologiyasining shakllanishida sharq, xususan, arab tilshunosligining ta’siri katta bo‘lgan. Turkiy tillar salkam to‘qqiz asr arab tilshunosligi metodologiyasi asosida tadqiq etilgan va ta’lim sohasiga tadbiq etilgan. Ushbu metodologiyani turkshunoslikda birinchilardan bo‘lib ulug‘ olim, buyuk tilshunos Mahmud Koshg‘ariy ishlab chiqdi. U turkiy tillarni o‘rganishga arab tilshunosligining tadqiq usullarini qo‘lladi, shu asosda turkshunoslikda yangi bir metodologiyani yaratdi, islom davri turk tilshunosligiga asos soldi.

Muhimi, turk tilshunoslari arab tilshunosligining metod va usullarini o‘z tillarini o‘rganishga tadbiq etibgina qolmay, turkiy tillarning qonuniyatlariga suyangan holda, uni yangi-yangi yo‘lu usullar bilan boyitdilar, ayni metodlar asosida tilshunoslikda ulkan kashfiyotlar qildilar.

Mahmud Koshg‘ariyning ulug‘ xizmatlarini uning bizgacha yetib kelgan “Devonu lug‘atit turk” asarida ko‘rishimiz mumkin. Ushbu asarida olim turkshunoslikda birinchi bor qadimgi turk lahjalarini klassifikasiya qildi, turk tilshunosligining muhim nazariy masalalarini yoritib berdi.

“Devonu lug‘atit turk” ikki – muqaddima va lug‘at bo‘limlaridan tuzilgan. Muqaddimada kitobning yozilish sababları, uning tuzilishi; turklar qo‘llaydigan yozuv; otlarning yasalishi; fe’llarning tuslanishi; so‘z tarkibi (morfem tuzilishi); kitobda berilgan grammatik qoidalar; turk tabaqalarining ta’rifi va ularning yerlashuvi; turk lahjalari orasidagi o‘zgachaliklar to‘g‘risida so‘z yuritildi. Shu o‘rinda Yer tuzilishi (sharqiy yarim shar) xaritasi ham ilova qilingan.

Lug‘at quyidagi sakkiz bo‘limdan iborat:

1. Hamzali so‘zlar, ya’ni “alif” bilan boshlanadigan so‘zlar bo‘limi.

2. Solim, ya’ni “alif”, “vav”, “ya” harflari bo‘lmagan so‘zlar bo‘limi.

3. Muzoaf, ya’ni undoshlari ikkilanadigan so‘zlar bo‘limi.

4. Misol, ya’ni tarkibida “alif”, “vav”, “ya” bo‘lgan so‘zlar bo‘limi.

5. Zavatu-s-salasa (uch harfli so‘zlar), ya’ni “alif”, “vav”, “ya” harflari qisqa unli sifatida o‘qiladigan so‘zlar bo‘limi.

6. Zavatu-l-arba’a (to‘rt harfli so‘zlar), ya’ni “alif”, “vav”, “ya” qisqa talaffuz qilinadigan so‘zlar bo‘limi.

7. G‘unnalilar, ya’ni tarkibida burun (dumog‘) tovushlari kelgan so‘zlar bo‘limi.

8. Al-jam’ baynas-sakinayi, ya’ni harakatsiz ikki undoshli so‘zlar bo‘limi.

Har bir bob ism va fe’llardan iborat ikki qismga ajratilgan.

Tilshunoslik tarixida xorazmlik olim Mahmud Zamaxshariyning ham ulushi ulug‘. Turkshunoslikda uning “Muqaddamatu-l-adab” asari shuhrat qozongan. “Muqaddamatu-l-adab” (“Adab muqaddimasi”) – arab tili leksikologiyasi va grammatikasiga bag‘ishlangan asar. Kitob muqaddima, ismlar bo‘limi, fe’llar, harflar (yordamchi so‘zlar), ismlarning turlanishi, fe’llarning tuslanishi bo‘limlaridan tuzilgan. Shulardan ismlar va fe’llar qismi lug‘at bo‘lib, qolgan bo‘limlar grammatikaga tegishli.

“Muqaddamatu-l-adab”ning lug‘at bo‘limi (ya’ni ismlar va fe’llar qismi) ko‘p tillidir. Tartibga ko‘ra, lug‘atda avval arabcha so‘z keltiriladi, so‘ng boshqa tillarda – forscha, turkiy, mo‘g‘ulcha, ba’zan qadimgi xorazmiy tilida uning tarjimasi, ma’nosi beriladi.

Yana bir jihat, asarning mavjud qo‘lyozmalarida so‘zliklarning berilishi turlicha: asar nusxalari ikki tilli (arabcha-forscha, arabcha-turkiy, arabcha-xorazmiy), uch tilli (arabcha-forscha-turkiy), to‘rt tilli (arabcha-forscha-turkiy-mo‘g‘ulcha) variantlarda tarqalgan.

“Muqaddamatu-l-adab” ko‘p variantda tarqalgan. Tabiiyki, bu o‘rinda asarning lug‘at bo‘limlari (ismlar va fe’llar) ilk variantda qanday ko‘rinishda edi, degan so‘roq tug‘iladi. Olimlar, muallif asarning lug‘at qismini ikki tilda (arabcha-forscha) tuzgan; turkiy va mo‘g‘ulchasini kotiblar keyinchalik qo‘sghanlar, deb biladilar. Bizningcha, bu fikr to‘g‘ri emas. Buni rad etuvchi dalillar ham bor. Chunki turkiy so‘zlik kiritilgan variantlarining ayrimlari juda eski. Yana bir jihat, asarning nodir nusxalarida keltirilgan turkiy so‘zlik ancha eski tilni aks ettirmoqda. Ushbu nusxalarni ko‘chiruv chog‘ida turkiy so‘zlikka alohida e’tibor qaratilgan: ba’zi qo‘lyozmalardagi turkiy so‘zlik qizilda.

Mavjud nusxalarning bunday belgilari tubandagi xulosaga olib keladi. Chamasi, muallif mazkur asarini ikki qayta yozgan, to‘g‘rirog‘i bir yozib, keyin to‘ldirish kiritgan. Asarni besh bo‘limli qilib tuzgan. Bu ilk variantining lug‘at qismi chamasi ikki tilli edi: arabcha so‘zlar xorazmcha tarjimasi bilan keltirilgan. Bu bilan yerli xalqning ehtiyoji ko‘zda tutilgan. Keyingi variantlarga xorazmcha so‘zlikning kiritilganligi dargumon. Sababi, XIII asrdan xorazm tili asta-sekin iste’moldan chiqib, o‘lik tilga aylana boshlagan edi. Keyinchalik Xorazm davlatining siyosiy-ijtimoiy talabidan kelib chiqib muallif asarning lug‘at qismini qayta ishlab takomillashtirgan: uni ko‘p tilli lug‘atga aylantirgan. Muallif

tomonidan qayta ishlangan ana shu ikkinchi variantda turkiy so‘zlik ham bor edi. Keyingi asrlarda vujudga kelgan variantlar muallifning o‘sha birinchi yoki keyingi – ko‘p tilli variantiga asoslangan ko‘rinadi. Asarning arabcha-xorazmcha lug‘at shaklidagi qo‘lyozma nusxasi ilk variantga asoslangan bo‘lsa ehtimol. Lekin asarning fanda ma’lum bo‘lgan boshqa nusxalari ikkinchi – ko‘p variantli nusxadan urchigan ko‘rinadi. Keyingi asrlarda asar ko‘chirilayotgan yurtning madaniy, siyosiy-ijtimoiy talablaridan kelib chiqib, uning yangi-yangi variantlari yuzaga kela boshlagan. Turkiy muhitda ko‘chirilgan nusxalarida turkiy so‘zlik saqlangan, forsiyzabon muhit uchun mo‘ljallanganlarida turkiysi tushirib qoldirilgan.

Britaniya muzeyida, o‘rni bilan, yunoncha tarjimasi berilgan nusxasi ham bor. Bu esa asarning Yevropa mamlakatlariida tarqalishi va o‘rganilishi bilan bog‘liq hodisadir. O‘sha o‘lkalarda yashovchilar talabidan kelib chiqib, undagi lug‘at yunonchada izohlangan.

Turkiy tillarni o‘rganish bo‘yicha arab tilida, keyinchalik fors va turkiy tillarda yaratilgan barcha lug‘at va grammatikalar tilshunoslikning ana shu metod va usullarida yaratildi.

Tilshunosligimiz tarixida XIV asr ham yuksalish davri sanaladi. Turkshunoslikda arab tilshunosligi metod va usullarining sobit qolishida, ayniqsa, arab mamlakatlariida turkiy tilni o‘rganish bo‘yicha tuzilgan qo‘llanmalarning ahamiyati katta.

Mamluklar davlatida (1250–1517), davlat turk sultonlaring ilgida ekanligida turkiy tilga e’tibor katta edi. Bu kezlar arablarning turkiy tilni o‘rganishlari uchun grammatik asarlar va lug‘atlar, turli qo‘llanmalar yaratilgan. O‘sha zamonalarda Abu Hayyon va Ibn Muhanna singari tilshunoslar yashab ijod etgan.

Arablarga turkiy tilni o‘rgatish uchun yozilgan asarlardan biri “Kitob-i majmu-i tarjumon-i turkiy va ajamiy va mug‘aliy”dir (buni qisqacha “Kitob-i tarjumon-i turkiy” deb

ataladi). “Kitob-i tarjumon-i turkiy” arabcha-turkiy va mo‘g‘ulcha-forscha so‘zlik bo‘limlaridan tuzilgan. Asarning turkiy grammatikaga bag‘ishlangan bo‘limi kirish va to‘rt qismdan iborat. Kirish qismida hamdala, kitobning yozilish sababi va turkiy tilning fonetik o‘zgachaliklari to‘g‘risida so‘z boradi. Birinchi qism 26 bo‘limli so‘zlikdir. Qo‘llanmaning qolgan qismlari turkiy tilning grammatik qoidalariiga bag‘ishlangan.

Arab tilida yaratilgan qo‘llanmalardan yana biri yozuvchisining oti ma’lum bo‘lmagan “Attuhfatu-z-zakiyat” fillug“atit turkiya” (“Turkiy tillar haqida noyob tuhfa”) asaridir. Kitob “qipchoq tili” grammatikasiga bag‘ishlangan. Uning bituvchisi bu xususda: “Men bu asarda qipchoq tiliga asoslandim. Chunki eng ko‘p qo‘llanadigan til qipchoq tilidir. Turkman tilini bu ishda bayon qilmadim. Faqat juda zarurat bo‘lgandagina ko‘rsatdim,” – deb yozgan edi (AZFT. 8). Bu asar ham kirish, arabcha-turkiy so‘zlik, grammatik qoidalari bo‘limidan iborat.

XV–XVI asrlarning tilshunosligida Alisher Navoiyning xizmati buyuk. U turkiy va forsiyni qiyosiy o‘rganish asosiga qurilgan “Muhokamatu-l-lug‘atayn” asari bilan tilshunoslikda tipologiya sohasiga asos soldi.

O‘sha davr tilshunosligida Zahiriddin Muhammad Boburning xizmati ham katta. Uning tilshunoslikdagi ulug‘ xizmati “Xatt-i boburiy”da o‘z aksini topgan.

Muhammad Shayboniy ham turkiy til grammatikasi to‘g‘risida qo‘llanma yozganligi ma’lum. Biroq asar kunimizga qadar saqlangan emas. Hasanxoja Nisoriy o‘zining “Muzakkiri ahbob” tazkirasida Shayboniyxon haqida ma’lumot berar ekan, yozadi: Deydilarki, xon Hazora qal’asi fathiga otlanganda bir g‘azal bitib, Hiri shayxu-l-islomi va Qozi Ixtiyororga yuboribdi... Qozi Ixtiyor turkiy tilni bilmas ekan, uning uchun turkiy til qonun-qoidalari kitobini bitib yuboribdi (MA.21). Ushbu

ma'lumotlarga qaraganda, Shayboniyning turkiy tilga bag'ishlangan ushbu kitobi forsiyda bitilgan.

XV–XVI yuzyilliklardan boshlab eski o'zbek tilini ("chig'atoy turkchasi"ni), xususan, Alisher Navoiy asarlarini chuqur o'rghanish istagida lug'at va grammatik asarlar yaratila boshladi (qarang: Умаров 1992).

Alisher Navoiy asarlariga tuzilgan birinchi lug'at "Badoyi-l-lug'at" deb ataladi. Uni sulton Husayn Boyqaroning buyrug'iiga ko'ra chamasi 1500 yili Toli Imoniy tuzgan. Lug'atda Navoiy asarlarida qo'llangan turkiy so'zlar fors tilida izohlanadi. Har bir so'zning tovush tuzilishi, uning ma'nosi, grammatik xususiyatlari haqida ma'lumot beriladi. So'z ma'nolarini ochiqlamoq uchun Navoiydan baytlar keltirilgan.

XVI asr lug'atlaridan yana biri Rajab ibn Muhib Ali Shomluning "Lug'at-i Navoiy" asaridir. U chig'atoycha-turkcha lug'at bo'lib, Navoiy asarlarida qo'llangan mingga yaqin so'zning izohi keltirilgan.

Eski o'zbek tilida yaratilgan lug'atlardan yana biri "Abushqa" deb ataladi. Oti aslida bunday emas. Lug'atning ilk so'ziga asoslanib, uni shunday atab ketilgan. Lug'atning muallifi Mustafo bin Sodiqdir. Lug'at so'zları turkiyda izohlangan. Uning tuzilgan davri noma'lum. Hozir Venada saqlanayotgan eng eski qo'lyozmasi 1552 yili ko'chirilgan. Shunga asoslanib, ushbu lug'at XVI asr boshlarida tuzilgan deyish mumkin.

Lug'at tuzgan olimlardan yana biri Fazlullaxondir. Uning asari "Lug'at-i turkiy" deb ataladi. Mazkur lug'at Hindistonda Shoh Jahonning o'g'li Avrangzeb buyrug'i bilan tuzilgan.

Alisher Navoiy asarları bo'yicha tuzilgan boshqa bir lug'at Mirza Maxdixonning "Sangloh" idir. Kitob forsiy zabon o'quvchiga mo'ljallangan bo'lib, Navoiy asarlaridagi ma'nosini topish qiyin bo'lgan so'zlar jamlangan. Shundan kelib chiqib, Mirza Maxdixon uni "Sangloh" deb atagan edi

(ma’nosi “toshloq yer” degani). Lug‘atda Navoiy asarlaridan tashqari, o‘rni bilan Lutfiy, Husayn Boyqaro, Bobur asarlarida uchraydigan so‘zlar ham beriladi va ulardan baytlar keltiriladi.

Lug‘at va grammatic asarlar tuzish an’anasi XIX asrda ham davom etdi. Kitobxonga Alisher Navoiy asarlarini chuqurroq o‘rgatish istagida bu davrda Fath Alixon “Kitob-i lug‘at-i atrokiya”, Shayx Sulaymon Buxoriy “Lug‘at-i chig‘atoyi va usmoniy” asarlarini yozgan.

Hozirgi o‘zbek tilshunosligi. XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab Yevropa mamlakatlarda turkiy tillarni o‘rganishga katta e’tibor qaratildi. Ayniqsa, Rossiyada bu sohada ko‘p ishlar qilindi. Ayni sohada M.A. Kazem-Bek, V.V. Radlov, P.M. Melioranskiy, A.N. Samoylovich, N.F. Katanov, N.I. Ashmirin kabi turkshunoslarning xizmati diqqatga sazovor. Rossiya turkshunosligida tilshunoslik tadqiqotlari quyidagi yo‘nalishlarda amalga oshirildi: 1) Turkiy tillarning grammaticasiga balishlangan asarlar yaratildi; 2) Ko‘k turk, uyg‘ur hamda arab yozuvli o‘rtta asr turkiy yodgorliklar tadqiq etildi; Turkiy yodgorliklar tavsifiga balishlangan asarlar vujudga keldi; 3) Turkiy tillar leksikasi o‘rganildi; 4) Rus olimlari tomonidan turkiy tillarning klassifikasiyasi yaratildi.

XX asr Rossiya turkshunosligida Sankt-Peterburg, Moskva turkshunoslik maktablarida katta ishlar amalga oshirildi. Bu kezlar S.E. Malov, Y.D. Polivanov, A.K. Borovkov, A. Batmanov, Yudaxin, A.N. Kononov, V. Nasilov, E.V. Sevortyan, A.M. Shcherbak, S.N. Ivanov, A. Serebrennikov, E.R. Tenishev va boshqa olimlarning xizmati katta bo‘ldi.

Turkiy tillar G‘arbiy Yevropa mamlakatlarda ham keng o‘rganildi. Bu sohada nemis turkshunoslik maktabi tomonidan yaratilgan tadqiqotlar e’tiborga loyiq.

Turkiy tillar ichida o‘zbek tilining o‘rganilishida XX asr boshlarida vujudga kelgan o‘zbek tilshunosligini ham alohida qayd etish kerak. Bu davrda tilshunoslikda “Chig‘atoyp

gurungi” to‘garagining faoliyati katta. Bu guruhning o‘zbek tili lug‘at tarkibining sofligi uchun olib borgan sa’y-harakatlari e’tiborga loyiq. Bu guruh a’zolari tomonidan o‘zbek tilshunosligida ilm-fanning turli sohalariga (grammatika, matematika, ximiya va boshqa sohalarga) oid terminlar yasalib, adabiy tilga joriy etildi. Bu davrlarda, Abdurauf Fitrat, G‘ozi Olim, G‘ozi Yunus, Qayum Ramazon va boshqa olimlarning faoliyati katta.

S o‘r o q v a t o p sh i r i q l a r:

O‘zbek tili o‘tmishda qanday atalgan?

O‘tmishda turkiy adabiy til qanday atalgan?

Ilk va o‘rtalarda Markaziy Osiyoda til vaziyati qanday kechgan edi?

Turkiy adabiy tilning yuksaluvida shoir-yozuvchilar, tarix bituvchilar, olimlar, tarjimon va kotiblarning qo‘sghan ulushi qay daraja? O‘rnaklar ko‘magida tushuntiring.

Lutfan Alisher Navoiyning turkiy adabiy til yuksalividagi ulug‘ hizmatlarini ta’riflang.

Qadimgi turk dialektlari o‘rtasidagi muhim farqlar nimalardan iborat? Lutfan o‘rnaklar ko‘magida tushuntiring.

Turkiy tilshunoslik tarixi qachondan boshlanadi? Uning tarixiy bosqichlari deganda nimalar ko‘zda tutiladi?

Lutfan hozirgi tilshunoslik metodlari bilan o‘tmish tilshunosligi metodlarini chog‘ishtiring.

IKKINCHI BO'LIM. ESKI TURKIY YOZUVLAR

T a y a n ch t u sh u n ch a l a r: *yozuv tarixi; yozuv, fonetik yozuv, yozuv va imlo; grafema, grafemika, paleografiya, epigrafika, numizmatika; qadimgi turkiy yozuvlar: ko'k turk, uyg'ur, sug'd, moniy, brahma, suryoniy, arab yozuvlari; turkiy yozma yodgorliklar; ko'k turk, uyg'ur, arab yozuvlaridagi turkiy yodgorliklar.*

E' t i b o r q a r a t i l a y o t g a n m a s a l a l a r:

Tutkiy xalqlar ishlatgan eng eski yozuvlar. Eski tutklarda yozuv madaniyati.

Ko'k turk yozuvi va uning imlo o'zgachaliklari.

Uyg'ur yozuvi va uning imlo o'zgachaliklari.

Arab alifbosi asosidagi turkiy yozuv va uning imlo o'zgachaliklari.

Yozuv kishilik tarixidagi buyuk ixtirolardan biridir. U jamiyatning ijtimoiy-siyosiy, madaniy hayotida katta o'rinn tutadi. Yozuv zamonlar va makonlar uzra axborot tizimini yaratib berdi; kishilikning hayotiy tajribalarini, adabiy va ilmiy merosini avloddan-avlodga yetkazib keldi; ma'naviyat va tafakkur taraqqiyotining uzlusizligiga, davlat va jamiyat boshqaruviga, adabiy til me'yorlarining bir qolipda amal qilishi hamda yozma uslublarning takomiliga xizmat qildi. Shuning natijasida insoniyat sivilizasiyasini ta'minlab berdi.

Tilda *yozuv madaniyati, yozuv madaniyati tarixi* degan birikmalarni qo'llaymiz. Yozuv kitobat san'atining materiali sifatida kishilik madaniyatini belgilaydi. Biroq u kishi nutqining belgilar yordamida ifodalananishidir. Shuning uchun u tilshunoslikda o'rganiladi.

Kishilik tarixida yozuv amaliyotini piktografik, ideografik, bo'g'in yozuvlari boshlab berdi. Alifboli (fonetik) yozuvlar tarixi, tabiiyki, inson o'z nutqidagi tovushlarni farqlay boshlagan, lingvistik bilimlar ancha takomillashgan davrlarga to'g'ri keladi. *Alifboli* (yoki *fonetik*) yozuv nutq tovushlari bilan

yozuv belgilari mosligi asosiga qurilgan, yozuvda nutq tovushlarini aks ettiruvchi yozuvdir.

G‘arb tilshunosligida *grafema* tushunchasi bor. Bu “yozuv” degani. Tilshunoslikning yozuv tarixi, uning kelib chiqishi va takomili, belgi va tovush munosabati singari nazariy masalalarni o‘rganuvchi bo‘limi *grafemika* deyiladi. Grafemikaning yozuv ko‘rinishlari, xat san’ati bilan bog‘liq bo‘lgan ichki yo‘nalishlari ham bor. Harf ko‘rinishlari, ularning shakliy taraqqiyotini o‘rganuvchi soha *paleografiya* deyiladi. O‘tmishdan qolgan qabrtosh yozuvlari, yog‘och yoki sopol buyumlar, toshlarga bitilgan yozuvlar, devoriy xatlarni o‘rganuvchi soha *epigrafika*, tangalardagi yozuvlarni o‘rganuvchi soha esa *numizmatika* deb ataladi.

Markaziy Osiyo xalqlari, xususan, turkiy xalqlarning yozuv madaniyati tarixida qator, har qaysisi o‘zicha takomil bosqichiga erishgan butun boshli yozuvlar tizimi amal qilgan. *Yozuvlar tizimi* deganda bir til uchun amal qilgan bir nechta yozuvlar birligini tushunamiz.

O‘rta va Markaziy Osiyo xalqlarining ma’naviy-madaniy yuksalishi, davlatchilik tarixi, ijtimoiy-siyosiy munosabatlarning yuzaga kelishi, diniy qarashlari, ularning qo‘snni sharq xalqlari bilan kechgan madaniy munosabatlariga bog‘liq holda yozuv madaniyatida o‘zgarishlar yuz bergan. Ba’zi yozuvlar xalqning madaniy, ijtimoiy-siyosiy yuksalishi, davlat va jamiyat boshqaruvining taraqqiyoti oqibatida yuzaga kelgan bo‘lsa, boshqa birlari ko‘proq diniy ta’sirlar yoki bu zamin xalqlarining qo‘snni xalqlar bilan bo‘lgan madaniy, iqtisodiy, savdo aloqalari natijasida qabul qilingan. Masalan, qadimgi turklar moniy, brahma, suryoniy yozuvlarini qo‘snni xalqlar bilan kechgan diniy munosabatlar tufayli qabul qilganlar. Turkiy jamoalarda moniylik, buddizm, nasroniylikning yoyilishi ushbu yozuvlarning ham qabul qilinuviga sabab bo‘lgan edi. Shuning uchun ham moniy yozuvini faqat turk-moniy jamoalari, brahma xatini buddistlar,

suryoniy xatini esa nasroniylar qo'llagan. Uyg'ur xati esa butkul o'zga bir madaniy, iqtisodiy munosabatlar tufayli shakllandi; turkiy xalqlar uni sug'd yozuvi negizida yaratdi. Bu o'lkalarga islomning kirib kelishi bilan arab yozuviga o'tildi.

Enda turkiy xalqlarning o'tmishdagi yozuvlari to'g'risida ma'lumot beramiz.

KO'K TURK YOZUVI

Qadimgi turkiy bitiglarda Birinchi va Ikkinci turk xoqonliqlari davrida (VI–VIII yuzyilliklar) yashagan turkiy xalqlar “ko'k turk” (*kök türk*) deb atalgan. Bu atamadagi “ko'k” sifati “rang” (ko'k, zangori rang) ma'nosida emas, u “ildiz, asl, tub” anglamidadir. Bitiglardagi otidan kelib chiqib, hozirgi zamon turkshunosligida qadimgi turk davlatlarini “ko'k turk xoqonliqlari”, ular qo'llagan yozuvni “ko'k turk alifbosi” deb atalmoqda. Ko'k turk yozuvi turklarning eng eski, taxminlarga ko'ra meloddan burungi davrlarda ota-bobolari tomonidan yaratilgan o'z yozuvlari edi.

Ko'k turk yozuvining ildizlari va yuzaga kelgan davri to'g'risida tugal bir to'xtamga kelingan emas. Turkshunoslikda bu masalada qator, hatto bir-biriga qarama-qarshi fikrlar-da bildirilgan. Ayrim olimlar uning asoslarini qadimgi turkiy tamg'alar (urug'-qabila belgilari)ga bog'laganlar. Ularning fikricha, ko'k turk xati ayni tamg'alar negizida yuzaga kelgan. Boshqa bir qarashga ko'ra, ushbu yozuv oromiy alifbolari, aniqrog'i, sug'd xatining negizida hosil bo'lган. Sug'diyning takomillashgan shakli mazkur alifboning shakllanuvida asos bo'lib xizmat qilgan; unga ayrim o'zgartishlar kiritish, yangi belgililar orttirish yo'li bilan yozuv turkiy tilga moslashtirilgan. Bu madaniy jarayon ko'k turk xoqonliqlari davrida, taxminan, VI yuz yilliklarda yuz bergen.

Yozuvning genezisi masalasida yana bir fikr diqqatga molik. Unga ko'ra, ushbu alifbo turkiy muhitda kashf etilgan, shuning uchun unda turkiyning fonetik-fonologik xususiyatlari

yaxshi inobatga olingan. Shuning bilan birga, u oromiy, sug'd, pahlaviy yozuvlarining kuchli ta'sirida bo'lgan (bular to'g'risida qarang: Васильев 1983,5–9).

Paleografik kuzatuvlar, qadimiy yozuvlarni o'zaro qiyoslash olimlarni yana bir fikrga olib kelmoqda. Jumladan, olim A. Amanjolovning fikricha, ushbu yozuvning tarixi meloddan burungi I ming yilliklarga tutashadi. Uning old Osiyo yozuvlariga o'zakdosh bo'lgan qadimgi yunon va somiy-finikiy yozuvlari bilan ayrim jihatdan bog'liqligi bor (Аманжолов 1978,76-87; 2003,289-300).

Qadimgi turkiy yozuvning kelib chiqishi to'g'risidagi tortishuv, aftidan, hali o'z yechimini topishi qiyin kechar. Biz mazkur o'rinda u yoki bu fikrga munosabat bildirmoqchi emasmi. Lekin ushbu masala haqida fikr yuritganda yozuvning quyidagi xususiyatlarini e'tiborga olish kerak deb o'ylaymiz.

Ta'kidlash kerakki, ko'k turk alifbosining tizimi va yozuv prinsiplari tamoman o'ziga xos. U qadimgi hamda o'rtancha eroniy tillarning tovush qurilishiga moslashgan oramiy yozuvlaridan farq qiladi. Ma'lumki, oromiy yozuvlarida harflar bir-biriga ulanadi. Ko'k turk xatida esa harflar ulanmay, ayri-ayri yozilgan. Turkiy yozuv sug'd xatining so'nggi takomillashgan kursivli turidan shakllangan ekan, yangi yozuvda harflarni ajratib yozishning ma'nisi nima? Bu hodisa yozuv tarixida progress emas, orqaga qaytish bo'lmaydimi? Shunday bo'lgan deya faraz ham qilaylik. U holda turklar sug'd xati negizida boshqa bir alifbo - uyg'ur xatini yaratganliklarini qanday tushunmoq kerak? Ma'lumki, uyg'ur xatini yaratish jarayonida sug'diydan u qadar chekinish sodir bo'lgani yo'q. Uyg'ur xati paleografik jihatdan sug'dchaning so'nggi tezkor shakliga juda yaqin turadi. Nazarimizda, uyg'ur xatining kashf etilishi va o'ta ommalashuvi, hatto kiyinchalik ko'k turk xatini siqib chiqarganligining sabablaridan biri ham uning kitobat ishida qulayligi bo'lgan.

Sug‘d alifbosida 22 harf mavjud edi. Uyg‘ur alifbosida unga bir belgi – <l> harfi orttirilib, 23 harfdan foydalanilgan. Lekin ko‘k turk matnlaridagi harflar soni 38–40 atrofida (ayrim matnlarda bundan ham ortiq). Yuqoridagi faraz nazarda tutilgan taqdirda alifboda harflar sonining salkam ikki bor orttirib yuborilishining boisi nima? Axir harflar miqdorini deyarli saqlagan holda uyg‘ur xatini yaratgan emasmidilar?

Sug‘dcha harflar bilan ko‘k turk harflarining ba’zilarini o‘zaro chog‘ishtirish ham mumkin. Lekin turkiy alifboda mazkur belgining ikkinchi eshi-da bor. Masalan, <r> harfi sug‘dcha <r>ga o‘xhash deydigan bo‘lsak, uning yo‘g‘on shakli – <r> sug‘dchadagidan tamoman farq qiladi.

Yana bir xususiyati: ko‘k turk xatida ayrim ideografik belgilarni ham kuzatish mumkin. Jumladan, tadqiqotchilarning e’tiroficha, J <y> harfining genezisi *ay* (oy) so‘zi bilan bog‘liq. Ya’ni oyning ko‘rinishini nazarda tutib, ushbu harfni yaratganlar deb faraz qilish mumkin (yozuvda *ay* so‘zi oy shaklidagi J bilan yoziladi). Shuning singari r <r> harfi er (odam) ko‘rinishi, u <oq> harfi “o‘q”ning ko‘rinishi, T c <t> esa “tom”ning ko‘rinishi asosida shakllangan ko‘rinadi, chamasi. Ayni faraz to‘g‘ri bo‘lgan taqdirda, ko‘k turk yozuvining turkiy muhitda kashf etilgani mutlaqo shubha tug‘dirmaydi.

Muhimi, yozuvda qadimgi turkiy tilning fonetik-fonologik xususiyatlari to‘laligicha inobatga olingan edi. Ko‘k turk alifbosi turkiy xalqlar tarix davomida qo‘llagan yozuvlari ichida o‘z tillariga eng muvofiqlashgani edi. Yozuvning bu kabi xususiyatlarini hisobga olmay, uning asosini boshqa yozuvlarga to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘lab qo‘yish, nazarimizda, o‘zini oqlamas.

Ko‘k turk yozuvining oromiy yozuvlari, xususan, sug‘d xatiga ayrim jihatdan bog‘liqligini umuman inkor etmaslik kerak (bu yozuv ham finikiy alifbo tizimiga borib tutashadi). Lekin yozuvning shakllanishini keyingi davrlarga yoki aynan

sug'd alifbosigagina bog'lab qo'yish, bizningcha, asossiz. Turkiy yozuvning paleografik xususiyatlari va fonetik-fonologik vazifasi uning bir yo'la emas, asta-sekinlik bilan, asrlar davomida, qadimgi turkiyning tovush qurumi bilan uzviy holda rivoj topganidan dalolat bermoqda.

Bizgacha saqlanib qolgan urxun-enisey bitiglari ushbu yozuvning ilk bosqichiga oid emas, balki mazkur obidalar yozuvning takomillashgan bosqichida yaratilgan. Demak, ushbu yozuvning tarixi bizgacha yetib kelgan yodgorliklardan-da qadimiydir.

Ko'k turk xatini ba'zi olimlar bir paytning o'zida kengashib yaratilgan, deb ham chamalamoqdalar. Lekin so'nggi o'nyilliklarda topilayotgan yodgorliklar ushbu yozuvning paydo bo'lган davrini miloddan avvalgi asrlar bilan bog'lash mumkinligini ko'rsatmoqda. Jumladan, Almati yaqinidagi Issiq qo'rg'onidan, o'zbekistonning janubidagi qadimgi kent xarobalaridan chiqqan bitiglar buning dalilidir. Qadimgi turkiy yozuv madaniyatini tadrijiy jarayon sifatida yaxlit talqin etmoq uchun ushbu topilmalar ustida yana chuqur tadqiqotlar bajarilmog'i lozim.

Qadimgi turk xati shu qadar keng yoyilgan ediki, yozuvning ilk o'choqlari qaerlarda bo'lган, degan savol ham tug'iladi. Bu masalada yozuv, asosan, ko'k turk xoqonliqlari davrida Yenisey va Urxun atroflarida yoyilib, taraqqiy etgan deb qarash kifoya emas. Bir yog'i Sibir, Oltoy o'lkalaridan Markaziy Mo'g'ulistonu Sharqiy Turkistonga qadar, ikkinchi yog'i Afg'onistondan tortib Kaspiy tevaragi bo'ylab Sharqiy Ovro'pagacha bo'lган ulkan hududdan topilgan va topilayotgan turkiy bitiglar ilk o'rta asrlarda ushbu tuproqlarda yozuv madaniyatining g'oyat ravnaq topganidan dalolat bermoqda. Muhimi shundaki, mazkur yodgorliklarning xat shakli xilma-xil. Ularni paleografik jihatdan bir guruhg'a biriktirib bo'lmaydi. Har qaysi hududda amal qilgan yozuv paleografik jihatdan o'ziga xos; ayrim belgilari, ba'zi imlo

xususiyatlari bilan ham farqlanib turadi. Jumladan, urxun bitiglarida qo'llangan belgilar soni yenisey va talas bitiglaridagi belgilar bilan barobar emas. Matnlarda bir-biridan farq qiluvchi belgilar bor, ayrim harflarning shaklida ham o'zgarish ro'y bergan. Yoki o'rta Osiyo tuproqlarida yozuvning o'ziga xos ko'rinishi amal qilgan. Yozuvning bu xususiyati ba'zi olimlarni turk runiy bitiglari bir necha alifboda bitilgan degan o'y-xayolga ham olib kelmoqda. I.L. Kizlasovning fikricha, ushbu bitiglarda sakkiz xil alifbo amal qilgan. Urxun-enisey yodgorliklari o'zaro yaqin bo'lган ikki xil alifbo – urxun va yenisey xatida. Talas bitiglari esa ularga o'zakdosh uchinchi alifboda bitilgan (qarang: Кызласов 1994,33).

Qadimgi turk o'lkalaridan topilayotgan yozma yodgorliklar, ayniqsa, ularda qo'llangan xat shaklining o'zaro farqli ekanligidan anglashiladiki, turkiy yozuvning madaniy markazlari bir emas, bir qancha bo'lган.

o'rta Osiyo, xususan, o'zbekiston tuprog'idan topilayotgan ilk o'rta asrlarga tegishli obidalar bu yerlar ham o'tmishda ko'hna turk yozuvining madaniy o'choqlaridan biri o'tganidan dalolat bermoqda.

Ko'k turk alifbosi va imlo prinsiplari

O'tmishdan qolgan alifbo parchalari. Ko'k turk alifbo tizimi va yozuv xususiyatlarini o'rganishda bizgacha yetib kelgan alifbo namunalarining aiamiyati katta. Turkshunoslikda bunday alifbolardan uchtasi ma'lum:

I. Alifbolarning biri Berlin qo'lyozmalar fondidagi Turfondan topilgan matnlar orasida TM 340 (Mz. 171) raqami ostida saqlanmoqda (Sertkaya 1995,284–285). Bu kichik bir qog'oz parchasida ko'k turk alifbosidagi ayrim harflar berilib, ularning ma'nosi ikkinchi satrda uyg'ur harflari bilan izohlab chiqilgan. Alifbo parchasida jami to'rt unli (ä, i, ö, u) va besh

undoshni (b, b', r', m, y') ifodalovchi harf ikki yozuvda berilgan.

II. Berlinda saqlanayotgan Turfon matnlari orasida TM327 (MIK III 35a–b) raqamli bir yozuv parchasi (Sertkaya 1995,285; 2001,25–26) e’tiborni o‘ziga tortadi. Unda ko‘k turk alifbosidagi harflar berilib, har birining ostida moniy harflari bilan ularning nomi qayd etib qo‘yilgan. Mazkur alifbo parchasining tartibi shunday: 1) P(?) – up; 2) N – an; 3) Č – ič; 4) P – ip; 5) K – ag; 6) T' – it; 7) İ – iy; 8) D' – ad; 9) Iı – anj; 10) NY – iy; 11) Z – az; 12) G – ang; 13) ND – and; 14) LT – alt; 15) S – as; 16) N' – an; 17) L' – al; 18) Q – īq; 19) Y – ay.

Mazkur alifbodan ko‘rinishicha, undagi ko‘k turk harflari eroniy tillardan birida izohlangan. Turkiy tilda bo‘lganida, u na, ča, pa, kä, tä, i, dä, ya ... kabi tartibda izohlangan bo‘lar edi. Alifboda <i> harfining [iy] deb qayd etilgani ham izohning eroniy tilda ekanini tasdiqlaydi. Chunki, eroniy tillarga mansub alifbolardagi harflar ana shu tartibda nomlangan. Shuningdek, matnlarda [i] bilan [y] tovushi yagona harf bilan ifoda etilgan. Arab alifbosidagi <ya> harfining vazifasi ham ana shunday.

Ma’lumki, moniy xati faqat moniy jamoalarida qo‘llangan. Basharti shu jihatni nazarda tutiladigan bo‘lsa, mazkur alifbo parchasi moniylik muhitida bitilgani ayon bo‘ladi. Izohlarning eroniy tilda ekanligi esa uning o‘sha tilda so‘zlashuvchilarga turkiy xatni o‘rgatish uchun mo‘ljallanganidan dalolat beradi. Ehtimol, ushbu alifbo biror grammatik asarning uzindisi chiqar.

III. Yana bir alifbo parchasi Yaponiyadagi Ryukoku universiteti fondida 8129 raeami ostida saqlanmoqda (Sertkaya 1995,287–288). Ushbu qog‘ozda uch qatorga ko‘k turk alifbosidagi harflar yozib chiqilgan.

Birinchi qatorda 7 ta harf. Bular: t', i, a, y', ök, r, s'.

Ikkinci qatorda 10 ta harf: t', i, a, y', ök, r, rt, oq, nč, s.

Uchinchi qatorda: 16 ta harf: k, t', i, a, y', ök, r, rt, l, oq, nč, s, o, s', d', ȳ.

E'tibor berilsa, birinchi va ikkinchi satrlardagi harflar uchinchi satrda aytarli takrorlanmoqda. Demak, alifbo tizimidagi harflarni uchinchi satr belgilaydi.

Moniy yozuvli alifbo bilan Ryukoku universitetida saqlanayotgan 8129- raqamli ko'kturk alifbosini o'zaro qiyoslaganda muhim bir xulosaga kelish mumkin. Har ikkovida jami 30 belgi bor. Muhimi, Ryukoku alifbosidagi belgilarning muayyan qismi ikkinchi alifbodagi belgilarning muayyan qismini takrorlaydi. Basharti, bu izchillik asosga olinadigan bo'lsa, Ryukoku alifbo parchasidagi ishoratlarning davomi moniy alifbosining bosh tarafidan joy olmog'i kerak. Shunday o'lchov olinsa, moniy harfli alifboda taxminan o'nta belgi uchramasligi ayon bo'ladi. Shunga o'xshash, Ryukoku alifbosida ham tushib qolgan belgilar o'rni anglashiladi. Yana bir jihat, mayjud varaqlardagi harflar ketma-ketligi turk runiy xatida ham aniq alifbo qoidasi amal qilinganini ko'rsatadi.

Alifbolarni o'zaro qiyoslash turk runiy xatida hali biz bilmagan harflar tizimi bor ekanligidan dalolat beradi. Demak, ko'kturk alifbosidagi harflar soni to'rt unli va o'ttiz to'rt undosh (bari 38 ta) dangina iborat emas, balki ancha ortiqdir.

Ko'k turk xatining imlo prinsiplari. Ko'k turk bitiglarida unlilar to'rt harf yordamida ifoda etilgan: <a-ä>, <i-i>, <o-ö>, <u-ü>.

Muhim belgilaridan biri, unlilar, asosan, birinchi bo'linda yoziladi, singarmonizm qonuniga ko'ra keyingi bo'linda hosil bo'luvchi unli yozilmaydi.

Undoshlarni ifodalovchi harflar uch guruhgaga bo'linadi:

1. Yozuvda undoshlarning fonetik juftini bildiradigan harflar: **B** – b, **b'** – b', **x** – ġ, **g** – g, **D** – d, **d'** – d', **J** – y, **j** – y', **Q** – q, **I** – l, **I'** – l', **N** – n, **n'** – n', **R** – r, **r'** – r', **S** – s, **s'** – s', **T** – t, **t'** – t'.

2. Yozuvda undoshlarning yo'g'on va ingichka variantlarini farqlamaydigan harflar. Bular: **z** – z~z', **m** – m~m', **h** – ȳ~ȳ', **p** – p~p', **c** – č~č', **Y** – š~š', # – ñ~ñ'.

3. Yonma-yon kelgan qo'sh undoshlarni bildiradigan harflar: **P** – lt~l't', **O** – nt~n't', **W** – nc~n't', **n** – rt~r't'.

Ko'k turk yozuvi qadimgi turkiy tilning fonetik-fonologik, morfo-fonologik xususiyatlariga moslashgan edi. Buni yozuvning turkiy singarmonizm (unlilar uyg'unligi) qonuniga bo'ysunganligida yaqqol kuzatish mumkin. Yozuv belgilari so'zning fonetik-fonologik tabiatini anglatib turadi.

Ba'zi undoshlar qanday unli bilan yondosh kelayotgani, bo'g'inning holatidan kelib chiqib, turli harflar yordamida ifoda etilgan. Masalan: [q] tovushi -ïq , -qï morfo-fonologik ko'rinishida **I**, -aq, -qa holatida **Q**, -uq, -oq, -qu, -qo holatida **u** harfi bilan yoziladi. Ayni hodisani [k] tovushining ifodasida ham kuzatamiz.

UYG'UR YOZUVI

Hozirda "uyg'ur yozuvi" deb yuritilayotgan qadimgi turk alifbosi o'tmishda turlicha atalgan. Mahmud Koshg'ariy o'zining "Devonu lug'atit turk" asarida uni "turkcha yozuv" deb atagan (MK.I.47,65). Alisher Navoiy Husayn Boyqaroning o'g'li Badiuzzamonga yozgan maktubida xatlarning o'qish uchun qulay yo qiyinligi to'g'risida fikr yurita turib, uyg'ur xatini ham eslaydi; uni türkçä xat deya tilga oladi. Navoiy yozadi: Yana ul-kim, har türlüg arzadäšt-kim, yuqarı bitilsä, nasxta'liq xati bilä andaq xānā bitilsä-kim, oqurda oqur kişigä taşıviş tegmäsä, türkçä xat bilä xud aslā bitilmäsäki, bu bābda dağı qavle bar (Mun.794a.3–4).

Yozma manbalarda tarixchilar, o'sha davrning adabiyot va ilm egalari uni "uyg'ur xati" yoki "mo'g'ul xati" ham deganlar. Jumladan, XIII asrda yashab ijod etgan forsigo'y shoirlardan biri Puri Bahoi Jomi o'z qasidalaridan birida uni "uyg'ur xati" (xatt-i uyğurî) deb atagan (Sertkaya 1977,19). She'rning uyg'ur xati tilga olingan bayti shunday:

Kāmān turraxāi tu čun kilki baxšiyān,
Kardan maşq barruhi tu xatt-i uyğurî.

Mazmuni:

Sening kokillaring baxshilarning qalami kabitidir,
Yuzingda go‘yo uyg‘ur xatini mashq qildilar.

Mashhur tarixchi Ibn Arabshoh “Ajoibu-l-maqdur fi navoibi Taymur” otli asarida uni “uyg‘ur xati” (Рустамов 1976,39), “Fokihat-u-l-xulafo” asarida esa “mo‘g‘ul xati” degan (Мелиоранский 1900,XLV).

Istanbuldagi Ayosofiya kutubxonasida saqlanayotgan 4757 raqamli Abdulrazzoq baxshi ko‘chirgan majmuaning birinchi betiga arab tilida bir qayd bitilgan bo‘lib, unda mazkur yozuv “mo‘g‘ul xati” (alxattu-l-moğulî) deb atalgan. Qaydning mazmuni shunday: “Mo‘g‘ul tilida mo‘g‘ul xati bilan tuzilgan o‘gitlardan iborat risolalar majmuasi hamda mo‘g‘ul tili va mo‘g‘ul xatidagi “Mahzunu-l-asror” kitobi – ularning har ikkisi turkiyadadir” (qarang: Arat 1992,LXIII).

“Hibatu-l-haqoyiq”ning arab yozuvida bitilgan S qo‘lyozmasining boshlanishiga Adib Ahmad asarining tub nusxasi va mo‘g‘ul xati (ya’ni uyg‘ur yozuvi) bilan bog‘liq kerakli bir ma’lumot yozib qo‘yilibdi. Arab tilidagi ushbu qaydning ma’nosи shunday: “Mo‘g‘ulcha “Hibatu-l-haqoyiq” (kitobi) nasihat va tasavvufga bag‘ishlangan. (Mo‘g‘ul xati) suryoniy xatining bir turidir. Injil ana shu (suryoniy) xatda bitilgan” (qarang: Arat 1992,CXVII). Ushbu qaydda “mo‘g‘ulcha “Hibatu-l-haqoyiq” (kitobi)” deyilganda, aftidan, asarning tub nusxasi mo‘g‘ul (uyg‘ur) xatida ekanligi, arab yozuvli ushbu nusxa esa o‘shandan ko‘chirilgani ko‘zda tutilmoqda. “(Mo‘g‘ul xati) suryoniy xatining bir turidir” degan jumlada uyg‘ur yozuvining suryoniy yozuvi bilan o‘zakdosh ekanligiga ishora bor. Chunki suryoniy yozuvi ham oromiy yozuvidan o‘sib chiqqan.

Temuriylar davlatining rasmiy yozuvi

Temuriylar davri madaniyati, ijtimoiy-siyosiy hayotida, turkiy adabiyot va adabiy tilining takomili, adabiy til yozma

me'yorlarining, yozma uslublarining muayyan qolipga tushushi va turkiy matnchilikning rivojida uyg'ur yozuvining ulushi katta bo'ldi. Qadimgi turk yozuv an'anasi saqlab, turk islam dunyosida uyg'ur xatini so'ng bor qo'llagan ham temuriylar edi. Temurbek o'z davlatining rasmiy ishlarida, ichki hamda xalqaro diplomatik munosabatlarda, badiiy adabiyot sohasida, bilim kishilari orasida uyg'ur xatinining keng amal qilishiga hayrixohlik qildi va buning ijrosiga katta e'tibor qaratdi. Temuriylar davrida uyg'ur xati turkiy yozma til ("chig'atoi turkiysi")ning yetakchi, butun bir saltanatning ish yurituvchi rasmiy yozuviga aylandi. Uyg'ur xati Temuriylar davlatining rasmiy yozuvi edi.

Chig'atoi xonlari zamonida uyg'ur xatinining keng amal qilganligi tarix kitoblarida ham qayd etib o'tilgan. Mashhur tarixchi Ibn Arabshoh o'zining "Ajoibu-l-maqdur fi navoibi Taymur" deb atalgan kitobida uyg'ur xatinining tarixi to'g'risida yaxshi ma'lumot keltirgan. Tarixchi yozadi: "Ular [chig'atoylar – Q.S.] o'zlarining tilxat, maktub, farmon, xat, kitob, bitim, solnoma, she'r, qissa, hikoyat, hisob, xotira va devonga tegishli hamma ishlarini, chingizona tuzuklarini shu yozuvda yozadilar. Bu yozuvni yaxshi bilgan ularning orasida xor bo'lmaydi, chunki bu ularda rizq ochqichidir" (Рытамов 1976).

Yozuv madaniyati tarixida temuriylar davri uyg'ur va arab yozuvlarining yonma-yon (parallel) qo'llanilganligi bilan ahamiyatlidir. Muhimi, o'sha kezlar uyg'ur xatinining mavqeい arab yozuvidan oz emasdi. O'sha chog'lardan qolgan turkiy adabiy asarlarning qo'lyozmalari uyg'ur va arab yozuvlarida. Yodgorliklarning eski, qadimiy qo'lyozmalari ko'proq uyg'ur xatida bitilgan bo'lsa, keyingi davrlarga tegishlilari arab xatidadir.

Uyg'ur yozuvi qo'llanilmay qo'ygach, xon va beklarning kutubxonalarini demaganda, qora ulus qadimgi turkiy yozuvdagi kitoblarni saqlashga urunmagan chog'i. Shuning

uchun ham ularning ko‘pi yo‘qolib ketgan. Ehtimol, temuriylar zamonida yaratilgan asarlarning ko‘proq keyingi, arab xati bilan ko‘chirilgan nuxxalarigina saqlanganligi shundandir? Nima bo‘lganda ham, o‘sha davrning yozuv madaniyati to‘g‘risida aniq-taniq xusosa chiqarishga yetarli material bor.

Yozma manbalarga tayanadigan bo‘lsak, Temurbek ko‘zi tirikligida o‘z yorliqlarini, muhim bitiglarini uyg‘ur xatida yozdirganligi ayon bo‘ladi. Ana shunday manbalardan biri o‘z davrining ulug‘ obidasi sifatida tarixda qolgan.

Turonning sultoni Temurbek yetti yuz to‘qson uchinchi yilning ko‘klamida (=1391 yilning apreli) To‘xtamishxonga qarshi yurish boshladi va bu xususda xotira qoldirmoq istagida toshga bitig yozdirdi. Temur yozdirgan ayni bitigning bitilish tarixi to‘g‘risida Nizomiddin Shomiy va Sharafiddin Ali Yazdiy ham o‘z zafarnomalarida ma’lumot bergenlar. Mazkur bitigtosh 1937 yili Ulug‘ tog‘dagi (Shimoliy Qozog‘iston) Qarsaqbay koni yaqinidan, o‘rnatilgan joyidan topilgan. Hozir Sankt-Peterburg Davlat Ermitajining O‘rta Osiyo xalqlari san’ati va madaniyati bo‘limida saqlanmoqda.

Sultonning nomidan yozilgan bitig o‘n bir satrli bo‘lib, ilk uch qatori arabcha, keyingi sakkiz satri uyg‘ur xati bilan turkiy tilda (“chig‘atoy turkiysi”da) bitilgan. Arabcha xatning birinchi qatori basmala, keyingi ikki satri oyat. Uyg‘ur harfli turkiy matn, nisbatan, yaxshi saqlangan (qarang: Содиков 2009, 70–71). U shunday o‘qiladi: Tarix yeti yüz toqsan üçtä, qoy yıl yazniň ara ay Turannıň sultāni Temür-beg üç yüz miň čerig bilä isläm üçün Toxtamiš xanı (?) xaniňa yoridī. Bu yergä yetip belgü bolsun tep bu tobaniň qopardi. Tejri nisfat bergäy inşalla. Tejri el kişigä rahmat qılğay, bizni duă bilä yäd qılğay.

Eski o‘zbek tilidagi ushbu matn hozirgi tilimizdan bir oz farqli. Matndagi yaz so‘zi “ko‘klam, bahor” degan ma’noni beradi. Bu so‘z hozirgi bolalar qo‘shig‘idagi “Laylak keldi yoz bo‘ldi” jumlasida ham saqlanib qolgan. Matnda yana *el kişi* birikmasi ham bor. Bu o‘rinda *el* – “yurt, mamlakat”, *el kişi* esa

ruschadagi “grajdanin” degan tushunchani beradi. Bitigdagı *töbä* so‘zi “yodgorlik, bitigtosh” anglamidadir. Bitigning e’tiborni tortadigan yana bir xususiyati, undagi ta’rix (sana) asl turkiy qolipda: avval yil (hijriy va muchal tartibida), so‘ng oy, kun ketma-ketligidadir.

Amir Temur bitigda *Temür-beg* deb tilga olingen. Bu ismdagi *beg* uning darajasidir. U “amir”ga to‘g‘ri keladi. Uyg‘ur, arab yozuvlarida [k] va [g] tovushlari bir harf bilan ifoda etilganligi ma’lum. Muhimi shundaki, “Qutadg‘u bilig”ning arab yozuvli namangan nusxasida ora-chora *beg* so‘zidagi “kof” harfining ustiga uch nuqta qo‘yib ketilgan. Uch nuqtasi bu so‘zning [g] bilan o‘qilganiga dalil. Demak, yozma yodgorliklar tilida bu so‘z *bek* emas, *beg* deb o‘qiladi.

Yuqoridagilarni nazarda tutgan holda, bitigning mazmuni shunday bo‘ladi: “Tarix yetti yuz to‘qson uchda, qo‘y yil, ko‘klamning ora oy(ida) Turonning sultoni Temurbeg uch yuz ming qo‘sish bilan islom uchun To‘xtamish xon(ning) xonligiga yurdi. Bu yerga yetib, belgi bo‘lsin deb ushbu bitigtoshni yozdirdi. Tangri (bizga) nisfat [ya’ni to‘g‘rilik, insof] bergay inshoolo. Tangri fuqaroga rahm qilg‘ay, (el) bizni duo bilan yod qilg‘ay”.

U. Sertkaya uyg‘ur yozuvli matnning birinchi jumlasini Tiriix yedi yüz toqsan üçtä qoy yil yerniň ugani turannij sultani Temür-bek üç yüz mij cerik bilä ismi üçün toqtamiš qanqa bulğar qaniqa yoridü ko‘rinishida o‘qib, turkchaga “Tarih yedi yüz doksan üçte, Koyun yıl(inda), yerin (cihanın) sahibi, turanın sultani Temür Bey, üç yüz bin asker ile, ismi (islam?) için Toktamış Han'a, Bulgar Hani'na yürüdü” deb tarjima qilgan (Sertkaya 2007,36–37).

E’tibor bersangiz, bitigda Temurbek o‘z sultanatini *Turan* deb atamoqda. Temurbek mamlakati aslida shunday atalgan. Matnda hukum dor o‘zini *Turannij sultani*, otini esa *Temür-beg* degan: *Turannij sultani Temür-beg*. Sultanning oti turkiy tildagi boshqa hujjatlarda ham shunday. Masalan, Sultan Abu

Saidning uyg‘ur yozuvli vasiqasida u *Sāhibqirān Temür-beg, Beg, Sāhibqirān Beg, Temür-beg* deb beriladi. Yanada muhimmi, bitigning arab xatida emas, balki qadimgi uyg‘ur yozuvi va turkiy tilda ekanligidir. Bu ham bo‘lsa, Temurbek o‘zining tarixiy yozmalari, yilnomalari, rasmiy yorliqlarini uyg‘ur xatida bittirganidan dalolat beradi. Temuriylar tarixini bitgan muarrixlar o‘z asarlarini yozishda uyg‘ur yozuvida bitilgan ana shunday yilnama, tarixiy hujjatlardan foydalanganlarini ham qayd etib o‘tganlar.

XIV–XV asrlarda Mavoraunnahr va Xurosonda kitobat san’ati gullab-yashnadi. O‘sha kezlar Yazd, Hirot, Samarqand madaniy markazlarida uyg‘ur xatida bituvchi xattotlarning maktablari yuzaga keldi. Temuriylar bu noyob kasb egalariga doim g‘amxo‘rlik qildilar, uyg‘ur xati bilan yozuvchi kotiblar ularning himoyasida bo‘ldi. Chunonchi, Hirotda ko‘chirilgan uyg‘ur yozuvli qo‘lyozmalar Shohruhning, Samarqandda Mirzo Ulug‘bekning, Yazdda esa Mir Jaloliddin(Jaloliddin Mir Chaqmoq)ning buyrug‘i va homiyligi ostida bitildi.

XIV–XV asrlarda Oltin O‘rda, Chig‘atoj xonlari zamonida turkiy tilda bituvchi kotiblarni *baxši* deganlar. O‘sha kezlar turkiy matnlar qo‘proq uyg‘ur xatida yozilardi. Shuning uchun ham *baxši* ko‘pincha uyg‘ur xatida ko‘chiruvchi kotibni bildirgan va bu so‘z uning otiga ham qo‘shib aytilgan. Turkiy yozma manbalarda o‘sha davrda yashab ijod etgan baxshilarning otlari ham qayd etiladi (masalan, o‘sha kezlarda yashab ijod qilgan Mansur baxši, Hasan Qara Sayil Šams baxši, Zaynu-l-Abidin baxši ning otlari ma’lum).

Temuriylar zamonida bitilgan bebaho yozma obidalarning ayrimlari va, aniq aytish mumkinki, eng nodirlari kunimizgacha yetib kelgan. Ana shunday nodir qo‘lyozmalardan biri Yusuf Xos Hojib yozgan “Qutadg‘u bilig” asarining uyg‘ur yozuvli nusxasidir (Радлов 1890). Uni Hasan Qora Sayil Shams baxshi 1439 yili Hirot shahrida

ko‘chirgan. Qo‘lyozma kitob hozir Vena Milliy kutubxonasida (A.G.‘.13) saqlanmoqda.

“Qutadg‘u bilig”ning Hirot maktabida ko‘chirilganligi temuriylar zamonida o‘tmish adiblarining asarlariga e’tibor katta bo‘lgani, shuningdek, qoraxoniylar davri adabiyoti, eski turkiy adabiy til va yozuv an’anasining davom etganligidan dalolat beradi.

Hirot xattotlik maktabining yirik namoyandalaridan yana biri Abu Malik baxshidir. Uning qo‘lidan chiqqan nodir qo‘lyozma hozir Parijdagi Fransiya Milliy kutubxonasida (Suppl. Turc.,190) saqlanmoqda. Baxshi mazkur qo‘lyozmani hijriy 840 (melodiy 1436–1437) yili ko‘chirgan. Qo‘lyozmaga ikki yirik asar bitilgan bo‘lib, ikkovi ham forsachadan tarjima qilingan (Pavet de Courteille 1882; Sertkaya 1977,12–13).

Qo‘lyozmadan o‘rin olgan birinchi asar “Me’rojnama” deb ataladi. Turkiy “Me’rojnama”ga Rasul ’alayhi-s-salāmnij Me’rājqa barğanı deb sarlavha qo‘yilgan. Asar muqaddimasida shunday ma’lumotni o‘qiyimiz: Emdi bilgil-kim, bu kitābnij ati Me’rājnāma turur. Nahju-l-faradis atlīg kitābdin türk tiligä ewürdük. Köp kişilärgä fayda tegsün tep Teñri ta’ālanij tavfiqi birlä tamam bitilip xalayıqnij könjli közügä şirin körüngäy.

Qo‘lyozmaga kiritilgan keyingi asar “Tazkira-yi avliyo”dir. U Farididdin Attorning forscha “Tazkiratu-l-avliyo” asaridan turkiy tilga tarjima qilingan. Asar qo‘lyozmaning 13b–151a betlarida. Uyg‘ur yozuvli matnning oxirida kitobning ko‘chirilgan sanasi (ta’rix) bitilgan: Emdi tazkirada bitilgän maşayih avliyalarnij hikayat sözläre tügätildi. Tarix sekiz yüz qırqta at yıl jumadu-l-axira aynij onida Haruda Abu Malik baxşı bitidim.

Samarqand baxshilarini ichida Zaynul Obidinning dovrug‘i ketgan. Baxshi “Hibatu-l-haqoyiq” dostonining tayanch matnini yaratgan. Muhim jihat, temuriylar davri o‘zbek matnshunosligida matn tuzish prinsiplari, qiyosiy matn yaratishning ilmiy asoslari tugal bir ko‘rinishda ishlab

chiqilgan edi. Chunonchi, 1444 yili Samarqandda yirik davlat arbobi, adabiyot va ilm-fan homiysi, shoir Amir Arslon Xo'ja Tarxon buyrug'i bilan Adib Ahmad Yugnakiy "Hibatu-l-haqoyiq" dostonining tayanch matni tuzib chiqildi. Arslon Xo'janing asarni qayta kitob holiga keltirishdan istagi, adib o'gitlarining xato talqin qilinishiga chek qo'yish, ularni tuzatish va asarning tayanch, ishonchli nusxasini yaratish edi. Tayanch matn tuzilgach, asarning keyingi nusxalari uning asosida ko'paytirilgan. "Hibatu-l-haqoyiq" ("Atabatu-l-haqoyiq")ning ushbu tayanch matnini Zaynul Obidin baxshi tuzib chiqdi. Ushbu qo'lyozma bizgacha yetib kelgan asar nusxalarining eng eskisi, to'lig'i va ishonchlisidir. Shuning bilan birga, qo'lyozma o'z davri kitobat san'atining ajoyib yodgorligi ham (Arat 1992,I-LXIII).

Zaynul Obidin baxshi uyg'ur xati bilan XV asr turkiy adabiyotining yirik namoyandasasi Mir Haydarning "Mahzanu-l-asror" asari hamda 30 baytli qasidasini, Yusuf Amiriy "Dahnama"sini ham ko'chirgan. Kunimizda ushbu qo'lyozmalar o'z davrining qimmatli yodgorligi sifatida qadrlanadi.

Kitobat tarixida Yazd xattotlik maktabi namoyandalarining ishlari ayricha o'ringa ega. Yazd shahrida bitilgan noyob qo'lyozmalardan biri Mansur baxshi qalamidan chiqqan majmuadir. Bu kitob hozir Britaniya Muzeyida Or. 8193 raqami ostida saqlanmoqda. Qo'lyozma temuriylar davridan qolgan uyg'ur yozuvli eng chiroqli, shuning bilan birga, kitobat san'atining ajoyib namunalaridan. Matn mahorat bilan ko'chirilgan, sahifalari geometrik shakllar va islimiy naqshlarga boy. Uyg'ur yozuvli matn to'g'ri chiziq bo'ylab o'n olti qatordan yoki turli geometrik shakllar orasiga bitilgan. Mansur baxshi ushbu majmuani 1432 yili ko'chirgan edi. Majmua tarkibidagi "Muhabbatnoma" dostonining yakunida shunday ta'rixni o'qiyamiz: Tamām boldī Muhabbatnāma kitābī. Qutluğ bolsun, tarix sekiz yüz otuz beštä čičqan yil rajab

aynij altisinda Yazd sahrinda Mirjalal(id)din buyurgan üçün bu faqir Mansur baxşı bitidi.

Majmuaga uyg‘ur xati bilan Xorazmiyning “Muhabbatnama” dostoni, diniy-falsafiy mazmundagi “Siroju-l-qulub”, “Mas’ala kitobi”, “Rohatu-l-qulub” asarlari, shuningdek, Mansur baxshining qasidasi, Mavlono Lutfiyning to‘rt g‘azali, Qambar o‘g‘lining uchta, Javhariy, Qosim, Sayyidning bittadan g‘azali va bir nechta to‘rtlik bitilgan. Hoshiyasida esa Kamol Ismoil Isfaxoniyning (XIII asr) forsiy devoni (u arab xatida). Co‘nggi ikki betining hoshiyasiga uyg‘ur xati bilan Rashididdin Vatvot “Sod kalima”sining bir bo‘lagi ko‘chirilgan. Mazkur uzindи arab va fors tilidadir.

Mansur baxshi uyg‘ur yozuvi bilan “Baxtiyornoma” asarini ham ko‘chirgan. Uyg‘ur yozuvli mazkur qo‘lyozma hozir Oksforddagи Bodlean kutubxonasida (598- raqami ostida) saqlanmoqda. Qo‘lyozma hijriy 838 (melodiy 1434) yili ko‘chirilgan. Asar yakunidagi ta’rix shunday: Qutlug bolsun tarix sekiz yüz otuz sekizda tawusqan yıl zulhijja aynij avvalinda Mansur baxşı bitidi.

Uyg‘ur xati temuriylar davlatining rasmiy yozuvi ham edi. Temuriylar o‘z yorliqlarini, rasmiy hujjatlarini uyg‘ur xatida yozganlar. Temurbek o‘zi yorliqlarini, qo‘shti ellarning hukumdarlariga yo‘llagan maktublarini uyg‘ur xatida va turkiy tilda yozdirgan, temuriylarning shajaralari ham ayni yozuvda. Temurbekning o‘limidan keyin Shohruh va Mirzo Ulug‘bek, Abu Said Mirzo va uning o‘g‘li Umar Shayx Mirzo ham o‘z devonida, davlat ishlarida qadimgi turkiy alifboni keng qo‘llagani ma’lum. Bu yozuvni Zahiriddin Bobur ham yaxshi bilgan.

Temuriylar davlati, jamiyat va davlat boshqaruvi, xalqaro diplomatik munosabatlar tarixini o‘zida aks ettirgan yorliqlardan ayrimlari kunimizgacha saqlanib qolgan. Shohruhning 1422 yili Hirot yaqinidagi Bog‘i shaharda Chechakto‘ba mavzeidagi Talxan ota mozorining mujovuri

Ismoil nomiga yozdirgan suyurg‘ali, Sulton Abu Saidning 1468 yili Uzun Hasanga yuborgan bitigi, Sulton Umarshayxning 1469 yili marg‘ilonlik Mir Sayid Ahmadga bergen yorlig‘i (nishoni) shular jumlasidandir.

Umuman, turkiy xalqlarning yozuv madaniyati tarixida uyg‘ur xatining ahamiyati katta. Uning tarixiy taraqqiyoti davomida temuriylar davri muhim bosqich sanaladi. Qadimgi turk yozuv an’anasining davom etishida, uyg‘ur xatining ijtimoiy-siyosiy, madaniy hayotdagi o‘rnini belgilashda, rasmiy va diplomatik munosabatlardagi mavqeini ta’minlashda temuriylarning xizmati katta bo‘ldi. Eski o‘zbek adabiy tili (“chig‘atoy turkiysi”) yozma me’yorlarining tartibga tushuvida, til uslublarining takomillashuvi, matn tuzish va kitobat ishining yangi bir bosqichga erishuvi, uning gullab-yashnashida uyg‘ur xatining xizmati katta bo‘lganini alohida ta’kidlamoq kerak. Ushbu yozuv mumtoz o‘zbek yozma adabiyotining sara asarlarini, temuriylar yaratgan ulkan obidalarni kunimizgacha yetkazib keldi.

Uyg‘ur alifbosi

O‘tmishdan qolgan uyg‘ur alifbolari. Kunimizgacha bir qancha uyg‘ur alifbolari yetib kelgan. Ular grammatik va tarixiy asarlar tarkibidadir.

I. Mahmud Koshg‘ariy “Devonu lug‘atit turk” asarida uyg‘ur xatining qo‘llanilish tarixi, yozuv, imlo xususiyatlari to‘g‘risida ma’lumot bergen va uyg‘ur alifbosini keltirgan (MK.I.47–50, 65; MK.facsimile. 3b, 4b, 102b).

II. R.R. Aratning ma’lumotiga ko‘ra, Anqaradagi Maorif kutubxonasida saqlanayotgan “Hibatu-l-haqoyiq”ning Ye nusxasi kiritilgan qo‘lyozmada uyg‘ur alifbosi ham keltirilgan (Arat 1992,34–35; CLXIX).

Alifboden oldin shunday jumla bitilgan: Fasl: fi xatti-l-uyğur alāna nuqāl muğuli va huru:fuhā: 16 harfan mubniya 'ala-l-fath.

Mazmuni: Fasl: Hozirda mo'g'ulcha deb ataladigan uyg'ur xatida harflar (soni) 16 ta va fatha asosiga qurilgan.

Shundan so'ng 18 ta uyg'ur harfi keltirilib, ular 16 xil arab harfi bilan izohlab chiqilgan.

III. Tarixchi Ibn Arabshohning “Ajoibu-l-maqdur fi navoibi Taymur” atalmish asarida uyg'ur xati to'g'risida ma'lumot beriladi va uning alifbosini keltiriladi (Qohira milliy kutubxonasida saqlanayotgan 3543–raqamli qo'lyozma, 186a–187a- betlar) (Рустамов 1976).

IV. Ibn Arabshoh “Fokihatul-l-xulafo” asarida ham uyg'ur xatiga to'xtaladi va alifbo tartibini keltiradi (Мелиоранский 1900, XLV–XLVII).

Alifbo tizimi. Uyg'ur alifbosida harflar o'n sakkizta. Mahmud Koshg'ariy o'zining “Devonu lug'atit turk” asarida uyg'ur alifbosini keltiradi va har bir shakl ostida arab harflari bilan ularning ma'nosini ham beradi (MK.I.47). Agar buni transkripsiyada ko'rsatadigan bo'lsak, o'n sakkiz harfli mazkur alifbo tubandagi ko'rinishga ega bo'ladi: *a w x v z q y k δ m n s b č r š t l*.

Alifboda harflar soni oz bo'lishiga qaramay, uyg'ur yozuvining imlo prinsiplari puxta ishlangan edi. Qator harflarga bir emas, bir qancha tovushni ifodalash vazifasi yuklatilgan. Ayniqsa, yozuvning keyingi bosqichida (XI–XV asrlarning yodgorliklarida) ba'zi tovushlarni farqlash maqsadida qo'shimcha nuqta va ishoratlardan unumli foydalanilgan. Puxta imlo va qo'shimcha grafik vositalar yozuvning imkoniyatlari keng ekanligidan dalolat beradi. Shuning uchun ham uyg'ur xati uzoq yuzyilliklar mobaynida turkiy tilning fonetik-orfoepik talablarini bemalol qondirib keldi.

Alifbo harflarining ko‘pvazifalilik xususiyati to‘g‘risida Mahmud Koshg‘ariy alohida to‘xtalgan edi. Uning ta’kidlashicha, turkiy tildagi yetti tovush uyg‘ur yozuvida o‘z belgisiga ega emas. Bular: *p*, *ž* (sirg‘aluvchi), *ğ*, *g*, *η* hamda arabcha *j*, *f* lardir. Ushbu tovushlar yuqorida ko‘rsatilgan harflar vositasida ifoda etilgan yoki ular singari ifodalanib, qo‘sishimcha belgilarni bilan farqlangan (MK.I.48). Bundan yozuvda quyidagi tovushlar bir xil harflar orqali ifoda etilganligi ayon bo‘ladi: *k–g*, *x–ğ*, *č–j–ž*, *w–f*. Sonor *η* esa yozuvda ikki harf (*n+k*) bilan berilgan.

Alifbo harflarining o‘z oti ham bor. Bu ot har bir harf o‘zi bildirgan tovushga “fatxa” qo‘sib hosil qilingan: *a*, *wa*, *xa*, *va*, *za*, *qa*, *ya*, *kä*, *δa*, *ma*, *na*, *sa*, *ba*, *ča*, *ra*, *ša*, *ta*, *la*. Eslashga o‘ng‘ay bo‘lsin uchun alifbo harflarini tartib bilan uchta-uchtadan birlashtirilib, *awaxa*, *vazaqa*, *yakäða*, *manasa*, *baçara*, *şatala* ko‘rinishida o‘qilgan.

Uyg‘ur alifbosidagi harflardan uchtasi, o‘rni bilan, unlilarini ifodalashga xizmat qilgan: <*a*> harfi [a]–[ä~e] unlilarini, [*y*] undoshini ifodalovchi <*ya*> harfi [i]–[i~e] ni, <*va*> harfi esa [*u*]–[ü]–[o]–[ö] unlilarini anglatadi.

Yozuvda hatto old va orqa qator unlilar ham farqlangan. Yozuvning bu xususiyati sug‘d xatini turkchalashtirish jarayonida vujudga kelgan edi. Chunonchi, sug‘dcha yozuvda cho‘ziq [a:] tovushi qisqa [a] dan qo‘shaloq alif orqali yozilishi bilan farqlangan. Turklar sug‘d xatini o‘zlashtirish chog‘ida uning ba‘zi prinsiplarini o‘z tillariga moslashtirib olganlar. Sug‘d xatida cho‘ziqlikni anglatuvchi grafik belgilarni uyg‘ur yozuvida cho‘ziq-qisqalikni emas, turkiy til uchun muhimroq bo‘lgan old va orqa qator unlilarini farqlashga xizmat qila boshladi. Turfondan topilgan qadimgi budda, moniy matnlarida so‘z boshida qo‘shaloq <*aa-*> harfi orqa qator [a] ni, oddiy <*a-*> esa old qator [ä (~e)] unlisini ifodalagan. Keyinchalik orqa qator [a] tovushi uchun ham oddiy <*a-*> harfidan foydalaniladigan bo‘ldi. So‘z boshi va birinchi bo‘g‘inda old

qator yumshoq [ö]–[ü] unlilarini ifodalash uchun ham qo’shaloq belgidan foydalanilgan: “va” harfi yozilib, unga “ya” ulangan. Old qator lablangan unlilar yozuvda shu usul bilan orqa qator [o]–[u] unlilaridan farq qiladi.

Uyg‘ur alifbosidagi harflarning aksariyati polifonik xususiyatga ega. Buning sababi alifboning ixcham bir shaklda tuzilganligida. Turkiy xalqlar o’tmishda foydalangan alifbolarning eng ixchami ham uyg‘ur alifbosi edi. Ixcham bir alifboda qadimgi turkiy tilning murakkab tovush tizimini ifodalash murakkab ish. Shu o’rinda o’yimizga “nima uchun turklar bu yozuvdan uzoq muddat foydalanib keldi, bu ularga mushkullik tug’dirmadimi?” – degan so’roq kelishi tabiiy. Ushbu jumboq oson hal etilganligining muhim sababi bor: uyg‘ur yozuvining imlo prinsiplari juda o’ylab ishlab chiqilgan edi. O’tmish yozuv amaliyotining tajribasi shuni ko’rsatadiki, yozuvning qulay yo o’ng’aysizligi, tilning fonetik-fonologik tizimiga qay daraja javob bergenligi alifbodagi harflarning ozko’pligida emas, balki imlo qoidalarining qanday tuzilganligida ekan. Aks holda, 38–40 harfli ko’k turk alifbosidan 18–16 harfli uyg‘ur alifbosiga o’tishning o’zi bo’ladimi? Buning boshqa sababi ham bor: yozuv amaliyotida harflari bir-biriga ulab yozilgan uyg‘ur xatidan foydalanish ko’k turk xatiga ko’ra qulayroq, kitobat ishida uning imkoniyatlari kengroq edi.

Imlo prinsiplari. Muhim belgilaridan biri, uyg‘ur xatida unlilar muntazam yoziladi. Mahmud Koshg‘ariy yozuvning bu xususiyatiga to’xtalib, talaffuzda o’rni yo’qligiga qaramay (bunda qisqa unlilar ko’zda tutilmoxda – Q.S.) fatxa o’rnida ‘alif’, zamma o’rnida ۋ “vav”, kasra o’rnida ى “ya” yozish qoida ekanligini ta’kidlagan edi (MK.I.49). U o’rnak qilib ayrim so’zlarning uyg‘ur va arab yozuvlarida yozilish tartibini ham bergen. Arab xatida – KeLiN, uyg‘ur xatida – KELİN; arab xatida – TaPaN, uyg‘ur xatida – TAPAN (tuya tovoni) (MK.I.384).

Uyg‘ur xatining yana bir qulayligi, matn so‘zning talaffuziga moslab yozilgan. Masalan, Mahmud Koshg‘ariy “Devonu lug‘atit turk”da keltirgan xaritasida Xorazm atamasini خوارزم *Xvārazm* deb beradi. Arab yozuvli boshqa manbalarda ham ushbu topominning yozilishi ana shunday.

Shuning singari, Xorazmiy “Muhabbatnama” sining arab yozuvli qo‘lyozmalarida asar egasining taxallusi ham “vav alif” bilan خوارزمى *Xvārazmi*: shaklida yozilgan. Lekin u ana shunday talaffuz etilgan deya olmaymiz. Harqalay, mazkur so‘zning imlosida grafik prinsip saqlangan chiqar. Ushbu so‘zning turkiy talaffuzini asarning boshqa bir nusxasi – uyg‘ur yozuvli matnida kuzatamiz. Chunonchi, uyg‘ur yozuvli matnda ushbu taxallus *Xorazmi*: shaklida yozilgan. Agar uyg‘ur xatidagi matn so‘zning talaffuz shaklini ifoda etganligini ko‘zda tutsak, shoirning taxallusi hozir biz qo‘llayotganimizdek *Xārazmiy* (adabiy orfografik: *Xorazmiy*) emas, balki *Xorazmi*: shaklida talaffuz etilgani ayon bo‘ladi. Demak, joy oti ham qadimda Xorazm deyilgan. Anglashiladiki, arab yozuvli matnlarda ayrim o‘zlashgan so‘zlarga nisbatan yozuv prinsipi amal qilgan bo‘lsa, uyg‘ur yozuvli matnlarda ushbu so‘zlar talaffuzga moslab bitilgan.

Shuningdek, “Muhabbatnama”ning arab yozuvli qo‘lyozmasidagi خواجه *xvāja* so‘zi asarning uyg‘ur yozuvli qo‘lyozmasida *xoja* shaklida yozilgan: Muhammad xoja beg.

Arabiylizofadagi *al-* ko‘rsatkichi arab yozuvida bitilgan turkiy manbalarda *al-* shaklida yozilsa, uyg‘ur yozuvli matnlarda talaffuzga mos holda *ul-* shaklida beriladi. Masalan, “Hibatu-l-haqoyiq” dostonining oti asarning uyg‘ur yozuvli A nusxasida talaffuzga moslab *'Atabatul-haqayiq* shaklida yozilgan. Asarning B nusxasida: uyg‘ur yozuvli matnda *Hibatul-haqayiq*, ostidagi arab yozuvli matnda *Hibat al-haqayiq*. Asarning arab yozuvli S nusxasida bu so‘z yozuv prinsipini saqlagan holda *Hibat-al-haqayiq* emas, balki talaffuzga mos holda *Hibat-ul-haqayiq* shaklida berilgan.

Ko‘rinadiki, bu o‘rinda uyg‘ur yozuvli matnning ta’siri bor. Ushbu nusxa uyg‘ur xatidan arab yozuviga o‘girilayotganda kotib beixtiyor uyg‘ur yozuvli matndagi ko‘rinishiga tayangan.

Yana bir belgisi. Fors tilidan o‘tib kelgan yoyi nisba ko‘rsatkichi hozirgi o‘zbek adabiy tilida -iy shaklida qabul qilingan. *Navāiy*, *Lutfiy* taxalluslari hozirgi o‘zbek adabiy-orfografik qoidasiga ko‘ra -iy bilan yoziladi va talaffuzi ham shunga olib boriladi.

Uyg‘ur yozuvli matnlarda yoyi nisbaning ham talaffuzi aniq beriladi. Yoyi nisba yozma yodgorliklar tilida shunday talaffuz etilgan: agar so‘z undosh bilan tugagan bo‘lsa, yoyi nisba yozuvda “ya” harfi bilan ifoda etilib, cho‘ziq [i:] sifatida o‘qilgan: *Yügnäkî*, *Javharî*, *Lutfî*, *Sakkâkî*.

Agar so‘z unli bilan tugasa, u holda yoyi nisba ketma-ket ikkita “ya” harfi bilan yozilgan. Endi buni, qoidaga ko‘ra, -yi: deb o‘qiymiz: *Navāyî* [arab yozuvli matnlarda ushbu taxallus نوایی shaklida yozilgan va bu ham *Navāyî* deb o‘qiladi]. Ko‘rinadiki, hozir biz *Lutfiy*, *Navāiy*, *Atāiy* [adabiy orfografik: *Lutfiy*, *Navoiy*, *Atoiyl*] shaklida qo‘llayotgan taxalluslar turkiy yozma yodgorliklar tilida hozirgi adabiy tilimizdagidek emas, balki jonli og‘zaki tildagi singari *Lutfî*, *Navāyî*, *Atayî* shaklida talaffuz etilganidan dalolat beradi.

Uyg‘ur yozuvining imlo prinsiplari turkiy tilning talaffuz o‘lchovlariga moslashgan edi. Arab yozuvli matnlarda o‘zlashgan so‘z va formalarga nisbatan grafik prinsip saqlangan, ya’ni ular arabcha yo forscha matnlarda qay shaklda yozilgan bo‘lsa, turkiy matnlarda ham shunday yozilgan (jumladan, o‘zlashgan so‘zlarga xos ayrim tovushlar, arabiyl va forsiy izofalar, -u (-vu), va bog‘lovchilar, yoi nisba kabilar). Uyg‘ur yozuvli matnlarda esa ularning turkiy talaffuzi aks etgan.

MONIY YOZUVI

Melodiy 247 yili Bobilda Moniy boshchiligidagi yangi diniy oqimga asos solindi va o'sha kezlardan boshlab Suriyaning Palmira shahrida qo'llanilgan yozuv shakli asosida tuzilgan moniy yozuv ham amal qila boshladi. Keyinchalik ushbu yozuv moniy dini bilan birga O'rta va Markaziy Osiyoga ham kirib keldi. Ushbu tuproqda moniy xatini moniylikni qabul qilgan turk va sug'd jamoalarini qo'llagan. VII asrga kelib, moniylik uyg'ur xoqonlig'ining davlat dini sifatida amal qilgan chog'larda bu yozuv turklar orasida keng yoyildi.

Odatda, turk-moniylarida diniy asarlar ko'proq moniy xatida bitilar edi. Bizgacha moniy xatida bitilgan turkiy yodgorliklardan saqlanib qolgan. Turkiy matnlari ichida moniy diniy mazmunidagi she'rlar bor. Shuningdek, moniychilar tavbanomasi "Xuastuanift"ning ayrim qo'lyozma nusxalarini moniy xatida. Jumladan, asarning Britaniya Muzeyida saqlanayotgan nusxasi, Berlin fondida saqlanayotgan T.II.D.178; TM303(M153); TM183; M172; M443 raqamli uzindilar moniy alifbosidadir.

SUG'D YOZUVI

U meloddan avvalgi III asrlarda oromiy xati negizida shakllangan bo'lib, melodning XI asriga qadar sug'dlarning milliy yozuviga sifatida amal qilgan. "Milliy sug'd yozuv'i"ni aslida sug'dlar ishlatgan. Uzoq tarixiy birodarlik, qo'shnichilik va birga yashash ta'sirida undan turklar ham foydalangan. Lekin "milliy sug'd yozuv'i"dagi turkiy bitiglar oz.

Kezi kelganda, sug'd yozuvini madaniyati O'rta va Markaziy Osiyo xalqlarining yozuv madaniyatiga ham ta'sir ko'rsatgan edi. Uyg'ur yozuvining negizi ham sug'd yozuviga tutashadi.

BRAHMA YOZUVI

Brahma xati bo‘g‘in yozuvi bo‘lib, qadimgi sanskritcha alifbo negizida shakllangan. Turon yurtiga buddizm ta’sirida kirib kelgan. Brahma xatini turk budda jamoalarigina qo‘lladi, qolganlar o‘z yozuvida qolaverdi. Shunisi borki, buddizmni qabul qilgan turklar o‘zining milliy yozuvidan ham kechgani yo‘q. Ular o‘z tillariga o‘girilgan budda asarlari uchun uyg‘ur yozuvidan ham foydalangan. Buning sababi, turkiy xalqlar uchun bo‘g‘in yozuvidan ko‘ra o‘zlarining fonetik alifbolarini qo‘llash qulay edi. Shuning uchun ham qadimgi turklar orasida brahma xati keng yoyilgan emas. Uning yodgorliklari ham shunga yarasha oz.

SURYONIY YOZUVI

Melodning boshlarida Mesopotamiyaning G‘arbiy shimolida xristianlik gurkiragan edi. Bu o‘lkada oromiy alifbosi asosida shakllangan suryoniy xati amal qilgan. V yuzyillikning o‘rtalarida Suriya dindorlari ikki mazhabga bo‘linib qoldilar. Ularning nasturiy mazhabidagilari o‘z yurtida ta’qib ostida qolgach, Erondan panoh topdilar. Nasroniylar bu yerda o‘zining ta’limot maktablarini ochdi. Mana shu mакtab namoyandalari o‘z ta’limotlarini mahalliy xalq orasiga ham yoydilar. Ularning missionerlik ishlari oqibatida nastroniylit VII–VIII asrlarda Hirot, Samarqand, Qashqar, hatto Hindiston bilan G‘arbiy Xitoya yetib bordi. Nasroniylik bilan bir paytda bu o‘lkalarda suryoniy alifbosi ham tarqalgan. Suryoniy xati turk nasroniylar orasida ham qo‘llanilgan. Bizgacha yetib kelgan nasroniy mazmunli turkiy yodgorliklar ikki – uyg‘ur va suryoniy yozuvlaridadir. Turklar orasida suryoniy yozuvi chig‘atoy xonligi davrida ham amal qilgan.

ARAB ALIFBOSI ASOSIDAGI TURKIY YOZUV

Arab xatining O‘rta va Markaziy Osiyoga yoyilish tarixi bu o‘lkalarga islomning kirib kelishi bilan bog‘liq.

O‘rta Osiyoda arab xatida bitilgan eng eski kitoblar IX asrga tegishli. Ular arab va fors tillarida. Arab yozuvida turkiy yodgorliklar X asrdan boshlab ko‘chirilgan. Undan eskisi topilganicha yo‘q. Turkiy xalqlar qoraxoniylar davridan uyg‘ur xati bilan yonma-yon arab yozuvidan ham foydalana boshladi. Qoraxoni hukumдорлар zarb ettirgan tangalardagi yozuвлар, xonlarning ayrim yozmalari arab xatida. XI asrdan e’tiboran arab xatida yirik asarlar ham ko‘chirila boshladi. Yusuf Xos Hojib qalamiga mansub “Qutadg‘u biling” asarining namangan va qohira qo‘lyozma nusxalari, Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘atit turk” asaridagi turkiy matnlar, Adib Ahmad Yugnakiyning “Hibatu-l-haqoyiq” dostonining arab yozuvli nusxalari arab xatidagi eng eski turkiy yodgorliklardir.

Alifbo tizimi. Turklar arab alifbosini o‘z tillariga moslab qabul qilgan. Shuning uchun ham asl arab alifbosi bilan turkiy tilga moslangan alifbo orasida bir oz farq bor.

Imlo prinsiplari. Arab alifbosi asosidagi turkiy yozuvning imlo prinsiplari puxta ishlangan edi. Yozuvda unlilarni ifodalash uchun alifbodagi uchta harf – “alif” (!), “vav” (و), “ya” (ي) hamda harakatlar, turli grafik vositalardan foydalilanilgan.

Turkiy tildagi unlilar imlosi xususida “Attuhfatu-z-zakiyat” fillug‘atit turkiyya” asarining muallifi shunday yozadi: “Bilgilki, turk tilida shakl yo‘q. Shakl yo‘qligi uchun bir qancha aniqsizlik va xatolar paydo bo‘lar edi. Shuning uchun ana shu aniqsizlikdan qutilish uchun ot, fe’l va hurufni yozishda maxsus shakl qo‘llash usulini qabul qildilar. Ya’ni “fatha” o‘rnida “alif”, “kasra” o‘rnida “ya”, “zamma” o‘rnida “vav” qo‘llay boshladilar” (AZFT.10). “Turk tilida shakl yo‘q” deyilganda turkiy imloda unlilarni ifodalashga xizmat qiladigan

harakatlar yo‘qligi nazarda tutilmoqda. Ayni usul bilan imlodan unlilarni to‘liq ifodalash usuli joriy etilgan.

Yozuvda ba'zan cho'ziq unlilar ham o'z ifodasini topgan. Masalan, "Devonu lug'atit turk"da qo'shaloq "alif" cho'ziq unlini bildiradi: اَلْ حُجَّ a:č – och, suq, aš – osh, ovqat, اَلْ اَشْ a:l – hiyla, اَفْ a:w – ov.

Turkiy matnlarda ۋ harfi jarangli [b] va jarangsiz [p] undoshlarini ifodalaydi. Ayrim o‘rlnlarda jarangsiz [p] ni farqlash uchun ۋ harfidan ham foydalanilgan: پەند, پۇل pul.

Қ harfi jarangsiz [k] va jarangli [g] undoshlarini ifodalaydi. Ba’zi hollarda jarangli [g] ni jarangsiz [k] dan farqlash maqsadida “kaf” (қ)ning ustiga uch nuqta qo‘yilgan.

Ғ harfi [č] va [j] tovushlarini ifodalaydi. Ayrim o'rirlarda jarangsiz [č] ni farqlash maqsadida Ғ harfidan ham foydalanilgan: چىن – chin, to'g'ri, ۋەقىقى bir qancha.

Turkiy tilga xos ana shu tovushlar va ularning imlosi
“Kitob-i tarjumon-i turkiy”da yaxshi yoritilgan Bular:

Ostida uch nuqtasi bo'lgan b (ب); bu b (ب) bilan f (ف) orasidagi qalil p (پ) dir.

Ostida uch nuqtasi bo‘lgan j (ж); bu š (ш) bilan j (ж) orasi-dagi harfdir.

Ustida uch nuqtasi bo‘lgan k (ك); bu ғ (غ) bilan k (ك) orasidagi bir tovushdir (KTT.2). Bu o‘rinda faqat turkiy tilga xos bo‘lgan jarangsiz [p], jarangsiz [č] va jarangli [g] tovushlari nazarda tutilmoqda.

XI–XIII asrlarning turkiy yodgorliklarida [v] fonemasining lab-lab [w] va lab-tish [v] variantlari yozuvda farqlangan. Chunonchi, [w] tovushi “Devonu lug‘atit turk”dagi turkiy matnlarda, “Qutadg‘u biling”ning arab yozuvli qo‘lyozmalarida **ف** // **ف**, turkiy “Tafsir”da **ف**, “Muqaddamatu-l-adab”ning XIII–XIV asrlarga mansub deya chamalanayotgan nusxasida **ف**//**ف** harflari bilan ifoda etilgan. Keyingi davr matnlarida bu tovushlar uchun yagona harf xizmat qilgan: ikkovi “vav”(و) harfi bilan ifodalananadigan bo‘ldi.

XI-XIII asrlarning yozma yodgorliklarida turkiy so‘zlarda so‘z ichi va oxirida ڏ ham keladi. U [d] undoshining variantini bildiradi. Masalan, “Qutadg‘u bilig”ning namangan nusxasida: قَدْعَوْ ڦاڻکو eðgü – ezgu, بُو ذُون boðun – xalq, قَادْغَوْ ڦاڻکو qadðu – qayg‘u, قَوْذَنْ ڦاڻکو qoð- qo‘y – (fe’l) va b.

Qadimgi turkiy matnlarda o‘zlashgan so‘zlar tarkibida sirg‘aluvchi [ž] tovushi ham uchraydi. Arab yozuvli matnlarda ushbu tovush ڇ harfi bilan ifoda etilgan: ڦوڻن lažun – dunyo.

Arab va fors tillaridan o‘zlashgan so‘zlarga nisbatan yozuv prinsipi amal qilgan. Bunday so‘zlar arabcha matnlarda qanday yozilsa, turkiy matnlarda ham shunday yozilavergan. Lekin ulardagi arab tiligagina xos bo‘lgan tovushlar turkiy til talablariga bo‘ysungan holda talaffuz etilgan. Masalan: عَدْ ‘adl – adl, عَلِيْ ‘Ali – Ali, شَانْ مَثْ sana – sano, hamd, مَثْ مَسَلْ masal – maqol.

SIG‘NAQ XATI

“Abushqa” lug‘atida ushbu yozuv to‘g‘risida ma’lumot berilgan. Lug‘at tuzuvchisi *siğnaq* so‘zini izohlar ekan, u muayyan yozuvning oti ekanligi, Zahiriddin Muhammad Bobur o‘z g‘azallaridan birida uni tilga olganligini ta’kidlaydi va g‘azalning o‘sha baytini misol keltiradi:

Sığnaq – bir nav’ xattur, Čiğatayda xatt-i bāburiî va ğayri kibi-ke, Bābur Mirzā aš’ärında kelür. Bayt:

Xublar xattī nasibinj bolmasa, Bābur, ne taŋ,

Bāburî xattî emäsdür, xat-i sığnaqîmudur (DDT.278).

Sığnaq atamasi, chamasi, o‘rtalar Sirdaryo bo‘yidagi turk madaniy markazlaridan biri bo‘lgan shahar otiga bog‘lanadi. Ana shu o‘lkada qo‘llanilgan yozuv shunday atalgan bo‘luvi mumkin.

Sig‘naq xatining namunalari hozircha ma’lum emas. Ehti-mol, u qadimgi turkiy yozuvlardan biridir. Dalillar aniqlangunga qadar bu masala ochiq qoladi.

XATT-I BOBURIY

Ushbu yozuv Zahiriddin Muhammad Boburning tilshunos sifatidagi ulug‘ kashfiyotidir. Bu xatning muayyan doirada amal qilganligi to‘g‘risida ma’lumotlar bor. Lekin bu yozuvda bitilgan matnlardan bizgacha yetib kelmagan yoki, bor bo‘lsa ham, fanga ma’lum emas.

Muhammad Tohir ibn Qosimning 1645 yili Balxda Said Nodir Muhammadxon topshirig‘i bilan yozilgan “Ajoib at-tabaqot” asarida xatt-i boburiy bilan bog‘liq muhim bir fakt bor (Азимджанова 1963). O‘zbekiston FA Sharqshunoslik instituti fondida 409- hamda 411- raqamlari ostida asarning qo‘lyozmalari saqlanmoqda.

Kitob yetti bo‘limdan iborat. Ularda olamning yaratilishi, payg‘ambarlar, yer va koinotning holati, ba’zi ajoyib ishlar, g‘aroyib ilmlar haqida so‘z boradi.

409-raqamli qo‘lyozmaning 241a–242b- sahifalarida *Dar ta‘ayyuni xutut az anvāi o* (“Xatlar va uning turlarini bilish haqida”) sarlavhasi ostida muayyan tartibda o‘n to‘rtta alifbo keltirilgan. Alifbolarning boshida ularning oti ham yozib qo‘yilgan. Shulardan o‘ninchisi alifbo xatt-i boburiydir. Uning boshlanishiga *Xatt-i bābūrī inast* deb yozilgan. Shundan so‘ng xatt-i boburiyning 28 harfi keltirilib, har biri arabcha harflar bilan izohlab chiqilgan. Alifbodagi harflar sirasi quyidagicha (o‘ngdan chapga – faqat arabcha harflarni keltiramiz):

ا ب ت ث ج ح خ د ذ س ش ص ض ه ط ظ ع غ ف ق ك ل م ن و ه ل ا

411- raqamli qo‘lyozmada ham xatt-i boburiy alifbosi bor (u qo‘lyozmaning 67b- betida). Biroq, ushbu qo‘lyozmada jami o‘nta alifbo namunasi beriladi. Xatt-i boburiy ularning o‘ninchisidir. Muhimi shundaki, ushbu alifboda 29 harf keltiriladi. Ular ham arabcha harflar bilan izohlab chiqilgan. Mazkur alifboda yuqoridaq alifbo harflari qatoriga ر va ز harflari ham qo‘shilgan. Bu alifbodagi harflar ketma-ketligi quyidagicha:

ا ب ت ث ج ح خ د ذ ر س ش ص ض ط ظ ع غ ف ق ك ل م ن و ه ل ا

Ba'zi olimlar Zahiriddin Bobur o'z yozuvini uyg'ur xati negizida tuzgan, deb qaramoqdalar. Lekin, yuqorida keltirilgan alifbolar bu fikrni tasdiqlamaydi. Bizningcha, muallif xatt-i boburiyni boshqa biror alifbo asosida tuzgan bo'luvi kerak.

LOTIN YOZUVI

Turkshunoslikda Codex Cumanicus deya atalgan asar 1303 yili italyan va nemis missionerlari tomonidan lotin alifbosida yozilgan. U lotincha-forscha-qipchoqcha (kumancha) lug'at, qisqa grammatika, nasihat va duo parchalaridan tuzilgan. Undagi turkiy (qipchoqcha) matnlar ham lotin xatidadir.

S o‘ r o q v a t o p s h i r i q l a r:

Tutkiy xalqlarning yozuv madaniyati tarixi, yozuv amaliyotining boshlanishi to‘g‘risida qanday bilimga egasiz?

Fanda ko‘k turk yozuvining kelib chiqishi tog‘risida qanday qarashlar bor?

Ko‘k turk yozuvining imlo o‘zgachaliklari qay bir belgilarda ko‘zga tashlanadi?

Uyg‘ur yozuvining kelib chiqishi to‘g‘risida qanday bilimga egasiz?

Lutfan Temutiylar zamonida uyg‘ur xatida bitilgan yodgorliklarga qisqacha ta’rif bering.

Uyg‘ur yozuvi imlosidagi muhim prinsiplar nimalardan iborat?

Lutfan arab alifbosi asosidagi turkiy yozuvning imlo o‘zgachaliklarini misollar bilan ochiqlab bering.

UCHINCHI BO‘LIM. FONETIKA

T a y a n ch t u sh u n ch a l a r: *fonema; unli tovushlar, orqa qator unlilari, old qator unlilari, lablanmagan va lablangan unlilar, turkiy singarmonizm; undosh tovushlar, tovush o‘zgarishlari.*

E’ t i b o r q a r a t i l a y o t g a n m a s a l a l a r:

Unlilar tizimi va uning tarixiy takomili.

Undoshlar tizimi va uning tarixiy takomili.

Tovushlar uyg‘unligi (singarmonizm) qonuni.

Til tarixida tovush o‘zgarishlari.

“Fonetika” – tovushlar bilimidir. U nutq tovushlarini o‘rganadi. Nutq tovushlarini *un* deyiladi. *Un* – “tovush, sas, ovoz” degani. Muhim shundaki, *un* so‘zini faqat kishining nutq tovushlariga nisbatan qo‘llaymiz, hayvon tovushi, qushlarning sayrashi yoki boshqa fizik hodisalar natijasida yuzaga keluvchi shovqinlarni esa *tovush* yoki *ovozi* deymiz. Tilshunoslikdagi *unli*, *undosh* atamalari ham shundan olingan: *unli* – “ovozi; ovozga, ya’ni tovushga ega bo‘lgan” ma’nosini beradi. Bunday deyilishining sababi, unlini cho‘zib aytish mumkin, undoshni esa cho‘zib bo‘lmaydi. Cho‘zib aytish kerak bo‘lganda ham, ketidan [i] unlisini qo‘shishga to‘g‘ri keladi.

Turk tilshunosligida unlilar – *sesliler* yoki *ünlüler*, undoshlar esa *sessizler* yoki *ünsüzler* deb yuritiladi.

UNLILAR TIZIMI

Qadimgi turkiy til tovush qurilishining muhim belgilaridan biri unda unlilar hosil bo‘lish o‘rniga ko‘ra old va orqa qator unlilariga bo‘linadi. Alisher Navoiy o‘zining “Muhokamatu-l-lug‘atayn” asarida old qator unlilarga nisbatan ariq sifatini qo‘llagan edi. Buning ma’nosи “toza, ingichka, nozik” degani. Alisher Navoiy nutq tovushlariga nisbatan “ingichka” sifatini ham qo‘llagan: *inčkä ün*. U *inčkirmäk* so‘zining ma’nosini

izohlar ekan, “inčä ün bilä yiğlağaylar” deb yozadi (ML.172). Yoki dovush balandligiga nisbatan biyik so‘zini qo‘llaydi: *ökürmäk* so‘zining ma’nosini izohlar ekan, “biyik ün bilä yiğlağaylar” deb yozadi (ML.171).

Turk tilshunosligida orqa qator unlilar *kalin sesliler* (qalin unlilar) deb yuritiladi. Old qator unlilar esa *ince sesliler* (ingichka unlilar) deb yuritiladi.

Unlilar qatorini hozirgi tilshunosligimizda qanday ataganimiz ma’qul, degan savolning tug‘iluvi tabiiy. Shu o‘rinda bir misol. Hozirgi o‘zbekchada “yo‘g‘on dovushli kishi”, “yo‘g‘on dovushda so‘zladi” yoki “ingichka dovushda so‘zladi” deymiz. Shundan kelib chiqib, orqa qator unli tovushlarga nisbatan *qalin*, *qattiq* emas, balki *yo‘g‘on* yoki old qator unlilarga nisbatan *yumshoq* emas, balki *ingichka* sifatini qo‘llaganimiz ma’qul.

Old qator unlilari “ingichka”, orqa qator unlilari esa “yo‘g‘on” talaffuz qilinadi. Masalan, *asiğ*, *adag*, *bar-*, *qağan*, *yarlıqa-*, *qara-* so‘zlaridagi [a] unlisi orqa qator, “yo‘g‘on” tovush bo‘lib eshitiladi; *ädgü*, *täyri*, *birlä*, *bilgä* so‘zlaridagi [ä] fonemasi esa old qator, “ingichka” tovush bo‘lib eshitiladi. Buni boshqa unlilarning aytilishida ham yaqqol kuzatish mumkin. Tovushlarning hosil bo‘lish jarayonidagi ushbu hodisa fonologik xarakterga ega, ya’ni ular ma’no farqlaydi: *at* (ot, hayvon) – *ät* (et, go‘sht); *til* (til, nutq) – *til* (nutq a’zosı); *ot* (olov) – *öt* (o’t qopchasi), *bol-* (bo‘lmoq) – *böl-* (bo‘lmak), *tor* (tuzoq) – *tör* (to‘r, yuqori o‘rin); *uc-* (uchmoq, o‘lmoq) – *üç* (3, son).

Muhimi, so‘zning fonetik-fonologik tabiatı ana shu unlilarga moslashadi. So‘zning birinchi bo‘g‘inida old qator unlilar kelsa, keyingi bo‘g‘inlarda ham old qator unlilar qatnashadi. Yoki, teskarisi, birinchi bo‘g‘inda orqa qator unlisi qatnashsa, keyingi bo‘g‘inlar unlisi ham orqa qator unlilari bo‘ladi. Shundan kelib chiqib, so‘zlar “yo‘g‘on” yoki “ingichka” talaffuz etiluvchilarga bo‘linadi.

Yodgorliklarning yozuv va fonetik o‘zgachaliklari qadimgi turkiy tilda sakkizta unli fonema amal qilganidan dalolat beradi. Bular: [a], [ä], [i], [i], [o], [ö], [u], [ü]. Bulardan:

- [a] – orqa qator, “yo‘g‘on”, keng, lablanmagan unli;
- [ä] – old qator, “ingichka”, keng, lablanmagan unli;
- [i] – orqa qator, “yo‘g‘on”, tor, lablanmagan unli;
- [i] – old qator, “ingichka”, tor, lablanmagan unli;
- [o] – orqa qator, “yo‘g‘on”, keng, lablangan unli;
- [ö] – old qator, “ingichka”, keng, lablangan unli;
- [u] – orqa qator, “yo‘g‘on”, tor, lablangan unli;
- [ü] – old qator, “ingichka”, tor, lablangan unli.

Qadimgi turkiy tilning unlilar tizimi tovushlar qatori, tor-kengligi, lablanish-lablanmasligiga ko‘ra o‘zaro qarama-qarshi juftliklarni yuzaga keltirgan: orqa qator “yo‘g‘on” [a], [i], [o], [u] unlilari old qator “ingichka” [ä], [i], [ö], [ü] unlilariga; keng [a], [ä], [o], [ö] unlilari tor [i], [i], [u], [ü] unlilariga; lablanmagan [a], [ä], [i], [i] unlilari lablangan [o], [ö], [u], [ü] unlilariga qarama-qarshi turadi.

[a] unlisi [ä] unlisiga qarama-qarshi turadi. [a] unlisi “yo‘g‘on” talaffuz qilinuvchi so‘zlarda keladi: *at* – ot, *aq-* oq-, *aš* – osh, ovqat, *azuq* – oziq, *adaq* – oyoq, *adğır* – ayg‘ir, *qatun* – xotun, malika, *sarığ* – sariq, *yay* – yoz, *sayu* – sari, *qara* – qora, *ara* – ora.

[ä] unlisi esa “ingichka” talaffuz qilinuvchi so‘zlarda keladi: *tilä-* tila-, *emgäk* – zahmat, *ertäki* – burungi, eski.

[i] unlisi [i] unlisiga qarama-qarshi turadi. [i] unlisi “yo‘g‘on” talaffuz qilinuvchi so‘zlarda keladi: *it* – it, *iğac* – daraxt, *bïç-* – kes-, bich-, *yïş* – o‘rmonli tog‘, *yïlqi* – yilqi, *siğta* – yig‘la-, *qışla-* qishla-, *qızıl* – qizil.

[i] unlisi esa “ingichka” talaffuz qilinuvchi so‘zlarda keladi: *ič* – ich-, *ilgäri* – oldinga, *bil-* – bil, *tik-* – tik-, *kir-* – kir-, *tirig* – tirik.

[o] unlisi [ö] unlisiga qarama-qarshi turadi. [o] unlisi “yo‘g‘on” talaffuz qilinuvchi so‘zlarda keladi: *ot* – o‘t, *olov*, *ton* – *kiyim*, *qoñ* – *qo‘y*, *yol* – *yo‘l*, *bodun* – *xalq*.

[ö] unlisi esa “ingichka” talaffuz qilinuvchi so‘zlarda keladi: *öz* – o‘z (olmosh), *ög* – ona, *kök* – osmon, *törü* – siyosat, *bök* – to‘ymoq, *köl* – ko‘l, *böri* – bo‘ri.

[u] unlisi [ü] unlisiga qarama-qarshi turadi. [u] unlisi “yo‘g‘on” talaffuz qilinuvchi so‘zlarda keladi: *uč* – uchmoq, o‘lmoq, *uçuz* – arzon, *uya* – in, uya; avlod, *ulug‘* – ulug, *buluñ* – tomon, *qul* – quł.

[ü] unlisi esa “ingichka” talaffuz qilinuvchi so‘zlarda keladi: *küj* – joriya, *tükäti* – tugal, *kiic* – kuch, *kiüz* – kuz, *yüz* – yuz, *tüš-* – inmak, *kü* – ovoza, dovrug‘.

Qadimgi turkiy bitiglar tilida so‘zning boshi yoki birinchi bo‘g‘inida kelgan [ä] hozirgi o‘zbek tilida yopiq [e] ga aylanadi. Masalan: *äl>el>*, *käl>kel*, *yär>yer* singari. Lekin [e] tovushining qachondan paydo bo‘lganligi xususida tugal bir xulosani aytish mushkul. Gap shundaki, eng eski davrlardan qolgan ko‘k turk, uyg‘ur yozuvidagi bitiglarning imlo xususiyatlari bu tovushning o‘scha kezlardayoq shakllanganidan dalolat berib turadi. Qadimgi turkiy tilda yopiq [e] unlisi mustaqil fonema emas, balki [ä] ning fonetik varianti sifatida amal qilgan: [ä]~[e].

Hozirgi o‘zbek tilida [e] bilan talaffuz qilinayotgan so‘zlar urxun bitiglarida <e> yoki <ä> harflari bilan yozilgan. V. Tomsen yenisey bitiglarini tadqiq etar ekan, urxun bitiglaridagi <e> yoki <ä> o‘rnida keladigan va yenisey bitiglarigagina xos bo‘lgan maxsus harfga asoslanib, bitiglar tilida [e] tovushi ham amal qilgan, degan fikrga kelgan edi (Шербак 1970, 28–29). Yenisey bitiglaridan olingan quyidagi misollar hozirgi turkiy tillarga qiyoslansa, V. Tomsen xulosasi e’tiroz tug‘dirmaydi: *elçi* (E.13.2), *beş* (E.45.2), *yerim* (E.45.6).

A.S. Amanjolov urxun bitiglaridagi <i> yoki yozuvda har qachon ham yozilavermaydigan <ä> harfi, o‘rni bilan, [e]

tovushini ham anglatgan, deb qaraydi. Uning xulosasiga ko‘ra, [e] tovushi urxun bitiglari tilida [ä] ga variant sifatida (ä~e) qo‘llangan (Аманжолов 1978, 77).

Hozirgi turkiy tillarda, asosan, [e] bilan talaffuz qilinayotgan so‘zlar uyg‘ur yozuvli matnlarda ham <i> yoki <ä> harflari bilan yozilgan. Lekin bu hodisadan, uyg‘ur yozuvli matnlar tilida [e] tovushi yo‘q edi, degan xulosa chiqarmaslik kerak. Chamasi, maxsus harf bo‘lmagani uchun imloda shunday yo‘l tutilgan chiqar. Masalan, “Qutadg‘u bilig”ning uyg‘ur yozuvli hirot nusxasida: *ädgü* (*edgü*), *käräk* (*keräk*), *yär* (*yer*); *işit* (*eşit*), *kilir* (*kelir*). Qo‘lyozmada, ayniqsa, bir so‘zning ikki xil yozilganligi e‘tiborga loyiq: *äşit* // *işit* (*eşit*), *käl* // *kil* (*kel*). Bu yozuv xususiyatlari “Qutadg‘u bilig” tilida [e] tovushi amal qilganligidan dalolat beradi. Maxsus harf bo‘lmagani bois, yozuvda <e> yoki <ä> harflaridan foydalaniłgan.

Asar tilida [e] tovushi amal qilganligini quyidagi misoldan ham kuzatish mumkin:

Tilin emgämiš er nekü ter eşit,

Bu söz iškä tutgil, özünjä eš et. –

Tili tufayli ozor topgan kishi nima deydi, eshit,

Bu so‘zni ishga solgin, (uni) o‘zingga esh et (QB.161).

Ushbu misoldagi *iş* va *eş* so‘zları o‘zaro [i] hamda [e] tovushlari bilan farq qiladi.

Qadimgi turkiy matnlardagi ayni an’ana arab imlosida ham davom etgan. Arab yozuvli matnlarda [e] tovushi so‘z boshida alif, ba’zan alifu yo, ikki undosh orasida esa fatha, kasra yoki yo vositasida ifoda etilgan (Махмудов 1990, 49–51).

Demak, turkiy tillardagi [e] tovushining ildizlari eski bitiglarga bog‘lanadi.

Hozirgi o‘zbek tilidagi ochiq, keng [ó] tovushining (adabiy-orfografik <o>) yuzaga kelish tarixi ham munozarali. Ma’lumki, bu tovush boshqa turkiy tillarda uchramaydi. Shunday ekan, u o‘zbek tilida qanday va qachon paydo

bo‘lganligi tilshunoslar o‘rtasida jumboq tug‘dirayotgani tabiiy.

Q. Mahmudovning fikricha, hozirgi o‘zbek tilidagi [ó] fonemasi o‘zlashgan so‘zlardagi cho‘ziq [a:], turkiy tillardagi etimologik til orqa [a] hamda etimologik cho‘ziq [ā] tovushlarining kengayishi natijasida hosil bo‘lgan (Махмудов 2004, 51).

Uning paydo bo‘lgan davri to‘g‘risida shunday fikrni aytish o‘rinli. Eski o‘zbek tilida, xususan, “chig‘atoy tukiysi”da arab, fors tillaridan o‘zlashgan so‘zlarda [ā] tovushi amal qilgan. Masalan, *vafā*, *jafā*, *sadā*, *sanā*. Lekin, sof turkiy so‘zlarga buni tatbiq etib bo‘lmaydi, chunki u davrda turkiy so‘zlardagi [a] unlisi, hozirdagidek, [ó] ga aylanmagan edi. Sof turkiy so‘zlarni *qóra*, *xón*, *xóqón*, *oğlón* deb emas, *qara*, *xan*, *xaqan*, *oğlan* shaklida o‘qiymiz. Shuning uchun o‘zlashgan so‘zlardagi [ā] ni mustaqil fonema emas, balki orqa qator, “qattiq” [a] tovushining varianti ([a~ā]) deb qaragan ma’qul.

O‘zbek tili tarixida yaratilgan yozma manbalar tilini tadqiq qilish, ularni hozirgi yozuvga o‘girish jarayonida ochiq [ó] masalasi yanada jiddiyplashadi.

Yozma yodgorliklar, xususan, arab yozuvli manbalarni o‘rgangan mutaxassislar matnlarda so‘z boshida kelgan “alif madda”, so‘z orasida kelgan “alif” harfi [ó] tovushini ifoda etgan, deb sanaydilar. Matnlarni hozirgi yozuvga o‘girganda ham ularni <a> harfi bilan emas, <ó> (adabiy-orfografik <o>) bilan beradilar. Aslida arab alifbosi asosidagi eski o‘zbek yozuvida so‘z boshida kelgan “alif madda”, so‘z ichidagi “alif” harflari kengroq vazifani bajargan. Eski matnlarni hozirgi yozuvga ag‘darganda turkiy tillarning tovush xususiyatini, fonologik tabiatini inobatga olgan ma’qul. So‘z boshida “alif madda” bilan yozilgan so‘zlarni *al*, *ač*, *ačun*, *asiğ* shaklida, so‘z ichida “alif” harfi bilan yozilgan “yo‘g‘on” o‘zak-negizli so‘zlarni *barğan*, *turğan*, *tapqan*, *qaçqan*, “ingichka” negizli

so‘zlarni esa *bilgän*, *körgän*, *eşitkän* shakllarida o‘qilsa va yozilsa to‘g‘ri bo‘ladi.

Ko‘pdan beri turkshunoslikda XV asr eski o‘zbek tilining, xususan, Alisher Navoiy asarlari tilining unlilar tizimi ustida tortishuv ketadi. O‘scha kezlarda yaratilgan asarlarni o‘rgangan olimlar unlilar sonini turlicha ko‘rsatadilar. Tilshunoslikda qadimgi turkiy tildagi orqa qator [a] bilan old qator [ä], orqa qator [i] bilan old qator [i] Navoiy asarlari tilida konvergensiga uchragan degan fikr ham bor (PyстaMов 1968, 260–263).

Ma’lumki, tarixiy taraqqiyot jarayonida unlilar tizimida o‘zgarish yuz berdi. Eski o‘zbek tili (“chig‘atoj turkiysi”)da unlilar soni sifat va miqdor jihatdan qadimgi va eski turkiy til davrlaridan farq qiladi. XV asr turkiysining unlilar tizimi xususida Alisher Navoiy aniq ma’lumot berib o‘tgan.

U “Muhokamatu-l-lug‘atayn” asarida “vav” harfining turkiy matnlardagi vazifasi xususida to‘xtalib, uning to‘rt xil talaffuz etila olishi, buning natijasida ular turli ma’nolarni anglatishi mumkinligini ta’kidlaydi (turkî alfâzda bu ma’ruf va majhul harakat tört nav’ tapilur). Buni quyidagi misollarda ochib beradi:

ا و ت OT ki, šäy‘i muhriq-dur ve ÖT mürur ma’näsï bilä va UT muqammirğä bûrd jihatidin amr va ÜT ki, baridin oq harakatdur: kallani otqa tutup tükin arïtur ma’nâdadur.

Ushbu o‘rnaklardagi *ot* – “o‘t, olov”, *öt* – “o‘t-“ (fe’l), *ut* – “yut-“ (fe’l: o‘yinda yut-), *üt* – “kallani o‘tga tutib, tukini tozalash” ma’nosida.

ت و ر TOR ki, dâmdur. Yana TUR ki, andin daqiqraqdur-ki, quş olтурur yiğäçdur va TÖR ki, andin daqiqraqdur, öynij töridür va TÜR ki, barçadın arïqdur, torluğñi ya eşikni türmäk amrädur (ML.175).

Ushbu o‘rnaklardagi *tor* – “dom, tuzoq”, *tur* – “qush o‘tiradigan yog‘och”, *tör* – “uyning to‘ri”, *tür* – “parda yo eshikni turmak”.

Alisher Navoiy turkiydagি [e] tovushi xususida ham to‘x-talgan edi. Chunonchi, “Muhokamatu-l-lug‘atayn”da turkiy matnlardagi “yoy” harfining vazifasini ta’riflab, uning uch xil talaffuz etilishi mumkinligini aytadi (üç harakatdіn artuğ tapilmas). Buni muallif quyidagi misollarda ko‘rsatib bergen:

BEZ ki, sart qudud der va BÍZ ki, mā va maxnu ma’nāsī bilädür va BÍZ ki, dirafş derlär.

Ushbu o‘rnaklardagi *bez* – “bez”, *biz* – “biz” (kishilik olmoshi), *bız* – “bigiz”dir.

TER ki, termäk ma’nāsī bilädür va TÍR ki, andin raqıqdur. Oldur-ki sartlar anii ’araq va xoy derlär va TÍR ki, baridin arıqdur, oq ma’nāsī bilädür (ML.175).

Ushbu o‘rnaklardagi *ter* – “ter-“ (fe'l), *tir* – “ter”, *tır* – “o‘q” dir.

Bi o‘rnaklar ostida Navoiy turk imlosida “yoy” harfi ifoda etadigan uchta unlini nazarda tutmoqda: [e], [i], [ɨ]. Bu misollari bilan Navoiy bir-biriga qarama-qarshi ma’noli fonemalarni emas, balki “yoy” ifoda etadigan turli tovushlarni nazarda tutgan. Chunonchi, [e] tovushi [ä] fonemasining torayishi tufayli unga variant sifatida hosil bo‘lgan, keyinchalik mustaqil holda takomil topgan. Navoiy o‘rnaklaridagi [i] tovushi “yo‘g‘on” o‘zakli so‘zlar tarkibida orqa qator [i] sifatida talaffuz etilgan. Navoiy nazarda tutgan [i] esa “ikkilamchi” cho‘-ziqlikdir. “Ikkilamchi” cho‘ziq unlilar, odatda, o‘zi bilan yondosh kelgan biror undoshning tushishi natijasida hosil bo‘ladi.

Yuqoridagi misollar “chig‘atoy turkiysi”da, xususan, Alisher Navoiy asarlari tilida to‘qqizta unli fonema amal qilganligidan dalolat beradi. Bular: [a~ä], [ä], [e], [i], [i], [o], [ö], [u], [ü].

Turkiy tillarning fonetik tizimi badiiy adabiyot, ayniqsa, she’r rifmikasining takomiliga katta ta’sir ko‘rsatdi. O‘zbek mumtoz she’riyatida misralarning ravonligi, ohangdorligi, o‘ta jozibali va ta’sirchanligining boisi ham ana shu azaliy qonuniyatning amal qilganligida edi.

Turkiy tilning uzoq asrli taraqqiyoti natijasida shakllangan unlilarning mazkur tizimi eski o‘zbek adabiy tilining xarakterli xususiyati o‘laroq XX asrning boshlariga qadar saqlanib keldi.

Unlilar cho‘ziqligi

Turkiy tillarda unlilar cho‘ziqligi ikki xil ko‘rinishda amal qiladi: “birlamchi” hamda “ikkilamchi” cho‘ziqlik. “Ikkilamchi” cho‘ziqlik keyingi hodisa bo‘lib, tovush o‘zgarishi, ko‘proq, so‘zdagi undoshning tushishi natijasida yuzaga keladi. Masalan: *bigiz>biiz, šahar>šaar, oğul>uul* singari. “Ikkilamchi” cho‘ziqlik shevalarda, og‘zaki nutqda tez-tez kuzatiladi.

“Birlamchi” cho‘ziqlik tovush o‘zgarishi natijasida yuzaga kelgan emas, turkiy tillarda azaldan bor.

Turkshunoslikda ayrim turkiy tillarda amal qilayotgan “birlamchi” cho‘ziq unlilar masalasi tugal yechimini topganicha yo‘q. Muhimi shundaki, hozirgi turkman adabiy tilida, shuningdek, o‘zbek xorazm shevalarining o‘g‘uz guruhlarida “birlamchi” etimologik cho‘ziq unlilar hozir ham amal qilmoqda. Biroq, mazkur unlilarning yuzaga kelish tarixi, yozma yodgorliklar tilida tutgan o‘rni xususida aniq-taniq xulosaga kelish mushkul.

Yozma yodgorliklar tilida “birlamchi” cho‘ziqlik ora-chora uchrab turadi. Buni matnlarda cho‘ziq unlilarning maxsus ifoda etilganligida xam ko‘rish mumkin. Chunonchi, uyg‘ur xatida cho‘ziqliknı ifodalash uchun ba’zan harflarni qo‘shaloq yozish hollari kuzatiladi. Masalan, ST da: *yiil* – yel, shamol (VI.9.15), *küü* – dovrug‘, ovoza (V.7.11), *süü* – lashkar, cherig (V.3.18), *süülä* – qo‘shin tort- (V.71.12), *yüüz* – 100 (V.51.24), *yuul* – buloq, chashma (VI.26.26), *oot* - o‘t, olov (V.56.25), *yoog* – yuqori, cho‘qqi (V.13.18). Muhimi, bir so‘z bir matnning o‘zida oddiy shaklda ham, qo‘shaloq belgi bilan ham yozilishi mumkin: *yiil* (VI.9.15)//*yil* (V.45.10), *yüüz* (V.51.24)//*yüüz*

(V.15.19). “Hibatu-l-haqoyiq”ning uyg‘ur yozuvli A nushasida (Arat 1992 bo‘yicha): *uul* – asos (81.3), *yool* – yo‘l (94.4).

Arab yozuvli turkiy matnlarda [a] ning cho‘ziqligini ifodalash uchun qo‘shaloq “alif” harfidan foydalanilgan. Masalan, “Devonu lug‘atit turk”da: اَلْجَاج *aac* – och, suq, شَوْقَةٌ *aaw* – ovqat, اَلْهِيَّلْ *aal* – hiyla, اَفْ *aaw* – ov.

Matnlarda lab unlilarining cho‘ziqligini ifodalashda qo‘shaloq “vav”dan foydalanilgan: ööl – ho‘l.

Ma'lumki, arab yozuvli turkiy matnlarda unlilar "aliv", "vav", "ya" harflari yoki harakatlar bilan ifoda etilgan. Unlilarning "aliv", "vav", "ya" harflari bilan yozilishini ba'zi olimlar cho'ziqlikning ifodasi deb biladilar. Bu fikrga qo'shilish qiyin. Mazkur imlo xususiyati faqat cho'ziqlik bilan bog'liq emas. Bunga turkiy yozuv an'anasing davomi sifatida yondashilgani ma'qul. Sababi shundaki, uyg'ur xatida unlilar, cho'ziq-qisqaligidan qat'i nazar, yozuvda mantazam tarzda ifoda etilavergan. Turklar arab xatini o'zlashtirganlarida imlodagi ana shu prinsipni saqlab qoldilar. Shunga binoan, arab xati asosidagi turkiy yozuvda unlilar uchun "aliv", "vav", "ya" harflaridan foydalaniladigan bo'ldi.

Ta'kidlash kerakki, yozma yodgorliklar tilida "birlamchi" cho'ziq unlilar fonema darajasida amal qilgani dargumon. Harg'alay, ular oddiy unlilarning fonetik varianti sifatida qo'llangan ko'rindi.

UNDOSHLAR TIZIMI

Urxun va yenisey bitiglarining yozuv, fonetik-fonologik xususiyatlari bitiglar tilida quyidagi undosh fonemalar amal qilganidan dalolat beradi: [b], [p], [d], [t], [q], [k], [g], [z], [s], [č], [š], [y], [l], [m], [n], [ñ], [ŋ], [r].

Qadimgi turk davridayoq sharqiy turk lahjalarida (qadimgi uyg'ur va moniy yozuvli yodgorliklar tilida) [w] va [x] fonemalari amal qila boshlagan.

Mahmud Koshg‘ariy [v] fonemasini ikkita tovush deb izohlagan edi: [w] hamda [v]. U [w] ni “[b] bilan [f] maxrajlari orasidagi” tovush deb ta’riflagan (MK.I.68). XI–XIV asrlarning arab yozuvli matnlarida ularning ikkovi ayri-ayri harflar bilan ifoda etilgan.

Tub turkiy so‘zlarda [w] tovushi [v] dan ko‘ra ustunlik qiladi. Masalan, QB da: *kūwānč*, *aw*, *suw*, *ew*.

Mahmud Koshg‘ariyning yozishicha, [v] bilan [w] dialektal xususiyatni ham farqlagan: [v] bilan so‘zlash o‘g‘uz va ularga yaqin turuvchilarga, [w] bilan so‘zlash esa boshqa turklarga xos. E’tiborni tortadigan yeri, devonda bir so‘zning ikki xil varianti aralash qo‘llanilgan: *tawar* (MK.I.137) // *tavar* (MK.I.237). Bir so‘zning ikki xil talaffuz etilishi mumkinligini muallifning o‘zi ham ta’kidlaydi: *uvut* // *uwut* (uyat), *yalavač* // *yalawač* (payg‘ambar), *yava* // *yawa* (tursus mevasi) (MK.I.111).

Ko‘k turk alifbosida [w~v] fonemasi uchun maxsus harf yo‘q. Muhimi shundaki, ko‘k turk bitiglari bilan deyarli oldinma-ketin yaratilgan uyg‘ur yozuvli qadimgi turfon matnlarida bu tovush uchun alohida belgi bor. Arab yozuvli matnlarda [w~v] bilan kelgan so‘zlar ko‘k turk bitiglarida **B**, **b** harflari bilan yozilgan. Bu hodisa ko‘k turk alifbosidagi **B**, **b** harflari, o‘rni bilan, [w] tovushini ham ifoda etgan degan xulosaga olib keladi. Misollarga e’tibor bering: *tabğac* (*tawğac*) – tabg‘ach, *tabiṣğan* (*tawiṣğan*) – tovushqon, *sab* (*saw*) – so‘z, xabar, *sub* (*suw*) – suv.

XI–XIV asrlarning turkiy yodgorliklarida tishora [ð] tovushi ham uchraydi (bu tovush arab alifbosida ڏ harfi bilan ifoda etilgan). Masalan, XI–XIV asrlarning arab yozuvli matnlarida quyidagi so‘zlar ڏ harfi bilan yozilgan: *eðgi*, *aðiğ*, *quði*, *qaðgu*. Ko‘k turk va qadimgi uyg‘ur alifbolarida tishora [ð] tovushi uchun alohida belgi yo‘q. Arab yozuvli matnlardagi [ð] li so‘zlar ko‘k turk bitiglarida **D**, **d** harflari bilan yozilgan. Ushbu so‘zlardagi **D**, **d** harflari [d] bilan bir qatorda tishora [ð]

tovushini ham ifodalagan chiqar: *edgü* (*eðgü*), *adiğ* (*aðığ*), *quđi* (*quđi*), *qadđu* (*qađğu*).

Ko‘k turk xatida [x] tovushi uchun maxsus harf yo‘q, uning o‘rnida yolg‘iz **q** keladi: *qatun*, *qağan*, *qan*. Bu so‘zlardagi [q] arab yozuvli matnlarda [x] ga o‘zgaradi: *xatun*, *xaqan*, *xan*. Biroq, bu hodisani tamoman tovush o‘zgarishiga yo‘ymaslik kerak. Sababi, “Qutadg‘u bilig” asarining tilida qadimgi [q] li varianti ustivor. Masalan: *qali* (agar), *qaliq* (osmon), *yaqşı* va b. Keyinchalik bu so‘zlardagi [q] tovushi [x] ga o‘zgargan: *xali*, *xalıq*, *yaxşı* singari.

Urxun bitiglarida hoziridan farqli holda [ñ] tovushi ham qo‘llangan (yozuvda # harfi yoki ikki harf birikmasi – **JN** bilan ifoda etilgan). Bu tovush quyidagi so‘zlarda keladi: *Toñuquq*, *añig*, *qoñ*, *cığañ*. Ko‘k turk bitiglarida [ñ] bilan kelgan so‘zlar uyg‘ur yozuvli qadimgi turfon matnlarida yoki arab yozuvli yodgorliklarda [y] bilan keladi: *ayiğ* – yovuz, tuban, bemani, *qoy*, *čiğay* – “qashshoq, yo‘qsil”.

Qadimgi [ñ] ni Mahmud Koshg‘ariy arab xatida <n> harfi bilan keltirgan. Uning yozishiga qaraganda, [y] li so‘zlarni [n] ga aylantirish dialektal xususiyatdir. So‘z o‘rtasi va oxirida kelgan [y] ni arg‘ular [n] ga almashtirganlar: *qoy* – *qon* “qo‘y”, *čiğay* – *čiğan* “kambag‘al”, *qayu* – *qanu* “qaysi” (MK.I.67). Bu misollarning bari ko‘k turk bitiglaridagi [ñ] sonor [n] ga variant sifatida ([n~ñ]) qo‘llanganidan dalolat beradi.

[n] // [y] mosligi hozirgi o‘zbek tilida ham uchrab turadi: *qanda*–*qayda*. Yoki qadimgi [n] hozir qo‘llaydigan *qani*, *qanča* singari so‘zlarimizda ham saqlanib qolgan.

Uyg‘ur yozuvli qadimgi turfon bitiglarida o‘zlashgan so‘zlarda sirg‘aluvchi [ž] tovushi ham qo‘llanilgan: *ažun*. Arab yozuvli matnlarda bu tovush ڇ harfi bilan ifoda etilgan: اڇون *ažun* – dunyo.

Eski turkiy til davridan boshlab arab, fors tilidan o‘zlashgan so‘zlarda [f], [h] fonemalari ham qo‘llana boshladi.

Arab alifbosi asosidagi turkiy imloda arab va fors tillaridan o‘zlashgan so‘zlarga nisbatan yozuv prinsipi amal qilgan. Bunday so‘zlar arabcha matnlarda qanday yozilsa, turkiy matnlarda ham shunday yozilavergan. Lekin ulardagi arab tiligagina xos bo‘lgan tovushlar turkiy tovushlar singari talaffuz etilgan.

“Kitob-i tarjumon-i turkiy”da o‘zlashgan so‘zlarga xos bo‘lgan bunday tovushlar xususida ham ma’lumot beriladi. Unda yozilishicha, “turk qipchoq tilida” quyidagi sakkiz harf (ya’ni tovush) yo‘q. Bular: sa: (س), ha: (ح), xa: (خ), da:t (ڏ), za: (ڙ), ‘ayn (ڦ), fa: (ڻ), ha (ڻ). Ushbu harflar turk tiliga boshqa tillardan o‘zlashgan so‘zlarda uchraydi (KTT.1).

TURKIY SINGARMONIZM

So‘nggi yillarda tilshunosligimizda o‘zbek tili tarixida, xususan, Alisher Navoiy asarlari tilida singarmonizm qonuni buzilgan edi, o‘zbek tili tarixi uchun ushbu hodisa ahamiyatlι emas, degan fikrlar chiqib qoldi. Butkul qo‘silib bo‘lmaydigan fikr. Turkiy tillar tarixida, xususan, eski o‘zbek tilida singarmonizm temir qonun sifatida amal qilgan. Eski o‘zbek tilining fonetik qurilishi, morfo-fonologik tizimi ana shu qonunga bo‘ysungan edi. Navoiy asarlarining tili singarmonizmli tildir. Bugina emas, butun o‘zbek mumtoz adabiyoti asarlarining tili ayni qonunga asoslanadi.

To‘g‘ri, “singarmonizm” atamasi g‘arb tilshunosligi ta’sirida kirib o‘zlashgan. Tarixan bu atama uchramagani bilan, turkiy tillarda bu hodisa burundan bor. O‘tmishda yaratilgan grammatika va lug‘atlarda ushbu hodisaga ishora etuvchi qaydlarga duch kelamiz. O‘sha zamon tilshunoslari muayyan harf, so‘z yo qo‘sishchaning talaffuzini sharhlaganda, ularning fonetik-fonologik xususiyatini ta’kidlab o‘tadilar. Ularning bu ma’lumotlari hozirgi tushunchamizdagи “singarmonizm”ning o‘zidir. O‘tmish tilshunosligida qanday atalgani yoki qay holda

ta'riflanganidan qat'i nazar, turkiy tillar tabiatida bu qonun bor, bor bo'lganda ham o'ta ahamiyatlidir. Hozir ham boshqa turkiy tillarda singarmonizm qonuni davom etmoqda. Muhim, so'zning fonetik-fonologik tabiatı shu qonunga moslashadi.

Singarmonizm deb so'zdagi tovushlarning hamda qo'shimchalarining talaffuziga ko'ra o'zaro uyg'unlashuvi, moslashuviga aytiladi. Singarmonizm unlilarda ham, undoshlar tizimida ham amal qiladi.

Unlilar uyg'unligi ikki xil:

1) *Tanglay uyg'unligi*: so'zdagi tovushlarning bir-biriga va qo'shimchalarining o'zakka qatorda va "yo'g'on-ingichkalikda" moslashuvi. So'zning birlinchi bo'g'inida old qator unlilar kelsa, keyingi bo'g'indarda ham old qator unlilar qatnashadi. Yoki, teskarisi, birlinchi bo'g'inda orqa qator unlisi qatnashsa, keyingi bo'g'indalar unlisi ham orqa qator unlilari bo'ladi. Shundan kelib chiqib, so'zlar "yo'g'on" yoki "ingichka" talaffuz etiluvchilarga bo'linadi.

Mazkur qonunga ko'ra o'zak-negizga qo'shiladigan affikslar ham fonetik variantlardan iborat bo'ladi. Masalan, ot yasovchi -ğ, -g affiksi: *qapiğ* – eshik, *bilig* – bilim; jo'nalish kelishigi affiksi -qa, -kä: *qağanqa* – xoqonga, *äbkä* – uyga; yoki -ğaru, -ğärü affiksi: *oğuzğaru* – o'g'uzga, *ilgärü* – oldinga (Sharqqa).

2) *Lab uyg'unligi*: birlinchi bo'g'indagi unliga keyingi bo'g'indagi unlining yoki o'zakning oxirgi bo'g'indagi unliga qo'shimchadagi unlining lablanish jihatdan moslashuvi: *älímiz* – davlatimiz, *sümüz* – lashkarimiz, *atím* – otim, *bodunum* – xalqim.

Bu qonunga ko'ra ham bir qator affikslarning lablangan unlili va lablanmagan unlili variantlari bo'lgan. Jumladan: qaratqich affikslari -niy, -niy; -iň, -iň larning -nuj, -nüy; -uň, -üň variantlari, sifat yasovchi -liğ, -lig ning -luğ, -lüg variantlari ham bor va b.

Shu bilan bog‘liq yana bir masala. Singarmonizm deganda so‘zdagi tovushlarning hamda qo‘sishimchalarining talaffuziga ko‘ra o‘zaro uyg‘unlashuvi, moslashuvi tushuniladi. Odatda, ushbu qonun asosida unlilar uyg‘unligi, so‘zning birinchi bo‘g‘inidagi unlisiga keyingi bo‘g‘inlardagi unlilarning moslashuvi nazarda tutiladi. Bu fikr to‘g‘ri, biroq, ta’kidlash kerakki, uyg‘unlik unlilar doirasidagina yuz berib qolmaydi. Masalan, *qol* so‘zida [o] unlisi til orqa tovush, unga yondosh bo‘lgan [q] undoshi ham “yo‘g‘on”. Ularga uyg‘un holda [l] ning ham “yo‘g‘on” varianti qo‘llaniladi. Yoki *köl* so‘zida [ö] old qator unlisi, [k] esa “ingichka” tovush. Shularga mos holda [l'] ning ham “ingichka” varianti qo‘llaniladi. Shuningdek, *tor* so‘zida [o] til orqa unlisi. Shunga muvofiq, [t] va [r] undoshlarining “yo‘g‘on” varianti ishlatiladi. “Yuqori o‘rin, uyning to‘ri” ma’nosidagi *tör* so‘zida esa buning aksi: [ö] old qator unli bo‘lgani bois, [t'] va [r'] undoshlari ham “ingichka” talaffuz etiladi. Boshqa so‘zlarda ham shunday.

Demak, *singarmonizm* deganda so‘z bo‘g‘inlari tizimida tovushlarning (faqat unlilarning emas) uyg‘unlashuvi va so‘z bo‘g‘inlarining fonetik-fonologik jihatdan o‘zaro moslashuvini tushunmoq kerak. Singarmonizm so‘zning butun bir fonologik qurshovida amal qiladi: boshlab o‘zakning fonologik qurumi shakllanadi, so‘ngra negiz va keyingi morfemalarga yoyiladi. Shu shaklda so‘zning uyg‘un bir morfo-fonologik tizimi yuzaga keladi.

Turkiy tillar tarixida undoshlardagi *jaranglilik* va *jarangsizlik* uyg‘unligi ham ahamiyatga molik. Mazkur qonunga ko‘ra o‘zak-negiz jarangsiz undosh bilan tugasa, qo‘sishchaning birinchi tovushi ham shunga moslashadi, ya’ni jarangsiz undoshli bo‘ladi: *otqa* – olovga, *tiläkkä* – tilakka. O‘zak-negiz unli tovush, jarangli undosh yoki sonor bilan tugagan bo‘lsa, unda affiksning jarangli undosh bilan boshlanuvchi varianti qo‘shiladi: *yulğuč* – ombir, *barduq* – borgan.

Ko‘k turk yodgorliklari tilida o‘zak-negiz unli, jarangli undosh yoki sonor bilan tugagan hollarda ham qo‘sishchaning faqat jarangsiz undoshli varianti qo‘shilushi mumkin. Jumladan, urxun bitiglarida jo‘nalish kelishigining, asosan, -qa, -kä variantigina qo‘llangan. O‘zak-negizning oxirgi tovushi qanday bo‘lishidan qat‘i nazar, ayni shakli qo‘llangan: *tağqa* – toqqa, *Tämür qapiğqa* – Temir qopiqqa, *yärkä* – yerga, *ögüzkä* – daryoga va b. Bu xususiyat keyingi davrlarda ham qisman dovom etdi. Jumladan, “Qutadg‘u bilig”da, “Devonu lug‘atit turk”dagi turkiy matnlarda ham bu shakl ustun. Shuning bilan bir qatorda, uning -ğä, -gä varianti ham uchraydi. Ko‘rinadiki, turkiy tillar tarixida jaranglilik va jarangsizlik uyg‘unligi keyinchalik muqum bir hodisaga aylangan.

Jaranglilik va jarangsizlik uyg‘unligi qonuniga muvofiq holda affikslar ikki xil variantda amal qilgan: biri – jarangi undosh bilan boshlanuvchi va ikkinchisi – jarangsiz undoshlar bilan boshlanuvchi variantlar. Masalan, sifatdosh qo‘sishchalari: -*duq*, -*dük* / -*tuq*, -*tük*; -*dači*, -*däči* / -*tači*, -*täči*, ravishdosh qo‘sishchasi -*ğali*, -*gali* / -*qali*, -*käli* va b.

Shu va shuning singari misollar tilimiz tarixida, bizgacha yetib kelgan yozma yodgorliklar tilida singarmonizm qonuni amal qilganligini isbotlab turibdi.

TOVUSH O‘ZGARISHLARI

So‘z ichida unlilarning tushishi. So‘zning qo‘sishcha olishi natijasida oradagi unli tushirilishi mumkin: oğlan – o‘g‘illar <oğul so‘zidan; sıghta – yig‘la- <sıgıt – yig‘i; tegrä – tegra, atrof < tegir – o‘girmoq; ilt~elt – olib bor- <ilit~elit-.

So‘zning boshida:

b//m, b>m hodisasi. Hozirgi o‘zbek tilida [m] bilan keladigan so‘zlar urxun bitiglarida [b] bilan kelgan: ben, binj, buň. Qadimgi turkiy tilda [b] lashish ustun edi, deb sanamaslik kerak. Uning bilan barobar, boshqa bir shevalarda [m] lashish

ham amal qilgan. Ko‘k turk bitiglaridagi [b] uyg‘ur yozuvli budda, moniy yodgorliklarida [m] ga o‘zgaradi.

Misollar keltiramiz:

Ton.10 da: ben, E.28.7 da: men. Hozirgi turk.: ben, o‘zb.: men.

E.48.6 da: bänkü – yodgorlik, mangutosh. Lekin E.39.5 da: mänkü qaya – yodgorlik, mangu qoya. QB.109 da: mänjü. Hozirgi o‘zb.: mänjü.

E.46.4 da: buň. Hozirgi o‘zb.: muň.

So‘z ichida:

d>ð>y//g hodiasi. Qadimgi turkiy tilga [d] lashish xos; [y] yoki [g] lashish nisbatan kam uchraydi. Hozirgi o‘zbek tilida [y] yoki [g] bilan kelgan so‘zlar qadimgi yodgorliklarda [d] bilan aytilgan. XI–XIV asrlarda qadimgi [d] bilan yonma-yon [ð] ham qo‘llanilgan. “Chig‘atoy turkiysi” davridan boshlab [y] yoki [g] ga aylandi.

QB.368 da: aðaq, Taf. da: aðaq (40)~ayaq (44); KTT.28 da: ayaq. Hozirgi o‘zb.: ayaq.

Ka.4 da: idi, Taf. da: iði (122)~iyi (121)~eyä (70), hozirgi turk.: iye, o‘zb.: egä.

K.28 da: yadağ, KTT.37 da: yayağ. Hozirgi o‘zb.: yayaw.

AH.426 da: qadgu. Hozirgi o‘zb.: qaygu.

OD.36.6 da: uyqu; QB.16 da: uði – uxla, uðuğ – uyg‘oq; Taf.324 da: uði~uyu; RQ.139a da: uyuqla – uxla. Hozirgi o‘zb.: uyqu, uxla, uyqaq.

QB.65 da: quðruq. Hozirgi o‘zb.: quyruq.

E.17.3, ST.V.18.18 da: adïr, QB.323 da: aðïr. Hozirgi o‘zb.: ayïr.

E.17.2 da: qadïn. Hozirgi o‘zb.: qayïn: qaynata (<qayïn ata), qaynaqa (<qayïn ağa).

X.37 da: qodï~qudï, QB.71 da: qoðï~quðï, Taf.211 da: qoðï~qoðu~qozï. Hozirgi o‘zb.: quyï.

QB.148 da: beðüg, Taf.113 da: büyug. Hozirgi o‘zb.: büyük.

KTT.17 da: eyär, KN.72 da: egär. Hozirgi o‘zb.: egär.

İB.18 da: tüğünük. Hozirgi o‘zb.: tüynük. Qiyoslang, İB.18 da: közünük – deraza.

QB.339 da: eögü, KTT.35 da: eygi; Taf. da: eögü (70)~eygü (72). Hozirgi turk.: iyi, o‘zb.: ezgü. Biroq o‘zbek tilida ayrim iboralarda iyi shakli ham qo‘llaniladi: İyilikniñ keči yoq.

Taf.40 da: aðğır. Hozirgi o‘zb.: ayğır.

KN.76 da: biyiz. Hozirgi o‘zb.: bigiz~biyiz.

Ton.4 da: bod, RQ.140b da: boy; hozirgi turk.: boy. O‘zbek tilida qayinboy so‘zining tarkibida saqlangan, “qayin avlod, qayin urug‘i” degani.

QB.365 da: boð, Taf.106 da: boy.. Hozirgi o‘zb.: boy – bo‘y, qomat.

QB.442 da: boð – rang, KN.71 da: boy – rang, boyaq – bo‘yoq. Solishtiring, hozirgi o‘zb.: boy, boyaq.

Boy ning “bo‘ydoq, turmush qurmagan” ma’nosı ham bor. Masalan: KN.71 da: boy~boydaq. Solishtiring, hozirgi o‘zb.: boy qız; boz yigit~boydaq yigit.

QB.70 da: yið – hid.

AH.167–168 da: ked-, kedim. Hozirgi o‘zb.: kiy-, kiyim.

AH.255 da: tod-. Taf.306 da: toy-. Hozirgi o‘zb.: toy-.

OD.2.2 da: ud, KN.72 da: uy, qirg‘.: uy. Hozirgi o‘zb. uyči (uyči tümäni) so‘zining tarkibidagi uy qadimgi ud ning o‘zgargan shaklidir; uyči – “qoramol boquvchi” degani. Qiyoslang: xatirči – “xachir yetishtiruvchi”.

Taf. da: ið~ïy (128)~ïz (129) – yubor-.

Shunga qaramay, o‘zbek tilida ayrim so‘zlarning qadimgi d li shakli ham saqlanib qolgan. MK da: quduğ (III.134) ~ quduğ (I.356); RQ.141b da: quduğ. Hozirgi turk.: quyu, o‘zb.: quduq (lekin qudī emas – quyī); İB.42 da: idiš-ayaq, RQ.142b da: idiš, MK.I.112 da: ayaq. Hozirgi o‘zb.: idiš-ayaq.

g>w hodisasi.

MK.I.388 da: qağun, KTT. 9 da: qawun. Hozirgi o'zb.: qawun.

MK.II.85 da: qağurdī, MK.I.85 da: qağurmač, KN.71 da: qawurmač – ovqatning oti, KTT.21 da: qawurma. Hozirgi o'zb.: qawurma, qawurdaq.

MK.I.449 da: qulabuz, KTT.34 da: qulağuz, QB.124, RQ.146b da: qulawuz – yo'lboshchi, rahnamo. Hozirgi turk.: qīlawuz

K.2 da: yağı, hozirgi o'zb.: yaw.

QB.326 da: yawuz. Hozirgi o'zb.: yawuz.

Ka.7, QB.2694 da: yağuq, KTT.35, RQ.141b da: yauq – yaqin.

OD.27.8 da: soğuq; KTT.38 da: sawuq. Hozirgi o'zb.: sawuq.

OD.41.5 da: tağuq. Hozirgi o'zb.: tawuq.

KN.72 da: sağlıq. Hozirgi o'zb.: sawlıq (qoy).

OD.19.4 da: suğ. Hozirgi o'zb.: suw. Biroq fe'l shaklida: suğar-. Bu qadimgi qoldıq shakli bo'lishi ham mumkin. Qiyoslang: Taf.276 da: suwar-; Lekin MK.II.218 da: suwğar-. Uning -a qo'shimchasi bilan yasalgan suwaldī varianti ham bor: tarīg suwaldī – ekin sug'arildi (MK.II.142).

b//w>y hodisasi. QB.145, ST.V.20.16, AH.417 da: owut. Hozirgi o'zb.: uyat.

w>y hodisasi. QB.203 da: tewä. Hozirgi o'zb.: tüyä, uyg'ur.. tögä.

QB.334 da: sewinč. Hozirgi o'zb.: sewinč. Biroq: süyün, süyünçi.

bb//g>w hodisasi. QB.139 da: suw. Hozirgi o'zb.: suw.

ñ//n//y>y hodisasi. Quyidagi misollarni qiyoslang: K.12 da: qoñ, OD.41.3, KTT.19 da: qoyun, Ton.53 da: qoy, QB.439 da: qoy, Taf.211 da: qoy~qoyun. Hozirgi turk.: qoyun, o'zb.: qoy.

Yoki Ka.9, İB.30 da: čığañ, ST.VIII.4.8, QB.307 da: čığay – “qashshoq, yo'qsil”.

Ka.5 da: aňıg; ST.V.38.13 da: ayıg – yovuz, tuban, bema’ni.

ŋ>y hodisasi. AH.89 da: söňäk, Taf.275 da: söňük. Hozirgi o‘zb.: süyäk~söňäk.

q>x, q//x hodisasi. KTT.15 da: qatır, KN.72 da: qatır~xačır. Hozirgi o‘zb.: xačır.

QB da: yaqşı (2642) ~ yaxşı (425). Hozirgi o‘zb.: yaxşı.

KN.70 da: axşam. Hozirgi o‘zb.: aqşam.

q//ğ, q>ğ, ğ>q hodisasi. ST.V.71.4 da: ğarın. Hozirgi o‘zb.: qarın; ST.V.71.3 da: ğunçuy – malika.

ST.V.1.16 da: xan; ST.VI.17.10 da: xatun – xotun, malika.

KN.73 da: saqaq~saqağ – yanoq.

ž>č hodisasi. QB.70 da: ažun, Taf.66 da: ažun~ačun – denyo, olam.

št>/č, št//č, š>/č, š//č, t>č, t//č hodisasi. KN.76 da: uštmax~učmaq~učmax – jannat.

Hozirgi uyg‘ur.: čiši quda, čiš, čuš-. Chog‘ishtiring, o‘zb.: xatın quda, tiš, tuš-.

So‘z boshida tovush orttirilish yoki tushish hodisalari.

Unlidan avval [h] yoki [x] ning hosil bo‘lishi.

İB.37, MK.I.91 da: öküz. Hozirgi o‘zb.: hökiz.

MK.I.83 da: öł. Hozirgi o‘zb.: höl.

MK.I.68 da: hana, hata (xo‘tan va kanjaklar tilida).

Taf.36 da: awuč. Hozirgi o‘zb.: xawuč.

y//0, y>0<y hodisasi. AH.213 da: yılın. Hozirgi o‘zb.: īlan.

AH.216: yïraq. Hozirgi o‘zb.: yïraq~ïraq.

İB.19 da: ut-. Hozirgi o‘zb.: yut-, yutuq.

KN.74 da: igit. Hozirgi o‘zb.: yigit.

So‘z ichida undoshlarning tushishi:

ğ, g ning tushishi. Qadimgi turk.: qulǵaq, MK.I.364 da: qulqaq~qulxaq~qulaq, KN.73 da: qulaǵ. Hozirgi o‘zb.: qulaq. Qadimgi turk.: kergäk, hozirgi o‘zb.: keräk; ST.V.49.7 da: ešgäk, hozirgi o‘zb.: ešäk.

So‘z oxirida undoshlarning tushish hodisasi. “Kitob-i tarjumon-i turkiy”da: qapu – eshik, tamu – jahannam, qutlu – baxtli, issi – issiq, köprü – ko‘prik, tiri – tirik, ölü – o‘lik, süçü – shirin. Ko‘k turk bitiglarida bu so‘zlar qapıq, tamuq, isig, tirig, ölug, sücig shakllarida qo‘llangan.

Taf.326 da: ulug~ulu . Hozirgi o‘zb.: uluḡ.

Taf.199 da: qapuq~qapu. Hozirgi turk.: qapı – eshik.

Tovushlarning o‘rin almashinuv (metateza) hodisasi.

QB.114 da: yağmur (yağ – “yog‘moq” so‘zidan), RQ.144b da: yamğur. Hozirgi o‘zb.: yamğır.

AH.45 da: öğret (ög – “aql” so‘zidan). Hozirgi turk.: öğret (talaffuzi: öyret), o‘zb.: örgät.

KN.71: yafraq~yarpaq. Hozirgi o‘zb.: yapraq.

Hozirgi o‘zbekchadagi quyidagi so‘zlar ham tovushlarning o‘rin almashinuv hodisasi tufayli hosil bo‘lgan: ğam çek-. Bu o‘rinda çek- fe’li keč- ning o‘zgargan shaklidir. Yoki yana: paypoq (<pay-qop). Qiyoslang: qolqop.

S o‘ r o q v a t o p s h i r i q l a r:

Qadimgi turkiy tilning unlilar tizimidagi o‘zgachaliklar nimalardan iborat?

Lutfan Alisher Navoiyning turkiy til unlilar tizimi bo‘yicha bergen ma’lumotlarini ochiqlab bering.

Undoshlar tizimidagi o‘zgachaliklar nimalardan iborat?

Lutfan bitiglar tilida tovushlar uyg‘unligi (singarmonizm) temir qoida sifatida amal qilganligini o‘rnaklar ko‘magida tushuntiring.

Til tarixida amal qilgan tovush o‘zgarishlarini o‘rnaklar ko‘magida ochiqlab bering.

TO'RTINCHI BO'LIM. QADIMGI TURKIY TILNING MORFOLOGIK XUSUSIYATLARI

SO'Z YASALISHI

T a y a n ch t u sh u n ch a l a r: *morfema, tarixiy morfema; so'z tarkibi, o'zak, negiz, qo'shimcha; so'z yasovchi qo'shimchalar bilan so'z yasash, analitik usul bilan so'z yasalishi.*

E' t i b o r q a r a t i l a y o t g a n m a s a l a l a r:

Morfemika. Morfema taxlilida tarixiylik va hozirgi holat.

So'zning tarkibi. O'zak va negiz.

So'z yasalishi.

Morfema to‘g‘risida tushuncha

Morfema ma’no anglatuvchi eng kichik, bo‘linmas elementdir. Morfemalar til bilimining *morfemika* bo‘limida o‘rganiladi.

Morfema tahlilida tarixiylik va hozirgi holat masalasini ajrata olish kerak. Tilning tarixiy taraqqiyoti jarayonida so‘zning morfem tarkibi o‘zgarib turadi. Jumladan, hozirgi o‘zbek tilida *işlä*, *başla* so‘zlarini *iş-lä*, *baş-la* ko‘rinishida morfemalarga ajratamiz. Bunga, ikkala yasama so‘z o‘zaklarining leksik ma’no anglatishi, ularning mustaqil holda qo‘llana olishi, *-lä*, *-la* qo’shimchasining fe’l yasovchi ekanligi asos qilib olinadi. Biroq, *imlä* so‘zi hozirgi o‘zbek tili nuqtai nazaridan morfemalarga bo‘linmaydi; *-lä* ni fe’l yasovchi deb qaraganimizda ham, o‘zak yolg‘iz ko‘rinishida leksik ma’no ifodalamaydi (*im qaqdī* deyilganda ham yasama so‘z holida qo‘llanadi). Tarixan, aksincha, *imlä* dagi *im* – “parol, belgi” ma’nosini bildirgan, shuning uchun uni o‘scha davr o‘lchovlariga tayanib ikkiga ajratish mumkin. Yoki *alda-* so‘zini ham hozirgi o‘lchovlar asosida morfemalarga bo‘la olmaymiz. Tarixan uni ikki morfemaga ajratish mumkin: *al-da*.

Bulardan: *-da* – fe'l yasovchi, *al* esa “hiyla, nayrang” ma'nosini bildiradi. Bunda til tarixida o'zaklarning mustaqil qo'llanila olgani, qo'shimchalarining esa yasovchi sifatida harakat qila olgani asos qilib olinadi. Masalan, *al* so'zi o'tmishda mustaqil holda ham qo'llanilgan: *Awči nečä al bilsä,* *adīğ anča yol bilir.* – Ovchi qanchalik hiyla bilsa, ayig' ham qochib qutilish yo'llarini shu qadar biladi (MK.I.94).

Endi *ula-* so'zida bu qolipdag'i yasalish yo'q. Uning o'zagi – *ul*. Qidimgi turkiyda *ul* – “asos, tag-tug”; *ula-* – “asosini biriktir-, bog'la-” degani.

Hozirgi o'zbek tilidagi *qutil, qutqar* so'zlarini morfemaga bo'lish mumkin emas. Lekin tarixan ular morfemalarga bo'linadi: *qut-i-l, qut-qar*. Keyingi so'zdagi *-qar* fe'l yasovchi qo'shimcha, masalan, *bašqar* ham shu qolipda yasalgan. Qadimgi turkiyda *qut* bir qancha ma'nolarda qo'llangan. Shulardan biri “*qut, baxt*” ma'nosи. Masalan, Yusuf Xos Hojib dostonining oti “*Qutadğu bilig*” shundan olingan, “*Qutga, baxtu saodatga yetkazuvchi bilim*” degani. *Qut* so'zi “erk, ozodlik” ma'nosida ham qo'llangan. Masalan, qadimgi turk eposi “*O'g'uzxoqon*” dostonida shunday jumla bor: *Men sejä bašimni qutumni berä-men* (OD.22.6). Buni ruschaga “Я отдаю тебе свою голову, свою душу” deb o'girganlar (DTS.471). Aslida, bu jumladagi *qut* ni “jon” (“душа, жизненная сила, дух”) deb emas, “erk, ozodlik” deb anglamoq kerak. Matndagi *bašimni qutumni* – juft holatda “*erkimni*” degan ma'noni beradi. Bu o'rinda xonga bosh egish, taslim bo'lish to'g'risida so'z bormoqda. Shunga ko'ra, matnni “*Men senga erkimni beraman*” deb o'girgan ma'qul. Ana shunda “*senga erkimni beraman; senga bo'yunsinaman*” degan ma'no kelib chiqadi. Hozirgi o'zbek tilidagi *qutil, qutqar* ham o'sha so'zdan: *qutil* – “ozod bo'l”, *qutqar* – “ozod qil-” degani.

Qadimgi turklarning shunday maqoli bo'lgan: *Er quti belij, suw quti terij* (Arat 1991,274). Buni ruschaga “Достоинство

мужа – в страхе, ценность воды – в глубине” deb tarjima qilganlar (DTS.94). Uyg‘urcha tarjimasida bu maqolni “Erning quti (baxti) qo‘rmaslikda, suvning quti cho‘ngqurlikda” deb o‘girganlar. Ushbu qadimgi turk maqolida *qut* – “quvvat, kuch-qudrat” ma’nosidadir. Shunga ko‘ra maqol “Erning (yigitning) jasurligi qutqu chog‘ida (to‘s-to‘palonda) bilinadi, suvning qudrati tubida (bilinadi)” degan ma’noni beradi.

So‘zning morfem tarkibi matn yaratilgan davr me’yorlariga tayanib belgilanadi. Tarixiy taraqqiyot, til me’yorlarining harakatlanishi oqibatida ba’zan o‘zak, ba’zan esa qo‘shimchalar qo‘llanmay qo‘yishi mumkin. Ba’zida ikkalovi unutilib, bir komponentga birikib ketadi. Natijada ularni ma’noli qismlarga bo‘lishning iloji qolmaydi. So‘zning bunday holatini tevarak-borliqdagi ayrim kristallarga mengzash o‘rinli. Tabiatdagi ayrim qattiq moddalar qachonlardir suyuq yoki yumshoq holatda bo‘lgan, hozir ular zaranglashib, bo‘linmas holga kelib qolgan.

Tilda me’yoriy, odatiy holatlar bilan bir qatorda, tarixiy holatni ko‘rsatuvchi, lekin hozir harakat qilmaydigan relikt (qoldiq) hodisalar ham uchrab turadi. Bu hodisa so‘zning morfem tarkibiga ham aloqali. Xuddi shunday relikt holatlar hozirda “kristall” holiga kelib qolgan so‘zning o‘zagi, unutilgan qo‘shimchasi yoki har ikki komponenti bo‘luvi mumkin.

Til tarixidagi bu hodisa lug‘at tarkibidagi katta bir qatlarning etimologiyasi, tarixiy ko‘rinishi, morfem qurilishini aniqlashga to‘sinqilik qiladi. Biz ularning qanday yasalgani, morfema deya chamalayotgan uzvning ma’nosini, hozirgi turishida qay bir tovush o‘zgarishiga uchraganini bilavermaymiz. Tekshiruvlar ulardan ayrimlarining ildizlarini ochishga imkon beradi, xolos.

Masalan, hozirgi *qazaq* so‘zini olaylik. Olimlar uning kelib chiqishini turlicha izohlaydilar. Bizningcha, bu so‘z *qazqaq* dan kelib chiqqan. Bu so‘zda “bo‘linish, ajralish” ma’nosи bor.

Keyinchalik tovush tushish hodisasi yuz berib, hozirgi ko‘rinishiga kelib qolgan (boshdagi *qazǵaq* ning ham tub ma’nosи shunday). Qiyoqlang: KTT.34 da: *qazaq* – uysiz-joysiz. Yana qiyoslang, KTT.22da: *qazǵan* – Kitobda qayd etilishicha, buni *gazan* shaklida ham talaffuz qilganlar.

Yozma yodgorliklar grammatic jihatdan tahlil qilinganda so‘zlarni morfemalarga ajratishda zamonaviy me’yorlarga asoslanib (ya’ni hozirgi o‘zbek tili normalariga tayanib) emas, balki bitiglar yaratilgan davr tilining grammatic normalariga tayangan holda ish ko‘riladi.

Morfema tahlilida yasama so‘zning qay ma’nodan hosil bo‘layotganligini bilish ham muhim. Masalan, hozirgi *küyläso‘zi* ikki morfemaga ajratiladi (*küy-lä*). Biroq ushbu yasama so‘z “ohang” ma’nosidagi *küy* dan yasalayotgani yo‘q. Buning isbotini yozma manbalar misolida ko‘rib chiqaylik.

Alisher Navoiy “Muhokamatu-l-lug‘atayn”da hozirgi “ohang, kuy” ma’nosidagi *küy* ni *kök* shaklida keltirgan. Navoiy asarlari bo‘yicha tuzilgan “Abushqa” lug‘atida *kök* dan yasalgan *köklä- // köktä-* fe’liga keng izoh beriladi. Kitobda muallif *köklä-* fe’lining ma’nosini to‘g‘risida shunday yozadi: *Köklä* – käflar kāf-i ’arabîdur. Amr edüp sâz čal ma’nâsinadur... (DDT.369).

Kitobda muallif ushbu fe’lning *köktä* variantini ham bergen. Ayni so‘zga o‘rnak sifatida “G‘aroyibu-s-sig‘ar” dan bir bayt hamda Navoiyning “Muhokamatu-l-lug‘atayn”da *kök* ning ma’nolari to‘g‘risida yozganlarini keltiradi (o‘sha kitob, 369–370).

Lug‘atda *kök* so‘zi ham *bu daxi sâz čalmaq ma’nâsinadur* deb izohlanib, unga misollar berilgan (o‘sha kitob, 369).

Mavlono Lutfiy qalamga solgan quyidagi tuyuqda ham ayni ma’no mujassam:

Tüz, begin, bu damda suhbat kökini,

Tut ayaǵ, kes dard-u ġamnij kökini.

İlgindin gar kelsä başqa tut ayaq,

Közgä ilmän dunyāniň yer-kökini.

Birinchi misradagi *kök* – “avj” ma’nosida (*suhbat köki* – “suhbatning yoqimlisi, dil tortuvchi suhbat”), ikkinchi misradagi *kök* – ildiz, so’nggi satrdagi *kök* esa “osmon”dir.

Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘atit turk” asarida Navoiy qayd etgan “ohang” anglamidagi *kök* so‘zi *kög* (yoki *küg*) shaklida, “osmon” ma’nosidagi so‘z esa *kök* shaklida qo‘llangan. Bunday xulosa qilishimizning sababi quyidagicha: Mahmud Koshg‘ariy “she’rning vazni, o‘lchovi” ma’nosidagi *kög* ni izohlar ekan, uning “yumshoq kof (ya’ni jarangli [gl]) bilan” talaffuz etilganini ta’kidlaydi (MK.III.144). “Osmon, ko‘k” ma’nosidagi so‘zni esa “qattiq kof (ya’ni jarangsiz [k]) bilan” talaffuz qilingan (*kök*) deya qayd etadi (MK.III.146).

Muhimi shundaki, Mahmud Koshg‘ariy o‘z devonida *kög*(~*küig*) so‘zini ikki ma’noda qo‘llaydi: 1) she’r, she’r turi, she’riy o‘lchov, nazm; 2) kuy, ohang. Asarda ushbu so‘zning har ikkala ma’nosiga misollar berilgan: *kög* – she’rning vazni, o‘lchovi: *bu yir ne kög üzä-ol* – bu she’r qay vaznda; *kög* – kuy, maqom, ashulada maxsus qoidaga muvofiq ovozni baland-past qilish: *er kögländi* – odam ovozini baland-past qilib, ma’lum maqomda ashula aytdi (MK.III.144).

Mahmud Koshg‘ariy *köglä-* fe’lini izohlar ekan, uning “kuylamoq, ashula aytmoq” ma’nosida ekanligini ta’kidlaydi: *er köglädi* – kishi kuyladi, ashula aytди (MK.III.315). Ushbu misoldagi *köglä-* fe’li “qo’shiq, ashula” ma’nosidagi *kög* dan yasalgan.

Qadimgi turk she’riyatida *kög~küig* atamasi “she’r, qo’shiq” ma’nosida keng qo‘llangan. Masalan, turk moniy adabiyotining namoyandası Aprinchur tigin she’rlarining oxiriga *Tügädi Aprin-čor tigin kügi* (Tugadi Aprinchur tigin she’ri) deb yozib qo‘yilgan (qarang: Arat 1991,14). Qadimgi turkiy manbalarda ba’zan bu atama *küig tağşut* shaklida qo‘llanib, “she’riyat” ma’nosini bildirган.

Misollardan anglashiladiki, Navoiy “ohang” ma’nosini nazarda tutgan *kök* (yozma manbalarda: *kög~küg~kök*) polisemantik so‘z bo‘lib, “she’r, qo‘shiq, she’r o‘lchovi, nazm; kuy, ohang” ma’nolarini ifoda etgan ekan.

Til taraqqiyotining keyingi davrlarida mazkur so‘z *küy* ga aylangan. Hozirgi o‘zbek tilidagi “ohang” ma’nosini bildiruvchi *küy* qadimgi *küg(~kög)* ning o‘zgargan shaklidir (-*k//~g>-y;* -*ö>-ü*). Tilimizda uning “she’r, qo‘shiq” ma’nosini hozir ham relikt shaklida uchraydi. Hozirgi *küylä-* fe’lining o‘zagi tarixan “ohang, kuy” ma’nosiga emas, balki “she’r, qo‘shiq ma’nosiga bog‘lanadi. Chunki, *küylä-* so‘zida “kuy chalmoq emas, “qo‘shiq aytmoq” ma’nosini mujassam: *san’atkär* *kuyladi=san’atkär* *qo‘shiq* *aytdi*. Bu so‘z “Devonu lug‘atit turk”da qo‘llangan *köglä-* (*er köglädi*) fe’lining fonetik jihatdan o‘zgargan shaklidir: *köglä~küglä>küylä*.

Tilimizda *sigir* *küylädi*, *it* (*urğacıč it*) *küyükdi* birikmaları ham bor. Ushbu birikmalar tarkibidagi *küylä-*, *küyük-* esa yuqidagi ma’nolarga bog‘lanmaydi. Bular hayvonlarning juftlashuv vaqtini bildiruvchi *kög(~küg)* dan yasalgan. Ushbu so‘z Mahmud Koshg‘ariyning devonida uchraydi: *kög* – bu echki va boshqa hayvonlarning qishda bir-biriga oshadigan (juftlashadigan) vaqt: *qoy kögi boldi* – qo‘ylarning qo‘shiladigan, uyur oladigan vaqt bo‘ldi (MK.III.145). Bu so‘zdan esa hayvonlarga nisbatan qo‘llanuvchi *küylä-*, *küyük-* fe’llari yasalgan: *kög(~küg)>küy+lä; küy+ük*.

Endi hozirgi *qošiq* [tarixiy shakli *qošuq*] so‘zining yasalishi borasida. Uning etimologiyasi haqida har xil fikrlar bildirilgan. Ko‘philik bu so‘zning o‘zagini “biriktirmoq” ma’nosidagi *qoš-* fe’liga bog‘laydi. Bu o‘zakni *qoš* (yer haydovchi ho‘kiz) so‘ziga bog‘lovchilar ham bor. Ta‘kidlamoq kerak, *qošuq* so‘zining o‘zagi qayd etilgan ma’nolarning birortasiga bog‘lanmaydi. Yasalishi shunday: o‘zagisi *qoš-* bo‘lib, -*q* (-*uq*) – ot yasovchi qo‘shimcha; u otdan emas, fe’idan ot yasaydi. Shunday ekan, bu so‘z o‘zagining “er haydovchi ho‘kiz”ga bog‘lanushi o‘rinli

emas. So‘zning *qoš-* o‘zagi “biriktirmoq” ma’nosida ham emas, u “she’r to‘qimoq” ma’nosidadir. Bu ma’no qadimgi turkiy tilda amal qilgan. “She’r to‘qimoq” ma’nosidagi *qoš-* so‘zini, jumladan, “Devonu lug‘atit turk”da uchratamiz: *ol yir qoşdī* – u she’r yozdi (MK.II.22).

Demak, manbalarda qayd etilgan misollardan hozirgi *qoşıq* atamasi tarixan *qoš-* fe’lining “qo‘shmoq, biriktirmoq” anglamidan emas, “(she’r, ashula) to‘qimoq” ma’nosidan yasalganligi anglashiladi.

So‘zning tarkibi

So‘zlar tuzilishiga ko‘ra *tub* va *yasama* bo‘ladi. *Tub so‘zlar* asli muayyan ma’noni bildiruvchi morfem birlikdir. Ot, sifat, son, fe’l singari mustaqil so‘z turkumlari ham, shuningdek, yordamchi so‘z turkumlari ham *tub* so‘zlar bo‘luvi mumkin. Masalan, otlar: *i* – “o‘simlik, buta”, *ot* – “dori-darmon”, *ig* – “kasallik”, *qaz* – “g‘oz”, *qoñ* – “qo‘y”, *söz* – “so‘z”; fe’llar: *ba-* “bog‘la-”, *te-* “de-”, *ay-* “ayt”, *uq-* “uq”, *al-* “ol-”, *ked-* “kiy-”, *ber-* “ber-”, *ürk-* “hurk” va b. *Yasama so‘zlar* esa o‘zakka yasovchi qo‘shimcha qo‘shish yoki mustaqil so‘zlarning grammatik birikishi bilan yuzaga keladi.

So‘z tarkibi deyilganda, o‘zak, negiz hamda so‘zning sintaktik munosabatini ta’minlovchi turli qo‘shimchalarining birligi, so‘zning morfologik tizimi (strukturası) tushuniladi. So‘z tarkibini tahlil qilishda, avvalo, leksik hamda grammatik ma’no anglatuvchi komponentlarni ajratib olish lozim. So‘z tarkibi leksik hamda grammatik ma’no anglatuvchi komponentlar birligidan iborat bo‘ladi.

So‘zning leksik ma’no bildiruvchi komponentlariga o‘zak hamda negiz kiradi. *O‘zak* – so‘zning eng kichik leksik ma’noli bo‘lagi. *Negiz* esa so‘zning ma’nosini beruvchi, eng katta leksik ma’noga ega bo‘lgan bo‘lagidir. Masalan: *tin-* fe’liga ot yasovchi -č qo‘shimchasini qo‘shib, *tinč* oti yasalgan. *tinč*

so‘zining o‘zagi (eng kichik leksik ma’noli bo‘lagi) *tin*-, negiz esa ot yasovchi -č qo‘shimchasini qo‘shish natijasida hosil bo‘lgan *tinc* so‘zidir. Endi bu so‘zga -i qo‘shimchasini qo‘shib, *tinci* fe’lini yasaymiz. Bunday holda negiz ham o‘zgaradi: yangi yasalgan so‘z negiz bo‘ladi. Lekin o‘zak o‘sha-o‘sha turaveradi. Shuning uchun bir o‘zakdan yasalgan so‘zlarni o‘zakdosh so‘zlar deb ataymiz. Keltirilgan *tin*, *tinc* so‘zları o‘zakdosh (bir o‘zakdan yasalgan) so‘zlardir. Demak, *tinci* so‘zining tarkibi shunday: *tin+č+i = tin->tinc>tinci-*. Yana bir misol: *qatiqtü* (qattiq qilib, mahkam qilib) so‘zining tarkibi shunday: “qot-” anglamidagi *qat-* fe’liga sifat yasovchi -iğ qo‘shimchasini qo‘shib *qatiğ* so‘zi, unga esa -ti ravish yasovchisini qo‘shib *qatiqtü* so‘zi yasalgan. Bu so‘zni o‘zak-negizga ajratish tartibi ham yuqoridagi so‘z kabitidir: *qat->qatiğ>qatiqtü*.

So‘zning grammatick ma’no bildiruvchi komponentlariga qo‘shimchalar kiradi. Muhimi shundaki, so‘z tarkibiga yasovchi qo‘shimchalargina emas, yasovchi bo‘lmagan qo‘shimchalar (so‘z o‘zgartuvchi, shakl yasovchi) ham kirib ketadi. Chunki ularning bari so‘zni shakllantirishga, uning leksik-semantik, morfologik, sintaktik-stilistik o‘rnini ta’minlashga xizmat qiladi.

Til tarixida ham qo‘shimchalar uch xil ko‘rinishda uchraydi: so‘z yasovchi, so‘z o‘zgartuvchi va shakl yasovchi.

So‘zlarning morfologik usulda yasalishi

So‘zlarning morfologik usulda yasalishi o‘zak yoki yasama so‘zga yangi bir so‘z yasovchi qo‘shimcha qo‘shish bilan boshqa bir so‘z hosil qilinishidir.

Turkiy tillar tarixida, yozma yodgorliklar tilida so‘zlar qat’iy qonunlar asosida yasalgan. Yasama so‘z ma’no jihatdan o‘ziga bog‘liq bo‘lgan o‘zakdan, o‘sha so‘zning har qaysi emas, aynan tutash ma’noli semasidan urchiydi. Agar yasama

so‘zning morfem tarkibi chuqur tahlil qilinsa, o‘sha ildizga yetib boriladi. Masalan, hozirgi o‘zbek tilida “o‘tni yulish jarayoni”ni anglatuvchi *otaq* so‘zi “o‘tni yul-” ma’nosidagi *ota-* fe’lidan, u esa “o‘simlik” anglamidagi *ot* so‘zidan yasalgan. Yodgorliklarda *otači* degan atama uchraydi, “tabib, davolovchi” degani. Bu so‘zning o‘zagi “o‘t, o‘simlik” emas, balki “dori, em” ma’nosidagi *ot* dir, undan *ota-*, ya’ni “davola” fe’li, unga -či qo‘srimchasini qo‘shib *otači* oti yasalgan. Demak, *otači* so‘zining ildizi “davolamoq” ma’nosidagi *ota-*, uning negizida “dori” ma’nosidagi *ot* ga bog‘lanadi. Yodgorliklar tilida, boshqa bir *ota-* fe’li ham uchraydi, masalan: *otuj ota-* deydi, bu “o‘tin qala-, o‘tin yoq-” degani. Endi bu fe’l “o‘t, olov” anglamidagi *ot* dan. Hozirgi o‘zbek tilida *otaw* degan so‘zimiz bor, bitiglardagi ko‘rinishi – *otağ*. Hozirgi ma’nosiga qaraganda, bu so‘zning o‘zagi, harqalay, “olv” ma’nosidagi *ot* dir. Undan “o‘t qala-“ ma’nosidagi *ota-*, unga joy oti yasovchi -ğ qo‘srimchasini qo‘shib, *otağ* so‘zi yasalgan, bu “o‘t yoqib qishni o‘tkazadigan joy” ma’nosini beradi. Chog‘ishtiring: qışlaq (<qış-la-q>)-“qishni o‘tkazadigan, qishlaydigan joy”; yaylağ (<yay-la-ğ>) -“yozni o‘tkazadigan yer, yaylov”.

Hozirgi ayrim o‘zbek shevalarida “dazmol”ni *üyük* deydi. Bu so‘z o‘zagining “olv” ma’nosidagi *ot* ga bog‘liqligi yo‘q. Chunki, Mahmud Koshg‘ariy uni ütük shaklida keltirgan (Agar bu so‘z ot dan yasalganida uni singarmonizm qoidasiga ko‘ra *otuq* shaklida keltirgan bo‘lur edi). Ahamiyatlisi, Koshg‘ariy devonida *ütdi* fe’li ham keltirilgan (MK.III.268), bu “dazmolladi” degani. Demak, *üyük* o‘sha fe’ldan ekanligi ayon. Qiyoslang, Alisher Navoiyning “Muhokamatu-l-lug‘atayn” asarida ta’kidlanishicha, “üt- kallanı otqa tutup tükin arütr ma’nādadur”.

Ayrim olimlar *elig* so‘zini *ellig* [ya’ni “eli bor”] dan kelib chiqqan deb tushuntiradilar. Bu fikrga qo‘silmayman. Chunki -g, -ğ qo‘srimchasi fe’ldan ot yasaydi. Masalan, “kuzatuvchi,

ayg‘oqchi” anglamidagi *körüg* so‘zi *kör-* fe’lidan yasalgan. Shunday ekan, *elig* so‘zining negizi “el, yurt” anglamidagi *el* emas. Endi uning mag‘zini chaqib ko‘raylik. Tilimizda *elite-* fe’li bor, “yetakla-, olib bor-” ma’nosida. Ushbu so‘zdagi -*t* ko‘rsatkichi orttirma nisbat qo‘shimchasidir. Demak, fe’l *eli-* bo‘lib chiqadi, u “qo‘l, barmoq” ma’nosidagi *el* otidan, so‘ng unga -*g* qo‘shimchasini qo‘shib, *elig* so‘zi yasalgan: *el+i+g>elig*. Elig so‘zining ma’nosи “etaklovchi, boshlovchi” degani.

Yana quyidagi misollarga e’tibor bering: rangni bildiruvchi *yaşil* – “yosh, yangi” ma’nosidagi *yaş* so‘zidan yasalgan (*yaş-il*). E’tiborga sazovorki, “Qutadg‘u bilig”da osmonning sifati *yaşil* so‘zi bilan berilgan: *yaşil kök*. Ko‘k turk bitiglarida uni *kök täjri* deydi: *kök* – rangni bildiradi, *täjri* esa “osmon” degani. “Qutadg‘u bilig”da osmonga nisbatan qo‘llanilgan *yaşil* sifati, o’t, maysa rangini emas, balki “tiniq, beg‘ubor” ma’nosini beradi: *yaşil kök* – “tiniq, musaffo osmon”.

Umr vaqtı anglamidagi *yaş* ham ayni so‘zdan urchigan; umrning muayyan vaqtı: *bir yaş* – insonning bir yillik umri. *Yaş, yaş yigit, yaş bala* deyilganda “hali ko‘p yashamagan, o‘smir” tushuniladi (chog‘ishtiring, qadimgi turkiy tilda: *yaşlıq* – yoshi katta, keksa; *yaşlıq er* – keksa kishi. Hozirgi turk tilida: *yaşlı (yaş-li)* – “keksa, uzoq yashagan kishi”). *Yaşa (yaş-a)* fe’li ham ayni o‘zakdan. Endi *yaşın, yaşna (<yaşin-a)* so‘zları boshqa bir o‘zakdan yasalgan (chog‘ishtiring: *čaqin, čaqna*; bu ham yuqoridagi qolipda bo‘lib, o‘zagi *čaq-*; *čaqmaq čaqdī*; yoki: *giğürt čaq-, ot čaq-*). Harqalay, *yaşın* so‘zining o‘zagida “yorug‘, nur” ma’nosı borligi ayon. Qadimgi turkiyda: *yaşu-yorug‘lik* sochmoq. Chog‘ishtiring, QB da: Yaşıq – Quyosh. Yaruq ham o‘scha qolipda yasalgan, *yaru-* “yorug‘lik sochmoq” so‘zidan.

Affiksasiya usuli bilan so‘z yasalishida so‘zning ichki va tashqi tomoniga e’tibor qaratiladi. So‘zning ichki tomoni ma’no, semantika bilan bog‘liq. Tashqi belgisi uning tovush

tomonidar. Qadimgi turkiy tilda yasama so‘z ana shu ikki jihat birligidan yuzaga kelgan. Demak, o‘zak bilan yasalgan negiz o‘rtasida ham ma’no, ham fonetik jihatdan bog‘liqlik bo‘lmog‘i kerak.

Yodgorliklar tilida so‘z yasovchi affikslarning vazifasi muqum. Har bir affiks, o‘ziga tegishli doirada harakat qiladi, muayyan ma’noni anglatuvchi so‘zlar guruhini yasaydi, chegaradan chiqmaydi. Sinonimiya qurshoviga tushgan taqdirda ham, eshi yo‘l bersagina, uning vazifasini bajaradi.

Yana har affiksning fonetik variantlari ham bo‘ladi. Variantlarning bari “bir affiks”, har qaysisi “o‘sha affiksning ko‘rinishi” deb qaraladi. Ular o‘zakka singarmonizm qonuni asosida birikadi; biri boshqasining o‘rnida kela olmaydi. So‘zning morfem qurilishini tekshirganda bu qonuniyatlarni unutmaslik kerak.

Qo‘shma so‘zlarning yasalishi

Turkiy tillar tarixida so‘z yasashning analitik usuli ham amal qilgan. Bunday usul bilan yasalgan so‘zlar yodgorliklar tilida keng qo‘llaniladi.

Ko‘k turk bitiglarida: beñgütaš, bitigtaš - bitigtosh, sübaši - lashkarboshi. AH da: qarabaš – cho‘ri, xizmatkor.

Ko‘k turk bitiglarida qutb otlari ham shunday usulda yasalgan: kün toğsuq – kun chiqar (Sharq), kün ortusi – Janub, kün batsiq – kun botar (G‘arb), tün ortusi – Shimol.

Qadimgi turkiy tilda qo‘shma so‘z holida yasalgan yer otlari (toponimlar), daryo va ko‘l otlari (gidronimlar) ham tez-tez uchrab turadi: Temir qapig, Qaraqum, Qara köl, Yinčü ögüz, Yaşıl ögüz.

Qo‘shma so‘z holida yasalgan taponimlar ko‘proq joy otini bildiruvchi so‘zlardan tuzilgan bo‘ladi.

Qadimgi turkiy tilda “shahar” ma’nosida *baliq*, *uluš*, *kän~ken*, *kent~kend*, *ordu* so‘zları qo‘llangan. Bu so‘zlarni

ba'zi shahar otlarining tarkibida ham uchratamiz. Masalan: Beşbalıq, Quzuluš, Quzordu. Yoki: Ötükän, Täركän, Äbäkän, Čimgän otlari tarkibidagi *kän~ken~gän* ham, chaması, "shahar" ma'nosini anglatadi.

Quzuluš, *Quzordu* ham qo'shma so'z holidagi taponimlardir. Chunonchi, Mahmud Koshg'ariy *ulus* so'ziga izoh bera turib, yozadi: bu so'z chigillar shevasida "qishloq"ni anglatadi. Balasag'un va ularning yuqori yonidagi arg'ular tilida "shahar" demakdir. Shuning uchun Balasag'un shahrini *Quzuluš* deydilar (MK.I.94). Olimning boshqa bir o'rinda qayd etishicha, bu shaharning *Quzordu* degan oti ham bo'lgan (MK.I.145).

Quzordu "Qutadg'u bilig"ning uyg'ur yozuvli hirot qo'lyozmasida ham uchraydi: Munungi turuqlağ *Quzordu* eli (Uning turar yeri Quzo'rdu elidir) (Радлов 1890,7). Bu jumlada asar muallifi Yusuf Xos Hojibning tug'ilgan yeri – Quzo'rdu (ya'ni Balasag'un) nazarda tutilmoxda.

Quzuluš, *Quzordu* otlari tarkibidagi *quz*, aftidan, "kunga ters", "kun botar" ma'nolarini bildiradi. Chog'ishtiring: Mahmud Koshg'ariy lug'atida: *quz tağ* – *tog'ning quyosh tushmaydigan joyi* (MK.III.196); *hozirgi o'zbek tilida*: küngäy – *kun tushadigan joy*; *quzgay* – *kunga taskari joy*. Yoki turkchada: Güney – Janub, Kuzey – Shimol. Shundan kelib chiqib, Quzuluš, Quzordu – "kun botardagi shahar" degan ma'noni bildiradi,

Endi *Beşbaliq* to'g'risida. Mahmud Koshg'ariyning yozishicha, bu uyg'ur viloyatidagi besh shahardan biridir (MK.I.136).

Bu otning etimologiyasi to'g'risida Koshg'ariy yozadi: *Balıq* – johiliya davridagi turklar va uyg'urlar tilida "shahar". Uyg'urlarning eng katta shaharlariga *Beşbaliq* deyilishi shundandir. *Beşbaliq* – "besh shahar" demakdir. Uyg'urlar boshqa bir shaharlariga *Yangibaliq* – "yangi shahar" deydilar (MK.I.360).

Kent va ulush otlarining yasalishida, ba’zan, Markaziy Osiyo xalqlari tillarida yagona prinsiplar amal qilganligini kuzatamiz. Masalan: Beşbalıq – kelib chiqishi turkiy ot, Panjkent – forsiy.

Qo’shma so‘z shaklidagi kishi otlari ham bor. Masalan, Qutlubars, Qulbars, Aybars, Qaraquš, Alaquš, Aydoğdi, Kündögdi, Kündögmiš, Quştemür, Esändemür, Temürxan, Temürtaš.

So‘zlarni juftlash orqali yangi so‘z yasash

So‘zlarni juftlash yo‘li bilan yangi ma’no hosil qilish, asosan, badiiy matnlarga xos.

Ko‘k turk bitiglarida *ot* va *sub* so‘zlari juft holda qo‘llanib, “dushman, yov” ma’nosini anglatadi: Biriki bodunuğ ot sub qilmadim. – Birikkan xalqni (bir-biriga) o‘t-suv [ya’ni yov] qilmadim (K.27).

Bitiglarda *yer* va *sub* so‘zlari juft holda qo‘llanib, “tuproq, o‘lka, yurt, vatan” ma’nosini anglatgan: Kögmän yer-sub idiziz qalmazun tiyin. – Ko‘gman yer-suvi egasiz qolmasin deya (K.20). Täjri Umay iduq yer-sub basa berti erinč. – Tangri Umay bilan yer-suv(imiz yovni) bosib berdiku (Ton.38).

Alqiš so‘zi “olqish, maqtov, madh” degan ma’noni anglatadi. U *alqiš ötiug* shaklida ham qo‘llaniladi, bunda “ibodat, duo” degan ma’noni bildiradi.

Yoki: *äw* so‘zi “uy” degani, matnlarda *äw* barq shaklida ham qo‘llaniladi, bu shakli “uy-joy, turar joy; ro‘zg‘or” ma’nolarini beradi. Shuning singari: aniğ yawlaq – yomon, bo‘lmag‘ur, aš ičkü – ovqat, iš tuš – teng-tush, o‘rtoqlar, og‘aynilar.

Adaš so‘zi “o‘rtoq” degani, matnlarda adaš qudaš shaklida ham qo‘llaniladi, bu “do‘stlar, yoru birodorlar” ma’nosini beradi.

Yoki *ät* – “go’sht, tana”, *öz* – “o’zlik”, *ätöz* esa “vujud, jism, tana” ma’nosini beradi.

QB, 6 da: tüš-tej. So‘z tarkibidagi tüš ham “teng” ma’nosidadir, tüš-tej – “tengdosh, tenqur” degani. Yoki, yana solishtiring, hozirgi o‘zb.: teñqur. Qadimgi turkiy tilda: qur – “esh, teng” degani. Chog‘ishtiring, X.36 da: qur bolti – esh bo‘ldi.

Hozirgi o‘zbekchada *uwali-juwali* so‘zimiz bor. Bu so‘z qadimgi turkiy tildagi *uya* so‘ziga bog‘lanadi. Qadimgi turkiy tilda *uya* ikki ma’noda qo‘llanilgan: 1) birodar, yaqin kishilar, tug‘ishganlarni anglatgan (E.15.3; MK.I.113). Bu so‘z Adib Ahmad Yugnakiyning “Hibatu-l-haqoyiq” asarida ham uchraydi: Ata bir, ana bir, uyalar, bu halq. – Ota bir, ona bir, barcha xalq qardosh, birodordir (AH.291). Asar ko‘chirilgan davr tilida *uya* so‘zining “birodor, do‘st” ma’nosi unutilgan ko‘rinadi. Shuning uchun bo‘lsa kerak asarning S nusxasida *uyalar* so‘zining ostiga *birādarān* deb yozib qo‘yilgan. 2) “yashash joyi, uya” ma’nosini anglatadi. Masalan, ÍB da: uya – in, uya.

Uya so‘zining “yashash joyi, uya” ma’nosi hozirgi o‘zbek tilida ham bor: Quş uyasida körgänini qılıdï. Turk tilida bu so‘z *yuva* shaklida qo‘llanmoqda: Yuvayi yapan dişı quştur (Uyani qurgan moda qushdir). Hozirgi o‘zbek tilidagi *uwali-juwali* tuzilishiga ko‘ra juft so‘zdir: uwa~yuwa~juwa – bir so‘zning turli fonetik variantlari bo‘lib, u “avlod, tug‘ishganlar” ma’nosini beradi. *Uwali-juwali* so‘zi tarkibidagi birinchi -*lü* qadimgi turkiy tilda amal qilgan teng bog‘lovchining qoldiq shaklidir. Keyingisi esa hozir sifat yasovchi sifatida tushuniladi. Ushbu so‘z ayni shaklda “serfarzand, avlodli” ma’nosida.

Yozma yodgorliklarda so‘zlarni takrorlash yo‘li bilan ham yangi ma’no hosil qilinadi. Masalan, *adruq* – “ayri” degani, matnlarda *adruq adruq* shaklida ham qo‘llaniladi, bu “turli, har xil” ma’nosini beradi.

S o‘r o q v a t o p s h i r i q l a r:

Lutfan o‘z bilgingizcha o‘rnaklar ko‘magida so‘zlarni morfemaga ajratish yollarini tushuntiring.

Hozirgi o‘zbek tilidagi *yaylaw*, *yulduz*, *quyaš*, *zorğa* so‘zlarini tarixan qanday morfemalarga ajratish mumkin?

Til tarixida so‘z yasalishining qanday yollarini amal qilgan?

SO‘Z TURKUMLARI

T a y a n c h t u sh u n ch a l a r: *so‘zlarning turkumlanish prinsiplari*, *mustaqil so‘z turkumlari*, *yordamchi so‘z turkumlari*.

Otlarda *ko‘plik*, *egalik*, *kelishik*.

Fe‘lning vazifadosh shakllari: *sifatdosh*, *ravishdosh*, *masdar alomati*; *fe‘lning buyruq-istik shakli*, *shart ko‘rsatkichi*, *bo‘lishli-bo‘lishsizlik*, *fe‘l nisbatlari*, *shaxs-son ko‘rsatkichlari*, *fe‘l zamonlari*.

E’ t i b o r q a r a t i l a y o t g a n m a s a l a l a r:

So‘z turkumlari.

Til tarixida mustaqil so‘z turkumlari va ularning o‘zgachaliklari. Yordamchi so‘z turkumlari va ularning o‘zgachaliklari.

OT

Otlarning yasalishi

Morfologik usulda otlar ikki xil asosdan – ot(ismlar)ga va fe‘llarga yasovchi qo‘srimchalar qo‘shish yo‘li bilan yasaladi.

1. Otdan (ismlardan) ot yasovchi qo‘srimchalar. Bular:

-*či*, -*ci* affaksi. Ushbu qo‘srimcha kasb-kor, yumush egasi ma’nosini anglatuvchi ot yasaydi. Ko‘k turk bitiglarida: *yoğči* – azachi, *siğitči* – yig‘ichi, *ayğuci* – maslahatchi, *yerči* – yerni (hududni) yaxshi biladigan kishi; Huast. da: *nomči* – diniy ta’lim beruvchi, pir, ustoz; *ötägči* – qarzdor, ba’zan *ötägči birimči* shaklida ham qo‘llaniladi; *täjriči* – xudojo‘y, dindor; MK da: *otači* – tabib, *tariğči* – dehqon, *emči* – shifokor, *etükči*

– etikdo‘z; AT da: *suwči* – dengizchi, *kemäči* – kema boshlig‘i, kapitan; KTT. da: *temürči* – temirchi, *baqırči* – misgar, *bitigči* – kotib, *etmäkči* – nonvoy, *etči* – qassob.

Alisher Navoiyning yozishicha, mansabning yo hunarning va yo peshanining izhori uchun ba’zi so‘zlar so‘ngida -či, -ci qo‘shimchasini orttirurlar. Mansabda andoq-ki: *qorči*, *suci*, *hizānači*, *keräk yaraqči*, *čögänči*, *nizäči*, *šükürči*, *yurtči*, *šilänči*, *axtači*; hunar va peshada andoq-ki: *qušči*, *barsči*, *qoruqči*, *tamğači*, *jibäči*, *yorğacı*, *xalvači*, *kemäči*, *qoyči*. Qush hunarida ham bu istiloh bordir. Andoq-ki: *qazči*, *qušči*, *turnači*, *kiyikči*, *tawušqanči* (ML.178).

-daš~daš, -däš~däš affiksi. QB da: *qaðaš* – qarindosh, *qoldaš* – qo‘ldosh, *köñuldäš* – ko‘ngildosh; MK da: *qarindaš* – qarindosh, *yerdäš* – yerdosh, bir yerlik, *emükdäš* – emikdosh, bir onani emgan.

-liq, -lik, -liq, -lig / -luq, -lük, -lug, -lüg affiksi. QB da: *qarılıq* – qarilik, *ulugluq* – ulug‘lik, *saqlıq* – xushyorlik, *yaruqluq* – yorug‘lik, *yigitlik* – yigitlik, *esänlik* – esonlik, *čeçäklik* – gulzor; MK da: *tawarlıq* – xazina, *açlıq* – ochlik, *qağunluq* – qovun poliz, *tarığlıq* – ombor, *eliglik* – qo‘lqop, *közlük* – ko‘zoynak; AH da: *čiğaylıq* – qashshoqlik, *suqluq* – suqlik, *toqluq* – to‘qlik.

-duruq, -dürük / -turuq, -türük affiksi. KTT da: *kömüldürüük* – otning ko‘krak yopqichi. Hozirgi o‘zb.: *boyunturuq*.

-duq, -düük affiksi. MK da: *burunduq* – tuya anjomni, boshbog‘.

-daq, -däk affiksi. MK da: *bağırdaq* – siynalik (qiyoqlang; KTT da: *bağırdaq* – beshik bog‘i).

-čuq, -čiük affiksi. KTT.24 da: *yančuq* (*yan* – “yon” so‘zidan) – to‘rva; MK da: *örčük* – o‘rama soch.

-qay, -gay, -käy, -gäy affiksi. Hozirgi uyg‘ur.: *täskäy* (*täris-käy*), *küngäy*; o‘zb.: *terskäy*, *küngäy*; *quzğay*.

-duz, -düz / -tuz, -tüz affiksi. QB da: *yulduz* (qiyoqlang, taqlidiy so‘z: *yalt-yult*), *kündüz*.

2. Fe’ldan ot yasovchi qo’shimchalar. Bular quyidagilardir: *-q*, *-k* / *-ğ*, *-g* affiksi. Ko‘k turk bitiglarida: *otlaq* – o’tloq, *töšäk* – to’shak; *qapiğ* – eshik, darvoza (QB da: *qapuğ*), *körüğ* – kuzatuvchi, josus; QB da: *keçik* – kechuv joyi, *tiläk* – tilak, *yöläk* – yordamchi, *bezäk* – bezak, *tapuğ* – xizmat, *bilik* – bilim, *aytiğ* – savol; MK da: *qişlağ* – qishloq, *yaylağ* – yaylov, *suwlağ* – suv toshgan yer, *tariğlağ* – ekinzor, *quşlağ* – qushlar makoni, *tutuğ* – garov, *qonuq* – mehmon; AH da: *qiliq* – odat; *ölüg* – o’lik, *tirig* – tirik. Taf. da: *sinağ* – sinov, *soruğ~soruq* – so’roq, *bičaq* – pichoq.

Navoiyning yozishicha, mazkur qo’shimchani mahal va makonga qo’shib, bir fasl yo bir amrga mansub qilurlar. Andoq-ki: *qişlaq*, *yaylaq*, *awlaq*, *quşlaq* (ML.178).

Yoki yana solishtiring, hozirgi o’zb.: *qişlaq*, *yaylaw* (<*yay-la-ğ/q*; *yay* – “ko’klam”, *yaylağ* – “ko’klamni o’tkazadigan yer” ma’nosida). Bu so’zlarning qadimgi matnlarda qo’llanilishiga e’tibor bering: *Talim qara quşman*, *yaşıl qaya yaylağım*, *qızıl qaya qişlağım-ol*. – Yirtqich burgutman, yashil qoya yozni o’tkazar yerim, qizil qoya qishlar yerimdir (İB.51).

-m affiksi. QB da: *alim* – olim, *berim* – berim; MK da: *aqim* – oqim, *sagim* – sog‘im, *tizim* – tizim, *bog‘*, *bičim* – bichim, *ölüm* – o‘lim. Hozirgi uyg‘ur.: *qatlam*, *aldam* – aldov, *bağlam*, *uqum* – tushuncha, *kiyim*, *ösüm* – o‘sish.

-maq, *-mäk* affiksi. MK da: *čaqmaq* – chaqmoq, *qışmaq* – petlya.

-qin, *-ğin* / *-qun*, *-ğun*, *-kin*, *-gin* / *-kün*, *-gün* affiksi. MK da: *tutğun* – tutqin, *qaçğın* – qochqin. Hozirgi o’zb.: *basqin*, *taşqin*, *yanğın*, *uçqun*, *yalqın*, *köçkin*, *sürgün*, *epkin*.

-qan, *-kän* / *-ğan*, *-gän* affiksi. Hozirgi uyg‘ur.: *tuqqan* – tug‘ishgan, *qapqan*, *çeqilğan* – chaqmoq.

-qič, *-ğič*, *-kič*, *-gič* / *-quč*, *-guč*, *-küč*, *-gütč* affiksi. Buyum, narsa, qurol, yarog‘ otini yasaydi. Ko‘k turk bitiglarida: *ačquč* – ochqich, kalit; MK da: *bičguč* – qaychi. Hozirgi o’zb.: *qırğıč*,

očirgič (<*očurguč*); uyg‘ur.: *basquč*, *qırguč*, *körsätküč*, *yälpigüč*.

-*qaq*, -*ǵaq*, -*käk*, -*gäk* affiksi. QB da: *yatǵaq* – qorovul, *turǵaq* – soqchi; MK da: *orǵaq* – o‘roq, *turǵaq* – sir oluvchi qo‘shin, *tırsıgäk* – tırsak.

-*ma*, -*mä* affiksi: MK da: *tügmä* – tugma, *süzmä* – suzma, *kesmä* – soch kesmasi. Hozirgi o‘zb.: *surma*, *qatlama*, *süzmä*.

-*qu*, -*ǵu* / -*kü*, -*gü* affiksi. MK da: *bıčǵu* – pichoq, *süpürgü* – supurgi, *külgü* – kulgu; QB da: *yegü* – yegulik, *kedgü* – kiyim. Taf. da: *bıčqu* – qilich.

Shu o‘rinda *közgü* so‘zining yasalishiga e’tibor qilaylik. Bu so‘zda -*gü* qo‘shimchasi ot(*köz*)dan ot yasagan. Aslida u fe’l o‘zagidan ot yasovchi qo‘shimchadir. Aftidan, bu o‘rinda o‘zak *köz* (ot) emas, *kör-* (fe’l) bo‘lgan bo‘luvi kerak: *kör->köz->köz-gü>közgü*. Qiyoslang, İB. da: *közüyü* – ko‘zgu, oynak.

-*n* affiksi. MK da: *aqin* – sel, *yigin* – yig‘in, *ekin* – ekin, *egin* – yelka, kift, *boğun* – bo‘g‘un; QB da: *tügün* – tugun. Hozirgi uyg‘ur.: *eqin* – sel, *jigin*; o‘zb.: *yigin*, *otun*, *quyun*, *tügün*, *kelin*.

Ushbu affiks joy, makon otini ham yasaydi: *qorǵan* (*qor-ǵa* – “qo‘ri, himoya qil” so‘zidan) – qo‘rg‘on. Yoki, solishtiring: *Qazan* (<*Qaz-ǵa-n*) (*qaz-ǵa* – “g‘alaba qozon” so‘zidan) – shahar nomi, Qozon. Lekin “idish” anglamidagi *qazan* so‘zining o‘zagi *qaz-* fe’liga bog‘lanadi. Qiyoslang: hozirgi o‘zb.: *qazimaq*, *qaziq* ham shu asosdan.

-*č* affiksi. QB da: *qılıńč* – qilmish, fe’l-atvor, *saqıńč* – eslash, *sewinč* – sevinch; MK da: *ötünč* – qarz, *urunc* – pora, *ökünč* – o‘kinch; AH da: *sökünč* – so‘kinch; Huast. da: *yükünč* – yukunch (*yükiń-* “yukunmak, sig‘inmoq, topinmoq” fe’lidan).

-*ś* affiksi. MK da: *uruś* – urush, *toquś* – jang, kurash, *čiqliś* – foyda, *keciś* – kechuv; QB da: *alqıś* – olqish (*alqa* – “maqta” so‘zidan), *qarğıś* – qarg‘ish (*qarǵa-* so‘zidan), *söküś* – so‘kish; AH da: *ülüś* – hissa.

-man, *-män* affiksi. MK da: *siqman* – uzumni siqadigan vaqt, *sökmän* – alp, qahramon. Hozirgi turk.: *ögretmen* – o‘qituvchi; o‘zb.: *bilärmän*, *taparman-tutarman*.

-gä, *-gä* affiksi. MK da: *bilgä* – donishmand, olim, hakim, *ögä* – aqlli odam, bilimdon.

-wul, *-wül* affiksi. Navoiyning yozishicha, ushbu qo‘s Shimcha ko‘magida bir muabbir va bir maxsus sifatga tayin qilurlar-ki, sultonlarning xoh bazm asbobi uchun, xoh bazm jihoti uchun mo‘tabardir. Andoq-ki: *hiräwül*, *qarawul*, *čajdawul*, *yajawul*, *sözäwül*, *tapawul*, *kitpäwül*, *yasawul*, *bökäwül*, *šiğawul*, *daqawul* (ML.178). KN da: *harawul*, *čandawul*. Qiyoslang, hozirgi o‘zb.: *qarawul*. Yoki xalq ertaklarining *böri bækäwül ekän*, *tülki yasawul ekän* boshlamasini eslang.

-siq, *-sik* / *-siğ*, *-sig* / *-suq*, *-stük* / *-suğ*, *-süg* affiksi. Ko‘k turk bitiglarida: *kün togsuq* – kun chiqar (Sharq), *kün batsiq* – kun botar (G‘arb). Qiyoslang, MK da: *kiin togsuğ*, *kün batsığ*.

-t affiksi. MK da: *ögüt* – nasihat, pand.

-qa, *-kä* affiksi. Bu affiks hashorat otlarida uchraydi. KTT. da: *sarinčqa*, kitobda qayd etilishiga ko‘ra, turkmanchada *cekirgä* ham deyilgan (qiyoslang, hozirgi o‘zb.: *cigirtkä*), *qumursqa*, *qasırtqa* – kana.

-wač, *-wäč* / *-gač*, *-gäč* affiksi. MK da: *sanduwač* – bulbul (solishtiring, o‘zb. shevalarida *sannaqčii* – oqin, xalq qo‘s shiqchisi). Hozirgi o‘zb.: *qaldırğač*.

Ko‘plik

Turkiy tillar tarixida ko‘plikning grammatick ko‘rsatkichlari, asosan, quyidagilar:

1. Ko‘plikning *-lär*, *-lar* qo‘s Shimchasi. MK da: *bilgälär* – donolar, *alplar* – pahlavonlar, *qapuğlar* – eshiklar. Yoki Huast. da: *yaruq täjrilär* – yorug‘ tangrilar, *ariğ dintarlar* – pokiza rohiblar.

Hozirgi o‘zbek adabiy tilining uslubiy talablariga ko‘ra otlardan oldin ularning son ko‘rsatkichi keltirilsa, otga -lar qo‘shimchasi qo‘shilmaydi. Qadimgi turkiy tilda esa bunday o‘rinlarda ham otlarga ko‘plik affiksi qo‘shilishi mumkin. Masalan, “Oltun tusli yorug” asarida: *iki ičiläri* – ikki akasi, *üč tiginläär* – uch shahzoda, *iki tigitläär* – ikki shahzoda, *yeti enükläri* – (barsning) yetti bolasi.

2. Yozma yodgorliklar tilida ko‘plik -n qo‘shimchasi bilan ham yasalgan. Masalan, QB da: *türkän* – turklar, *erän* – erlar, mardlar. MK da: *oğlan iğlaşdı* – bolalar yig‘lashdi, *erän alpi oqiştilar* – mardlar bir-birlarini chorladilar. Yodgorliklarda oğlan va erän so‘zлari birlik shaklida ham qo‘llanilgan: *oğlan suw tökdi* – o‘g‘lon suv to‘kdi (MK.II.27).

3. Qadimgi turkiy tilda rudiment holida ko‘plikning -t qo‘shimchasi ham uchraydi (Малов 1951,50–51). Bunday ko‘plik -n ning -t ga o‘zgarishi bilan hosil qilingan. Masalan, “Oltun tusli yorug” asarida: *tigin* – shahzoda, *tigit* – shahzodalar. Lekin asarda uning ko‘pligi *tiginläär~tigitläär* shakllarida ham qo‘llanilaveradi.

Bunday usul bilan yasalgan ko‘plikka yana bir misol: *tarqan* – taxxon (unvon), *tarqat* – taxxonlar.

4. Turkiy tillar tarixida ko‘plik -z affiksi bilan ham yasalgan. Bunga quyidagi so‘zlarni misol keltirish mumkin: *mejiz* – yuz, *köküz* – ko‘krak, *omuz* – yelka, *möjüz* – shox, *ağız* – og‘iz (uning ikki chakakdan iborat ekanligi nazarda tutilgan).

Bunga *köz* so‘zini ham misol keltirish mumkin. Solishtiring: *kör* – fe’l (-r – fe’l yasovchi), *köz* (-z – ko‘plik qo‘shimchasi).

Asli bu so‘zlarga -z qo‘shilishi orqali “ikkilik, juftlik” nazarda tutilmoqda. Biroq, turkiy tilda “ikkilik” yo‘q. Biror narsaning bittasi birlikda, ikkinchisi qo‘shilsa, ko‘plikka aylanadi. “Ikkilik” – ko‘plik degani. Shunga ko‘ra -z affiksi, ikkilik, juftlik yasovchi emas, ko‘plik yasovchidir.

Biz va *siz* olmoshlaridagi *z* ham ko‘plik qo‘shimchasidir. S.Y. Malovning yozishicha, bu olmoshlar quyidagi usulda hosil bo‘lgan: *bi+si=biz* (men+sen=biz); *si+si=siz* (sen+sen=siz) (Малов 1951,51–52).

-*z* qo‘shimchasi fe’llarga qo‘shilib, ularning shaxs va sonini bildiradi. Masalan, tinglovchi birligi *bardij*, ko‘pligi esa *bardijiz* bo‘ladi. Yoki, ko‘k turk bitiglarida tinglovchi birligi *bardig* shaklida qo‘llanilgan: *Qağanijin sabin almatin yer sayu bardig*. – Xoqoningning so‘zini olmayin har yerga tarqab ketding (Ka.9). Buning ko‘pligi hozirgi ayrim turkiy tillarda (xususan, tatar tilida) – *bardigiz*. Hozirgi o‘zb.: *barisij kerak*, ko‘pligi – *barisijiz kerak*. Yoki: *keliy* – *keliylar* – *keliyiz*. *Keliyiz* so‘zidagi *-ij* – hurmatni bildiradi, *-iz* esa ko‘plikni ifodalaydi.

Hozirgi o‘zbek tilida siz aslida tinglovchi ko‘pligidir. Biroq yoshi, martabasi ulug‘, hurmati bor kishilarga ham *siz* deb murojaat qilinadi. Tilimizda “*sizlab gapir*”, “*senlab gapir*” degan iboralar ham bor. Birinchisi hurmatni, keyingisi esa yaqinlikni, yosh va darajasi quyi kishilarga bo‘lgan murojaatni, kerak bo‘lganda salbiy ohangda hurmatsizlikni, hatto mensimay so‘zlashni ham bildiradi. Demak, hurmatning grammatik ko‘rsatkichlaridan biri so‘zning ko‘plik shaklidir. Tinglovchi va o‘zga ko‘pligini (*siz*, *ular*), otlardagi tinglovchilar va o‘zgalar egaligini (*sizniy*, *ularniy*), fe’llardagi tinglovchilar va o‘zga kishilarning harakat va holatini (ya’ni shaxs-sonni) bildiruvchi qo‘shimchalar, o‘rni bilan, hurmatni ham bildiradi. Masalan, *dadamlar*, *ayimlar* deganda ko‘plikni emas, ularga bo‘lgan hurmatni ifodaymiz. Nutq jarayonida hurmat shu qadar kuchliki, hatto hurmatga sazovor kishining ish-harakati va holatiga, unga tegishli narsalarga ham hurmatni bildiruvchi qo‘shimcha qo‘shib so‘zlanadi. Masalan: *Dada*, *avqatiijizni yeb alij* gapini olaylik. *Avqat* so‘zi otaga tegishli, shuning uchun unga hurmatni bildiruvchi *-iz* qo‘shimchasini qo‘shib *avqatiijiz* deyiladi. Keyingi *yeb al-* fe’li ham otaga

qarashli, shuning uchun u ham hurmat shaklida (*yeb alij*). Endi *Dadamlar išdän kelgänläridä avqatlarini işitib berdim* gapidagi hurmatga e'tibor beraylik. *Dadamlar so'zidagi -lar* otaga bo'lgan hurmatni bildiradi; *kelgänläridä so'zi* ham otaning harakati, shuning uchun ham u hurmat shaklida; *avqat* ham otaga tegishli, shundan kelib chiqib, unga ham *-lar* qo'shiladi. Endi *išitib berdim* so'zi menga tegishli; shu yerda gapdag'i hurmat darajasi bir pog'ona pastga tushadi: unga *-lar* qo'shimchasi qo'shilmaydi.

Ko'plik shakli hurmatni ifoda etganligini Mahmud Koshg'ariy ham ta'kidlagan edi. Uning yozishicha, turklar sen so'zini kichiklarga, xizmatchilarga hamda so'zlovchidan daraja, martaba, yoshda quyi bo'lgan kishilarga nisbatan qo'llaganlar. O'zlaridan yuqori hurmatli kishilarni *siz* deganlar. O'g'uzlar esa, aksincha, kattalarga *sen*, kichiklarga *siz* deb qo'llaydilar. Ko'plikda ham shuni ishlatganlar (MK.I.326).

5. Qadimgi turkiy yodgorliklar tilida ko'plik *-ağut* qo'shimchasi bilan ham hosil qilingan degan qarashlar bor. Biroq bu qo'shimcha bilan yasalgan so'zlar ko'plikni bildirmaydi. Masalan, ST da: *alpagut* – pahlavon, *bayağut* – boyon.

Egalik

Otlarda bir so'zlovchining egalik belgisi *-m* affiksidi: başim, közüm, elim. So'zlovchi ko'p kishi bo'lganda *-miz*, *-miz* qo'shimchasi qo'llaniladi: *başımız*, *közümüz*, *elimiz*, *bilgimiz*, *saqïncimiz*.

So'zning oxirgi bo'g'ini lablangan unlili bo'lganda ushbu qo'shimcha ba'zan *-muz*, *-müz* shaklida ham qo'shilushi mumkin. Masalan, Huast. da: *muşumuz*, *köyüllumüz*.

So'zlovchi o'zi to'g'risida so'z yuritganda, odatda, *özüm* deb ishlatadi va bunga qo'shimcha qilib ta'kidni kuchaytirish uchun ba'zan *bän* olmoshini ham qo'shib qo'llashi mumkin:

Kälkürtim-ök türk bodunuğ Ötükän yärkä bän özüm bilgä Toñuquq. – Keltirdim ham turk xalqını O'tukan yerga men o'zim bilga To'nyuquq (Ton.17).

Tinglovchi birligining egaligi -*η* qo'shimchasi bilan hosil qilinadi: *başηj, közüηj, eliηj*.

Tinglovchi ko'pligining egalik belgisi -*ηjiz, -ηjiz / -ηuz, -ηüz* dir: *başηjiz, közüηjüz, eliηjiz*.

O'zga birligining egalik belgisi -*i (-si), -i (-si)* qo'shimchasi: *başı, közi, eli*.

Muhimi shundaki, "O'g'uzxoqon" dostonida egalikning o'zga birligi lab unlisi bilan tugagan bo'g'inqlarga -*u (-su), -ü (-sü)* shaklida ham qo'shilib kelgan: *anjusu* – qiyofasi, *közü* – ko'zi, *kökiiziü* – ko'ksi, *üçägüsü* – uchalasi. Bunday fonetik xususiyat hozirgi turk tilida ham saqlangan.

O'zgalar ko'pligining egaligi qarashlilik ko'pligiga birlikning egalik belgisini qo'shib hosil qilinadi. Misoli: *sözläri*.

Klassik adabiyotda -*ηjiz, -ηjiz / -ηuz, -ηüz* qo'shimchasi yolg'iz ko'plikni emas, o'rni bilan, hurmatni ham bildiradi. Masalan, mahbubaga hurmat ayni qo'shimcha bilan ifoda etiladi. Sak. da: *qadriηjiz, közläreηjiz, ġamzaηjiz, boyuηjuz, zulfuηjuz*. Quyidagi baytga e'tibor bering:

Ğamzaηjiz qan tökkäli qasd etsä har dam, ul zamān

La'lrijzdin köp bolur Sakkäki:gä jän minnatı (Sak.715).

"Kitob-i tarjumon-i turkiy"da ta'kidlanishicha, "qipchoq tili"da egalik *bu seniη* (bu seniki), *bu muniη* (bu buniki), *bu anlaruη* (bu ularniki), *bu bizüm* (bu bizniki), *bu siziη* (bu sizniki), *bu aniη* (bu uniki), *bu menüm* (bu meniki) shaklida ifoda etilgan. Bu so'zlardagi -*η / -m* qo'shimchasi narsaning asl egasini (kimga qarashli ekanligini, kimga oid ekanligini) bildiradi (KTT.73).

Egalikning bu shakli hozirgi turk tilida ham qo'llanilmoqda: *bu senindir, bu onlarindir, bu sizindir, bu bizimdir, bu benimdir*. Yoki, solishtiring, hozirgi o'zb.:

menimčä (-im “men”ga emas, “mening fikrim”ga taalluqli, “fikr”ning “men”ga qarashli ekanligini bildiradi): *men(ij fikr)imčä>menimčä*. Yoki, yana bir misolni qiyoslang: *meniňča*. -niň qo’shimchasi “men”ga tegishli, -čä esa “mening fikrim”ga tegishli. Bu o'rinda egalik qo’shimchasi -im qisqargan (<*meniň(fikrim)čä*).

Turk tilshunosligida **benim evim**, **benim kitabım**, **ev benim**, **kitab benim** birikmalaridagi -im affiksi *tamlama eki* (qaratqich qo’shimchasi) deb emas, balki *iyelik eki* (egalik qo’shimchasi) deb ishlatiladi. Turk tilshunosligidagi talqinlarga ko’ra **benim evim**, **benim kitabım** birikma holida kelsagina, isim tamlaması dir. -im affiksi funksional jihatdan tamlayan eki bo‘lib keladi. **ev benim**, **kitab benim** shaklida gapga aylanadi. -im ning olmoshiga birikuv usuli ham tarixan *menimčä* so‘zidagi kabi kechgan.

E’tiborga sazovorlisi shundaki, yenisey bitiglarida *siz* olmoshiga ham uning kimga qarashliligini bildiruvchi -im qo’shimchasi qo’shiladi: *sizim* “siz mening yaqinlarim” degan ma’no anglashiladi: *Quyda qunçuyuma, sizim oğlumqa bökmädim*. – Uyda malikalarimga, siz (mening yaqinlar)im, o‘g‘limga to‘ymadim (E.14.2).

Hozirgi o‘zbek tilida tegishlilik, qarashlilik -*niki* qo’shimchasi bilan hosil qilinadi: *meniki*, *seniki*, *uniği*, *bizniki*, *sızniki*. -m esa ba’zan she’riyatda, badiiy-ko’tarinki uslubda qo’llaniladi, xolos.

-*niki* tarkibidagi -*ki* tegishlilikni, mansublikni bildiruvchi (hozirgi grammatik asarlarda sifat yasovchi deya talqin etilmoqda) affiksdir. Qadimgi shakli: -*qi*, -*gi*, -*ki*, -*gi*. Qiyoslang, qadimgi turkiy tilda: *üzäki* – yuqorigi, *yayqii* – bahorgi. Hozirgi o‘zbek tilida: *qiški*, *yazgi*, *kečki*, *ertäki*, *aldıngi*, *keyingi*. Bu misollarda: *qiški* – “qishga tegishli, qishga qarashli”, *yazgi* – “yozga tegishli, yozga mansub” degan ma’nolarni anglatadi va b. -*niki* tarkibidagi -*ni* esa qadimgi – *nij*, -*nij* / -*nuj*, -*nüj* qo’shimchasining qoldig‘idir. Bu

qo'shimcha bilan yasalgan so'zlarga -qii, -gii, -ki, -gi qo'shilishi bilan u ham o'zgarishga uchragan: *meniki* (<*meniŋ-ki*).

Hozirgi o'zbek tilida *bu*, *šu* ko'rsatish olmoshlarining egalik qo'shimchalarini olishi natijasida so'z tarkibida fonetik o'zgarish sodir bo'lgan: *bunim*, *buniŋ*, *buniſi*; *šunim*, *šuniŋ*, *šuniſi* so'zлari tarkibidagi -n- tarixan ko'rsatish olmoshlari(*bul*, *šul*)dagi -l bo'lib, tilning rivojlanishi, grammatik qoidalarning qat'iylashuvi sababli -n ga aylangan va har uchala shaxs egalik affikslarini qo'shishda yana tiklangan.

Kelishik

Kelishik otli so'z birikmalarida bosh so'z bilan ergash so'zning, egasi ot bo'lib kelgan gapda esa ega(ot)ning kesim bilan moslashuvi, kelishuvidir. Kelishikda so'roq otga beriladi. Masalan, *kimni?*, *kimga?*, *kimdan?* singari. Bu so'roqlarga berilgan javob kelishik qo'shimchalarini oladi.

Kelishik kategoriyasi turkiy tillarning bosh qonuniyatlaridan biridir. Tilning tarixiy taraqqiyoti davomida tilimizning ichki qonuniyatları, o'zgarishi oqibatida uning soni ba'zan o'zgarib ham turgan. Hozirgi tilshunoslikda ularning soni nechta ko'rsatilayotganidan qat'i nazar, kelishik kategoriyasi turkiy tillarda burundan bor, bundan keyin ham saqlanib qoladi.

Kelishik qo'shimchasi o'zbek tilida ot, otlashgan so'zlar, barcha ism guruhiga qo'shila oladi. Ot, sifat, son, olmoshi ism guruhi deganimiz bilan har birining o'ziga yarasha grammatik belgisi bor. Hech qachon bir turkumga tegishli kategoriya ikkinchisiga o'tib qo'ya qolmaydi. Son, sifat, olmosh asl holatida otga xos qo'shimchalarini ololmaydi. Gapda avval ot o'rnini egallaydi, ot to'nini kiygandan keyingina, uning vazifasini bajarish huquqini oladi va o'z qurshovida boshqa so'zlarga ot singari ta'sir eta boshlaydi.

Qadimgi turkiy tilda kelishiklar soni yettita. Ularning turlari va qo'shimchalari quyidagichadir:

1. Bosh kelishik: maxsus qo'shimchasi yo'q; otning bosh ko'rinishi nazarda tutiladi.

2. Qaratqich kelishigi: *-niŋ, -niŋ / -nuŋ, -nūŋ; -iŋ, -iŋ / -uŋ, -ūŋ*.

3. Jo'nalish kelishigi: *-qa, -kä / -ğa, -gä; -a, -ä; -ğaru, -gärü / -qaru, -kärü; -ğar, -gär / -qar, -kär; -ru, -rü; -ra, -rä*.

4. Tushum kelishigi: *-ğ, -g (-iğ, -ig / -ug, -üg); -n; -ni, -ni; -i, -i.*

5. O'rin-payt kelishigi: *-da, -dä / -ta, -tä.*

6. Chiqish kelishigi: *-dan, -dän / -tan, -tän / -dün, -din / -tün, -tin / -dun, -dün; -da, -dä / -ta, -tä.*

7. Vosita kelishigi: *-n (-in, -in / -un, -ün).*

Qaratqichning asl ma'nosи "qaratuvchi" degani. U egalik, maxsuslik, bir narsaning ikkinchi narsaga yo kimsaga tegishli ekanini bildiradi.

Qadimgi turkiy tilda qaratqich belgisi *-niŋ, -niŋ / -nuŋ, -nūŋ bilan birga -iŋ, -iŋ / -uŋ, -ūŋ* dir.

Qaratqich ba'zan belgisiz ifodalanishi ham mumkin. Masalan: *Köriüg sabi antağ.* – Kuzatuvchining so'zi shunday (Ton.9).

Jo'nalish kelishigi ish-harakat yoki holatning kimsa yo narsa tomon yo'nalishini bildiradi. Uning asl ma'nosи "yo'nalish" degani.

Eskida jo'nalish kelishigining qo'shimchasi ham bir necha xil bo'lgan. Qadimgi turkiy tilda jo'nalishning *-qa, -kä* varianti ustun edi. Urxun yodgorliklarida jo'nalishning *-ğa, -gä* varianti o'rnida ham *-qa, -kä* qo'llanilgan: *tağqa* – toqqa, *qapığqa* – qopig'qa, *yerkä* – yerga, *ögüzkä* – daryoga. Jo'nalishning *-ğa, -gä* varianti yenisey yodgorliklaridagina qo'llanilgan: *qunçuyümğa* – bekachimga, *edgüğä* – ezguga.

Yodgorliklar tilida jo'nalishning *-ğaru, -qaru, -gärü, -kärü* qo'shimchasi keng qo'llanilgan: *oğuzğaru* – o'g'uzga, o'g'uz

tomon, *yoq(q)aru* – yuqoriga, *ilgäriü* – ilgariga, *ebgäriü* – uygä. Masalan, To‘nyuquq bitigida: *Öydän qağanğaru sü yorılım, tämis.* – Sharqdan xoqonga lashkar yo‘llaylik, debdi (Ton.29). *Tabğacğaru Qoni säjnünög idmüs, Qıtñañğaru Toyra Sämig idmüs.* – Tabg‘achga Qo‘ni sangunni yuboribdi, Qitanga To‘ngra Semni yuboribdi (Ton.9).

Jo‘nalishning -a (-ya), -ä (-yä) affiksi: *qağanıma* – xoqonimga, *bodunuma* – xalqimga, *qaniňja* – xoningga, *inimä* – inimga, *biriyä* – o‘ngga, *yiraya* – so‘lga. *Qağanıma ötünüp sü äldim.* – Xoqonimga o‘tinib, lashkar eltdim (Ton.18).

-ru, -rü affiksi bilan ifodalangan jo‘nalishning misoli: *ayaru* – unga qarab. -ra, -rä: *taşra* – sirtga, tashqariga, *ičrä* – ichga, ichkariga.

Eng eski yodgorliklar tiliga xos bo‘lgan -ğaru, -qaru, -gäriü, -käriü belgisining qoldiqlarini hozirgi o‘zbek tilida ham uchratamiz. Hozirgi *taşqarı*, *yuqarı*, *ičkäri*, *teskäri* so‘zlaridagi -qarı, -käri qadimgi jo‘nalish qo‘srimchasining qoldiqlaridir (<*taş-qaru*, *yuq-qaru*, *ičkäriü*, *ters-käriü*). Lekin u hozirgi tilimizda o‘z vazifasini yo‘qotib, o‘zi birikkan so‘zga qo‘silib ketgan. Bu so‘zlar ayni holatida jo‘nalish ma’nosini anglatadi. Ular tarkibidagi qaratqichning qadimgi ko‘rsatkichi o‘z vazifasini yo‘qotganligi sabab so‘zlashuvda ularga jo‘nalishning hozirgi ko‘rsatkichini qo‘sib ham, qo‘smyay ham qo‘llash mumkin: *taşqarı cığdı* – *taşqarığä cığdı*, *ičkäri kirdi* – *ičkärigä kirdi*, *teskäri ögirildi* – *teskärigä ögirildi* singari.

Tushum kelishigi ish-harakat va holatning otga (kimsa yo narsaga) tushganligini, harakat va holatning tushumini bildiradi. Masalan, *Kimni ko‘rding?* degan so‘roqqa *Ulug‘bekni* deb javob qaytarilganda *ko‘rmak* fe’lining Ulug‘bekka kelib tushganligi anglashiladi.

Qadimgi turkiy tilda tushum kelishigining -n; -ni, -ni; -i, -i affikslari bilan bir qatorda -ğ, -g (-iğ, -ig / -uğ, -üg) affiksi ham keng qo‘llanilgan: *bodunuğ* – xalqni, *süg* – lashkarni, *taşığ* –

toshni, *isig* – ishni. Masalan, To‘nyuquq bitigida: *Türk Bilgä qağan türk sir bodunuğ, oğuz bodunuğ igidü olurur.* – Turk Bilga xoqon turk sir xalqini, o‘g‘uz xalqini boshqarib turibdi (Ton.62). *Altun yišig aşa kältimiz, Ärtis ögüzüg käčä kältemiz.* – Altun yishni oshib keldik, Ertish daryosini kechib keldik (Ton.37).

Bitiglardan misollar keltiramiz: *Elligig elsirätdimiz, qağanlıgiğ qağansıratdımız, tizligig sökürtimiz, başlıgiğ yüküntürtimiz.* – Davlatlini davlatsizlantirdik, xoqonlini xoqonidan judo qildik, tizzasi borni cho‘ktirdik, boshi borni yukuntirdik (K.18). *Türgäs bodunuğ uda basdimiz.* – Turgas xalqini qo‘qqisdan bosdik (K.37). *Çığaň bodunuğ bay qiltim, az bodunuğ öküş qiltim.* – Qashshoq xalqni boy qildim, oz xalqni ko‘paytirdim (Ka.10). *Otuğ uđguč birlä öcürmäş.* – O‘tni alanga bilan o‘chirilmaydi (MK.I.187).

-*n* qo‘shimchasining misoli: *Yabğusin, şadın anta ölürti.* – Yabg‘usini, shadini o‘sha yerda o‘ldirildi (Ton.41–42).

O‘rin-payt kelishigi ish-harakat va holatning yuz bergan o‘rnini bildiradi. Uning qo‘shimchasi -*da*, -*dä* / -*ta*, -*tä* dir: *qağanta* – xoqonda, *tağda* – tog‘da, *eldä* – elda.

Maqolda shunday kelgan: *Ağilda oğlaq tuğsa, ariqda öti ünär.* – Og‘ilda buzoq tug‘ilsa, ariqda o‘ti unadi (MK.I.96).

Chiqish kelishigini ifodalash uchun -*dan*, -*dän*, -*din*, -*dä*, -*tan*, -*tän*, -*tin*, -*dun*, -*dün* bilan bir qatorda -*da*, -*da* / -*ta*, -*tä* ham qo‘llanilgan.

Ko‘k turk bitiglarida: *Türgäs qağanta körüg kälti.* – Turgash xoqondan (sir bilish uchun jo‘natilgan) ko‘rvuchi keldi (Ton.29).

Qadimgi turkiy tilda hozirigidan farqli holda yettinchi – vosita kelishigi ham qo‘llanilgan. Uning asl ma’nosи ish-harakat va holatning biror narsa, biror vosita ko‘magida yuzaga chiqqanligini bildiradi. Bu kelishik belgisi -*n* bo‘lib, o‘zak-negizning fonetik-fonologik tabiatiga bog‘liq ravishda -*in*, -*in* / -*un*, -*iñ* shakllariga ega bo‘ladi. Matnlardan misollar: *Süçig*

sabin, yimšaq aqin arip, iraq bodunuğ anča yağutir ermis. – Shirin so‘zi bilan, nafis ipakligi bilan avrab, yiroq xalqni shunday yaqinlashtirar ekan (Ka.5); *Tabgač bodunqa beglik urı oğlin qul boltı, silik qız oğlin kuyj boltı.* – Tabg‘ach xalqiga bek bo‘ladigan o‘g‘il bolasi bilan qul bo‘ldi, suluv qiz bolasi bilan cho‘ri bo‘ldi (K.7); *Toduncuz uwutsuz suq yäk üçün saqincin sözin qilincin y(ä)mä közin köriüp qulqaqin äşidip tilin sözläp äl(i)gin sunup adaqin yorip ürkä üzüksüz ämgätir-biz.* – To‘ymas, uyatsiz, suq iblis uchun xayol qilib, so‘z bilan, ish bilan, yana ko‘z bilan ko‘rib, quloq bilan eshitib, til bilan so‘zlab, qo‘l bilan sunub, oyoqda yurib, (besh tangri yorug‘ini) uzlusiz azoblaymiz (Huast.144–147); *Quš qanatiň, er atiň.* – Qush qanoti bilan, er oti bilan (kuchli) (MK.I.70); *Aş tatig'i tuz, yuğrin yemäs.* – Oshning toti tuz bilan, lekin laganda quruq tuzning o‘zini yeylimaydi (MK.III.38).

Qadimgi yozma yodgorliklar tiliga xos bo‘lgan vosita kelishigining qoldiqlari hozirgi o‘zbek tilida ham uchrab turadi. Jumladan, *qišin-yazin, ertän* so‘zları tarkibidagi -n, -in vosita ma’nosini anglatadi. Ularni ko‘makchilar bilan almashtirib qo‘llash mumkin: *qiši bilän, yazı bilän, qış boyi, yaz boyi; ertä bilän.* Yoki *ačin-toqin, yüpün* so‘zları tarkibida ham vosita kelishigining ko‘rsatkichi saqlangan.

XIV–XV asrlarga kelib, turkiy tilda kelishiklar soni bittaga qisqardi. Qadimgi yodgorliklar tilida ko‘p qo‘llanilgan vosita kelishigi bu davrda uchramaydi. Uning vazifasini o‘rin-payt kelishigi va *birlä~bilä~ilä, boyi* singari ko‘makchilar bajara boshladi.

Shuningdek, eski o‘zbek tilida boshqa kelishiklar tizimida ham o‘zgarish sodir bo‘ldi. Masalan, tushum kelishigining qadimgi -ğ, -g (-iğ, -ig / -uğ, -üg) affixsi iste’moldan chiqdi. Qaratqichning qadimgi -ğaru, -qaru, -gäriü, -käriü; -ğar, -qar, -gär, -kär; -ru, -rü; -ra, -rä ko‘rsatkichlari ham keyingi davrlarda uchramaydi.

Urxun-enisey bitiglari, “Qutadg‘u bilig” asari, “Devonu lug‘atit turk”da chiqish kelishigi ba’zan *-da*, *-da / -ta*, *-tä* affksi bilan ham ifoda etilgan. Eski o‘zbek tilida chiqish kelishigi bu shaklda uchramaydi.

Shu o‘rinda Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” va hozirgi o‘zbek adabiy tilidagi kelishik shakllarini salishtirib ko‘raylik:

Kelishiklar	“Qutadg‘u bilig”da	Hozirgi o‘zbek adabiy tilida
1. Bosh k.	-	-
2. Qaratqich k.	<i>-niy, -niy, -nuy, -nuy;</i> <i>-iy,</i> <i>-iñ, -uñ, -üñ</i>	<i>-niy, -niy</i>
3. Jo‘nalish k.	<i>-qa, -ga, -kä, -gä; -a, -ä; -gäri;</i> <i>-gär;</i> <i>-ru, -rü;</i> <i>-ra, -rä</i>	<i>-gä (-qa, -kä)</i>
4. Tushum k.	<i>-g, -g (-iñ, -ig, -ug, -üg); -n;</i> <i>-ni, -ni; -i, -i</i>	<i>-ni, -ni</i>
5. O‘rin-payt k.	<i>-da, -dä / -ta, -tä</i>	<i>-da, -dä</i> <i>(talaffuzda: -ta, -tä)</i>
6. Chiqish k.	<i>-dan, -dän / -dïn, -din / -tan, -tän / -tïn, -tin / -dun,</i> <i>-düñ; -da, -da / -ta, -tä</i>	<i>-dan, -dän</i> <i>(talaffuzda: -tan, -tän)</i>
7. Vosita k.	<i>-n (-in, -in / -un, -ün)</i>	

Otlarda jins

Turkiy tillarda rod kategoriyasi yo‘q, lekin jins bor. Jins inson va boshqa jonzodlarga xos. Jinsning grammatik ko‘rsatkichi (qo‘srimchasi) yo‘q. So‘zning ma’nosiga qarab kishi yo jonzodning jinsini ajratish mumkin. Insonlarda “erkak va xotin (ayol)”, hayvonlarda “erkagi – urg‘ochisi (tishisi)”, qushlarda “nari va modasi”, parrandalarda “xo‘rozi va makiyoni” deyiladi. Tilimizda yana har birining o‘z oti bor. Sudraluvchilar, hasharotlar va suv hayvonlarining harakati, qiliqlariga qarab, ularning jinsini aniqlash mumkin bo‘lsa-da,

ularga ot qo'yilmagan: "erkagi yo urg'ochisi" deb qo'ya qolamiz.

Qadimgi turkiy tilda *iňän* – tuyaning urg'ochisi. Mahmud Koshg'ariy bunga misol qilib shunday maqol keltirgan: *İňän iyräsä, botu bozlar.* – Ingan (ya'ni urg'ochi tuya) ingrassa, bo'tu (ya'ni erkak tuya) bo'zlaydi (MK.I.142). Urg'ochi tuyaning boshqa bir oti – *tetir* (MK.I.342). Erkak tuyani esa *buğra* deyilgan. Mahmud Koshg'ariyning yozishicha, *Buğraxan* ismi ham shundan olingan (MK.I.397).

Kul tigin bitigida *urı'oğul, qız oğul* so'zлari ishlatilgan. Ushbu misollardagi *urı* – "o'g'il" degani, *oğul* esa "farzand" ma'nosida. "O'g'uzxoqon" dostonida *erkäk oğul* deydi, bu so'z "o'g'il bola; o'g'lon" degan ma'noni beradi. Hozirgi o'zbekchadagi *oğil bola, qız bola* ham ayni ma'nodadir (*bala* – "farzand" degani). Yoki yana qiyoslang, hozirgi o'zb.: *erkäk kişi, xatın kişi*. Bu o'rinda *kiši* – "inson, odam" ma'nosini anglatadi.

İB da: *erkäk yont* – erkak ot, *erkäk buzağı* – erkak buzoq, *tetir buğra* – erkak tuya. ODda: *erkäk böri* – erkak bo'ri.

RQ da: *er oğlan* – o'g'il bola, *qız oğlan* – qiz bola, *tiši tewä* yoki *iňän* – urg'ochi tuya, *erkäk bota* – er bo'ta.

İB dan bir o'rnak keltiramiz: *Aq bisi qulunlamış, örүүг ingäni butulamış, qunçuy urılanmış.* – Oq biyasi qulun tug'ibdi [qulunlabdi], oq ingani bo'ta tug'ibdi [bo'talabdi], malika o'g'il tug'ibdi. MK da: *inäk buzağuladi* – sigir buzoq tug'di.

SIFAT

Yozma yodgorliklar tilida morfologik usulda sifatlar otlar va fe'llardan yasalgan.

1) Otdan sifat yasovchi qo'shimchalar:

-*lıq*, -*lığ*, -*lik*, -*lig* / -*luq*, -*luğ*, -*lük*, -*lüg* affiksi. Huast. da: *adaqlığ* – oyoqli, *ayığ qılıncılığ* – gunohkor, *ağuluğ* – og'uli, zaharlangan, zaharli, *äksüklüğ* – gunohkor, aybdor, nuqsonli, *butluğ* – butli, oyoqli, *küçlüğ* – kuchli; QB da: *yarağlığ* –

yaroqli, *owutlug* – andishali, *uquşlug* – zakovatli, *biliglig* – bilimli, *erklig* – erkli, erkin, *türlüg* – turli, har xil, *ünlüg* – mashhur, taniqli.

“Kitob-i tarjumon-i turkiy”da qayd etilishiga ko‘ra, bu qo‘s Shimcha “qipchoq tili”da *-lu*, *-lü* shaklida qo‘llangan: *atlu* – otli, *eşäkläü* – eshakli, *mallu* – molli, *tewälü* – tuyali, *saqallu* – soqolli (KTT.72).

-siz, *-siz* / *-suz*, *-süz* affiksi. QB da: *yaraqsız* – yaroqsiz, *tubsuz* – tubsiz; KTT da: *atsız* – otsiz, *tewäsiz* – tuyasiz, *eşäksiz* – eshaksiz, *susız* – suvsiz, *malsız* – molsiz, *saqalsız* – soqolsiz, *etmäksiz* – nonsiz.

-qi, *-ki* affiksi. Otlarga qo‘silib, tegishlilik, qarashlilik ma’nosidagi sifat yasaydi. MK da: *ozaqı bilgälär* – burungi donishmandlar, *qutqı er* – xushmuomala kishi, *ewdäki taqağu* – uydagi tovuq; AH da: *ozaqı masal* – qadimgi maqol. Qiyoslang, hozirgi o‘zb.: *qiški*, *yazgi*, *ertäki*, *kečki*.

Hozirgi o‘zbek tilida ushbu qo‘s Shimcha fe’llarga qo‘silib belgi, xususiyatni bildiruvchi sifatlar hosil qiladi: *oynaqı*, *vaysaqı*.

-çıl, *-çıl* affiksi. MK da: *yamğurçıl yer* – yomg‘irchil yer, *tüpçıl yer* – sershamol yer, *igçıl* (*ig* – “kasal” so‘zidan) – kasalmand.

-saq, *-säk* affiksi. QB da: *bağırsaq* (*bağır* – “bag‘ir, yurak” so‘zidan) – mehribon, *ulugsaq* – ulug‘vor.

-sig, *-sig* affiksi. QB da: *qulsiğ* – qulsifat, *begsig* – beksifat, *ersig* – javonmard.

2) Fe’ldan sifat yasovchi qo‘s Shimchalar:

-qır, *-ğır* / *-qur*, *-ğur*, *-kir*, *-gir* / *-kür*, *-gür* affiksi: *uyğur* (*uy* – “bir, ittifoq” so‘zidan. Qiyoslang: *süt uyidi* ~ *süt uwidi*). Hozirgi o‘zb.: *tapqır*, *čapqır*, *uçqur*, *conqır* (<*čonqur*), *keskir*, *ötkir* (<*ötkür*), *sezgir*.

-qin, *-ğin* / *-qun*, *-ğun*, *-kin*, *-gin* / *-küñ*, *-gün* affiksi. Hozirgi o‘zb.: *turğun*, *uyğun* (*uy* – “bir, yagona” so‘zidan), *joşqin*, *xārgin*.

-*ğ* / -*q*, -*g* / -*k* affiksi. İB da: *yaruq* – yorug‘, ravshan; QB da: *quruğ* – qurug‘, bo‘sh, *uđuğ* – uyg‘oq; AH da: *ačiğ* – achchiq, *yumšaq* – yumshaq, *süçüg* – shirin.

-*qaq*, -*käk* / -*ğaq*, -*gäk* affiksi. Hozirgi o‘zb.: *yapişqaq*, *tirişqaq*, *tayqaq*, *uyušqaq*.

-*nč* affiksi. To‘nyuquq bitigida: *bulğanč* – bulg‘angan, parokanda (xalq), *tarqanč* – tarqoq (xalq).

-*rī*, -*ri* affiksi. Ko‘k turk bitiglarida: *egri*. Hozirgi o‘zb.: *toğri* (*toğ* – “tik” so‘zidan), *ayri*, *egri*, *biğri* (<*bükri*).

-*qaš*, -*käš* affiksi. Hozirgi o‘zb.: *ayqaš* (*ay* – “bo‘lak” so‘zidan). Chog‘ishtiring: *ayri*, *ajra* so‘zları ham shu o‘zakdan), *uyqaš* (*uy* – “bir, umum” so‘zidan), *čälkäš*. Chog‘ishtiring, *ayaqdan čaldi*, *ayağını čaliştırib otırdı* birikmalaridagi *čal* ham ayni o‘zakdan.

-*l* affiksi. MK da: *tükäl* – tugal, *qızıl* – qizil, *yaşıl* – yashil.

-*čiğ*, -*cig* affiksi. *Quş balası quisinčiğ*, *it balası oxşanciğ*. – Qush bolasi yirganchiq, it bolasi o‘xshanchiq (MK.III.250).

-*din*, -*din* affiksi. Hozirgi o‘zb.: *aydın*.

-*un*, -*ün* affiksi. QB da: *tolun* – to‘lin (oy), *tüzün* – to‘g‘ri, chin.

Sifatlarda daraja ham bor. Qadimgi turk yozma adabiy tilida qiyosiy daraja -*raq*, -*räk* affiksini qo‘sish yo‘li bilan hosil qilinadi. Masalan, QB da: *örüräk* (yuqoriroq), *yaruqraq* (yorug‘roq).

Orttirma darajani bildiruvchi “juda” ma’nosida *edi~eđi* so‘zi qo‘llaniladi. Masalan, “Qutadg‘u bilig”da: *Eđi kečki sözol masalda kelir*. – Bu ta‘birda keladigan juda eski so‘zdir (QB.107). *Eđi yaqşı aymış aziğlig kür er*. – Juda yaxshi ayтибди oziqli, jasur kishi (QB.279).

Yodgorliklarda belgining ortiqligi yoki kamligini bildiruvchi vositalar ham bor. Belgining ortiqligi so‘zning birinchi bo‘g‘iniga [p] tovushini qo‘sib, uni takrorlash yo‘li bilan hosil qilingan. Masalan, “O‘g‘uzxoqon” dostonida: *ap-aq*, *qip-qızıl*, *qap-qara*.

SON

Sonlar kimsa yoki narsalarning sanog‘ini, sirasini, chamasini, to‘dasini bildiradi.

Eski turkiy tilda “sanoq”ni *saqiš* deyilgan. Bitiglarda *san saqiš* atamasi ham uchraydi, bu “son sanog‘i, hisob” ma’nosini bildiradi. Bu so‘z ayrim joy otlari tarkibida hozir ham uchrab qoladi. Masalan, Toshkentning Eski shaharida *Saqičman* degan mahalla bor. Ushbu toponim shunday yasalgan: *saqiš* (sanoq) so‘zidagi [š] tovushi [č] ga aylangan; -*man* – kishi oti yasovchi qo‘shimchadir. Chog‘ishtiring, hozirgi o‘zb.: *taparman-tutarman*. Yoki turkchada: *öğretimmen* – “o‘qituvchi”. Demak, *saqičman* (<*saqišman*) so‘zi “sanoqchi, hisobchi” degan ma’noni bildiradi. O‘tmishda bu so‘z lavozimlardan birini anglatar edi. Chamasi, xon saroyida yoki davlat idoralarida hisob-kitob ishlari bilan shug‘ullanuvchi kishi shu mahallada yashagan, mahallaning oti ham shundan kelib chiqqan bo‘lishi kerak.

Turkiy tillar tarixida sanoqning kelib chiqishi kishining o‘zidan boshlangan. To‘g‘rirog‘i, kishi o‘z barmoqlarini sanash orqali sonlarga ot qo‘yan. E’tibor qaratadigan bo‘lsak, o‘ngacha bo‘lgan sonlarning kelib chiqishi, ularning tub, lug‘aviy anglami kishi barmoqlarining oti, o‘rni yoki holati bilan bog‘lanadi. Masalan, *bir* soni bosh barmoq (xalq tilida *başmaldaq*)qa bog‘lanadi. *İkki* undan keyingi (bosh barmoqdan keyingi ilk barmoq); *üç* – qo‘lning eng uchida joylashgani uchun shunday atalgan va b. O‘ngacha bo‘lgan sonlarning atalishini etimologik jihatdan o‘rganib chiqilsa, bu fikr o‘z tasdig‘ini topadi. Bu hodisa turkiy tillarda son turkumining kelib chiqishi, eng muhimmi, turkiy tillarning tarixiy ildizlari kishilik jamiyatining ilkin chog‘lariga, tilning yuzaga kelish paytlariga ildiz otganidan belgi beradi. Demak, son turkumiga kiruvchi so‘zlarimiz bizga jamiyatining ilkin, kishi sanashni o‘rgana boshlagan chog‘laridan qolgan meros ekan. Qadimgi

turkiy til davrida esa son turkumi takomillashib, tugal bir tizimga aylangan edi.

Qadimgi turklarda “nol” yo‘q, chunki “nol” – yo‘q son. Sanoq “bir”dan boshlanadi. Kishi tug‘ilgan chog‘da bir yosh sanalgan, ona qornidagi davri qo‘sib hisoblangan. Bir yil o‘tgach, ikki yoshga to‘lgan va shu sanoqda yoshiga yosh qo‘sila borgan.

Sanoqda *bir* – so‘zlovchi demak, ya’ni “men”dir (mening o‘zim, men turgan yer yoki men tutgan narsa). “Men” qadimgi turkiy tilda *bi* bo‘ladi. Bu so‘z *birü~berü* ko‘makchisining tarkibida ham saqlangan. *-rü* – jo‘nalish kelishigi qo‘srimchasi, *berü* – “men tomon” degani, hozirgi o‘zbekchada beri deyiladi. Masalan: *beri kel, köpdän beri*. *Bir* ning tarkibidagi *bi* – so‘zlovchi(“men”)dir. Demak, sanoq so‘zlovchining o‘zidan boshlanadi.

Hozirgi o‘zbek tilida sonlarda yasalish yo‘q. Qadimgi turkiy tilda esa sonlarda yasalish bor. Ularning morfem tarkibini tiklash ham mumkin. Masalan: *iki* ning asli *ilki* dir (*il-ki>ilki>iki*). Hozirgi o‘zb.: *ikki*). Qadimgi turkiyda *il* – “old” degani. “Poygak” ham *il* bo‘ladi, antonimi *tör* dir. *Il* ning “qutb, tomon” ma’nosи ham bor: *il* deganda “Sharq” tushuniladi, chunki Sharq qadimgi turklarning o‘ytushunchasida old tomonda. *-ki* – tegishlilikni bildiruvchi qo‘srimcha, *ilki* – “oldindagi, dastlabki, avvalgi” degan ma’noni beradi. Lekin mantiqqa ko‘ra “so‘zlovchi(*bir*)dan keyingi”dir. Shuning uchun tartibda ikkinchi bo‘lib turadi.

Boshqa bir qator sonlarda ham yasalish bor. “Yigirma” soni *iki* dan hosil bo‘lgan: *iki-r-mi>yiki-r-mi>yigirmi*. *Ellik* soni *el* (barmoq) so‘zidan yasalgan: *ellik* – “beshta o‘nlik” degani. Yoki: *altü-miš>altniš*, *yeti-miš>yetniš*. Demak, *-miš*, *-niš* qo‘srimchasi birlikni o‘nlikka aylantirmoqda. Sonlarning yasalishiga yana misol keltiramiz: *sekiz on>säksän* (“sakkizta o‘n”), *toquz on>toqsan* (“to‘qqizta o‘n” degani).

Toquz soni *toq* so‘zidan yasalgan. *Toq* so‘zi “qoniqish hosil qilish; to‘lishish; sokinlik” ma’nolarini anglatadi. Chog‘ishtiring, hozirgi *toxta* (<*toq-ta*), *köyli toq*, *qarnii toq*, *toqlü* so‘zleri ham ayni o‘zakdan. *Toquz* soni birliklarning yakunlovchisi (ya’ni, oxirgi birlik) bo‘lgani uchun shunday atalgan, “to‘xtagan, yakunlangan” ma’nosini beradi, -(u)z yasovchi qo‘s Shimcha. Yoki *yüz* sonining kelib chiqishi *yüz* (“sirt, yuza”) ga bog‘lanadi. O‘nliklarning yakunida, sirtida turgani uchun shunday atalgan. “Kishining yuzi” anglamidagi *yüz* ham shu ma’noda.

Demak, *säkiz* (<*säk-iz*), *toquz* (<*toq-uz*), *otuz* (<*ot-uz*) sonlari -z qo‘s Shimchasi bilan yasalgan; *altmis* (<*alti-mis*), *yetmis* (<*yeti-mis*) sonlari esa -mis, -mis qo‘s Shimchasi bilan yasalgan.

Qadimgi turkiy tilda sonlar to‘rt darajalidir. Ularning oldinma-ketinligi va aytilishi shunday:

Birliklar: *bir* – 1, *iki~äki* – 2, *üç* – 3, *tört* – 4, *biş~bäş~beş* – 5, *altı* – 6, *yiti~yäti~yeti* – 7, *säkiz~sekiz* – 8, *toquz* – 9. *Toquz* – birliklarning yakunlovchisidir.

O‘nliklar: *on* – 10, *yigirmi* – 20, *otuz* – 30, *qırq* – 40, *ılıg~älig~elig~elli* – 50, *altmis* – 60, *yitmis~yätmis~yetmis* – 70, *sekiz on~säksän* – 80, *toquz on~toqsan* – 90.

Yuzliklar: *yüz* – 100, *iki yüz* – 200, *üç yüz* – 300 va boshqalar.

Minglar: *bij~mij* yoki *bij~miж* – 1000, *iki bij* – 2000, *üç bij* – 3000 va boshqalar.

Qadimgi turkiy yodgorliklarda *tümän* so‘zi 10 000 ni bildirgan. Bundan yirik sonlarga uning ko‘paytmasi qo‘sib aytilgan: *beş tümän* – 50 000, *säkiz tümän* – 80 000, *on tümän* – 100 000 va b. Bitiglardan o‘rnaklar keltiramiz: *Tabgač oy tutuq bes tümän sü kelti.* – Tabg‘ach o‘ng tutuqning besh tuman qo‘sini keldi (X.25). *Yarís yazida on tümän sü terilti.* – Yaris dashtida o‘n tuman [yuz ming] lashkar terildi (Ton.36). *Čača säjün säkiz tümän sü birlä süjüsdüm.* – Chacha

Sangunning sakkiz tuman qo'shini bilan urushdim (X.26). QB.287 da: *mij tūmān* – 10.000000.

Qadimgi turkiy tilda ikki xonali sonlar quyidagi tartibda aytilgan:

1. Avval birlik aytilib, keyin shu son qo'shilgan o'nlik emas, balki undan yuqori o'nlik aytilgan: *yeti yigirmi* – buning bilan "(o'ndan oshib) yigirma tomon yetti" son qo'shildi (=o'n yetti)" degan ma'no anglashiladi. Yana misollar: *tört yigirmi* – o'n to'rt, *bis yigirmi* – o'n besh, *sekiz yigirmi* – o'n sakkiz, *altı otuz* – yigirma olti, *iki qırq* – o'ttiz ikki, *iki elig* – qirq ikki, *üç yetmiş* – oltmis uch, *yeti yetmiş* – oltmis yetti, *säkiz yetmiş* – oltmis sakkiz, *toquz säkiz on* – yetmis to'qqiz. Ko'k turk bitiglaridan misollar: *Eki otuz yaşıma Tabğacı tapa sülädim.* – Yigirma ikki yoshimda Tabg'ach tomon qo'shin tortdim (X.25–26). *Män toquz yigirmi yıl şad olutrum, toquz yigirmi yıl qağan olurtum, el tutdum.* – Men o'n to'qqiz yil shad bo'lib turdim, o'n to'qqiz yil xoqon bo'lib turdim, davlatni tutdim (Xa.9). *Eltaris qağan bilgäsün üçün, alpin üçün Tabğacqa yeti yigirmi süjtüşdi.* – Eltarish xoqon allomasi bilan bo'lgani uchun, (49) alpi bilan bo'lgani uchun Tabg'achga o'n yetti bor jang qildi (Ton.48–49).

2. Hozirgiga yaqin bir tartib bo'lib, faqat o'nlikdan so'ng *artuqi* so'zi qo'shilgan: *otuz artuqi tört* – o'ttiz to'rt. Zamonlar o'tib o'nlikka qo'shilayotgan *artuqi* so'zi qisqarib, hozirgi ko'rinishga aylangan: *otuz tört*.

Matnlardan misollar keltiramiz: *Qırq artuqi yeti yoli sülämis.* – Qirq yetti yo'la lashkar tortgan (K.15).

Ikki xonalilarga yana bir misol: *bir tūmān artuqi yeti bij* – 17000.

Ko'p xonali sonlarning o'qilish tartibi shunday: 85 – *bis toquz on / säkiz on bis;* 45360 – *tört tūmān, bis mij, üç yüz, altmiş.*

Bitiglarda "yarim" ma'nosini *süjar* so'zi bildiradi: *Süjar süsi ebig barqığ yulğalı bardı, süjar süsi süjüşgäli kelti.* –

Qo‘shinining yarmi uy-joyini bo‘shatgani bordi, yarim qo‘shini jang qilgani keldi (X.32).

Sira (tartib) sonlar narsalarning sirasini, kishilardan har birining sirada tutgan o‘rnini belgilash uchun aytildi. Sonlarning sira (tartib) ko‘rsatkichi boshlab -nč shaklida edi. “Birinchи” sira ko‘rsatkichi qadimgi turkiy tilda birinč shaklida, ba’zan bir shaklida ham qo‘llanilgan. Bularning o‘rnida *ilki*, *baştinqi* so‘zлari ham ishlatilgan. “Ikkinchi” sira ko‘rsatkichi *ikinti~ikindi* yoki *ikinč* deyilgan. Qolgan sonlarga birday qo‘shilaveradi: *üčünč*, *törtünč*, *bişinč*, *altinč*, *yitinč*, *säkizinč*, *toquzunč*, *onunč*. Ikki xonali sonlarda tartib o‘zgaradi: *bir yigirmińč*, *iki yigirmińč*, *üč yigirmińč*, *tört yigirmińč* singari.

XI–XII yuzyilliklardan -nč ko‘rsatkichining -nči, -nči shakli ham qo‘llanila boshladи: *üčünči*, *törtünči*, *bişinči*, *altinči*, *yitinči*, *säkizinči*, *toquzunči*, *onunči* singari.

OLMOSH

Olmoshlar biror so‘z o‘rnida almashib qo‘llanadi yoki biror narsa yo kimsani ko‘rsatish, belgilash, so‘rash uchun xizmat qiladi. Gaplarda, ayniqsa yozma nutqda, bir so‘zni ikki bor qaytarishdan qutilish, matn uslubini silliqlash istagida ishlatiladi. Olmosh so‘zining lug‘aviy ma’nosи “almashgan” degani.

Kishilik olmoshlari kishilarning oti o‘rnida almashib qo‘llanadi. Kishi so‘zlovchi (*men*, *biz*), tinglovchi (*sen*, *siz*) yoki o‘zga kishi (*u*, *ular*) bo‘лади. So‘zlovchi birligini bildiruvchi olmosh (kishilik olmoshi) ko‘k turk bitiglarida *bän~ben*, uyg‘ur, moniy yozuvli yodgorliklarda *män~men* yoki *min* dir. So‘zlovchi ko‘pligini bildiruvchi olmosh – *biz*.

Bir tinglovchini bildiruvchi olmosh – *sän~sen*, *sin*, ko‘p tinglovchini bildiruvchi olmosh esa – *siz* yoki *sizlär*.

O‘zga kishini bildiruvchi – *ol*, o‘zga kimsalarni bildirganda esa *olar~ular~anlar* shaklida qo‘llaniladi.

O‘zga kishi birligini anglatadigan kishilik olmoshi *ol~ul* kelishik qo‘srimchalari bilan turlanganda *an-* shaklini oladi: *aya, anि, anij, anda* kabi. Hozirgi o‘zbek tilida *u* olmoshi jo‘nalish, makon, chiqish kelishiklari bilan turlanganda orada - *n-* undoshi hosil bo‘ladi: *ungä, unda, undan*. Bular eski o‘zbek tilida *aya, andin* shaklida qo‘llangan. Biroq o‘zak va qo‘srimcha orasidagi *-n-* “orttirma” emas. U kishilik olmoshining eski turkiy tildagi *-nij* qo‘srimchasi bilan qo‘llangan ko‘rinishining qoldig‘idir: *u-n-da (<a-nij-da), u-n-dan (<a-nij-din//a-nij-dan)*.

Ba’zan *biz* olmoshiga *-lär* qo‘srimchasi qo‘shib ham qo‘llanilgan. Masalan: *Bizlär sendin bir mo’jiza tilär-biz. Ägär sen ol mo’jizani bizgä körgüzsäj, biz seňä iinanip, čin köňül birlä seňä imän keltürgäy-biz* (RQ.141b).

Kishilik olmoshlarining turlanishi quyidagicha:

Birligi:

bän~ben; bäni~beni; bänij~benij; bänä~beňä~baňa

män~men~min; mäni~meni~mini; mänijs~menijs~minijs; mänä~meňä~maňa; mändä~mendä~mindä~mintä, mindidä, mintäda; menidin~minidin

sän~sen; säni~seni~sini; sänijs~senijs~sinijs; sänä~seňä~saňa; sändä~sendä~sindä, sintädä, sinidä, sintidä; sänidin~senidin~sinitin

ol; anি; anij; aja, ajar; anta~anda, antada; antin, anindin

Ko‘pligi:

biz; bizni; biznijs, bizijs; bizkä~bizgä, bizinjä; bizintä~bizindä, biznidä, biznidin

siz, sizlär; sizni, sizlärnı; sizinj, siznijs, sizlärnij; siziňä, sizä, sizläriňä, sizlärkä; sizintä, siznidä, sizlärdä, sizdä; siznidin olar; olarni; olarnij; olarqa; olarda; olardin

Qadimgi turkiy tilda o‘zlik olmoshlari ikkita: *öz* va *kentü~kendü*. *Öz* aslida “jon” degani. U “kishi, shaxs, odam” ma’nosini ham bildiradi. Masalan, “*Qutadg‘u bilig*”da:

Munjar meňzätü keldi emdi bu söz,

Eşitkil munï sen, aya eðgü öz. –
Bunga mos keladi endi bu so‘z,
Sen buni eshitgil, ey ezgu kishi (QB.2678).

“Irq bitigi”da: *Öziñj uzun bolzun* – umring uzun bo‘lsin (İB.47).

Yilan kendü egrisin bilmäs, tewäy boynin egri ter. – Ilon o‘z egriligini bilmaydi-da, tuyaning bo‘ynini egri deydi (MK.I.147).

Yozma yodgorliklarda käntü va öz olmoshlari juft holda qo‘llanilib kelishi mumkin, bunda “o‘z o‘zim” degan ma’noni beradi. Masalan: *Käntü özümizni küntä ayda öjibiz tidimiz ärsär.* – O‘z o‘zimizni Kundan, Oydan yuqori qo‘ygan bo‘lsak (Huast.8–9); *Ayiğ qilinçqa irinčükä käntü özümizni ämgätirbiz.* – Yovuz ishlarga, gunohga o‘z-o‘zimizni urib, azoblanamiz (Huast.139–140).

Ko‘rsatish olmoshlari: *bu, ol, ošbu~ušbu, šul, ošu, ošul.*

Bu ko‘rsatish olmoshi kelishik qo‘srimchalari bilan turlanganda qo‘srimcha tarkibidagi sonorning ta’sirida mu-shaklini oladi. Masalan, OD da: *muni, mundin~mundun.*

Bu ko‘rsatish olmoshining turlanishi quyidagicha:

Birligi: *bu; buni~muni; bunuj~munuj; muňa, buýar~muýar; bunda~munda~munta; muntada, muntuda; mundin*

Ko‘pligi: *bular; bularni; bularnij; bularqa; bularda; bulardin*

Ol ko‘rsatish olmoshi turlanganda esa *an-* shaklini oladi. Yana OD dan: *anuj, andin~andan.*

Kishilar to‘g‘risida so‘ralganda *kim?*, *kimlär?*, kishilardan boshqa kerak jonli, kerak jonsiz bo‘lsin, *nimä?*, *nimälär?* deb so‘raladi. Zamon, yer, son, hol va boshqalar so‘ralganda so‘roq almashadi.

So‘roq olmoshlari: kishilar uchun *kim?*, narsa-buyum, voqeal-hodisalar uchun *näčä?*, *nä?*, *nekü?*, *nelig?*, *neküliğ?*, *nečük?*, *nečükin?*, *nädä?*, *qalti?* (qanday, qay tarzda?), *qayu?*

(qaysi?), *qani?* *qanta?* *qantan?* *qanča?* *qačan?* olmoshlari qo‘llaniladi. Bularning ichida *näčä?*, *nä?*, *nekü?*, *nelüg?*, *nekülüg?*, *nečük?*, *nečükin?*, *nädä?* olmoshlarining o‘zagi bir – hammasi *nä~ne?* dan yasalgan. Shuningdek, *qayu?*, *qani?*, *qanta?*, *qantan?*, *qanča?*, *qačan?* olmoshlarining ham o‘zagi bir – *qayu~qanu?* ga bog‘lanadi. *Qačan?* olmoshi *qay+čaǵ+in* dan yasalgan.

Jamlash-belgilash olmoshlari: *qamuǵ~qamaǵ* (hamma), *qamaǵi* (hammasi), *bari* (bari).

Yodgorliklar tilida bo‘lishsizlik olmoshi *näy* (hech, hech bir).

RAVISH

Ravishlar ish-harakatning belgisini, belgining belgisini anglatadi. Ular ish-harakat va holatning qay holda, qay ravishda bajarilayotganligini bildiradi. Yozma yodgorliklar tilida ham ravishlar holat, o‘rin-payt, maqsad, miqdor-daraja ma’nolarini bildiradi.

Morfologik usulda ravishlar quyidagi qo‘srimchalar bilan yasalgan:

-*la*, -*lä* affiksi. MK da: *tünlä keldim* – tunda keldim; *Bir tilkü terisin ikilä soymas.* – Bir tulki terisini ikki bor shilinmaydi.

-*ča*, -*čä* affiksi. Ko‘k turk bitiglarida: *Äkinti kün kälti*, *örtčä qızıp kälti.* – Ikkinchı kun keldi, yong‘inday qizib keldi (Ton.40). QB da: *tiläkčä* – tilagancha, *keräkčä* – keragicha, *kezikčä* – navbat bilan.

-*dī*, -*di* / -*tī*, -*ti* affiksi: *tükäti* – tugallik bilan, butkul, *ädgüti* – yaxshilab, *arıtī* – pokizalik bilan. Ko‘k turk bitiglarida: *Yelmä, qarǵu edgüti urǵıl.* – Yelma, qorovulni yaxshilab qo‘y (Ton.34). *Sabimin tükäti eśidgil.* – So‘zimni tugal eshitgil (Ka.1). ... *bu sabimin edgüti eśid, qatiğdı tüyla* – ... bu so‘zimni yaxshilab eshit, diqqat bilan tingla (Ka.1). Yoki İB da: *Qatiğtī ba, edgüti ba.* – Qattiq bog‘la, yaxshilab bog‘la.

-layu, -läyü affiksi. She’rda shunday kelgan:

İwrıq başı qazlayu,
Sağraq tolu közläyü,
Saqinč qoşı kezläyü,
Tün-kün bilä sewinälim.

(Ivriqning boshi g‘ozday, tubi ko‘z (kosasi)day to‘lgan.
Qayg‘uni uning ostiga ko‘maylik-da, kecha-kunduz sevinaylik)
(MK.I.126).

Öpkäm kelip oğradim,
Arslanlayu kökrädim,
Alplar başın toğradim,
Emdi meni kim tatar.

((Yovga qarshi) g‘azabim kelib xezlandim, arslon kabi
na’ra tortdim, botirlarning boshini uzib tashladim, endi menga
kim yetadi) (MK.I.146).

-täg~teg affiksi. MK da: *čegürkä-teg sü* – chigirtkadek
lashkar.

Hozirgi o‘zbek tilida ushbu affiks *-dek~däy~day*
shakllarida qo‘llanilmoqda: *kökdek~kökdäy, qoy-dek~qoyday*.

Mazkur qo‘srimcha tarixan *teg-* fe’lidan hosil bo‘lgan.
Chog‘ishtiring, QB.151 da: *tiläkkä tegir* – tilakka yetadi.
Hozirgi o‘zb.: *ağzï aşgä tegdi degändä* – “og‘zi oshga yetdi
deganda” ma’nosini beradi. QB.287 da: *mundağ* – bunday. U
qo‘srimcha emas, mustaqil so‘z bo‘lgani uchun qattiq o‘zakli
so‘zlarga ham *-täg~teg* shaklida qo‘shiladi.

-süg, -sig affiksi. MK da: *qulsiğ er* – qul singari kishi, *Bu
qarı ol oğlansığ* – Bu qariya o‘sha o‘g‘lon singari.

Ot gurhidagi so‘zlar kelishik qo‘srimchasini olganda
ravishga aylanishi mumkin. Masalan: *İlgärii Şantuň yazıqa tägi
sülädim, taluyqa kičig tägmädim. Birgärii Toquz ärsäñkä tägi
sülädim, Tüpütkä kičig [täg]mädim.* – Sharqqa – Shantung
dashtiga qadar lashkar tortdim, dengizga bir oz yetmadim.
Janubga – To‘g‘uz arsanga qadar lashkar tortdim, Tuputga bir
oz yetmadim (Ka.3).

Yoki yana bir misol: *Anta ötrüu oğuz qopun kälti*. – Shundan so‘ng o‘g‘uz butunlay (taslim bo‘lib) keldi (Ton.16).

Yodgorliklarda *-raq*, *-räk* qo‘s Shimchasi ravishlardagi qiyosiy darajani ta’minlagan. Orttirma daraja *ked~keð*, *ej* singari so‘zlar yordamida ifoda etilgan: *Tiliğ keð ködäzgil*, *ködäzildi baš*. – Tilingni juda saqlagil, boshing ham saqlanadi (QB.173); *Bularda ej üstün Sekäntir yurür*. – Bulardan eng yuqorida Sakantir yuradi (QB.127).

Bitiglarda ravishlar juft holda ham qo‘llaniluvi mumkin. Masalan, *ädgüti* “yaxshi, durust” degani, matnda u *ädgüti ariti* shaklida qo‘llanilib, “ixlos bilan, ehtirom bilan” ma’nosini beradi. Misoli: *Bir ayqi č(a)xsap(a)t(i)ğ ädgüti ariti tutu umad(i)m(i)z ärsär*. – Bir oylik din qo‘rsatmalarini ezgulik bilan, ixlos bilan tuta olmagan bo‘lsak (Huast.132–133).

FE’L

Bir ishni, bir zamonni ishlovchining so‘zlovchiga nisbatini bildirgan so‘z *fe’l* deyiladi. Fe’l kishi yo narsaning ishini, holini bildiradi. Fe’lda uch butoq bo‘ladi: ish, ishlovchi, zamon. Buni hozirgi o‘zbek tilidagi misollar bilan shunday tushuntirish mumkin: *yaz-dü-m*, *oqii-dü-m*, *kel-di-η*. Bularning birinchi bo‘lagi ishni, uchinchi bo‘laklari ishlovchining so‘zlovchiga nisbatini, ikkinchi bo‘lak esa ishning qay zamonda bajarilganligini anglatadi.

Matnda ham, nutqda ham gap so‘zlovchi tomonidan tuziladi. Faqat ish va holatning bajaruvchisi aniq yoki mavhum bo‘luvi mumkin.

Ish va holatni bajaruvchi kishi aniq bo‘lganda so‘zlovchi birligida “men”, ko‘pligida “biz” tushuniladi. Tinglovchi birligida “sen”, ko‘plikda “siz” ko‘zda tutiladi. Bajaruvchi o‘zga kishi bo‘lganida “u”, ko‘pchilik bo‘lganda “ular” ko‘zda tutiladi. Fe’llar har qachon ham o‘z bajaruvchisiga bo‘ysunadi: ko‘rinishini o‘shanga qarab o‘zgartiradi. Tek fe’lning masdar shakligina (*oqimaq*, *yazmaq*) bu qoidaga bo‘ysunmaydi.

Shunga ko‘ra kishining ish va holati uch ko‘rinishda bildiriladi: so‘zlovchi, tinglovchi va o‘zganing ish va holati. Ko‘plikda esa so‘zlovchilar, tinglovchilar va o‘zgalarning ishi to‘g‘risida so‘z yuritiladi. Fe’lning shakli ham shunga qarab o‘zgarib boradi: so‘zlovchi bo‘lib o‘tgan ishi yo holati to‘g‘risida so‘zlaganda fe’l *-dīm*, *-dim*, tinglovchi to‘g‘risida so‘zlanganda *-diy*, *-diy*, o‘zga to‘g‘risida so‘zlanganida *-dī*, *-di* qo‘shimchasini oladi (*keldim*, *keldiy*, *keldi*). *-dik*, *-diñjiz*, *-diñiz*, *-dilar*, *-dilär* qo‘shimchalari esa ko‘pchilikning ishi va holati to‘g‘risida so‘z borganda qo‘llaniladi (*keldik*, *bardijiz*, *bardilar*). Yoki kelasi zamonda bo‘ladigan ish va holat to‘g‘risida so‘zlanganda so‘zlovchi birligi *-a/-y+män*, ko‘pligi *-a/-y+miz* (*kelämän*, *kelämiz*); tinglovchi birligi *-a/-y+sän*, ko‘pligi *-a/-y+siz* (*keläsän*, *keläsiz*); o‘zga birligi *-a/-y+di/di*, ko‘pligi *-a/-y+di/di* yoki *-a/-y+dilar/dilär* qo‘shimchalarini oladi (*kelädi*, *kelädi(lär)*) va hokazo. Til tarixida ham qoida xuddi shunday. Faqat qo‘shimchalari farq qilishi mumkin.

Fe’llarning yasalishi

Mahmud Koshg‘ariyning yozishicha, qadimgi turkiy tilda “tug‘di” ma’nosida *yenidi* so‘zi qo‘llanilgan. Olimning ta’kidlashicha, bu so‘z faqat insonlarga (xotinlarga) nisbatan ishlatilgan. Masalan: *urağut yenidi* deyiladi, bu “xotin bola tug‘di, yukidan bo‘shandi”, degani. Hayvonlar ustida so‘z ketganda, tug‘ilgan narsaning oti olinib, unga *-ladi*, *-lädi* qo‘shimchasi qo‘shiladi va bola tuqqanlik ma’nosи ifoda etiladi. Chunonchi, sigir (ya’ni *iňäk*) tug‘sa, *iňäk buzağuladi* deyiladi. Bu “sigir buzoq tug‘di” demakdir. Qush bolasiga nisbatan *bala* deyiladi. Shundan “qush tug‘di” deyilmoxchi bo‘lsa, yuqoridagi qoidaga muvofiq, *quš balaladī* deyiladi. Faqat biya haqida bunday deyilmaydi. Chunki biyaning bolasi – *qulun*. Agar biya tug‘sa, *qüsraq qulnadī* (<*qulunladī*) deyiladi, bu “biya bola tug‘di”, demakdir. Yana *arslan*

enüklädi deyiladi, bu “arslon bola tug‘di”, demakdir (MK.III.100–102).

Endi til tarixida amal qilgan fe'l yasovchi qo'shimchalarni ko'rib chiqamiz. Til tarixida fe'llar quyidagi qo'shimchalar bilan yasalgan:

-*a*, -*ä* / -*i*, -*i* / -*u*, -*ü* affiksi.

Ushbu affiksning -*a*, -*ä* variantiga o'rnaklar. Ko'k turk bitiglarida: *yaşa* – yasha-, *ötä* – nasihat qil-; MK da: *yaşın* yaşnadı – yashin yashnadi, *er qışlağda yazadı* – kishi qishloqda yozni o'tkazdi, *er aš aşadı* – kishi osh yedi; QB da: *ota* – davola-, *tona* – to'n kiy-, kiyim kiy-.

-*i*, -*i* variantiga o'rnaklar. MK da: *öklidi näj* – narsa ko'paydi, *ton ölidı* – to'n ho'l bo'ldi.

-*u*, -*ü* variantiga o'rnaklar. MK da: *tawar qızıldı* – mol qimmatlashdi, *ew tarudi* – uy toraydi, *yer keyüdi* – yer (maydon) kengaydi; QB da: *bayu* – boyi-.

-*la*, -*lä* affiksi. Ko'k turk bitiglarida: *qılıçla* – qilichla-, qilichdan o'tkaz-, *atla* – ot sol-, *sülä* – lashkar tort-, İB da: *aq bisi qulunlamış* – oq biyasi qulun tug'ibdi, qulunlabdi; *örüy ingäni butulamış* – oq ingani bo'ta tug'ibdi, bo'talabdi; QB da: *yilla* – yasha-, *emlä* – davola-, *kezlä* – saqla-.

-*da*, -*dä* / -*ta*, -*tä* affiksi. MK da: *ol meni ündädi* – u meni undadi, *ol anıj adaqin bağdadı* – u uning oyog'ini chaldi, *ol yağıni sandadı* – u yov izidan bordi.

Qiyoslang, hozirgi o'zb.: *alda* (*al* – qadimgi turkiy tilda “makr, hiyla” degani), *ündä*.

-*iq*, -*ik* affiksi. Kul tigin bitigida: *taşıq* – sirtga, tashga chiq-, *ičikdi* – ichga kirdi, (qal'aga) kirdi. Uyg'ur yozuvli qadimgi yodgorliklarda: *tağıq* – toqqa chiq-, *yoliq* – yo'liq-. QB da: *atiq* – nom chiqar-, *bırık* – birik-.

-*ad*, -*að*, -*at*, -*äd*, -*äð*, -*ät* affiksi. Ko'k turk bitiglarida: *qulad* – qul qil-, *yoqad* – yo'qot-, *başad* – bosh bo'l-, *küyäd* – joriyaga aylantir-. Uyg'ur yozuvli qadimgi yodgorliklarda: *ulğad* – ulg'aytir-, *yigäd* – yaxshilat-, *edäd* – mol-mulkli qil-.

Yoki QB da: *mujad* – mungli qil-, *qutad* – baxtlantir-, baxtga yetkaz-. *Qutadğu bilig* ~ *Qutađğu bilig* ham shundan. Bu nom “*Qutlantirguchi*, baxtga yetkazuvchi bilim” degan ma’noni beradi. Hozirgi o’zbek tilida bu qo’shimcha *yoqat-* so‘zining tarkibidagina saqlanib qolgan (*yoq-at*).

-*qar*, -*ğar*, -*kär*, -*gär* affiksi. MK da: *ol meni atğardī* – u meni otga mindirdi, *ol at otğardī* – u otni o’tlatdi, *ol at suwğardī* – u otini sug’ardi, *öðläk küzgärdi* – kuz bo’ldi. Hozirgi o’zb.: *başqar*, *qutqar* (*qut* – “erk, ozod” so‘zidan), *suğar* (<*suwğar*).

-*r* affiksi. MK da: *qızardī* – qizardi, *qarardi* – qoraydi, *ot yaşardī* – o’t yashil bo’ldi, yashardi, *sargardī* – sarg‘aydi, *örüyärdi* – oqardi. AH da: *eskir* – eskir.

-*sıra*, -*sirä* affiksi. Bu qo’shimcha “istash, zor bo‘lish” ma’nosidagi fe’llar yasaydi: *qağansıra* – xoqoniga zor qilmoq, *elsirä* – eliga zor qilmoq. Ko’k turk bitiglarida: *Elligig elsirätdimiz, qağanlığığ qağansıratdımız*. – Eli borni (elidan ayirib) eliga zor qildik, xoqonlini (xoqonidan judo qilib) xoqonga zor qildirdik (K.18). “*Türük bodun ölüräyin, uruğsıratayın*” *tir ermis*. – “Turk xalqini o’ldirayin, urug‘ini qoldirmayin (urug‘iga zor qilayin)” der ekan (K.10). Uyg‘ur yozuvli qadimgi matnlarda: *tınsıra* – tinchini yo‘qotmoq, *tatiğsıra* – ta’mini unutmoq, *küçsirä* – kuchini yo‘qotmoq, *ögsirä* – aqdan ozmoq. Hozirgi o’zbek tilida ham bu affiks ayni ma’nodagi fe’llar yasaydi: *xatınsıradī* – xotin istadi, *ersirädi* – erni istab qoldi, *qansıradī* – qon istadi.

-*sa*, -*sä* affiksi. MK da: *ölsädi* – o’lmoq istadi, *ölümsädi* – o’limni istadi. Uyg‘ur yozuvli matnlarda: *bariğsa* – borishni istamoq, *köriigsä* – ko‘rishni istamoq, *tapiğsa* – xizmat qilishni istamoq, *suwsa* – suvsə-.

-*si*, -*si* affiksi. MK da: *suwsidi* – suv ochdi, *yağsidi* – yog‘li bo’ldi, *açığsidi* – achidi, *quruğsidi* – quriy boshladı.

-*sìn*, -*sin* affiksi. MK da: *ewni ewsindi* – uyni uy sanadi, *oğul ersindi* – o‘g‘il o‘zini erkakday tutdi.

-ran, *-rän* affiks. QB da: *ögrän* (*ög* – “aql” so‘zidan). Hozirgi o‘zb.: *örgän*.

Sifatdosh

Yozma yodgorliklar tilida sifatdoshlar quyidagi ko‘rinishda uchraydi:

-dači, *-däči* / *-tači*, *-täči* affiksli sifatdosh. *Boldači buzağú öküz ara belgülüg*. – Bo‘ladigan buzoq ho‘kizlar orasida belgi beradi (MK.I.480).

-quči, *-küci* / *-ğuči*, *-güči* affiksli sifatdosh. MK da: *barğuci* – yuruvchi, boruvchi, *turğuci* – turuvchi, yashovchi, *tağqa ağıquči* – toqqa chiquvchi, *ewgä kirgüči* – uyga kiruvchi, *bitig bititgüči* – xat yozdirguchi.

-ası, *-äsi* affiksli sifatdosh. MK da: *Bu turası yer tegül* – bu turadigan yer emas, *bu bizgä keläsi boldi* – u bizga keladigan bo‘ldi. Taf. da: *yeyäsi* – yeyiladigan, yemish. Hozirgi o‘zb.: *keläsi*, *öläsi*.

-qu, *-kü* / *-ğu*, *-gü* affiksli sifatdosh. MK da: *bu ya qurğu oğur ermäs* – bu yoy quradigan vaqt emas, *ol bizgä kelgü boldi* – u bizga keladigan bo‘ldi. Hozirgi o‘zbek tilida ba’zan tovush o‘zgarishi ham yuz bergen: *aqawa (<aqağu) suw*.

-ğsaq, *-gsäk* affiksli sifatdosh. MK da: *ol er ewgä bariğsaq-ol* – u kishi uyga boradigan, *ol berü kiligsäk erdi* – u bu yerga keladigan edi.

-ğlı, *-gli* affiksli sifatdosh. AH da: *oqığlı kişi* – o‘qigan kishi. Hozirgi o‘zb.: *yatiğlı kişi*, *sewikli-süyükli*.

-ma, *-mä* affiksli sifatdosh. MK da: *örmä sač* – o‘rma soch, *tikmä näj* – tikilgan narsa, *köçürma očaq* – ko‘chirma o‘choq.

-r / *-ar*, *-är* / *-ır*, *-ir* / *-ur*, *-ür* affiksli sifatdosh. MK da: *Qaynar ögüz keçigsiz bolmas*. – Oqar suv kechiksiz bo‘lmas. Buning inkori *-maz*, *-mäz* / *-mas*, *-mäs* qo‘shimchasi bilan hosil qilingan. QB da: *qarımaz* – qarimaydigan, *körünmäs* – ko‘rinmas.

-miš, -miš / -mīs, -mis / -muš, -mūš / -mus, -mūs affiksli sifatdosh. MK da: *qazmīš arīq* – qazilgan ariq, *barmīš kiši* – borgan kishi.

-duq, -dūk / -tuq, -tūk affiksli sifatdosh. MK da: *meniј barduqīm barmaduqīm* – mening borgan-bormaganim, *seniј kördükiј körmädükiј bir* – sening ko‘rgan-ko‘rmaganing bir.

-ndī, -ndi affiksli sifatdosh. MK da: *sarqīndī suw* – sarqitlangan suv, *qazīndī tupraq* – qazindi tuproq, *keđindi ton* – kiyilgan kiyim, *süzündī suw* – suzilgan (tozalangan) suv. Hozirgi o‘zb.: *kelgindi kiši, yuğundi suw*.

-qan, -ğan, -kän, -gän affiksli sifatdosh. QB da: *adırğan* – ayirgan, farqlagan, *törütkän* – yaratgan, *keçürgän* – kechirgan, *sözlägän* – so‘zlagan; AH da: *körgän* – ko‘rgan, *eşitkän* – eshitkan.

She’rda shunday kelgan:

Erdi ašin taturğan,
Yawlaq yağığ qaçurğan,
Oğraq süsin qaytarğan,
Bastı ölüm axtaru.

(Bir kishining o‘limiga achinib aytadi: U qo‘noqlarga osh beradigan (saxiy), yovuz dushmanni qochiradigan, O‘g‘roq askarini qaytaridigan (bahodir) edi. Afsus, o‘lim uni yanchdi) (MK.I.471).

-ğma, -gmä affiksli sifatdosh. Ko‘k turk bitiglarida: *keligmä* – keladigan.

Ravishdosh

Tilimiz tarixida fe'lning ravishdosh shakli quyidagi ko‘rinishda uchraydi:

-a, -ä affiksli ravishdosh: *ača* – ochib, *basa* – bosib, *ağa* – ko‘tarilib, *adıra* – ayirib, *sanča* – sancha, *bičä* – bichib, *kesä* – kesib, *kezä* – kezib. Ko‘k turk bitiglarida: *Altun yišiğ aşa kältimiz, Ārtis ögüzüг käčä kältimiz.* – Altun yishni oshib

keldik, Ertish daryosini kechib keldik (Ton.37). MK da: *Etil suwī aqa turur*. – Etil suvi oqib turar.

-*u* (-*yu*), -*ü* (-*yü*) affiksli ravishdosh. Matnlardan misollar: *Käyik yayü, tabisğan yayü olurur ärtimiz*. – Kiyik yeb, tovushqon yeb kun kechirar edik (Ton.8). *Kişi sözläşü, yilqi yızlaşu*. – Kishi so‘zlashib, yilqi hidlashib (bir-birini biladi) (MK.III.114). *Ötrü ol awičşa iğlayu xanqa inčä tip ötündi*. – So‘ng u qariya yig‘lab xonga shunday deya o‘tindi (AT.283).

-*p* / -*b* affiksli ravishdosh. *bašlap* – boshlab, *berip* – berib, *qodup* – qo‘yib, *eşitip* – eshitib, *tep* – deb. Matnlardan o‘rnaklar: *Tewäy müniüp qoy ara yaşmas*. – Tuya mingan qo‘ylar orasiga yashirina olmaydi (MK.III.68); *Qač qata taluyqa kirip, bişär yüz erin barip, asan tükäl kelmiş erti*. – Necha bor dengizga kirib, besh yuzcha er bilan borib, sog‘-omon qaytgan edi (AT.283).

-*pan*, -*pän* / -*ban*, -*bän* affiksli ravishdosh. İB da: *olurupan* – o‘tirib, *yatipan* – yotib.

-*mađip*, -*mäđip* affiksli ravishdosh. MK da: *eðkärmäđip oq atar* – o‘ylamayin o‘q otar.

Se’rda shunday kelgan:

İglädi meniň adaq,

Körmäzip oğrï tuzaq.

İglädim andin uzaq,

Emlägil emdi tuzaq.

(Yashirin tuzoqni ko‘rmay, mening oyog‘im ilindi. Uzoq vaqt qiynaldim. Ey sevgilim, endi o‘zing davola) (MK.I.361).

Tawğač xannıň turqusıř telim, teŋlämäzip büčmas. – Tavg‘ach xonning ipakligi mo‘l, lekin o‘lchamay kesilmaydi (MK.I.402).

-*qalı*, -*käli* / -*ğalı*, -*gäli* affiksli ravishdosh. MK da: *tutuşqalı* – tutish urchun, *urğalı* – urgani, urish urchun; QB da: *alğalı* – olish urchun, *tutqalı* – tutish urchun, *tergäli* – terish urchun.

-qinčä, -kinčä / -gınčä, -ginčä / -qunča, -künčä / -ğunča, -günčä affiksli ravishdosh. MK da: *Öküz aðaqi̇ bolgınča buzağı bası̇ bolsa yig.* – Ho‘kizning oyog‘i bo‘lgandan ko‘ra, buzoqning boshi bo‘lgan yaxshi; QB da: *todmağinča* – to‘ymaguncha, *basmağinča* – bosmagunga qadar, *yetmäginčä* – yetmay turib.

-yin, -yin affiksli ravishdosh. *Tašra yoriyur tiyin kii eśidip, baliqdaqı̇ taşıqmış, taǵdaqı̇ inmiş.* – Tashqarida yuribdi, degan xabarni eshitib, shahardagi tashga chiqibdi, tog‘dagi inibdi (K.11–12).

-mati̇, -madi̇, -mäti̇, -mädi / -matin, -madin, -mätin, -mädin affiksli ravishdosh. *Bunča išig kücü̇g bertükgärü saqinmati̇ “türk bodun ölüräyin, urugśiratayin”, – ter ermiş.* – Shuncha mehnatini, kuchini sarf etganiga ham andisha qilmay: “Turk xalqini o‘ldirayin, urug‘ini qoldirmayin”, – der ekan (K.10); *İgidmiş qağanıjın sabın almatın yir sayu bardığ.* – Tarbiyat qilgan xoqoningning so‘zini olmayin har yerga ketding (Ka.9).

Masdar alomati

“Attuhfatu-z-zakiyatū fillug‘atit turkiya”da yozilishicha (AZFT.117–118), turkiy masdar ikki xildir: biri - fe’l masdari, ikkinchisi – sifat yoki otga qo‘shilib xoslangan masdarlar.

Fe’l masdarlaridan biri *-maq, -mäk* qo‘shimchasini qo‘shish bilan yasalgan turidir. Bu qo‘shimcha shaxs ko‘rsatkichini olmagan fe’llarga qo‘shilib keladi: *almaq, turmaq, ketmäk, kelmäk.*

RQ da: *barmaq, olturmaq, arıtmaq, qopmaq, satğin almaq, tökmäk, küydürmäk, yemäk.*

Fe’lning boshqa bir masdari shaxs ko‘rsatkichini olmagan so‘zlarga -š (-iš, -iš / -uš, -üš) qo‘shimchasini qo‘shib hosil qilingan: *uruš* kabi.

Otlardagi masdar yasovchilardan biri *-lıq, -lik, -luq, -lük* dir.

Sonlarning *birlik*, *ikilik*, *üçlük*, *törtlük* shakli ham ot masdariga misoldir.

Bu qo'shimcha fe'l masdarga qo'shilib ot masdarini hosil qilishi ham mumkin: *almaqlıq*, *bermäklik*.

Otlardagi masdarning boshqa belgilari ham bor. Masalan, muddat uzoqligini bildiradi: *aylıq*, *yıllıq*, *künlük*.

Masdar shakli shaxs-son qo'shimchalari bilan ham qo'llanadi: *almaqım*, *almaqımız*, *almaqıj*, *almaqıjız*, *almaqı*, *almaqları*. Bularning bo'lishsiz ko'rinishlari: *almamaqım*, *almamaqımız*, *almamaqı*.

Fe'lning buyruq shakli

Buyruq fe'lning bosh shaklida bo'ladi yoki unga maxsus qo'shimchalar qo'shish yo'li bilan hosil qilinadi. Buyruq tinglovchiga yoki g'oyibga bo'ladi. G'oyib buyrug'i o'zak-negiz oxiriga -*sın*, -*sin* / -*sun*, -*sün* qo'shimchasini qo'shib yasalgan. Bu qo'shimcha -*zun*, -*zün* shaklida ham qo'llanilgan: *Kögmän yer-sub idisiz qalmazun tiyin*. – Ko'gman yurti egasiz qolmasin deya (K.20).

Sak. da: *saqlasun*, *ögränsün*.

She'rda shunday kelgan:

Endik kişi titilsün,

El törü yitilsün,

Toqlı, böri yetilsün,

Qađgu yemä sawilsün.

((Qilichimiz bilan qayg'uni ochaylikki), axmoqlar yo'lga tushsinlar, el ishi tuzalsin, qo'zi bilan bo'ri birga yursin, bizdan qayg'u-g'am yo'qolsin) (MK.I.131).

Tinglovchi buyruq birligi fe'lning bosh shaklining o'zidir: *kel-*, *ket-*, *al-*, *tut-*, *bašla-*, *sözlä-*. Ko'pligi fe'lning bosh shakliga -*ijiz*, -*ijız* qo'shimchasi qo'shib hosil qilingan: *keliyiz*, *ketiyiz*, *sözläyiz*, *bariyiz*. Bir guruhga buyruq qilishda oxirgi -*z* (-*iz*, -*ız*) tushiriladi: *keliy*, *ketiy*, *sözläy*, *bariy*.

Ba’zan yodgorliklar tilida tinglovchi ko‘pligini ifodalash uchun *-ij*, *-iň* hamda *-iylär*, *-iylar* qo‘shimchalari aralash qo‘llanilgan. Masalan, “Irq bitigi”da: *Anča biliylär: edgü-ol* (İB.1) // *Anča biliň: edgü-ol* (İB.2) – Buni biling, ezgudir. Yoki AT.283 da: *Kim taluyqa barayň tisär kiriylär, oğlum tiginkä eš boluylar.* – Kim dengizga boraman desa, (saroya – qoshimga) kiringlar, o‘g‘lim shahzodaga esh bo‘linglar; *Amti siz qataqlanıň, birlä bariň, yerči boluň.* – Endi siz bardam bo‘ling, birga boring, yo‘l ko‘rsatuvchi bo‘ling.

O‘zga buyruq birligi *kelsin*, *ketsin*, ko‘pligi *kelsinlär*, *ketsinlär* tarzida qo‘llangan. Masalan: *Tiginig asan tükäl kelürzünlär.* – Teginni eson-omon keltirsinlar (AT.283).

Muhimi shundaki, “Qutadg‘u bilig”da o‘zga buyrug‘ining birligi *-su*, *-sü* / *-sun*, *-sün* hamda *-sunï*, *-süni* shakllarida yasalgan: *Yağa tursu yağmur, yazılsu čečäk.* – Yomg‘ir yog‘aversin, chechaklar ochilsin (QB.114); *Qutadsu ati, bersü eki jihan.* – Oti qutli bo‘lsin, (xudo unga) ikki jahonni bersin (QB.85); *Tuta bersü täyri bu taxt birlä baxt.* – Tangri unga taxt bilan baxtni beraversin (QB.89); *Ažun qalmasunï siziňsiz quruğ.* – Dunyo sизsiz qurug‘ qolmasin (sizdan ajramasin) (QB.105).

“Hibatu-l-haqoyiq”da o‘zga buyrug‘ining birligi *-su*, *-sü* / *-sun*, *-sün* shakllari bilan hosil qilingan: *ati qalsu* – nomi qolsin, *yad qilsu* – yod qilsin, *asiğ alsu* – foyda olsin, *tükäl bilsü* – tugal bilsin. Yoki: *sewinsün* – sevinsin, *kelmäsun* – kelmasin, *külmäsiün* – kulmasin.

Buyruqning bo‘lishlisi ham, bo‘lishsizi ham *-ğin*, *-qin*, *-gin*, *-kin* qo‘shimchasi bilan ta’kidlanadi: *yatqin*, *turmağin*, *kelgin*, *ketkin*. Bu qo‘shimcha tinglovchi buyrug‘iga qo‘llanadi. O‘zga buyrug‘iga qo‘llanmaydi.

So‘zlovchining buyruq-istagi fe’l negizga *-ayim*, *-äyim*; *-alim*, *-älim*; *-aliq*, *-äylilik* qo‘shimchalarini qo‘shib yasaladi. Ko‘k turk bitiglarida: *terilälim* – terilaylik, *sü yorilim* – lashkar tortaylik.

So‘zlovchining buyruq-istagi *-ayin*, *-äyin* qo‘sishimchasi bilan ham hosil qilingan. AH da: *qilayin* – qilay, *ayayin* – aytay, *bezäyin* – bezay; Sak. da: *oynayin*, *tökäyin*.

So‘zlovchi istagiga Husayn Boyqaro baytlaridan bir misol:

Közlärim kör et, qazā, bir şakl-i mavzun körmäyin,

Özni bir Laylāvaşı işqida Majnun körmäyin (Maj.138).

Buyruq (amr) va tinglovchiga xitob fe'l o‘zagiga *-qil*, *-ğil*, *-kil*, *-gil* qo‘sishimchasini qo‘sish bilan ham hosil qilingan. KTT.48–49 da: *čiqqıl* – tashqari chiq, *ačqıl* – och, *yapqıl* – yop, *atqıl* – ot, *čiçqarğıl* – chiqar, *soygil* – so‘y, *tökkil* – to‘k, *ekkil* – ekin ek, *töšägil* – to‘sha, *sewgıl* – sev, *elägil* – ela, *körgıl* – ko‘r, boq, *keygil* – kiy, kiyin. Bularning bo‘lishsiz shakli esa *-mağıl*, *-mägil* qo‘sishimchasi bilan hosil qilingan: *ačmağıl*, *töšämägil* singari.

Bo‘lishsizlik

Bo‘lishsizlik belgisi tinglovchi buyrug‘ining birlik shaklidan keyin qo‘shiladigan *-ma*, *-mä* dir. Bu faqat kelasi zamonga bog‘liq: *alma*, *almay*.

O‘zga buyrug‘ida bo‘lishsizlik shakliga *-sun*, *-sün* / *-sin*, *-sin* qo‘sishimchasi orttiriladi: *almasın*, *almasınlar*. So‘zlovchining buyruq-istagi almalım, almayım, almayiq shaklida ifoda etilgan.

Bo‘lishsizlik belgisining *-maz*, *-mäz* shakli ham bor. U shaxs-son qo‘sishimchalari bilan qo‘llanadi. So‘zlovchi birligi *kelmäzmän*, ko‘pligi *kelmäzbiz*, tinglovchi birligi *kelmäzsän*, ko‘pligi *kelmäzsiz*, o‘zga birligi *kelmäz*, ko‘pligi *kelmäzlär* deyiladi. Bu affiksning *-mas*, *-mäs* varianti ham bor: *kelmäsmän*.

O‘tgan zamon bo‘lishsizligi: *kelmädim*, *kelmädik*, *kelmädiy*, *kelmädiyiz*, *kelmädilär*.

Kelasi zamon bo‘lishsizligi: *kelmägäymän*, *kelmägäybiz*, *kelmägäysän*, *kelmägäysiz*, *kelmägäylär*.

Bo‘lishsiz shart fe’lida so‘zlovchi *kelmäsäm*, *kelmäsäk* degan, tinglovchiga *kelmäsäj*, *kelmäsäñiz*, o‘zgaga nisbatan *kelmäsä*, *kelmäsälär* deyilgan.

Bo‘lishsizlikning yana bir belgisi *-siz*, *-siz* affiksidi: *Aziqsız kettim*, *Aqçasız keldim* degandagi kabi.

Takrorlanib qo‘llanuchi *na ... na ...* inkor bog‘lovchisi ham bo‘lishsizlik ma’nosini bildiradi: *Üydä na kiži bar, na epči bar*.

Bo‘lishsizlik ba’zi hollarda *yoq* so‘zi bilan ham ifodalanadi.

Fe’llarda shaxs-son ko‘rsatkichi

Fe’llarda so‘zlovchi birligining shaxs-son ko‘rsatkichi *-män~men* qo‘shimchasidir. Masalan, OD da: *dost tutar-men* – do‘st tutar-men, *dušman tutar-men* – yov tutarmen. AT.283 da: *Bir-kiä amraq oğlumun sizijä tutuzur-män*. – Birgina suyukli o‘g‘limni sizga tutqazayapman. So‘zlovchi ko‘plik uchun kelasi zamon fe’llarida *-biz*, *-bız*, o‘tgan zamon fe’llarida *-q*, *-k* qo‘shimchasi ishlatiladi.

O‘zga shaxs birligi *-i*, *-i* qo‘shimchasi bilan hosil qilinadi. Ko‘plik uchun esa birlik shakliga *-lar*, *-läär* qo‘shimchasi qo‘shiladi.

So‘zlovchi fe’llardagi shaxs-sonni quyidagicha ifodalaydi:

Birlikda: *ayur-men*, *kelür-men*.

Ko‘plikda: *ayur-bız*, *otunur-bız*.

Tinglovchi uchun birlikda: *aldiň*, *keldiň*. Ko‘plikda: *aldiňiz*, *keldiňiz*.

O‘zga birligi uchun: *aldi*, *keldi*. Ko‘plik uchun: *aldilar*, *keldilär*.

Agar shaxs ta’kidlab ko‘rsatilmogchi bo‘lsa, undan oldin kishilik olmoshi orttiriladi. So‘zlovchi birlikda *men aldäm*, *men keldim*, ko‘plikda *biz aldiq*, *biz keldik*. Tinglovchi birlikda *sen aldiň*, *sen keldiň*, ko‘plikda *siz aldinqiz*, *siz keldinqiz*.

Ol sub qudi bardımız, sanağalı tüsürtümiz, atığ iqa bayur ertimiz... kün yemä, tün yemä yelü bardımız. Qırqiziğ uqa

basdimiz. – Ul suvning quyisiga bordik. (Lashkarni) sanagani tushirdik. Ot(lar)ni butaga boylar edik. ... Kunu tun yelib bordik. Qirqizni qo‘qqisdan bosdik (Ton.27).

“Xuastuanift” asarida so‘zlovchi ko‘pligining shaxs-son ko‘rsatkichi ikki xil shaklda: unli bilan tugagan fe’l shakllariga -miz, -miz, undosh bilan tugagan fe’llarga esa -biz shaklida qo‘shilgan: öküñür-biz, ötüñür-biz, sözläyür-biz, işläyür-biz, yazuqluğ-biz.

Yana bir muhim belgisi, asarda fe’lning o‘tgan zamon, shaxs-son qo‘shimchalari ham o‘zak-negizga moslashadi: so‘zning oxirgi bo‘g‘ini lablanmagan unlili bo‘lsa, zamon, shaxs-son qo‘shimchalari -timiz, -timiz / -dimiz, -dimiz shaklida qo‘shiladi: sözlädimiz, biltimiz, ürkitudimiz, ačitdimiz ağrıtdimiz. Agar so‘zning oxirgi bo‘g‘ini lablangan unlili bo‘lsa, -tumuz, -tümüz / -dumuz, -dümüz shaklida qo‘shiladi: yüküntümüz, ölürdümüz, öz ötägči boltumuz.

-siz affiksi tinglovchi birligida ba’zan hurmat ma’nosini ham bildiradi: Ötri ol awičga iğlayu xanqa inčä tip ötünti: Täjrim, ne muj taq bolti-kim, antağ täjri-teg, erdäni-teg ögükiijüzni ölüm yirijä idur-siz? – So‘ng o‘sha qariya yig‘lab, xonga shunday deya iltijo qildi: “Tangrim, qanday musibatkim, shunday tangridek, javohirdek suyukligingizni [ya’ni o‘g‘lingizni] o‘lim yeriga yuboryapsiz?” (AT.283).

Shart ko‘rsatkichi

Qadimgi turkiy tilda shart ko‘rsatkichi -sar, -sär shaklida bo‘lgan. So‘zlovchi birligi va ko‘pligi, tinglovchi birligi va ko‘pligining shart ko‘rsatkichi ham o‘zga ko‘rsatkichi (-sar, -sär) kabi ifoda etilavergan, lekin ma’noda farq bor. Shartning kimga yoki nimaga tegishlilagini egadan anglash mumkin. Masalan, ko‘k turk bitiglarida: İraq ersär, yablaq ağı birür, yağuq ersär, edgi ağı birür. – Yiroq bo‘lsa, yomon ipaklik berur, yaqin bo‘lsa, yaxshi ipaklik berur (Ka.7); Ötiükän yiš

olursar, bängü el tutu olurtači-sän. – O'tukan yishda turilsa, elni mangu tutib turajaksan (Ka.8). *Üzä täjri basmasar, asra yer tilinmäsär, türük bodun, elijin, töriyjin kim artati?* – Yuqoridan osmon bosmasa, pastda yer yorilmasa, turk xalqi, davlatingni, hukumatingni kim buzdi? (K.22); *Eltäriš qağan qazğanmasar, udu ben özüm qazğanmasar, el yemä, bodun yemä yoq ertäci erti.* – Eltarish xoqon zafar qozonmasa, unga ergashib mening o'zim zafar qozonmasam, el ham, xalq ham yo'q bo'lajak erdi (Ton.54–55); *Bilgä Toňuquq qazğanmasar, ben yoq ertim ersär...* – Bilga To'nyuquq zafar qozonmaganda edi, men bo'lmasam edi (Ton.59); *Amti men bu erdäni birlä barsar, men qamağ tınlıqlarqa artuq asiğ tusu qılı umagay-men.* – Endi men bu javohir bilan borsam, men hamma jonzodlarga ortiq foyda keltira olmayman (AT.284)

Qadimgi -sar, -sär keyinchalik -sa, -sä shaklini oldi.

“Qutadg'u bilig”da ham so‘zlovchi birligi va ko‘pligi, tinglovchi birligi va ko‘pligi uchun shart ko‘rsatkichi -sa, -sä shaklida qo‘llanaveradi:

Uδir erdiň ersä, tur, ač emdi köz,

Eşitmädiň ersä, eşit mendä söz –

Uxlayotgan bo‘lsang, tur, endi ko‘zingni och,

Eshitmagan bo‘lsang, so‘zimni eshit (QB.80).

Keltirilgan misolda shartning tinglovchiga qarashliligi *uδir erdiň, eşitmädiň* so‘zлari orqali ifoda etilgan.

Qali eðgü bulmaq tiläsä özüj. – Agar ezgulik topmoq tilasang (QB.224).

Apaŋ ekki ažun qulur ersä sen. – Agar ikki dunyoni istar esang (QB.223).

Özüm ‘uzrïn aysam yemä iymänü. – Agar iymanib o‘z uzrimni aytSAM (QB.188).

Qali bulsaŋ, išlät, učup kökkä tej. – Agar ularga yetishsang, ishlat, uchib ko‘kka ko‘taril (QB.212).

“Hibatu-l-haqoyiq”da ham tinglovchi sharti *-sa*, *-sä* bilan ifoda etilgan: *Aqî erni öggil ögär ersä sen.* – Sahiy erni maqtgil maqtar ersang sen (AH.227).

Shart uchala zamon uchun ham qo‘llanadi. Misollarni “Attuhfatu-z-zakiyat” fillug‘atit turkiya”dan keltiramiz:

O‘tgan zamon uchun: *biy turdisa, turarman* – bek turgan bo‘lsa turarman.

Hozirgi zamon uchun: *biy turarsa, turarman* – bek turgan zamon turarman.

Kelasi zamon uchun: *biy turğaysa, turarman* – bek turadigan bo‘lsa turaman (AZFT.130).

Shart *erdi, edi* to‘liqsiz fe’li bilan ham hosil qilinadi. Bunday harakat-holatning natijasi mavhum bo‘ladi. Masalan: *Biy turdî esä, turarman* – Agar bek turgan bo‘lsa turarman. Hozirgi zamon ham shu xilda: *biy turar esä*. Kelasi zamoni: *biy turğay esä*.

Buyruqqa ham shart belgisi qo‘shilib keladi. Biroq bunday holatda buyruq emas, balki kelasi zamon ma’nosini anglashiladi: *tursay turğayman* – Agar sen tursang, men turaman.

Shartning bo‘lishsizi *turmasa, almasa, kelmäsä* shaklida bo‘ladi.

Shart shaklidagi fe’llar shaxs-son qo‘shimchalari bilan ham qo‘llanadi. Masalan, o‘zga uchun: *tursa, tursalar*. So‘zlovchi uchun: *tursam, tursaq*. Tinglovchi uchun: *tursay, tursayız*.

O‘zga bo‘lishsiz birligi: *turmasa, kelmäsä*. So‘zlovchi bo‘lishsiz birligi: *turmasam, kelmäsäm*. Bo‘lishsiz ko‘pligi: *turmasaq, kelmäsäk*. Tinglovchi birligi: *turmasaŋ, kelmäsänj*. Tinglovchi ko‘pligi: *turmasaŋız*.

“Attuhfatu-z-zakiyat” fillug‘atit turkiya” muallifining yozishicha, tatar lahjasida o‘zga birlikda *turmaydur*, o‘zga ko‘plikda *turmaydurlar*, so‘zlovchi uchun *turmaydurman, turmaydurbiz*, tinglovchi uchun *turmaydursan, turmaydursız* deyilgan (AZFT.130).

Turkiy yodgorliklar tilida shart ma’nosи -sa, -sä qo’shimchasi bilan birga maxsus usullar vositasida ham ifoda etilgan. “Attuhfatu-z-zakiyatу fillug‘atit turkiya”da uning bir necha usuli keltiriladi. Biri -ğaš, -gäš / -qaš, -käš qo’shimchasidir. Turkcha *biy alğaš, čiqliqqaš, kelgäš* deyiladikim, “bek olganda, chiqqanda, kelganda” demakdir. Bu o‘rinda turkman tilida *biy turdijaq* tarzida qo’llanadikim, “bek turganda” demakdir (AZFT.132).

Fe'l nisbatlari

Yozma yodgorliklar tilida fe'lning birligining nisbati -ş qo’shimchasi bilan yasaladi.

Fe'lning orttirma nisbati quyidagi qo’shimchalar bilan yasalgan:

-t affiksi. MK da: *ol ani sixtatti* – u uni yig‘latdi, *ol ani tilätti* – u uni tilantirdi.

-r, -ur, -ür affiksi. MK da: *ol ani ewdin köčürdi* – u uni uydan ko‘chirdi.

-tur, -tür / -dur, -dür / -tir, -tir / -dir, -dir affiksi. MK da: *ol qapuğ aqturdi* – u eshikni ochtirdi, *ol suw töktürdi* – u suvni to‘ktirdi. RQ da: *semritür* – semirtiradi, *aruqlatur* – ozdiradi, oriqlatadi.

-qur, -kür / -ğur, -gür affiksi. MK da: *ol meni toðgurdı* – u meni to‘ydirdi.

-z, -uz, -üz affiksi. MK da: *uraðut oðlija süt emüzdi* – xotin bolasiga sut emizdi, *ol suw tamuzdı* – u suv tomizdi.

-duz, -düz affiksi. MK da: *ol tawar alduzdı* – u mol oldirdi, *ol meyä iş bildiizdi* – u menga ish o‘rgatdi.

Misollar: *Dağı Havva dayim egiz oðlan toðurur erdi: biri er oðlan, biri qız oðlan* (RQ.137b); *Čin padšahiniñ qizi sordikim: Ol qaysi tewä erdi-kim, atasiz, anasiz tuðdi* (RQ.141a).

O‘tgan zamon fe’li

Yozma yodgorliklar tilida o‘tgan zamon *-di*, *-di* / *-ti*, *-ti*; *-duq*, *-dük* / *-tuq*, *-tük*; *-miš*, *-miš* / *-müs*, *-mis* qo‘s Shimchalari bilan hosil qilingan. Bulardan *-di*, *-di* / *-ti*, *-ti* qo‘s Shimchasi turkiy tillarning tarixiy taraqqiyoti davomida keng amal qilib kelmoqda. U aniq o‘tgan zamonni anglatadi: *keldim*, *keldik*, *keldij*, *keldijiz*, *keldi*, *keldilär*; *ketti*, *oqutti*, *jatti*.

O‘tgan zamon fe’lining o‘zga birligi *-di*, *-di* / *-ti*, *-ti*, bo‘lishsiz shakli *-madī*, *-mädi* qo‘s Shimchasi bilan hosil qilinadi. Misoli: *Türk bodun ölti*, *alqıntı*, *yoq boltı*, *türk sir bodun yärintä bod qalmadı*. – Turk xalqi o‘ldi, tugadi, yo‘q bo‘ldi, turk sir xalqi yerida (hech bir) urug‘ qolmadı. (Ton.3-4).

O‘zga ko‘pligi o‘zga birlik shakliga *-lar*, *-lär* qo‘s Shimchasini qo‘sib hosil qilinadi.

O‘tgan zamon fe’lining so‘zlovchi birligi *-dim*, *-dim* / *-tim*, *-tim*, bo‘lishsiz shakli *-madim*, *-mädim* qo‘s Shimchasini qo‘sish bilan hosil qilingan.

O‘tgan zamon fe’lining tinglovchi birligi *-diñ*, *-diñ*, *-tiñ*, *-tiñ*, bo‘lishsiz shakli *-madiñ*, *-mädiñ* qo‘s Shimchasi bilan yasaladi: *čiždiñ* – yozding, *čižmadiñ* – yozmading. Tinglovchi ko‘pligi *-diñiz*, *-diñiz*, *-tiñiz*, *-tiñiz*, bo‘lishsiz shakli *-madiñiz*, *-mädiñiz* qo‘s Shimchasi bilan yasaladi: *čiždiñiz* – yozdingiz, *čižmadiñiz* – yozmadingiz.

Mahmud Koshg‘ariyning yozishiga qaraganda, *-duq*, *-dük* / *-tuq*, *-tük* qo‘s Shimchasi o‘g‘uz va qipchoqlarning tillariga xos (MK.II.52-65). Muhim xususiyati shundaki, bu qo‘s Shimcha bilan qo‘llangan fe’l shaxs-sonda tuslanmaydi, qanday bo‘lsa, shunday ko‘rinishda turaveradi. Shaxs-sonni gapdag‘i olmoshlar anglatadi: *men ya qurduq* – men yoy yasadim, *biz ya qurduq* – biz yoy yasadik, *ol keldük* – u keldi, *olar ewgä kirdük* – ular uyga kirdilar (MK.II.64-65).

“Kitob-i tarjumon-i turkiy”da ta’kidlanishicha, so‘zlovchilar tomonidan birgalikda bajarilgan ish-harakat (so‘zlovchingning boshqalar bilan birgalidagi ish-harakati) *-dīg*, bo‘lishsiz shakli esa *-madiğ* qo‘sishimchasi bilan hosil qilinadi: *čizzdiğ* – yozdik, *čizmadığ* – yozmadik (KTT.66). Hozirgi o‘zbek adabiy tilida bu qo‘sishimchaning yolg‘iz *-dik* varianti amal qilmoqda: *bardik*, *yazdik*, *aytdik* (og‘zaki nutqda: *ayttik*), *keldik*, *ketdik* (nutqda: *kettik*) va b.

Qadimgi grammatik asarlarda sifatdoshning *-miš*, *-miš* / *-mīš*, *-mis*, ravishdoshning *-ip*, *-ip* / *-ib*, *-ib* qo‘sishimchasi ham o‘tgan zamon belgisi sifatida talqin etilgan (AZFT.120–121). Birinchisining birlikdagi misoli: *kelmiş*, *ketmiş*, *yatmiş*; ko‘plikda: *kelmişlär*, *ketmişlär*, *jatmişlar*. Grammatik asarlarda ta’kidlanuvicha, bu fe’l ko‘z bilan ko‘rganda emas, faqat eshitganlik haqidagi xabarni anglatadi. Ular shaxs-son qo‘sishimchalari bilan ham qo‘llanadi: *kelmişmän*, *kelmişsän*, *kelmissiz*, *qalmışbiz*.

Ikkinci belgi bilan qo‘llanganda: *keliptür*. So‘zlovchi uchun: *keliptürmän*, *keliptürmiz*. Tinglovchi uchun: *keliptürsän*, *keliptürsiz*, *keliptür*, *keliptürlär*.

Hozirgi zamon fe’li

Bunday fe’l shakli hozirgi zamon uchun yoki ham hozirgi, ham kelasi zamon uchun mushtarak bo‘ladi. Undosh bilan tugagan fe’llarda [a], [ä], unli bilan tugagan fe’llarda [y] undoshi orttiriladi: *kelädirmän*, *kelädirbiz*, *kelädirsän*, *kelädirsiz*, *kelädir*, *kelädirlär*; *sözläydirsiz*, *başlaydirlar*.

Ham hozirgi, ham kelasi zamonga ehtimoli bo‘lgan fe’llar misoli: *kelirmän*, *kelirbiz*, *kelirsän*, *kelirsiz*, *kelir*, *kelirlär*.

“Kitob-i tarjumon-i turkiy”da ta’kidlanishicha, “qipchoq tili”da hozirgi zamon fe’lining tinglovchi birligi o‘zakka *-arsen*, *-är-sen* bo‘lishsiz shakli esa *-maz-sen*, *-mäz-sen* qo‘sishimchasini qo‘sish bilan hosil qilinadi: *čizar-sen* –

yozarsan, yozyapsan, *čizmaz-sen* – yozmassan, yozmayapsan. Tinglovchi ko‘pligi hosil qilinmoqchi bo‘lganda tinglovchi birligidagi *-sen* qo‘shimchasi *-siz* bilan almashtiriladi.

O‘zga birligi fe’l o‘zagiga *-ar*, *-är* bo‘lishsiz shakli esa *-maz*, *-mäz* qo‘shimchasini qo‘shish bilan hosil qilinadi. Tinglovchi ko‘pligi birlikdagi bo‘lishli va bo‘lishsiz shakliga *-lar*, *-lär* qo‘shimchasini qo‘shib hosil qilinadi.

So‘zlovchi birligi *-ar-men*, *-är-men* bo‘lishsiz shakli *-maz-men*, *-mäz-men* qo‘shimchasi bilan hosil qilingan: *čizar-men* – yozarman, yozyapman, *čizmaz-men* – yozmasman, yozmayapman. So‘zlovchi ko‘pligida so‘zlovchi birligidagi *-men* qo‘shimchasi *-biz* bilan almashtiriladi (KTT.69).

Kelasi zamon fe’li

Kelasi zamon fe’li *-ğay*, *-qay*, *-gäy*, *-käy* affiksi bilan hosil qilinadi. Bo‘lishsiz shakli *-mä*, *-ma* qo‘shimchasini qo‘shish bilan hosil qilinadi.

Amti̇ ečim taluyqa bari̇p erdäni kelürsär, taqii ağırlıq bolğay, men taqii učuz bolğay-men, tep saqıntıi. – “Agar akam dengizga borib javohir keltirsa, u yana ham qadr topadi, men esa yana qadrsiz bo‘laman”, – deb o‘yladi (AT.284).

Bođun tili yawlaq, seni sözlägäy,

Kiši qılqı kirtüč, etijni yegäy. –

Xalqning tili yomon, seni so‘zlaydi,

Kishilarning fe’l-atvori hasadgo‘y, etingni yeydi (QB.164).

Yodgorliklarda kelasi zamonning *-ğay*, *-qay*, *-gäy*, *-käy* affiksi *-ğä*, *-qa*, *-gä*, *-kä* shaklida ham qo‘llaniladi: *Biligsiz ne bilgä bilig qiymati*. – Bilimsiz bilimning qadrini qaerdan ham bilardi (QB.462).

“Kitob-i tarjumon-i turkiy”da ta’kidlanishicha, “qipchoq tili”da kelasi zamonning tinglovchi birligi fe’l o‘zagiga *-ğasen*, bo‘lishsiz shakli *-maya-sen* qo‘shimchasini qo‘shish yo‘li bilan hosil qilingan: *čizğä-sen* – yozajaksan, *čizmaya-sen* –

yozmayajaksan. Tinglovchi ko‘pligida bo‘lishli va bo‘lishsiz holatidagi *-sen* o‘rnida *-siz* qo‘llaniladi.

Kelasi zamonning o‘zga birligi fe’l o‘zagiga *-ğay*, *-gäy* bo‘lishsiz shakli *-mağay*, *-mägäy* qo‘srimchasini qo‘shish yo‘li bilan hosil qilinadi: *čizğay* – yozajak, *čizmaya* (*čizmağay*) – yozmayajak. O‘zga ko‘pligi o‘zga bo‘lishli va bo‘lishsiz birlik shakliga *-lar*, *-lär* qo‘srimchasini qo‘shib hosil qilinadi.

So‘zlovchi ko‘pligi fe’l o‘zagiga *-ğä-a-biz*, bo‘lishsiz shakli esa *-maya-biz* qo‘srimchasini qo‘shish bilan hosil qilinadi: *čizğä-biz* – yozajakmiz, *čizmaya-biz* – yozmayajakmiz. So‘zlovchi birligida bo‘lishli va bo‘lishsiz ko‘plik holatidagi *-biz* o‘rnida *-men* qo‘llaniladi (KTT.67–68).

“Attuhfatu-z-zakiyatū fillug‘atit turkiya”da yozilishicha, sifatdoshning *-ası*, *-äsi* qo‘srimchasi ham kelasi zamon fe’lining belgisidir: *keläsimän*, *keläsisän*, *keläsisiz*, *keläsi*, *keläsilär*. Turkmanlar bu fe’l uchun *keläjäkmän*, *keläjäkbiz* shaklini, ba’zan *keläsärmän*, *keläsärbiz* ni ham qo‘llaganlar (AZFT.121).

Eski o‘zbek tili davrida kelasi zamon *-qu*, *-kü* / *-ğu*, *-gü* affiksiga shaxs-son, ba’zan *turur~durur* > *-dur*, *-dür* / *-tur*, *-tür* ni qo‘shish bilan ham hosil qilingan. Masalan, Sak. da: *salğum*, *tapquj*, *körgüsi*, *sorğusü-dur*.

Turur / durur fe’li

Turkiy tillarda, xususan, o‘zbek tilida gapning kesimi ko‘pincha fe’ldan tuziladi. O‘rni bilan, boshqa so‘z turkumlari (ot, sifat, son va b.) ham kesim bo‘lib kelushi mumkin. Biroq, ismlar guruhiiga mansub so‘zlar kesim bo‘lib kelganda, muhim bir hodisani inobatga olmoq kerak. Masalan, hozirgi o‘zb. *Bu uy čiraylı* hamda *Meniň niyatım* šu gaplarining tuzilishiga e’tibor beraylik. Keltirilgan ikkala gapning kesimi fe’l emas. Ammo ushbu kesimlar sifat va olmoshdangina iborat emas. Ularda biz kesim deb sanayotgan sifat va olmoshdan keyin

ta'kidni bildiruvchi mantiqiy -dir turibdi: *Bu uy čirayli(dır); Meniň niyatıñ šu(dır)*. Buning singari misollarni yana keltirishimiz mumkin: ularning hammasida ham kesim o'rnidagi mantiqiy -dir tasavvur etiladi va bundayin "ot-kesimli" gaplarning mantiqiy kesimi yana fe'lga qaytadi.

Hozir biz qo'llayotgan -dir qadimgi turkiy tildagi turur ning qisqargan shaklidir (*turur / durur > tur / dur > dir*).

Qadimgi yodgorliklar tilida gapning kesimi, asosan, fe'l bo'lib keladi: *Türk bodun ölti, alqıntı, yoq boltı*. – Turk xalqi o'ldi, tugadi, yo'q bo'ldi (Ton.3).

Yozma yodgorliklar tilida -ol ham kesimlik belgisi bo'lib, fikr tugalligi, aniqligini bildirib keladi. Misollar:

Türk bodun yämä bulğanč-ol, tämis. Oğuzi yämä tarqanč-ol, tämis. – Turk xalqi ham sarosimadadir, – debdi. – O'g'uzi ham targ'oqdir”, – debdi (Ton.22).

Kišidin kišikä qumaru söz-ol,

Qumaru sözi tutsa asgïr yüz-ol. –

Kishidan kishiga (qolar) yodgorlik so'zdir,

Yodgorlik so'ziga amal qilsang, foydasi yuzdir (QB.187).

Özüj mäjü ermäz, atiij mäjü-ol. – O'zing mangu emas, oting mangudir (QB.226).

Biroq gapda fe'lidan boshqa so'z turkumlari ham kesim bo'lib kelishi mumkin. Biroq, har qanday holatda ham, u mantiqan fe'l-kesimni talab qiladi. Qadimgi turkiy tilda buni turur fe'li ta'minlaydi. Quyidagi misolga e'tibor qarataylik: *Qul yağı, it böri.* – Qul – dushman, it – bo'ri (MK.I.324). Qo'shma gap shaklidagi ushbu maqoldagini birinchi gapning kesimi – *yağı, ikkinchisiniki – böri*. Ikkala gapning kesimi shu turishida mantiqan turur fe'lini talab qiladi. Demak, ushbu maqolning qisqarishga uchramagan, tiklangan shakli *Qul yağı (turur), it böri (turur)* bo'ladi.

Til tarixida fe'lning shaxs-son ko'rsatkichi ham gap kesimini shakllantira oladi. Masalan: *Qutluğ čigši-ben.* – (Men) *Qutlug'* chigshiman (E.19.1); *Bilgä Toňuquq-ben.* – (Men)

Bilga To‘nyuquqman (Ton.1); *Antağ küčlüg-män*. – Shunday kuchliman (IB.20).

E’tibor berilsa, keltirilgan misollarda shaxs-son qo‘sishimchalari to‘g‘ridan-to‘g‘ri ot yoki sifatga bog‘lanayotgani yo‘q. Ular mantiqan kesimlikni ta’minlanayotgan turur fe’liga bog‘lanmoqda. Shuni inobatga olganda keltirilgan gaplarning tiklangan holati: Qutluğ čigši (turur)-ben; Bilgä Toňuquq (turur)-ben; Antağ küčlüg (turur)-män shakllarini oladi.

Boshqa bir misol: Alp čerigidä, bilgä tirigidä (MK.I.369). Ushbu gapning kesimlari mantiqan tugallikni bildiruvchi “bilinadi”, “sinaladi” fe’llarini talab etadi. Ana shu fe'l-kesimning qisqarishi natijasida to‘ldiruvchi kesim vazifasini o‘tamoqda. Shuning uchun bu gapni “Alp jangda, dono majlisda sinaladi” deya anglamoq kerak.

Yana bir o‘rnak: Qoldačiqa mij yaňaq, barča bilä ayruq tayaq. – Tilanchiga mingta yong‘oq, barchasiga qo‘sishimcha suyanadigan tayoq (ham ber) (MK.I.394). Ushbu gap mantiqan “bergil” fe’lini talab qiladi. Shuning uchun tiklangan ko‘rinishini quyidagicha o‘qish mumkin: Qoldačiqa mij yaňaq (bergil), barča bilä ayruq tayaq (ma bergil).

Turkiy tillarda (til tarixida ham, hozir ham) kesim, asosan, fe'l bilan ifodalanadi. Uslubiy talablar, tejamkorlik qonunidan kelib chiqqan holda boshqa so‘z turkumlari ham kesim bo‘lib kela olishi mumkin. Biroq, har qanday holatda ham biz kesim deya sanayotgan so‘zimiz mantiqan fe’lni talab qilaveradi. Til tarixida kesimlikni *turur* fe’li ta’milagan bo‘lsa, hozirgi o‘zbek tilida esa uning vazifasini *-dir* bajaradi.

er- to‘liqsiz fe’li

Hozirgi o‘zbek tilida *e-* to‘liqsiz fe’l bo‘lib, u *edi*, *ekän*, *emiš*, *emäs*, *esä* singari shakllarda amal qiladi. Bulardan *emäs* bo‘lishsiz fe’llar yasaydi, *esä* bog‘lovchidir.

To‘liqsiz fe’lning *edi*, *ekän*, *emiš* shakllari alohida qo‘llanilmaydi, lekin fe’llar bilan qo‘llanilganda harakat-holatning davomiyligini bildiradi. Otlar (ism guruhidagi so‘zlar) bilan qo‘llanilganda esa uni kesimga aylantiradi va b.

Hozirgi e- to‘liqsiz fe’li qadimgi turkiy tilda *är~er-*, uning zamon, mayl shakllari esa *ärdi~erdi*, *ärkän~erkän*, *ärmış~ärmis* / *ermış~ermis*, *ärmäz~ärmäs* / *ermäz~ermäs*, *ärsä~ersä* shakllarida qo‘llanilgan.

Ma’lumki, *är~er-* avval mustaqil bo‘lib, keyinchalik to‘liqsiz fe’lga aylangan. U yozma yodgorliklar tilida ikki xil ko‘rinishda uchrayди:

1) Hozirgi o‘zbek tilida bo‘lgani singari to‘liqsiz fe’l bo‘lib keladi: *Türk bodun Tabğačqa körür ärti*. – Turk xalqi Tabg‘achga qaram edi (Ton.1); *Äki ülügi atlığ ärti, bir ülügi yadağ ärti*. – Ikki qismi otlig‘ edi, bir qismi yayov edi (Ton.4).

2) Mustaqil fe’l bo‘lib, “mavjudlik” ma’nosini bildiradi. Misollarga e’tibor bering: *Näj näj sabüm ärsär, bängü taşqa urtum*. – Har qanday so‘zim bo‘lsa, mangu toshga yozdim (Ka.11); *Anča qazğanmüs, itmis älimiz, törümüz ärti*. – Shunday qozonilgan, tiklangan elimiz, hukumatimiz (bor) edi (K.12); *Ol antağ osuğluğ čoğluğ yalınlığ küçülüg küsünlüg elig xannıj uluğи xatunıntı toğmıš körgäli sewiglig, körklüg menjizlig üç oğlanı erti*. – O’sha tadbirli-cho‘g‘li, shon-shavkatli elig xonning katta xotinidan tug‘ilgan ko‘rkli-suyukli, istarasi issiq uch o‘g‘loni bo‘lar edi (AYar.270); *Et-öz ersär, beksiz menjüsüz titir*. – Et-o‘z mavjud bo‘lsa, beqaroru, o‘tkinchi turur (AYar.272).

Yodgorliklarda *er-* fe’li *erdilär erdi*, *erdi ersä* shakllarida ham uchraydi. Masalan, “O‘g‘uzxoqon” dostonida: *Oşul oğulnıj öylüğü čıraqı kök erdi, ağızı ataş qızıl erdi, közläre al, saçları, qaşları qara erdilär erdi*. – O’sha o‘g‘ilning yuz-chiroyi ko‘rkli edi, lablari otash misol qizil edi, ko‘zları xumor, sochlari, qoshlari qora edi (OD.1.5-7).

“Qutadg‘u bilig”da: *Uðir erdiy ersä, tur ač emdi köz.* – Uxlayotgan ersang, tur, endi ko‘zingni och (QB.80).

Hozirgi *kimsä* so‘zi tarixan kishilikni bildiruvchi *kim* hamda “mavjudlik (существо)” ma’nosidagi *ersä* so‘zlarining birikuvidan yasalgan: *kimsä<kim+ersä*. Yoki hozirgi *närsä* so‘zi “buyum, narsa” ma’nosidagi *näj* hamda *ersä* so‘zlarining birikuvidan hosil bo‘lgan: *närsä<näj+ersä*. Yana qiyoslang: o‘zbek tili tarixida qo‘llangan *nämärsä(<nämä+ersä)* so‘zi “narsa, buyum” ma’nosini bildiradi.

YORDAMCHI SO‘ZLAR

Bog‘lovchilar

Hozirgi o‘zbek adabiy tilida uyushiq bo‘laklar hamda juft so‘zlarda ishlatiladigan va yoki -u bog‘lovchilarining o‘rnida qadimgi turkiy tilda ...*lü* ...*lü* bog‘lovchisi qo‘llanilgan. Misol: *Saqintim, turuq buqali sämiz buqali arqda bilsär, sämiz buqa, turuq buqa täyin bilmäz ärmis.* – (So‘ng) o‘ylab qoldim: “(Birov) turug‘ buqa bilan semiz buqani tezagidan bilsa, (birov bu) semiz buqa, (bu) turug‘ buqa deya bilmas emish [ya’ni semiz buqa bilan turug‘ buqani ajratolmas ekan]” (Ton.5–6); *Bu sawiğ ilig begli xatunli eśidip...* – Bu xabarni elig bek va xotini eshitib ... (AYar.281); *Adığlı tonuzlı art üzä soquşmiş ermiş.* – Ayiq va to‘ng‘iz tepalik ustida to‘qnashibdi (İB.6); *T(ä)yrili yükli nädä ötrü süňüşmiş y(a)ruqlı q(a)ralı q(a)ltı qatılmış yirig t(ä)yrig kim y(a)ratmış tipän bilt(i)m(i)z.* – Tangri va iblis nima sabab urushdilar, yorug‘lik bilan zulmat qanday qilib qorishdilar, yerni, osmonni kim yaratganini bildik (Huast.73–75).

Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asarida biriktiruvchi bog‘lovchilardan ham bog‘lovchisi-da qo‘llanilgan: *Fida qıldı barin, näji ham özin.* – Barini – narsasini hamda o‘zini fido qildi (QB.55); *Ularniň taňuqı kelir ham barır.* – Ularning sovg‘asi keluvchi ham ketuvchidir [ya’ni o‘tkinchidir] (QB.109).

XI asrdan turkiy tillarga *-u* hamda *va bog‘lovchilari* ham o‘zlasha boshladi. *-u* – forscha, *va esa arab tilidan o‘zlashgan*. Keyinchalik ushbu bog‘lovchilar qadimgi turkiy *-li*, *-li* ... *-li*, *-li* bog‘lovchisini siqib chiqardi. Shunga qaramay, qadimgi *-li*, *-li* ... *-li*, *-li* ayrim o‘zbek shevalarida hozir ham saqlanib qolgan.

Arab yozuvli matnlarda *-u* hamda *va bog‘lovchilari* farqlanmaydi, ikkalovi ham “vav” bilan beriladi. Lekin uyg‘ur xatida ular bir-biridan farqli holda yozilgan. Biroq ushbu bog‘lovchilarning qo‘llanilishida qat’iy qoida bor. Matnda *-u* bog‘lovchisi juft so‘zlarni, uyushiq bo‘laklarni bir-biriga bog‘laydi, kishi yo narsa otlari sanalganda ishlatiladi. *va bog‘lovchisi* esa gap tugagandan so‘ng, ikkinchi gap boshlanganda ishlatiladi, qo‘shma gap tarkibidagi sodda gaplarni o‘zaro bog‘laydi, *-u* bog‘lovchisi qo‘llangan juft so‘zlarni hamda sinonim so‘zlarning bir guruhini ikkinchisiga bog‘lash uchun ishlatiladi (Abdurahmonov, Rustamov 1984, 143–144).

-u bog‘lovchisi undosh bilan tugagan so‘zlarga *-u*, unli bilan tugagan so‘zlarga esa *-vu* shaklida qo‘shiladi. Hozirgi o‘zbek adabiyotshunosligida Navoiy asarlarini “Farhād va Širin”, “Layli va Majnun” deb atayapmiz. Aslida esa ularni “Farhād-u Širin”, “Layli-vu Majnun” shaklida aytganimiz to‘g‘ri bo‘ladi.

Shuningdek, matnda ta’kid yuklamasi *-u* ni ham farqlay olish kerak. Chunki arab yozuvli matnlarda *u* ham “vav” bilan yoziladi. Undosh bilan tugagan so‘zlarga *-u*, unli bilan tugagan so‘zlarga esa *-yu* shaklida qo‘shiladi.

Buni Alisher Navoiyning “Nasoyimu-l-muhabbat”da Adib Ahmad haqida yozgan quyidagi satrlarida yaqqol kuzatsa bo‘ladi: “... Derlär-ki, közläri bütäw ermiš-u aslā zāhir ermäs ermiš. Basir bolup özgä basirlär-deg andaq emäs ermiš-ki, köz bolğay-u, körmäs bolğay, ammā bağāyat zi:rak-u zaki: va zāhid-u muttaqi: kişi ermiš. Haq subhānahu va ta’ālā agarči

zāhir közin yapuq yaratqandur, ammā köyli közin bağāyat yaruq qılğandur... anīj tili türk alfazı bilä mavā'iz-u nasāyiħqa go:yā ermiş, balki aksar Türk ulusıda hikmat-u nuktaları šāye'dur va nazm tari:qi bilä aytur ermiş” (NM.390–391). Ushbu matnda *köz bolğay-u*, *körmäs bolğay* jumlasidagi -u bog‘lovchi emas, yuklamadir. Qolganlari bog‘lovchi bo‘lib kelgan.

Husayn Boyqaro qalamiga mansub quyidagi baytga ham e’tibor bering:

Husn ilä sen kāmil-u, Širin-u Layli šuhratü,

İşq ara men zār olup, Farhād-u Majnun tuhmatü (Maj.139).

Misolda *kāmil-u* dagi -u – yuklama, juft so‘zlar orasidagi -u esa bog‘lovchidir.

Yana bir misol. Alisher Navoiy o‘zining “Muhokamatu-lug‘atayn” asarida turkiy tilda nozik ma’nolari bilan ajralib turuvchi yuzta fe’lni ketma-ket keltirgan. Qo‘lyozmada bu fe’llar bir-biriga “vav” harflari bilan ulab ketilgan. Asarni nashrga tayyorlagan mutaxassislar, odatda, fe’llarning o‘rtasidagi “vav”ni doimiy holda va sifatida keltiradilar: quwarmaq va quruqşamaq va üşärmäk va jiyjaymaq ... singari. Aslida ikki so‘z orasidagi “vav”ni -u, juftliklar orasidagilarni esa va deb berilgani to‘g‘ridir: quwarmaq-u quruqşamaq va üşärmäk-u jiyjaymaq ... singari. Shunday qilinganda grammatic jihatdan to‘g‘ri yo‘l tutilgan bo‘ladi, ritm (ohang) ham ta’minlanadi.

Ya bog‘lovchisi inkorni bildiradi. U takrorlanib ham ishlatiluvi mumkin:

Yurimaz ya yatmaz, uðimaz uðuğ,

Ya menjäg ya yançaga kötürmäz boðuğ. –

U yurmaydi yo yotmaydi, uxlamaydi, (u) uyg‘oq,

Yo mengzaydigan, yo o‘xshaydigan sifati yo‘qdir (QB.16).

“Yoki” bog‘lovchisining o‘rnida *azu* bog‘lovchisi qo‘llanilgan. Ushbu bog‘lovchi ora-chora takror holda ham ishlatiladi: *Azu muñ üçün azu buşī birgäli qizğanıp yiti türlüg*

buši arığ nomqa tükäti birü umadımıž ärsär. – Yoki qayg‘u-musibatga atab ehson bergani qizg‘anib yetti xil ehson, chin aqoidga butkul bera olmagan bo‘lsak (Huast.107–108); *Aniň oxşağı yoq azu meyzägi.* – Uning o‘xshaydigani yoki mengzaydigani yo‘q (QB.15); *Esiz-mu seňä yeg azu eđgü-mu / Söküš-mu qilur-sen azu ögdi-mu.* – Senga esizlik yaxshimi yoki ezgulikmi? So‘kilishni istaysanmi yoki maqtovnimi? (QB.240).

Hozirgi forschadan o‘zlashgan “goho” bog‘lovchisining o‘rnida eskida *ara* bog‘lovchisi qo‘llanilgan. U takrorlanib kelishi ham mumkin: *Ara ögdilür til, ara miň söküš.* – Til goho maqtaladi, gohida ming so‘kish eshitadi (QB.174).

Hozirgi o‘zbek tilida *-ki* bog‘lovchisi ergash gapni bosh gapga bog‘lashga xizmat qiladi. O‘zbek tilshunosligida *-ki* bog‘lovchisi fors tilidan o‘zlashgan, sodda gaplari *-ki* bog‘lovchisi bilan birikkan qo‘shma gaplarni forsiy qolipda yuzaga kelgan, deb qarovchilar ham bor. Ta’kidlash kerakki, turkiy tillardagi *-ki* bog‘lovchisi tarixan *-kim* ning qisqargan shaklidir (*-kim>-ki*). Qadimgi turkiy yodgorliklar tilida *kim* ikki xil vazifada keladi:

1) Kishilik olmoshidir. Masalan: *Kim taluyqa barayıñ tesär, kiriylär, oğlum tiginkä eš boluňlar. Ne kergäkin barča bergäy-biz.* *Kim yerči suwči, kemäči bar ersär, yemä kelzün.* – Kim dengizga boraman desa, qoshimga kiringlar, o‘g‘lim shahzodaga esh bo‘linglar. Nima kerak bo‘lsa, barini bergaymiz. Kim yo‘l boshlovchi, dengizchi, kema boshqaruvchisi bo‘lsa, u ham kelsin (AT.283).

2) Bog‘lovchi bo‘lib keladi, qo‘shma gaplarda ergash gapni bosh gapga bog‘lash uchun xizmat qiladi. Quyidagi misollarga e’tibor bering: *Luu xanlarıńta Čintamani erdäni bar-kim, ülüglüg qutlug kişi ol erdäni bulsar, qamağ tınlıqlarqa asığ tusu qilur.* – Ajdar xonlarida Chintamani javohiri bor-kim, nasib etgan baxti bor kishi o‘scha javohirni topsa, hamma jonzdolarga foyda keltiradi (AT.283); *Men bu muntuda yigräk Čintamani erdäni alğalı barayıñ-kim, qayu tınlıqlarqa tüzü*

tükäti asiğ tusu qılı usar-men. – Men bu yerda qolib yaxshiroq Chintamani javohirini olish uchun borayin-kim, qay jonzodlarga tugal foyda keltira olaman (AT.284).

Hozirgi forschadan o‘zlashgan “agar”, “garchi” bog‘lovchilari o‘rnida eskida *qali~xali*, *apañ~abañ* bog‘lovchilari qo‘llanilgan. Masalan, “Qutadg‘u bilig”da: *Qali mundağ ersä yoriq otru ur.* – Garchi shunday ekan, o‘rtacha yo‘riq tut (QB.172); *Apañ iki ažun qulur ersä sen.* – Agar ikki dunyo farog‘atini tilar bo‘lsang (QB.223).

“Chig‘atoy turkiysi”da bular bilan bir qatorda *lekin~valek ~vale~lek*, *čun~ču*, *čun~kim*, *hamānan-ki~hamānan-kim*, *tā*, *andaq-ki~andaq-kim*, *äylä-ki~äylä-kim*, *hamu-l nav’-ki~hamu-l nav’-kim*, *agar~gar*, *agarči~garči*, *nečä-ki~nečä-kim*, *anda-ki~anda-kim* bog‘lovchilari ham amal qilgan.

Ko‘makchilar

Ko‘makchilar vosita, maqsad, sabab, vaqt, makon va shu kabi munosabatlarni bildirish uchun qo‘llaniladigan so‘zlardir.

Yodgorliklar tilida *birlä~bilä*, *üzün*, *üzä~üzrä*, *içrä*, *içindä*, *ara*, *ötriü*, *tapa~taba*, *uđu~uzu*, *basa*, *soñ*, *qat*, *ašnu*, *burun*, *kedin~keđin~keyin*, *baru*, *tegin~degin*, *kibi* ko‘makchilari qo‘llanilgan.

üzä ko‘makchisi: *Toquz oğuz bodun üzä qağan olurti*, *tir*. – To‘g‘uz o‘g‘uz xalqi ustidan (bir) xoqon taxtga o‘tirdi, – der (Ton.9).

tegin ko‘makchisi: *Qırq yülqa tegin bay čiğay tüzlänür* – Qirq yilgacha boy bilan kambag‘al tenglashadi (MK.I.333).

“So‘ng” ma’nosida *soñ*, *basa*, *ötriü* so‘zлari, hozirgi “keyin” so‘zining o‘rnida *kedin*, *kenä* so‘zлari qo‘llanilgan.

Eski o‘zbek tili davridan boshlab bular bilan bir qatorda *gayr-i*, *magar*, *nečük-kim*, *bajuz* ko‘makchilari ham amal qilgan.

Ilmiy adabiyot va qo'llanmalarda *teg~deg / tek~dek* ni “qo’shimcha” deydilar. Aslida, bu qo’shimcha emas, o’xshatish ko’makchisidir. Shuning uchun u so’zlarga birikkanda o’zak-negiz bilan uyg‘unlashmaydi, o’z ko’rinishini saqlab qoladi. Masalan: *qoñ-teg*. Shunga qaramay, ba’zi hollarda bog‘lanayotgan so’z tabiatiga moslashuvi ham mumkin: *andağ~andaq, mundağ~mundaq*.

Yuklamalar

Yuklamalar so’z va gapga qo’shimcha ma’no yuklaydi. Ular so’roq, taajjub, kuchaytiruv va ta’kid, ayiruv, inkor ma’nolarini bildiradi.

Qadimgi turkiy tilda yuklamalar ikki xil ko’rinishda uchraydi: qo’shimcha shakliga kelib qolgan yuklamalar va so’z-yuklamalar.

Yämä yuklamasi ta’kidni bildiradi: *Ältäris qağan qazğanmasar, udu bän özüm qazğanmasar, äl yämä, bodun yämä yoq ärtäči ärti, qazğantuqin üçün, uduğuzum, qazğantuqum üçün äl yämä äl bolti, bodun yämä bodun bolti.* – Eltarish xoqon zafar qozonmaganida, uning bilan mening o’zim zafar qozonmaganimda, yurt ham, xalq ham yo‘q bo‘lar edi. (Xoqon) zafar qozongani uchun, mening xushyorligim, zafar qozonganim uchun, el ham el bo‘ldi, xalq ham xalq bo‘ldi (Ton.54–56).

Yodgorliklar tilida *-mu, -mü / -mii, -mi* so’roq yuklamasi, ta’kidni bildiruvchi *-la, -lä; -ču, -čü; -oq, -ök; -mat, -mät; uš* yuklamalari amal qilgan.

-mu, -mü so’roq yuklamasining misoli: *Qağan-mu qışayin tädim.* – Xoqonni-mi qistayin dedim (Ton.5). Ayur: *körmädiy-mu bu xaqan yüzin.* – Aytur: Ko’rmadingmi bu xoqon yuzini? (QB.79).

She’rda shunday kelgan:

Alp Er Toja öldimü,

Esiz ažun qaldımu,
Özläk öčin aldımu,
Emdi yüräk yürtilur.

(Alp Er To'nga (Afrasiyob) o'ldimi, Esiz dunyo qoldimi, Dunyo undan o'chini oldimi, Endi yuraklar yaralanmoqda) (MK.I.77).

-oq, -ök yuklamasining misoli:

Taqī ma hekü ersä arzu tiläk,
Bayat-oq bolu bersü arqa yöläk. –

Tag'in qanday tilak va orzularing bo'lsa, xudoning o'zигина madadkor bo'laversin (QB.118).

uš yuklamasining misoli: *E bilgä, özüm uš tapuğči sejä.* – Ey dono, o'zim sening xizmatingdadırman (QB.200).

-mat, -mät yuklamasining misoli: *Seni sen-mät öggil, kesildi sözüm.* – Seni sening o'zinggina hamd qil, so'zimni kesdim (QB.32).

“Chig‘atoy turkiysi”da bular bilan bir qatorda *ayā, xud, ham, ā* yuklamalari ham amal qilgan. Ayrımlariga misol keltiramız.

-la, -lä yuklaması. Husayn Boyqaro she'ridan:
Ey köňül gardun baliyat taşını yağdurdı-la,
Har taraf sabrıñ üyi divärini sindurdı-la (Maj.142).

Ushbu yukläma ayrim o'zbek shevalarida hozir ham ishlatiladi. Masalan, andijon shevasida: *Bu xabarni barıp-la aytdim.*

S o‘ r o q v a t o p s h i r i q l a r:

Lutfan so‘zlarni turkumlarga ajratish prinsiplarini tushuntiring.

Yodgorliklar tilida ot turkumining hozirgi turkiy tillardan farqlanuvchi muhim belgilarini izohlang.

Son va uning muhim belgilarini o'rnaklar ko'magida ochiqlab bering.

Lutfan olmoshlarning tarixiga qisqacha ta'rif bering.

Fe'l va uning kategoriyalariga ta'rif bering.

Ot, sifat, ravish va fe'llarning yasalishiga jiddiy e'tibor qarating.
So'z yasovchi qo'shimchalarning vazifasi, qanday ma'noli so'zlar
yasayotganini aniqlab, umumiylar xulosalar bering.

Hozirgi o'zbek tilidan farq qiluvchi yordamchi so'zlarga e'tibor
bering va ularning vazifasini tushuntirib bering.

BESHINCHI BO'LIM. LEKSIKOLOGIYA VA ATAMASHUNOSLIK MASALALARI

T a y a n ch t u sh u n ch a l a r: *leksikologiya, leksikografiya, leksema, so'z, atama, termin; etimologiya; o'z qatlam, o'zlashgan qatlam; buddizm atamalari, moniylik bilan bog'liq atamalar, islam tushunchasi bilan bog'liq atamalar; astronomiyaga tegishli atamalar; "tomon" tushunchasini bildiruvchi atamalar, "vaqt" tushunchasini bildiruvchi atamalar, qarindosh-urug'chilik atamalari.*

E' t i b o r q a r a t i l a y o t g a n m a s a l a l a r:

Qadimgi turkiy tilda qo'llanilgan diniy atamalar tizimi.

Buddizm atamalari.

Xitoychadan o'zlashgan so'zlar.

Islom bilan bog'liq atamalar.

Astronomiya bilimiga tegishli atamalar.

Burungi tasavvur-qarashlar bilan bog'liq kelib chiqqan atamalar.

QADIMGI TURKIY TILDA QO'LLANILGAN BUDDIZM ATAMALARI

Sharq xalqlarining ijtimoiy-siyosiy hayoti, madaniyati tarixida, adabiy aloqalar va tillarning o'zaro ta'sirida buddizmning o'rni katta bo'lgan. U o'tmishda uluslar birligi, ularning madaniy yuksalishi, diniy-falsafiy fikrlar umumiyligini ta'minlab, Sharq sivilizasiyasiga unumli ta'sir ko'rsatgan dinlardan biri edi.

Ilk O'rta asrlarda O'rta va Markaziy Osiyoda buddizmning yoyilishi sharq xalqlarining madaniy va adabiy aloqalari, sharq tillarining o'zaro ta'sirini ta'minlab berdi. Ushbu ijtimoiy-tarixiy, madaniy jarayon, xususan, turkiy xalqlarning qadimgi hind, tohar, sug'd, xitoy madaniyatlari bilan yaqindan tanishuviga, adabiy aloqalarning rivojlanuviga imkon tug'dirdi. Qadimgi turk teologiyasi va ilmida buddashunoslik, sanskritshunoslik, toharshunoslik, sug'dshunoslik,

xitoysynoslik kabi yo‘nalishlar yuzaga keldi. Turk o‘qimishlilari orasidan dovrug‘i ketgan buddashunoslar, sanskrit, tohar, sug‘d tillarining bilimdonlari, sharqshunos olimlar yetishib chiqdi.

Buddizm tufayli turk olamiga qadimgi hind falsafasi va madaniyati ta’sir eta boshladı. O‘zining eski an’analari va yangi qarashlar qurshovida turkiy madaniyat yangi bosqichga ko‘tarildi.

Turkiy muhitga buddizmning tarqalishi, boshlab, tarjimachilik sohasida katta burilish yasadi. Ko‘plab budda yodgorliklari qadimgi turkiy tilga tarjima qilina boshladı. Odatda, ushbu asarlar sanskrit, tohar, sug‘d va xitoy tillaridan o‘girilar edi.

Ilk o‘rta asr turk-budda diniy olamida butun fikr buddizm falsafasi, ta’limoti va qonun-qoidalarini o‘rganishga qaratildi. O‘z navbatida, bu jarayon hind-qadimgi turk madaniy, adabiy va til aloqalarining rivojlanishiga keng yo‘l ochib berdi.

Qadimgi turk-budda muhitida yozuv madaniyati yangi bosqichga ko‘tarildi. Ko‘k turk xoqonliqlari davrida turklar ko‘k turk xatidan foydalangan bo‘lsalar, buddizm muhitida oromiy alifbosi negizida yaratilgan qadimgi turkiy-uyg‘ur xati hamda buddizm ta’sirida kirib kelgan brahma yozuvlaridan foydalandilar.

Diniy-falsafiy qarashlar, madaniyat, badiiy adabiyotda kechgan jarayonlar qadimgi turkiy til lug‘at tarkibining yangi atamalar bilan boyishiga imkon berdi. Sanskrit tilidan diniy va falsafiy tushunchalarni anglatuvchi so‘zlar, buddizm san’ati, madaniyati, ma’orif, adabiyotshunoslik va fanning ayrim sohalariga oid atamalar turkiy tilga o‘zlasha boshladı. Qadimgi turkiy tilda budda ta’limotiga oid butun boshli atamalar tizimi shakllandı, yozma adabiy tilda buddaviy asarlarga xos bo‘lgan xos bir uslub – “sutra uslubi” yuzaga keldi. Lug‘at tarkibidagi so‘zlarning ayrimlari budda tushuncha va tasavvurlarini ham ifodalay boshladı.

Turkiy yozma manbalarda “Hindiston” *änätkäk* deyilgan. Shuningdek, bu atama *änätkäk*, *änätkäkčä*, *änätkäk* tili shaklida qo‘llanilib, “sanskrit tili”ni anglatadi. Buddha asarlarida sanskritchaga nisbatan *aryabašča* so‘zi ham qo‘llanilgan. Bu so‘z unga berilgan sifat bo‘lib, “muborak sanskritcha” anglamidadir.

Buddizm davri yozma adabiy tili to‘g‘risida so‘z borganda, lug‘at tarkibida yuzaga kelgan atamalar tizimini eslamaslikning iloji yo‘q. Bu davrlarda sanskrit, tohar, sug‘d, xitoy tillaridan diniy, falsafiy atamalar, buddizm san’ati, madaniyati, ma’orif, adabiyot va fanning boshqa sohalariga tegishli atamalar turkiy tilga o‘zlasha boshladи. Tilshunoslikda, shular bilan barobar, asl turkcha so‘zlarning ayrimlari budda diniy-falsafiy tushunchalarini ham ifoda eta boshladи.

Tilshunoslikda chet tillardan so‘z o‘zlashtirish yoki turkiy tilning ichki imkoniyatlari, lug‘at boyligining imkoniyatlaridan foydalangan holda yangi atamalar yasash yohud turkiy so‘zlarni yangi ma’noda qo‘llash usuli ilmiy asosda ishlab chiqilgan edi. Qadimgi turkiy tilga budda atamalarini o‘zlashtirish va yangilarini yasash prinsiplari quyidagicha.

Muayyan atama asl tilda qanday bo‘lsa, o‘shanday ko‘rinishida, tarjima qilinmay o‘zlashtirilgan, matnlarda ham ana shunday qo‘llanilgan. Masalan, *nirvan* (<skr. *nirvana*) so‘zi budda ta’limotida eng yuksak, qutsal yer. Buning singari atamalar budda asarlarida ko‘plab topiladi.

Buddizm qadimgi turklarning hind adabiyoti bilan yaqindan tanishuviga ham imkon berdi. Adabiy aloqalar etkisida turk adabiyotida yangi janrlar yuzaga keldi. Tabiiyki bu yangi janrlarni ifodalash uchun sanskritcha atamalardan ham foydalanilgan. Jumladan, turk adabiyotida *ślok* (<skr. *ślok*), *padak* (<skr. *padaka*), *käränt* (<skr. *grantha*) singari yangi she’r turlari shakllandi.

Buddizm davrida qadimgi turk nasrida budda qonunlari, aqoid, ta’limotlari aks etgan asarlar shuhrat topdi. Bunday

asarlar *nom* yoki *nom bitig* deb yuritilgan (*nom*< sug‘dcha. *nwm*; *nom bitig* –“aqoid kitobi” ma’nosini bildiradi). Budda diniy adabiyotida sutralar (yodgorliklarda shakli *sudur~sutur*), shastarlar (manbalarda *śastīr~śastar* shaklida qo‘llaniladi) keng yoyildi. *Sudur* (<skr. *sutra*) – sutra, Buddaning nasihatlaridan iborat; *śastar* (<skr. *śastra*) – buddizmning muqaddas kitobi, sutraning tafsiri, traktatdir. Buni *śastar bitig* ham deyilgan.

Turk adabiyotida ulug‘ rohiblarning hayot yo‘lini, muqaddas yerlarga uyuştirgan ziyyaratlarini aks ettiruvchi memuarlar yaratildi. Yirik epik asar(kavi nom bitig)lar paydo bo‘ldi. *Kavi* (<skr. *kavya*) – “epos, epik asar”degan ma’noni beradi. Budda afsona-rivoyatlari keng tarqaldi. Bular *purani* (<skr. *purana*) atalgan.

Buddizm dinidagi turklar hindlarning kitob shaklidan ham foydalanganlar. Fanda uni potxi kitob deb yuritiladi. Potxi kitobning varaqlari *patar* deyilgan. Bu so‘z sanskritcha *patttra* dan bo‘lib, ular palma yaproqlari va varaqni shunday ataganlar. Turkiy tilda u ikkinchi ma’nosida qo‘llangan.

Har qaysi varaqning bosh qismiga asar bo‘limi va ushbu bo‘limning tartib ko‘rsatkichi yozib chiqilgan. Masalan: *Yükiünč alti patar* (Yukunch bo‘limi, oltinchi varaq), *Yükiünč yeti patar* (Yukunch bo‘limi, yettinchi varaq), *Baştinqi ülüs on patar* (Avvalgi bo‘lim, o‘ninchи varaq), *Baştinqi ülüs tört yigirmi patar* (Avvalgi bo‘lim, o‘n to‘rtinchi varaq) va b. Bir bo‘lim tugagach, keyingi bo‘limdan boshlab tartib ko‘rsatkichi ham yangilangan. Ushbu ko‘rsatkichlar, o‘z navbatida, poygir (poginatsiya) vazifasini o‘tagan va kitob varaqlarini tartibli saqlash imkonini bergan.

Qadimgi turkiy tilga chet tillardan o‘zlashgan so‘zlarga turkiy qo‘sishmchalar qo‘sish yo‘li bilan ham yangi atamalar hosil qilingan. Masalan, *nomči* – budda qonunlarining bilimdani, qonunlarni yo‘ruvchi (ma’nosini aytib beruvchi), ulamo. Qonunlar haqida dars beruvchi ustozni *nomči*

ačarii-nomčii baxšii ham deyilgan. Bu yerdagi *ačarii* (<skr. *ačarya*) “o‘qituvchi, ustoz” ma’nosida.

Budda matnlarida ba’zi iboralar, dinning asosini belgilovchi tushunchalar (formulalar) ham turkiyga o‘girilmay, asl holida, o‘sha tilda qanday bo‘lsa, shundayligicha qo‘llanilgan. Masalan, budda asarlari, an’anaga ko‘ra, *Namo but. Namo darm. Namo saj* jumllalari bilan boshlangan (buning *Namo Buddaya. Namo darmaya. Namo sañgaya* shakli ham bor). Buning sanskritchasi *Namo budha. Namo dharma. Namo samgha* dir. Ma’nosi: “Buddaga ta’zim. Budda aqidalariga (qonunlariga) ta’zim. Budda jamoasiga ta’zim” demakdir. Bu uchlikning bir formulada kelishining sababi buddizm ta’limotida Buddha, buddizm qonunlari, ta’limoti va jamoa qutlug‘dir. Eski turklar bu uchlikni üç *erdini* yoki *erdinilär* deganlar.

Erdini (=skr. *ratha*) – “javohir” ma’nosini beradi. Qadimgi turkiy tilda *erdini* – “javohir”. Buddizmnning qutlug‘ tushunchasi (=Ratna) shu so‘z bilan atalgan: *nom erdini* – “no‘m javohiri” (=Dharmaratna); *Burqan erdini* – “Burxon (Budda) javohiri”; üç *erdini* – budda tushunchasidagi “uch javohir” (=Triratna).

Budda matnlarida sug‘dcha, xitoycha atamalar ham ko‘p uchraydi. Buning sabablaridan biri budda asarlarining o‘sha tillardan tarjima qilinganligi bo‘lsa, ikkinchisi qadimgi turklar bilan o‘sha xalqlar orasida kechgan yaqin munosabatlar, adabiy aloqalar va Sharq tillarining o‘zaro ta’siridir. Masalan, *Azrua* (<sug‘dcha ‘zrv’) – brahma dinining yaratuvchisi, *Zervana* (=skr. *Brahma*). Yoki: *Xormuzta* (<sug‘dcha ‘xwrmzt’) – iloh, tangrining oti, *Xo‘rmuzd* (=Indra). Aslida bu so‘z moniy diniy qarashlari asosida shakllangan. Keyinchalik turk-buddistlar uni o‘zlashtirib, o‘z tushunchalaridagi “iloh” ma’nosida qo‘llay boshlaganlar.

Matn tuzish an’anasini bilan bog‘liq yana bir jihat. Sharq, xususan, turk matnchiligi, matn tuzish an’anasiga ko‘ra asar

qay tildan tarjima etilayotgan bo'lsa, kitobning otini o'ziday goldirish yoki yaratilgan asarlarga sharq tillarining birida (tabiiyki, adabiy etkisi va mavqeい yuqori bo'lgan tilda) ot qo'yish rusum bo'lgan. Masalan, moniychilar tavbanomasining turkiy versiyasi "Niгоšaklarning suyin yazuqin öküngü Xuastuanift" (ya'ni, "Tinglovchilarning gunohlaridan tavba qiluvchi Xuastuanift") deb atalgan. Turk-budda asarlarida o'zgacha bir xususiyatni kuzatamiz: ayrim asarlarning oti aslida qanday bo'lsa o'shanday, ba'zilariga esa turkcha ot qo'yilgan. Masalan, "Mahayanasutra" – turkiy tilda "Uluğ kölüňü sutur" yoki "Maytreya samiti nataka"ning turkcha versiyasi "Maytri simit nom bitig" deb atalgan. "Suvarnaprabhasa sutra" qadimgi turkiy tilga "Altun önlüğ yaruq yalrıqlıq qopta kötrülmüş nom eligi" (ya'ni, "Oltin tusli yorug'lik taratuvchi hamma narsadan buyuk bo'lgan tojdar no'm") deb o'girilgan. Yoki, turkcha "Nirvan bitig" (=skr. Nirvana sutra) – mahayana mazhabida yaratilgan sutralardan birining otidir.

Qadimgi turk-budda, turk-moniy adabiyotlari, matnchiligi negizida shakllangan ushbu an'analar turkiy xalqlar adabiyotida uzoq davr saqlanib qolgan. Buning ta'sirini o'zbek mumtoz adabiyotida ham uchratamiz. Masalan, Alisher Navoiyning asarlari turkiy tilda ekanligiga qaramay, arabcha atalgan: "Me'zānu-l-avzān"; "Muhākamatu-l-luğātayn" va shuning singari.

Yozma manbalarda budda diniy-falsafiy tushunchalarining asl turkiy shaklda qo'llanilgani ham e'tiborga loyiq. Buddha muhitida turkiy tilning lug'at tarkibida burundan qo'llanib kelayotgan turkiy so'zlar yangi ma'noda ishlatilgan. Yozuvchilar atamani diniy qarashlarning mohiyatidan kelib chiqib tanlaganlar. Bunga bir misol. Turklerda buddizmning maxayana yo'li amal qilgan. Qadimgi turkiy tilda bu mazhab *mahayana*, *tayśīj* (bularning biri sanskritcha, ikkinchisi xitoychadan o'zlashgan) yoki *ulug' kölünyü* deb atalgan.

Xinayana mazhabi esa *kičig kölüjü* atalgan. *Kölüyü* – qadimgi turkiy tilda “yo‘l, mazhab” degani; *ulug kölüjü* – “dinning keng tariqati” (большая колесница), *kičig kölüjü* – “kichik tariqat” (малая колесница) ma’nosini anglatadi.

Qadimgi turk, qolaversa, ushbu o‘lkalarda yashovchi xalqlarda amal qilgan buddizmning o‘ziga yarasha jihatlaridan yana biri shundaki, boshlab buddizm xudosiz din bo‘lgan. Biroq turklarning bunga qadar amal qilgan inonchlarida butun olamni va tirik mavjudotni yaratgan tangri (*yaratmiş täyri*) tushunchasi bor. Qadimgi turk buddizmning muhim belgisi, unda turklarning bundan burungi diniy-falsafiy tushunchalariga tayangan holda, xudo (*täyri*) yaratildi. Turk-buddistlar tushunchasida *täyri täyrisi* – “oliy tangri, Buddha”. Buddani ulug‘lab, *tükäl bilgä täyri täyrisi burqan* “tugal dono, tangrilar tangrisi, Burxon” ham deganlar. *Täyri täyrisi* (=skr. *Devātideva*) hamda *tükäl bilgä* “tangrilarning tangrisi, tugal dono” – Buddaning sifatidir: *Täyri täyrisi Burqan* – Tangri tangrisi Burxon (Budda).

Beş yol – besh yo‘l. Bu atama “do‘zah, jin-alvasti, hayvon, inson va xudo”ni bildiradi.

Beş čaxşapit~beş čaqşapat (*čaqşapat* <skr. *siksapada*) – besh aqida: “gunohsiz bo‘lish; vujud pokligi; bo‘g‘iz pokligi; yomonlik qilmaslik; shod yo‘qsil bo‘lish” demakdir.

Altı yol – olti yo‘l, yashashning olti shakli. Budda aqidasiغا ko‘ra, jonzodlar tiriklig chog‘ida qilgan yaxshi va yomon amallariga qarab olti bor tug‘ilish va o‘lish imkoniga ega bo‘ladilar. Bu nom ana shu tushunchani anglatadi.

Tört toğum – to‘rt tug‘ilish: 1) tuxumdan tug‘ulish, 2) qorindan tug‘ulish, 3) namlikdan tug‘ulish, 4) mavhumlikdan, yo‘q narsadan tug‘ulishni anglatadi.

On karmapt (*karmapt* <skr. *karmapatha*). Bu atama budda yo‘lidagi o‘n ezgulik: 1) jonivorlarni o‘ldirmaslik, 2) o‘g‘rilik qilmaslik, 3) zino qilmaslik, 4) o‘zgalarga ayb chaplamaslik, 5) ichkilik ichmaslik, 6) yolg‘on so‘zlamaslik, 7) masxaradan xoli

bo‘lish, 8) hasad qilmaslik, 9) achchiqlanmaslik, 10) xato va yomon xayollarga bormaslikni bildiradi.

On tūrlüg paramit (*paramit* <skr. *pramita*) ham o‘n nojo‘ya harakatdan o‘zni tiyishga ishoradir. Bular: 1) jonivorlarni o‘ldirmaslik, 2) o‘g‘rilik qilmaslik, 3) zino qilmaslik, 4) o‘zgalarni masxara qilmaslik, 5) ichkilik ichmaslik, 6) zebu ziynatga berilmaslik, 7) qo‘sinq tinglamaslik va raqs tushmaslik, 8) yumshoq to‘sakda yotmaslik, 9) man qilingan taomlarni yemaslik, 10) mol-dunyoga berilmaslik.

Üč etöz – Buddanining uch xil obrazini, uch xil qiyofada namoyon bo‘lishini anglatadi.

Üč ödki – uch zamon: bu atama buddizmdagi “uch zamonga tegishli” (o‘tgan, hozirgi va kelasi zamon) tushunchasini beradi (=Triskāla).

Diniy-falsafiy atamalarni matnda qo‘llash bir qancha prinsiplarga tayanadi. Diniy matnlarda o‘zlashmalarning soni ancha. Ular matn talabi bilan sanskrit va asar tarjima qilinayotgan boshqa tillardan o‘zlashgan. Muhimi, turkiy tilda burundan qo‘llab kelinayotgan o‘z so‘zlarni atama vazifasida qo‘llash an’anasini o‘sha chog‘lardan qolgan.

Buddizm terminologiyasidagi sug‘dchadan o‘zlashgan *nom* so‘zi “qonun, ta’limot” degan ma’noni beradi (sanskritha matnlardagi Dharmga ga to‘g‘ri keladi). Bundan boshqa so‘zlar ham yasalgan: *nom eligi* – “no‘m hukumдори” (=Dharma-rāja); *nom tilgāni* – “no‘m g‘ildiragi” degani (=Dharmačakra); *nom buši* – “no‘m sadaqasi” (=Dharma dhana);

Xormuzta täjri (=Indra). Uni “tangrilar xoni” deb atashgan: *Täjri qanī Xormuzta täjri* – Tangrilar xoni Xo‘rmuzd tangri.

Buddizm falsafasida *täjri yeri* tushunchasi bor – “tangri yeri, qutlug‘ yer” degani (=Devaloka).

Buddizmdagi “besh uzv” (=Panča-Mandala) tushunchasini *beş tilgän* deyilgan.

Yoki “ko‘k, asos” (=Svabhava) tushunchasini turkiy sutrada *töz yiltiz* deydi va b.

Turk-budda muhitida ishlab chiqilgan atama qabul qilish va yasash prinsiplari turkiy tillar lug'at tarkibining boyishiga katta hissa qo'shdi va keyingi davr atamashunosligining yo'nalishlarini belgilab berdi.

QADIMGI TURKIY TILGA XITOYCHADAN O'ZLASHGAN SO'ZLAR

Xitoy va Markaziy Osiyo xalqlari tarixida ilk o'rta asrlar o'zaro ixtiloflar, urush va bosqinlar bilangina ma'lum emas. Bu kezlar Xitoy va Markaziy Osiyo xalqlari o'rtasida madaniy, adabiy aloqalarning rivojlanishi, ijtimoiy, savdo munosabatlarining o'rnatiluviga keng yo'l ochildi. Ushbu aloqalar ikki mamlakatning ijtimoiy-madaniy taraqqiyoti, uluslar birdamligini ta'minlab berdi.

Xitoy bilan Markaziy Osiyo ellari, xususan, turk davlatlari o'rtasida kechgan ijtimoiy-siyosiy, madaniy, adabiy aloqalarni o'rghanishda qadimgi turkiy bitiglarning o'rni kattadir. Ko'k turk yozuvli urxun bitiglari, uyg'ur yozuvidagi qadimgi turk manbalarida ushbu madaniy jarayon to'g'risida keng ma'lumot berilgan.

Quyida turkiy yozma manbalar asosida ushbu aloqalarning ikki qirrasiga – turk epigrafik matnchiligidagi xitoy tiliga e’tibor masalasi hamda qadimgi turkiy tilning lug’at tarkibidagi xitoychadan o’zlashgan qatlama xususida so’z yuritmoqchimiz.

Qadimgi turkiy yozma yodgorliklarda Xitoy eli, yurtini *Tabğac*(~*Tawğac*), *Tabğac* eli atalgan, xitoy xoqoni – *tabğac qağan*, xitoy xalqi esa – *tabğac bodun*, xitoy tilini *tabğac tili* devilgan.

Birinchi va ikkinchi ko'k turk xoqonliqlari, keyinchalik uning o'rniда yuzaga kelgan uyg'ur xoqonlig'i va davlatlarda xalqaro mavqega ko'tarilgan sug'd, xitoy tillariga e'tibor katta edi. Ayniqsa, monumental matnlarni bitishda, turkiy til bilan

barobar, sug'd, ora-chora, xitoy tilidan ham foydalanilgan. Buning yorqin misolini 732 yili sarkarda Kul tigin xotirasiga tiklangan yodgorlikda kuzatishimiz mumkin. Yodgorlikning to'rtala yuzida yozuvi bor: Sharqqa qaragan yuzi, ikki yoni, toshning qirralariga ko'k turk harflari bilan turkiy matn bitilgan; G'arbga qaragan yuzidagi matn esa xitoycha (MTA.26–29). Yodgorlikdagi turkiy matnni ko'k turk adabiyotining yirik namoyandası, yozuvchi va tarixnavis Yo'llug' tigin bitgan. Xitoycha matnning muallifi esa xitoy generali Changdir. Ushbu matnni u xitoy imperatorining ko'rsatmasiga ko'ra yozgan. Turkiy bitigda uning oti Čaŋ säyün deya qayd etiladi. Otiga qo'shilayotgan säyün so'zi uning harbiy unvoni bo'lib, "general" ma'nosini beradi.

Oradan ko'p vaqt o'tmay, 735 yili Bilga xoqon xotirasiga tiklangan yodgorlikda ham xitoy tili e'tibordan chetda qolgani yo'q. Ushbu qabrtoshning Sharqqa qaragan yuzi va ikki yonidagi matn turkiy tilda. G'arbga qaragan yuzida esa xitoycha matnning o'rni bor. Biroq, tosh parchalanib ketgani uchun xitoycha yozuvi hozir saqlangan emas (MTA.94–95).

Markaziy Osiyo yerlarida, xususan, qadimgi turk davlatlarida uch tilli yodgorliklar ham yaratilgan. Shulardan biri 3- Qorabalg'asun bitigi oti bilan mashhur. To'quz o'g'uz (uyg'ur) xoqoni Alp Bilga xotirasiga atab 820–821 yillarda o'rnatilgan ushbu yodgorlikning matni uch tilda: turkiy, sug'dcha va xitoychada (MTA.222–226). Bu esa turk muhitida (harqalay, zodagonlar ichida va rasmiy doiralarda) monumental matnlarni biryo'la nufuzli tillarning bir nechtasida bitish an'anasi uyg'ur xoqonlig'i davrida ham saqlanganidan belgi beradi.

Shu o'rinda ilk o'rta asrlarda Markaziy Osiyoda kechgan til vaziyati bilan bog'liq muhim bir hodisani ta'kidlash kerak. Ma'lumki, tarixiy yodgorliklarning biryo'la bir necha tilda yozilishiga ayni ellardagi til vaziyati ham sabab bo'lgan. Qadimda O'rta va Markaziy Osiyoning turli yerlarida, turklar

bilan aralash yashagan sug'd, tohar, qadimgi xorazm muhitida turk-sug'd, turk-tohar, turk-qadimgi xorazm ikki tilliligi amal qilganligi yozma manbalardan ayon. Biroq, turk-xitoy yoki, keyinchalik, turk-arab bilingvizmi amal qilgan, deya olmaymiz. Bizningcha, turkcha matnlarda xitoychaning aralash ishlatalishi, ko'proq, siyosiy vaziyat, davlat siyosati, qolaversa, Xitoy davlatining ta'siri va xitoy tilining xalqaro maydonda tutgan o'rni bilan belgilangan.

Yana bir jihat, butun Markaziy Osiyoni kesib o'tgan Buyuk ipak yo'lida turkiy hamda sug'd tillari xalqaro til sifatida amal qilgan. Ammo xitoy tili ushbu savdo yo'lida, o'zaro munosabatlarda xalqaro mavqega erishgan deya olmaymiz.

Xitoy va Markaziy Osiyo munosabatlari tarixida buddizm davri ajralib turadi. Ilk O'rta asrlarda O'rta va Markaziy Osiyoda buddizmning yoyilishi sharq xalqlarining madaniy va adabiy aloqalari, sharq tillarining o'zaro ta'sirini ta'minlab berdi. Ushbu ijtimoiy-tarixiy, madaniy jarayon, xususan, turkiy xalqlarning qadimgi xitoy madaniyati bilan yaqindan tanishuviga, adabiy aloqalarning yuksaluvi, turkiy dunyoda xitoysunoslikning fan sifatida yuzaga kelib, taraqqiy etishiga imkon tug'dirdi.

Turkiy muhitga buddizmning tarqalishi, boshlab, tarjimachilik sohasida katta burilish yasadi. Turkiy xalqlar buddizm diniga sig'ingan chog'larda xitoy tilidan qadimgi turkiy tilga ko'plab diniy-falsafiy, tarixiy, badiiy asarlar, tabobatga tegishli kitoblar tarjima qilingan. Vaziyat taqazosi bilan turklarning o'qimishli kishilari ichidan xitoy tilining bilimdonlari, sharqshunos olimlar yetishib chiqdi. Shulardan biri X asrda yashab ijod etgan xitoysunos olim Singqu Seli (~Shingqu Sheli) tudungdir.

Diniy-falsafiy qarashlar, madaniyat, badiiy adabiyotda kechgan jarayonlar qadimgi turkiy til lug'at tarkibining yangi atamalar bilan boyishiga yo'l ochdi. Xitoy tilidan diniy va

falsafiy tushunchalarni anglatuvchi so‘zlar, buddizm san’ati, madaniyati, adabiyotshunoslik, kitobat ishi va fanning ayrim yo‘nalishlariga tegishli atamalar turkiy tilga o‘zlasha boshladi.

Tabiiyki, o‘zlashgan so‘zlar turkiy tilning qolipiga, talaffuz o‘lchovlariga solingan. Masalan, xitoycha Kun-futszi(Konfusiy)ni turklar *Quyvutsi* shaklida qo‘llagan. Yoki “mehmonlar uchun tayyorlangan joy, mehmonxona” ma’nosidagi *xon-lu-si* so‘zi turkiy matnda *quylusi* shaklida ishlatilgan.

Turkiy yozma manbalarda *baqši~baxši* so‘zi uchraydi. E’tirof etilishicha, bu so‘z xitoychadan o‘zlashgan bo‘lib, uyg‘ur yozuvli budda, moniy yodgorliklariida “ustoz, murabbiy, muallim” ma’nolarida qo‘llangan. Ba’zan u kishi otini ham bildiradi. Uning *otači baqši* shakli ham bor. Bu so‘z “tabib, shifokor” anglamida. Zamonasining xat-savodli, bilimli kishilariga nisbatan qo‘llangan bu so‘z keyinchalik turkiy tilda va uyg‘ur xatida bituvchi kotiblarning nomida saqlanib qoldi. XIV–XV yuzyilliklarda Chig‘atoy elida ushbu atama “uyg‘ur xatida bituvchi kotib, xattot”ni bildirgan. Hozirgi o‘zbek tilida *baxši* so‘zi “dostonchi, xalq ijrochisi, baxshi”ni bildiradi. Ayrim o‘zbek og‘izlarida uning “afsunchi, folbin” ma’nosи ham bor. Xitoy tilida hozir ham *boşı* so‘zi qo‘llaniladi. U fan doktori ilmiy darajasiga ega bo‘lganlarni anglatadi.

Xitoy tilidan o‘girilgan asarlarda xitoycha o‘zlashmalarning ham ko‘p uchrashi tabiiy. Tarjimonlar ushbu o‘zlashmalarni boshqa turkiy so‘zlarga sinonim sifatida qo‘llaganlar. Shuningdek, matn uslubini saqlash, xitoy madaniyati, etnografiyasi, qarashlariga tegishli tushunchalarni o‘ziday berish istagida ham ushbu atamalarni ishlatganlar. Masalan, xitoychadan o‘zlashgan *vapşı* so‘zi “ustoz, o‘qituvchi”ni bildiradi (xitoychasi *faşı*). Yoki ayni ma’noda *tayşı* (xitoycha *daşı*) so‘zi ham qo‘llanilgan. Qizig‘i shundaki, bu so‘zlar moniy matnlarida yoki tohar tilidan o‘girilgan budda yodgorliklariada uchramaydi.

Xitoychadan tarjima qilingan asarlarda *titsi* so‘zi “o‘quvchi”ni bildiradi (xitoychasi *ditszi*).

Qadimgi turkiy tilga xitoychadan kitobat ishi, matnshunoslikka oid atamalar ham o‘zlashgan. Masalan, budda asarlarining muqaddimasi, kirish qismi *süü* deyilgan (bu xitoycha *syuy* ning turkchalashgan ko‘rinishidir).

Xat, farmon bitilgan o‘rama qog‘ozni *kuin* deganlar (uning xitoychasi *tszan*).

Xitoychadan o‘girilgan asarlarda *linxua* so‘zini-da uchratamiz (xitoychasi *lyanxua*), u “nilufar” degani. Xitoycha *xua* – “gul” degani, tarjimonlar uni turkiy *čečäk* so‘ziga sinonim sifatida qo‘llaganlar.

Yoki turkcha matnlarda *luu* so‘zi uchrab turadi (xitoychasi *lun*), u “ajdar” degani, bu so‘z ko‘pincha yil otida keladi: *luu yil* – ajdar yili.

Bitiglarda uchraydigan “dur, marvarid” anglamidagi *yinčü~inčü* so‘zi ham xitoychadan o‘zlashgan. Sirdaryoni turklar *Yinčü ögüz* deganlar. *Ögüz* – qadimgi turkiy tilda “daryo” degani.

Xitoycha o‘zlashmalarning muayyan qismini buddizmga tegishli atamalar tizimi tashkil qiladi. Qadimgi turkiy tilda *Burqan~Burxan* so‘zi qo‘llanilgan. U xitoycha *bvyr* (“Budda”)dan yasalgan bo‘lib, turk-budda muhitida “budda ta’limotining asoschisi, Budda; budda dini; but” ma’nolarini anglatgan. Bu atama O‘rta va Markaziy Osiyodagi buddizm davridan qolgan ayrim joy otlarida hozir ham uchrab turadi. Masalan, Qozog‘istonning Taldiqo‘rg‘on viloyatida *Burxanbulaq* degan joy bor. U yerdagi ulkan sharsharaga shunday ot berilgan. Bu nom tarkibidagi *Burxan* – “Budda”ni bildiradi; *Burxanbulaq* – “Buddaning qutlug‘ suvi, sharsharasi” degani. Hozir ham o‘sha sharshara oqib turibdi.

Buddizmning xinayana mazhabi xitoychadan tarjima qilingan asarlarda *siušij* deyilgan (bu xitoycha *syaōšen* so‘zining turkcha talaffuzga moslashgan shaklidir). Bu

atamaning turkiy varianti ham bor, turklar uni *kičig kölüjü* deganlar. Yoki maxayana mazhabi *tayşij* atalgan (xitoycha *dayšen*), uning qadimgi turkcha varianti – *ulug kölüjü*. Turkiy *kölüyü* so‘zi budda diniy terminologiyasida “yo‘l, mazhab” ma’nosini bildiradi.

Xitoychadan o‘zlashgan *toyin* so‘zi “rohib” degan ma’noni anglatadi (uning xitoychasi *daojen*).

Turklar o‘z xoqonlarining xotinini, malikani *qatun~xatun* deganlar. Lekin xitoy imperatorining xotini, malikasi to‘g‘risida so‘z ketganda *tay qyu* atamasi qo‘llaniladi (uning xitoychasi *tayxou*).

Shu o‘rinda muhim bir faktga e’tibor qaratsak. Ma’lumki, qadimgi xitoy falsafasida imperatorlar “Osmon o‘g‘li” (*thien-tsi*), osmon bilan yer o‘rtasida yaralgan zotlar deya qaralgan. Xitoycha “Osmon o‘g‘li” ma’nosidagi *thien-tsi* so‘zini ko‘k turklar *tänsi~tinsi* deb qo‘llagan. Ta’kidlash kerakki, turklar bu unvon bilan o‘z xoqonlarini emas, xitoy imperatorlarini ataganlar.

To‘nyuquq bitigida *tinsi oğli* degan so‘z birikmasi uchraydi. Bitigda uning bilan bog‘liq qiziq bir misol bor. Turixchi To‘nyuquq turk qo‘sining zafarli yurishlari haqida hikoya qilar ekan, “Tinsi o‘g‘li yotadigan Bangligak tog”” (*Tinsi oğlı yatiğma Bäyligäk tağ // Tinsi oğlı yatiğma tağ*) ni tilga oladi (bitigning 44- hamda 47- qatorlari). Bu o‘rinda *tinsi* – “Osmon o‘g‘li” (ya’ni, yurt egasi, imperator); *tinsi oğli* esa “yurt egasining o‘g‘li, shahzoda” dir (Sertkaya 1995,212). Bizningcha, tarixchi To‘nyuquq tilga olgan *tinsi oğli* ning kelib chiqishi turklardan emas. Chunki turklar o‘z shahzodalarini *qağan oğli* yoki *tigin* deganlar.

E’tiborlisi shundaki, tarixchi To‘nyuquq turk qo‘sinchilari bu yerga Sirdaryo(*Yincü özü*)ni kechib borganlarini qayd etadi. Basharti, uning ma’lumotlariga tayanilsa, bitigda tilga olingan “Tinsi o‘g‘li yotadigan Bangligak tog”” Sug‘d o‘lkasida ekanligi ayon bo‘ladi. Darvoqe, bitigda bayon etilayotgan bu

voqeal-hodisalar Ikkinchı ko'k turk xoqonlig'i davrida yuz bergen. Aftidan, bundan burunroq, xitoy bosqini chog'ida tavg'ach imperatorining o'g'li bu yerkarda kelgan va shu yerda halok bo'lган. Uning jasadi shu toqqa qo'yilgan bo'lishi mumkin yoki yerli xalq orasida uning bilan bog'liq biror rivoyat tarqalgan chiqar. Shularga asoslanib, To'nyuquq ham joy nomini shunday atagan. Bunga o'xhash hodisalar O'rta va Markaziy Osiyo xalqlari tarixida uchrab turadi. Masalan, arab istelosi chog'ida islom olamida dong'i ketgan ayrim kishilarning jasadi bizning tuprog'imizga qo'yilgan yoki muqaddas qadamjolar avliyolar, ayrim sahobalarning nomi bilan bog'lanadi. Jumladan, yurtimizda hazrat Ali va uning o'g'illarining nomi bilan bog'lanuvchi qadamjolar bor. Vaholanki, ular bu tuproqqa kelmagan ham.

Shunday qilib, ilk o'rta asrlarda madaniy, falsafiy va diniy qarashlar, adabiy aloqalar etkisida qadimgi turkiy tilga xitoycha so'zlarning butun bir qatlami o'zlashgan edi. Xuddi shuning singari, o'sha kezlarda xitoy tiliga ham turkiy tildan ko'plab atamalar o'tgani ma'lum. Ushbu qatlam leksikografiya tarixi, turli oilalarga kiruvchi turkiy va xitoy tillarining o'zaro munosabatlarini o'rganishda katta ahamiyatga ega.

ISLOM BILAN BOG'LIQ ATAMALAR

Turkiy tildagi islomga tegishli diniy atamalar tizimini ulug' adib Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asarida qo'llanilgan so'zlar misoldi ko'rib chiqamiz.

Asarda *Allāh* so'zi faqat bir o'rinda – arabiylar basmalada kelgan. Matn davomida muallif uning o'rnida *idi* (yoki *iði*), *bayat*, *täyri*, *rabb* so'zlarini qo'llaydi va bularning bari islom tushunchasidagi Olloohni anglatadi.

Bayat so'zi *erklig bayat* (erkli, qodir xudo), *etigli bayat* (yashnatuvchi xudo), *uğan bir bayat* (qodir va vohid xudo); *erklig uğan meyü müsuz bayat* (erkli, qodir, mangu, mungsiz xudo) shakllarida, *täyri* so'zi *uğan täyri* (qodir tangri), *täyri*

'azza vä jall(a) (eng aziz va ulug‘ tangri), *iði so‘zi esa töriütkän iði* (yaratgan ega), *igidgän iði* (parvarishlagan ega), *keçürgän iði* (rahmdil, kechiruvchi ega), *muñsuz iði* (mungsiz ega), *bağırsaq iði* (mehribon ega) shakllarida qo‘llanilgan.

Qadimgi turkiy tilda Ollohnning sifatlari *at* deyilgan. “Qutadg‘u biling”da Ollohnning sifatlari shunday ataladi: *uğan* (qodir), *bir* (vohid), *zuljalal*, *'azza vä jall(a)* (eng aziz va ulug‘), *qadir kamal* (qodir kamol), *uluğlug iðisi* (ulug‘lik sohibi), *yer kök iðisi* (Yer va ko‘kning egasi), *erklig* (erkli, qodir), *yaratqan* (yaratgan), *töriütkän* (yaratgan), *igidgän* (parvarishlagan), *karim*, *keçürgän* (rahmdil, kechiruvchi), *bağırsaq* (mehribon), *etigli* (yashnatuvchi), *mäjü muñsuz* (mangu mungsiz), *muñsuz* (mungsiz), *mäjü tutči tirig* (mangu, doim tirig), *čergüči* (olampanoh), *biliglig* (bilimli), *köşüş* (aziz), *ğafir* (g‘ofir), *yaratığlı* (yaratuvchi), *yarağsıznı yiratığlı* (yaroqsizni yiratuvchi).

Muallifning ta’kidlashicha, Ollohnning mingta oti bor. Tavg‘ach Bug‘raxon ta’rifiga bag‘ishlangan baytlarning birida shunday yozilgan:

Bayat berdi davlat, ey türkän qutü,

Anij şukrï qılgu oqip miň atı. –

Ey turklarning baxti, xudo senga davlat berdi; (buning haqiga Ollohnning) mingta otini yod etib, uning shukrini qilmoq kerak (QB.106).

Asarda *iði* qahramonlar tilidan *bağırsaq iðim* (mehribon egam), *bağırsaq inanǵu iðim* (mehribon, inonadigan egam), *qatiğlıq yerindä siğinǵu iðim* (og‘irlik paytlarida sig‘inadigan egam) deya ta’rif etilgan (QB.3013). Ollohnning birligi *seniñdä aðin yoq siğinǵu iðim* (sendan o‘zga sig‘inadgan egam yo‘q) singari ta’riflar bilan berilgan (QB.5017).

iði so‘zi “ega, sohib” ma’nosida insonni ham bildirgan:

Biliklig bilig berdi tilqa bishiğ,

Aya til iðisi, ködäzgil başığ. –

Bilimli (ya’ni xudo) tilga pishiq bilim bergen. Ey til egasi (ya’ni inson) boshingni asragin (QB.165).

Xudoning yorlig‘i *bayat yarlığī* / *iði yarlıqī*, xudoning rahmati *bayat rahmatī* / *bayat fazlı* / *iði fazlı* deyilgan. Xudoning fazliga erishmaklik esa *bulmıš* fe’li bilan ifoda etilgan: *Bayat fazlı barča özüy bulmıš-a.* – O‘zing xudoning bari ehsonlariga muyassar bo‘libsan (QB.4993). Allohning inoyat aylashi *’inayat qıl-* fe’lida o‘z ifodasini topgan:

Bayat kimkä qılsa *’inayat* ülüg,
Tiläkkä tegip, boldi atlığ, külüğ. –

Xudo kimga yetarlicha inoyat qilsa, tilagiga yetib, nomdor, mashhur bo‘ldi.

Asarda “payg‘ambar” ma’nosida *yalawač*, *sawči*, *oqitči* so‘zлari qo‘llangan. *Yalawač* asli “elchi” degani. O‘rni bilan, u “tangrining elchisi, payg‘ambar” ni ham bildiradi. *Sawči* – *saw* (“xabar, so‘z”) dan yasalgan, *sawči* – “xabarchi, tangrining xabarchisi” degan ma’noni anglatadi. Hozir qo‘llayotgan *sawči* so‘zimizda ham “xabarchi” ma’nosini bor, biroq u “quda-andalar orasida xabar yetkazuvchi” ma’nosidadir.

“Hibatu-l-haqoyiq”da “payg‘ambar” – *rasul*, uning sifatlari esa *habib*, *xalq talusi* (xalqning sarasi), *kiši qutlugi* (kishilarning qutlug‘i) deya ta’riflangan.

Sahobalarning turkiy oti *tört eš* dir.

Ollohning bandasi *qul* atalgan: *Kimiň atıi qul bolsa qılğu tapuğ.* – Kimning oti banda bo‘lsa, toat-ibodat qilishi kerak (QB.3615). Xudoning bandalari *bayat qulları* deyilgan.

Asarda musulman va kafir tushunchalari bir-biriga zid qo‘yiladi. *Musulman* / *mo’mın* atamalarida Ollohning sobit e’tiqodli bandalari, kafir deyilganda esa buddistlar nazarda tutiladi:

Ewin, barqın örtä, siğil burxanının,
Aniň ornı masjid, jama’at qılıñ. –

Uy-joyini yondir, butlarini sindir, uning o‘rniga masjid, jamoatga yo‘l ber (QB.5372).

Ma'lumki, islom tushunchasida *kafir* so'zi Ollohga shirk keltiruvchilarni anglatadi. Qayd etilgan baytda bu so'z bilan buddistlarga ishora etilmoqda.

Musulmonlikda bo'lish *musulmanlıq*, musulmon jamoasi *jama'at* deyilgan. Islom yo'sunlari *şari'at* atalgan.

Qur'on ilmi *'ilm-u Qur'an* deb atalgan.

Yusuf Xos Hojib so'zning ahamiyati to'g'risida fikr yuritar ekan "So'z bo'z yerga moviy ko'kdan indi" (*Yaşıl kökdin indi yağız yerkä söz*) degan jumlanı ishlatadi (QB.207). Buning bilan u ko'kdan ingan (nozil bo'lgan) muqaddas kitoblarga ishora qiladi.

Asarda "yorug" dunyo" *dünya*, "oxirat" esa *'uqba, bar* atalgan:

Bayat berdi qulqa iki köz qulaq,
Biri dünya baqsa, biri 'uqba baq.
Elig berdi eki sunup tutguqa,
Biri dünyakä tut, biri 'uqbaqa.
Ayaq berdi eki yuritgu üçün,
Biri baru maňsa, biri bar üçün. –

Xudo bandasiga ikki ko'z, quloq berdi: biri bilan dunyoga boqsang, biri bilan oxiratga boq.

Uzatib ushslash uchun ikki qo'l berdi: birini dunyoga tut, birini oxiratga.

Yurish uchun ikki oyoq berdi: biri bunda odimlasa, biri bor (u dunyo) uchun (QB.3598–3600).

Dunyo va oxirat tushunchasi *törütmiş eki* (yaratgan ikki narsasi) birikmasida ham o'z belgisi ega: *Törütmiş eki bir tanuqii anuq*. – Yaratgan ikki narsasida (ya'ni dunyo va oxiratda) vohidning belgisi aniqdir (QB.14).

"Qiyomat kuni" *uluğ kün / könî kün / qiyamat* atalgan.

Asarda "jannat" tushunchasi *uçmaq*, "do'zah" esa *tamuğ* atalgan:

Eki ew yarattı bu halqqa qamuğ,
Biri ati uçmaq, birinij tamuğ. –

Bu jami xalqqa xudo ikki uy yaratdi: birining oti jannat, biriniki do‘zah (QB.3597).

“Qutadg‘u bilig”da islom farzlariga bag‘ishlangan atamalar ham mavjud.

Islomning besh farzi (*farz-i ‘ayn*) “Qutadg‘u bilig”da shunday atalgan: *iyman / inanč, namaz, roza, haj*.

“Ibodat” ma’nosini asarda *ta’at* hamda *tapuğ* so‘zлari ifoda etadi [qiyoslang, Mahmud Koshg‘ariy devonida: *tapuğ* – toat-ibodat qilish. *Teyri tapuğи* – xudoga toat qilish (MK.I.354)].

“Qutadg‘u bilig”da *ta’at* va *tapuğ* so‘zлari ba’zan juft holda kelib “toat-ibodat” ma’nosini anglatgan:

Nekü-teg qılur-men bu ta’at tapuğ. –

Bu toat-ibodatni qanaqasiga qilaman (QB.4584);

Senindä bar erkän yigitlik küči

Yawa qılma, ta’at, tapuğ qıl tuči. –

Senda yigitlik kuchi bor ekan, uni behuda ketkazma, doim toat-ibodat qil (QB.356).

“Ibodat qilmoq” ma’nosı *ta’at qıl-*, *tapuğ qıl-*, *tapin-*, *siğindim*-llari bilan ifoda etilgan. “Xudoga toat qilmoq” tushunchasi *bayatqa tapin* / *bayatqa tapuğ qıl* deyilgan. “Sengagina sig‘indim” degani *sejär-oq siğindim* bo‘lgan [qiyoslang, Mahmud Koshg‘ariy devonida: *tapindim* – bo‘ysundim; *Men teyrigä tapindim* – Men xudoga bo‘ysundim (MK.II.161). Yoki: *siğindi* – tangriga sig‘indi; *Men teyrigä siğindim* – Men xudoga sig‘indim (MK.II.177)].

Mahmud Koshg‘ariyning yozishicha, qipchoqlar “namoz”ni *yükiünč* deganlar. Bunga u quyidagi gapni ham misol keltiradi: *teyrigä yükünč yükündi* – xudo uchun nomoz o‘qidi (MK.III.385)

“Xudadan tilamoq” tushunchasi *bayatdin qul-* birikmasida o‘z ifodasini topgan.

“Xudoga shukur qilmoq” tushunchasi *bayatqa / rabbqa şukur qıldı* deyilgan: *Şukur qıldı rabbqa, atadü atın*. – Rabbga shukur qildi, otini tilga oldi (QB.5327).

Asarda nomoz bilan bog‘liq atamalar ham bor. Chunonchi, “tahorat” ma’nosida *yundi* so‘zi qo‘llangan: *Turup yundi, qildi bu yatgu namaz.* – Turib, tahorat oldi, xufton nomozini o‘qidi (QB.3246).

Farz namozi *fariza namaz*, jum’a namozi – *adina namaz*, bomdod namozi *tay namaz*, xufton namozi *yatgu namaz* deyilgan. “Namozi o‘qidi” ma’nosida *namaz qildi, namaz ötádi, namaz yetürdi* birikmalari qo‘llanilgan. Niyat bilan namoz o‘qish eðgü fal yorup namaz qildi (yaxshi niyatlar bilan nomoz o‘qidi), *namaz qildi, virdin oqidi arig* (namoz o‘qidi, kundalik hamdni takrorladi) singari iboralar bilan ta’riflangan. *Namaz, roza birlä yuriğli kişi* birikmasida namozxon, ro‘za tutuvchi solih ko‘zda tutilgan.

“Duo qildi” ma’nosida *du'a qildi* ishlatilgan. Duo bilan fotiha o‘qish *rabbqa du'a qildi / rabbqa sana qildi* deyilgan: *Du'a qildi rabbqa, kötürdi elig.* – Rabbga duo qildi, fotihaga qo‘l ko‘tardi (QB.3012); *Sana qildi rabbqa, kötürdi elig.* – Rabbga sano aytdi, fotihaga qo‘l ko‘tardi (QB.3077).

YETTI YULDUZ VA O‘N IKKI BURJ ATAMALARI

Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u biling” asarida astronomik atamalar tizimi yaxshi berilgan. Asarning bir bo‘limi (“Yeti kaväkib, on iki buruj” yoki “Yeti yulduz on iki ökäk buruj ayur”) koinotning tuzilishiga bag‘ishlangan.

Yusuf Xos Hojib koinotning tuzilishi to‘g‘risida bahs etar ekan, ko‘kdagi jismlarni birma-bir sanab o‘tadi. Muhibimi, kitobni o‘qib, butun bir astronomik atamalar tizimiga to‘qnashamiz. Bejiz emas, shu tizimning o‘zi-yoq o‘sha kezda astronomik bilimlar yuqori bosqichda ekanligidan belgi berib turadi. Har bir atama koinot jismlarining ko‘rinishi, holati va harakatidan kelib chiqqan holda yasalgan. Bu hodisani o‘sha kezlardagi soha taraqqiyoti, qadimgi turkiy tilda atama yasash va tanlash prinsiplarining puxta ishlab chiqilgani hamda til an’anasining uzoq asrli takomiliga bog‘laganimiz ma’qul.

Astronomik atamalarning ma’nosini uqib, ularni farqlay bilish matn mag‘zini chaqishga yo‘l ochadi. Avval “Yer yuzi” va “falak” tushunchalari qanday atalgani to‘g‘risida. Muallif “falak”ni *kök*, *ewrän*, ora-chora *falak* deb ataydi. “Yer kurrasi; olam” esa *Yer*, *ažun*, *dunya* yoki *tezginč* atalgan. “Koinot”ni *yer-kök* deydi. Matnda *yer-kök iðisi* degan birikmani ham uchratamiz, bu sifat “*yeru ko‘kning* (koinotning) egasi, *Tangri*”ni bildiradi.

Dostonda falakka *yašil* (“moviy”), yerga esa *yağız* (“*qo‘ng‘ir rang*”) sifati berilgan: *yašil kök, yağız yer*.

Endi ko‘kdagi yulduzlarga ko‘chamiz. Asarda “yulduz” *yulduz* yoki *kavkab*, “yulduzlar turkumi, burj” esa *ew, ökäk, buruj* deyilgan. Yulduzlar ilmi bilan shug‘ullanuvchi olimni *yulduzči* deb ataydi. Yusuf Xos Hojib yulduzchilarga “Yetti qat falakning sirlarini yerda yotgan xaschalik bilib ol” (*Yeti qat falakni yatur yamča tut*) degan talabni qo‘yadi (QB.4277). Buning bilan inson yetti falakning sirinigina bilishi mumkin, degan fikrga tayangan chog‘i (Masalan, to‘qqizinchı falak – Arsh a’lo (*eðiz ‘arş*) sirlarini yechishga qodir emas).

Yulduz va burjlarning otlari turkcha. Yetti yulduz quyidagicha atalgan: Zuhal (Saturn) yulduzini – *Sekäntir*, Mushtariy (Yupiter) yulduzini *Oyay* yoki *Qaraquš*, Mirrix (Mars)ni *Köriud* yoki *Baqırsoquna*, Quyoshni *Yaşıq* yoki *Kün*, Zuhra (Venera) yulduzini *Sewit*, Utoridni *Arzu*, Oyni *Ay* yoki *Yalčiq* deydi. Uning zamondoshi Mahmud Koshg‘ariy o‘zining “Devonu lug‘atit turk” kitobida “Mirrix”ni *Baqırsoqum* deb bergen va uning ko‘rinishi haqida “qizillikda misga o‘xhatiladi” deb yozadi (MK.I.342). Mushtariy yulduzini *Qaraquš* deb ataydi va “Bu tong vaqtida chiqadi. Ba’zan buni *Qaraquš yulduz* deb ham ataydilar” deya qayd etadi (MK.III.240).

“Qutadg‘u bilig”da yulduzlarning holati va o‘rni ham yaxshi berilgan. Ularning ba’zilari yuqori, ba’zisi quyi. Yulduzlar ushbu ketma-ketlikda yetti falakka joylashadi.

Bulardan eng ustda, ya’ni sakkizinchi falakda Sekantir (Zuhal) yuradi. U bir burjda ikki yilu sakkiz oy qoladi. Ikkinchisi – O’ngay (Mushtariy), u bir burjda o’n ikki oy qoladi. Uchinchisi – Ko‘rud (Mirrix), u qay tomon qarasa, yashnab turgan narsa quriydi. To‘rtinchisi – Yashiq (Quyosh), dunyoni yoritadi. Beshinchisi – Sevit (Zuhra). Undan keyin Arzu (Utorid) keladi. Bulardan eng oldin Yalchiq (Oy) yuradi. U Yashiq bilan qarshi kelsa, to‘lishadi. Oy joy va yo‘li birinchi falakda.

“Qutadg‘u bilig”da Yetti qaroqchi yulduz – *Yetikän*, Hulkar esa *Ürkär* atalgan.

O’n ikki burj bulardan boshqadir. Ular turg‘un yulduzlar bo‘lib, joyi sakkizinchi falakda. Alisher Navoiy “Saddi Iskandariy” dostonida Ollohgä hamd o‘qir ekan, “Sakkizinchi gumbazga turg‘un yulduzlarni joylading” deb yozgan edi (SI.13).

Yusuf Xos Hojib Hamalni *Qozī*, Savrni *Ud*, Javzoni *Erändiz*, Saratonni *Qučiq* yoki *Saratan*, Asadni *Arslan*, Sunbulani *Buğdaybaşı*, Mezonni *Ülgü*, Aqrabni *Čadan*, Qavsnı *Ya*, Jadiyni *Oğlaq*, Dalvni *Könäk*, Hutni *Baliq* deb atagan.

Burjlarning ayrimlari ikki xonali (juft), ayrimlari bir xonali (toq).

Yusuf Xos Hojib burjlarning joylashish o‘rni va ketma-ketligini quyidagicha tasvirlaydi: Qo‘zi – ko‘klam burji, so‘ng Ud keladi. Erandiz yulduzi Quchiq bilan yaqindir. Arslon bilan Bug‘doyboshi qo‘schnidir. Ulgu esa Chadan va Yoy bilan eshdir. So‘ng O‘g‘laq, Ko‘nak va Baliq burjlari keladi, bular tug‘sa, osmon yorishadi.

Bularning uchi ko‘klamgi burj, uchi yozgi, uchi kuzgi, uchi qishki burjdir. Yusuf Xos Hojib olamning yaralishiga asos bo‘lgan to‘rt unsurni ana shu burjlarga bog‘laydi. Uning ta’kidlashicha, burjlarning uchtasi o‘t, uchtasi suv, uchtasi yel, uchtasi esa tuproq bo‘ldi. Olam (*azun*) va el shulardan yaraldi. Ularning biri boshqasiga yovdir. Bu o‘rinda: “o‘t – suv”, “el – tuproq” qarama-qarshiliği nazarda tutiladi. Shundan olamning

yaralishidagi ziddiyat qonuni yuzaga chiqadi. Shiorning badiiy talqiniga ko‘ra, Tangri yovga yovni yo‘lladi (davosini qildi) va o‘rtadagi adovatni kesdi. Buning oqibatida qorishmaydigan yovlar o‘zaro yaqinlashdi, ko‘rismaydigan yovlar orasidan o‘ch ko‘tarildi.

Faylasuf to‘rt unsur birligini yer va ko‘kdagi jismlarda ko‘radi. Dostonga kiritilgan maktublarning biridagi hamdda shunday deyilgan:

Yaşil kök törütti, kötürdi eđiz,
Kün, Ay birlä yulduz bezädi beđiz.

Quđisiň yağız yer yaşıl suw bilä,
Örüsü süzüg yel üzä ot bilä.

(Mazmuni: Yashil ko‘kni yaratdi, yuqori ko‘tardi,
Kun, Oy, yulduzlar bilan suratini bezadi.

Quyisi kulrang yer bilan yashil suvdan iborat.

Yuqorisi suzuvchi yel bilan o‘tdan iborat.) (QB.3659–3660).

Yusuf Xos Hojibning ta’kidlashicha, evran [ya’ni, falak] doim evriladi [muttasil aylanadi], tezginch [ya’ni, Yer kurrası] tezginadi [charx urib turadi]. Muallif Allohgä hamd o‘qir ekan, yozadi:

Yarattı, kör, ewrän tuči ewrülür,
Anıň birlä tezginč yemä tezginür.
(Falakni yaratdi, ko‘rgin, doim aylanadi,
Uning bilan charx ham charx uradi.) (QB.122).

Yoki boshqa bir o‘rinda Tangrini alqab, “Doim aylanuvchi bu falakni yaratdi” (*Törütti bu ewrän tuči ewrülür*) deydi shoir (QB.3155).

Buning bilan falakning aylanishi, Yer kurrasining tinimsiz harakatda ekaniga ishora etiladi. Koinot atamalari ham o‘z harakati va holatiga nisbat berib yasalgan: *ewrän* hamda *ewrül-* (aylan-) so‘zleri o‘zakdosh, *tezginč* so‘zi esa *tezgin-* (charx ur-fe’lidan yasalgan.

Shu o'rinda muhim bir masalaga e'tibor qaratsak. Yusuf Xos Hojib Oyni ta'riflar ekan, uning tinimsiz harakatda ekanini alohida ta'kidlaydi. Oyning ta'rifi asar qahramonlari Kuntug'di elig bilan vazir Oyto'ldi suhbatida yaxshi ochib berilgan. Oyto'ldi deydi:

Bu Ay ornii boldi ewi munqalip,
Orunsuz bolur munqalip näj qiliip.
Bu Ay burji Saratan, bu ew ewrülür,
Ewi ewrülür ham özi čewrülür.
Qayu ewkä kirsä, bu Ay terk čiqar,
Čiqari üčün terk batarin yiqrar.
(Bu Oyning o'rni o'zgaruvchan uydır,
U o'zgaruvchan harakat qilib, o'rinsiz bo'lib qoldi.
Oyning burji Saratondır, bu uy doim aylanadı.
Uyi aylanadı, shuning uchun o'zi ham charx uradi.
Qaysi uygı [burjga] kirmasın, bu Oy tez qaytib chiqadi,
Chiqish uyi bo'lgani uchun, botgan uyini tez tark etadi.)

(QB.728–730).

Oyto'ldi, o'z otining ma'nosini izohlar ekan, sifatini Oyga mengzaydi:

Bu Ay tuğsa, aşnu eði az tuğar,
Küningä beðüyür, yuqaru ağar.
Tolun bolsa, tolsa ažunda yayar,
Ažun xalqï andin yaruqluq bulur.
Tügäl bolsa, kör, Ay bu ağsa eðiz,
Yana erlü törçir, ketär körk menjiz.
Yaruqluqï eksür, yana yoq bolur,
Tuğar keçä aðin yana-oq tolur.
(Mazmuni: Oy tug'ilganda, boshlab juda kichik tug'iladi,
So'ng kundan-kun ulg'ayadi, yuqori ko'tariladi.
To'lin bo'lsa, to'lsa, olamni yoritadi,
Olam xalqi undan yorug'liq topadi.
Oy tugal to'lishib, eng baland ko'tarilsa, ko'rgin,
Yana yemirilib, kamaya boradi, yuz chiroyi ketadi.

Yorug‘lig‘i kamayadi, yana yo‘q bo‘ladi.

Qayta tug‘ilgach, keyin yana to‘lishadi.) (QB.716–719).

Yusuf Xos Hojibning ta’rificha, Oy harakatda bo‘lgani uchun yorug‘lig‘i o‘zgarib turadi. “Kun bilan yuzma-yuz kelganda to‘lishadi” (*Yaşıq birlä otru baqışsa, tolır*) deya ta’kidlaydi shoir (QB.133).

Alisher Navoiy “Saddi Iskandariy”da Ollohgaga ham o‘qir ekan, Oyning harakatini shunday ta’riflagan edi:

Yana birni sāz äylädij turfa dayr,
Aniñ sākinin äylädij tez sayr.
Baridin itigräk xirämä anij,
Vale tegmäyin yergä gämä anij.
Manazilga bät-bät qılıp intiqäl,
Atin gah etip Badru gahi Hiläl.

(Yana bir falakdan ajoyib butxona yaratib, uning yashovchisini sargardon qilding. Uning yurishi barcha sayyoralardan shu qadar tezki, uning oyog‘i yerga ham tegmaydi. Manzilini tez-tez o‘zgartirib turadi, otini ham goh Badr [to‘lin], goh Hilol [yangi chiqqan Oy] deb o‘zgartirib turadi) (SI.15).

Yana “Qutadg‘u bilig”ga qaytamiz. E’tiborlisi, asarda ayrim yulduzlar to‘g‘risida so‘z ketganda ular *yurir* (yuradi) deb ta’riflanadi. Buning bilan ularning harakati bildiriladi.

Endi muallifning koinotdagi boshqa bir jism – Kun va uning holati bilan bog‘liq fikrlariga e’tibor qaratamiz. Asar qahramoni Kuntug‘di, o‘z ismining ma’nosini izohlar ekan, sifatini Kunga o‘xshatadi. Shu o‘rinda Kunni ta’riflab, deydi:

Bu Kün burjī Arslan, bu burj tebrämäs,

Ewi tebrämäsä üçün artamas (QB.819).

(Mazmuni: Bu Kun burji Arslon [ya’ni Asad]dir, bu burj tebranmaydi,

Uyi [ya’ni burji] tebranmaydi, shuning uchun o‘zi buzilib kamaymaydi.)

Yusuf Xos Hojibning ta’rifiga ko‘ra, Kun qo‘zg‘almasdir. Kun burji barqaror, turg‘undir. “*Kün burji sabit turur* (Kun burji sobit turur)” deb ta’kidlaydi olim boshqa bir yerda (QB.818). Shuning uchun doim birday yorug‘liq sochib turadi.

Boshqa bir yog‘i, muallifning ushbu fikrlari asosida katta bir masala turibdi. Bu jumboqni shunday tushuntirish mumkin: Falak va Yer doimiy harakatda. Kun markazda turadi, u turg‘undir. Yer esa uning tevaragida aylanadi. Bu fikrlar ulug‘ olimning dunyo va uning tuzilishi to‘g‘risidagi falsafiy qarashlarining asosini tashkil etadi.

Ma’lumki, N. Kopernikning olamning aylanishi to‘g‘risidagi qarashlari yuzaga chiqqunga qadar, butun G‘arb astronomiya ilmi geotsentrik nazariya ta’sirida yashar edi. U “Er emas, Quyosh markazda turadi, Yer esa uning tevaragida aylanadi”, deganida boshda askor ammasi uni qo‘llab-quvvatlamadi. Keyinchalik, ilmiy haqiqat tan olindi va uning qarashlari fanning ulug‘ kashfiyotlari qatoridan o‘rin oldi. Hozirgi zamon astronomiya ilmida bu kashfiyot uning nomi bilan bog‘lanmoqda. Vaholanki, bu fikrni N. Kopernikdan ancha burun ulug‘ mutafakkir Yusuf Xos Hojib aytib turibdi.

ESKI TURK QARASHLARIDA “TOMON” TUSHUNCHASI VA UNING BILAN BOG‘LIQ ATAMALAR

Ko‘k turklarning tasavvur-qarashidagi “tomon” tushunchasi ikki xil – tik (vertikal) va yuza (garizontal) yo‘nalishlarida amal qilgan. Ularning tasavvurida “tomon” olti yog‘dan iborat. “Olti tomon” qadimgi turkiy tilda alti yaraşur deyilgan. Buning asl ma’nosи “olti muvozanat” dir.

Tik yo‘nalish qarama-qarshi ikki tomon va ular oralig‘ini tashkil etadi. Bular üzä (yuqori, ya’ni osmon), asra yoki alt (past, ya’ni yer yuzi) hamda ularning orasi(ara)dan iborat. Qadimgi turklarning olam, yorug‘ dunyo, kishilik tirikligi to‘g‘risidagi o‘y-qarashlari ham ayni chiziqda turadi. Ana shu uch qatli (uch yarusli) olam tushunchasi eski bitiglarda, san’at

va arxitektura yodgorliklarida o‘z izini qoldirgan. Muhimi, yozma yodgorliklarda “tomon” tushunchasi bilan bog‘liq butun bir atamalar tizimi mavjud.

Endi misollarga murojaat qilamiz. Ikkinci ko‘k turk xoqonlig‘i zamonidan qolgan Kul tigin va Bilga xoqon bitiglarida bunga tegishli yaqqol bir misol bor. Bitiglarda xoqon tilidan turklar kechmishi hikoya qilinadi. Uning hikoyasi quyidagi jumlalar bilan boshlangan: Üzä kök täjri, asra yağız yer qılıntuqda ikin ara kisi oğlı qilinmisi. Kisi oğlinta üzä yeçüm-apam Bumün qağan, İstami qağan olurmiš (K.1).

Birinchi jumla payt ergash gapli qo‘shma gap bo‘lib, *Üzä kök täjri, asra yağız yer qılıntuqda* – ergash gap, *İkin ara kisi oğlı qilinmisi* esa bosh gapdir. Ergash gapdagi uyushiq bo‘laklar (üzä kök täjri, asra yağız yer) mazmun jihatdan o‘zaro qarama-qarshi tomon tushunchalarini ifodalaydi. Zid ma’nolar üzä (“yuqorida”) va asra (“pastda”) ravishlari yordamida yuzaga chiqadi. *Täjri* – qadimgi turkiy tilda ikki ma’noda qo‘llanilgan: birinchisi – “ko‘k, osmon”; ikkinchisi – “xudo, tangri”. Keyingisi, harqalay, “osmon” ma’nosidan o‘sib chiqqanligi aniq. Ushbu jumlada u ilkin – “osmon” ma’nosida. Oldidagi kök uning sifatlovchi-aniqlovchisidir: *kök täjri* – “ko‘k osmon”. Jumladagi *yağız* – yerning sifatlovchi-aniqlovchisi: *yağız yer* – qo‘ng‘ir yer. Payt munosabatini bildiruvchi *qılıntuqda* so‘zi “yaralganda” degan ma’noni beradi.

Endi ana shu tartibda bosh gap ma’nosini ochiqlaymiz. Undagi *kisi* – “kishi, inson”. Islom tushunchasida kishilikning yaralishi Odam-otadan boshlanadi, qadimgi turk falsafasida kishilik o‘tmishi Kishi-otadan boshlangan. Kishi – bizning hozirgi tushunchamizdagи Odam-otaga to‘g‘ri keladi. Oğul so‘zi “bola, farzand”ni bildiradi. Chog‘ishtiring: *uri oğul* – “o‘g‘il bola”; *qız oğul* – “qiz bola”. Matnda kelgan *kisi oğlı* – “kishi o‘g‘li, inson farzandi” anglamidadir.

Qadimgi turk tasavvurlaridagi Kishi-otani Apa ham deyilgan. “*Qutadg‘u bilig*”da *apa oğlani, yalınguq oğlani*

degan atamalar qo‘llanilgan, u “inson bolasi, odam bolasi” degan ma’nodadir.

Ikkinchisi gapdagagi *eçüm-apam* juft so‘zi – “ota-bobom”, ya’ni “ajdodim” degan ma’noni beradi. Ushbu juft so‘z tarkibidagi *apa* ham ilkin ma’nosini tashiydi.

Matndagi *Bumün* hamda *İstämi* – Birinchi ko‘k turk xoqonlig‘ining quruvchilaridir; *qağan olurmış* – gapning kesimini bo‘lib, bu birikma “xoqon bo‘lib taxtga o‘tirgan” degan anglamga ega.

Yuqoridagi izohlarga tayangan holda matn ma’nosini hozirgi tilimizga quyidagicha o‘girishimiz mumkin: “Yuqorida ko‘k osmon, pastda qo‘ng‘ir yer yaralganda, ikkisining orasida inson bolasi yaralgan. Kishi o‘g‘illari uza ota-bobom Bumin va Istami xoqon bo‘lib (taxtda) o‘tirganlar”.

Bu ta’birda qadimgi turklarning o‘sha uch qatli olam to‘g‘risidagi tasavvurini anglash qiyin emas: yuqorida – osmon, pastda – Yer, ikkisining o‘rtasida inson va uning hayoti.

Shu o‘rinda muhim bir faktga e’tibor qaratsak. Ma’lumki, qadimgi xitoy falsafasida imperatorlarga “Osmon o‘g‘li” (thien-tsi), osmon bilan yer o‘rtasida yaralgan zotlar deya qaralgan. Ba’zi olimlar qadimgi turklarning falsafiy qarashlari to‘g‘risida fikr yuritar ekan, “tangri”ni anglashda qadimgi turklar xitoy falsafasiga ergashadilar, deb biladilar. Biroq, Kul tigin va Bilga xoqon bitiglaridan olingan yuqoridagi matn bu qarashni tamom inkor etadi. Unga ko‘ra, yuqorida osmon, pastda yer yaralganda ikkisining o‘rtasida kishi o‘g‘illari yaralgan. Kishi o‘g‘illari orasidan tangrining inoyati bilan Bumin va Istami xoqon bo‘lib taxtga chiqqanlar. Ular “Osmon o‘g‘li” emas, balki tangrining inoyati bilan taxtga o‘tirgan xoqonlardir.

Buning dalili uchun Bilga xoqon bitigidan boshqa bir misolni ham keltirishimiz mumkin. Chunonchi, bitigda Bilga xoqonning el-ulusga murojaati berilgan. Murojaat *Täyri-täg*

täŋri yaratmiş türük Bilgä qağan sabım (Ko‘kdek ulug‘ tangri yaratgan turk [ya‘ni jasur] Bilga xoqon so‘zim) unvoni bilan boshlanadi (Xa.13). Ushbu unvonda Bilga xoqon o‘ziga “tangridan bo‘lgan” deb emas, “tangri yaratgan” sifatini qo‘llamoqda.

Yuza yo‘nalishi bo‘yicha “tomon” tushunchasi “qutb”ni anglatadi. Bu Yer yuzining to‘rt tarafı bilan bog‘liq. Eski turklar “to‘rt qutb”ni *tört buluŋ* yoki *tört sari* deb ataganlar. *Tört buluŋ, tört sari* tushunchalari “kenglik, zamin bepoyonligi”ni ham bildirgan. Jumladan, badiiy adabiyotda el qahramonlarining cheksiz yerlarga hukumronlik qilganligi, ularning kuch-qudrati ayni tushunchalar bilan ta’rif etilgan. Masalan, Kul tigin bitigida Bumin va Istami xoqonning el erki yo‘lidagi kurashlari shunday ta’riflanadi: *Tört buluŋ qop yağı ermis, sü sülápän tört buluŋdaqı bodunuğ qop almış, qop baz qilmış* (To‘rt taraf butunlay dushman ekan. Qo‘shin tortib, to‘rt yoqdagi xalqni butunlay olganlar, butunlay bo‘ysundirganlar) (K.2.). Yoki Bilga xoqon bitigida xoqon o‘z qahramonliklarini shunday yodga oladi: *Täŋri yarlıqaduq üçün özüm olurtuquma tört buluŋdaqı bodunuğ etdim* (Tangri yorliqagani uchun o‘zim (xoqon bo‘lib) turganimda to‘rt tarafagi xalqni tartibga soldim) (Xb.9.). “O‘g‘uzxoqon” dostonida Yerniň tört buluŋinuŋ qağanı degan jumla ham uchraydi. Bu jumla “Erning to‘rt tomonining xoqoni, Yer yuzining xoqoni, zamin hukumdori” degan ma’noni anglatadi. Asarda O‘g‘uzxoqon ana shunday sifatlar bilan ulug‘langan.

Qadimgi turklar tasavvurida tevarak-atrof, olam qutblari tushunchasi kishining kunchiqarga qarab turgan holati bilan bog‘liq yuzaga kelgan. Eski turklar ko‘k-tangriga kunchiqarga yuz tutgan holatda ibodat qilganlar. Ayni holatda tevarak, qarama-qarshi tomonlarni anglatuvchi to‘rt jihat yuzaga kelgan: “old” – “orqa”, “o‘ng” – “so‘l”. Qadimgi turkiy tilda “old” tushunchasi – *il* yoki *oŋ*, “orqa” – *quri*, “o‘ng” – *bir* yoki *oŋ*, “so‘l” esa *yür* yoki *čoŋ* deyilgan.

Yer yuzining to‘rt qutbi (*tört buluj*) ham shu so‘zlarga jo‘nalish kelishigi qo‘sishmchasini qo‘sish bilan atalgan. Bu so‘z qutbning o‘sha tomoniga bo‘lgan yo‘nalishni anglatadi: *İlgäriü* – oldinga (~Sharqqa), *Birgäriü* – O‘ngga (~Janubga), *Quriğaru* yoki *Kirü* – orqaga (~G‘arbgä), *Yırğaru* – so‘lga (~Shimolga). Masalan, Kul tigin yodgorligida Bilga xoqon tilidan xoqonliq tarixi hikoya qilinar ekan, qutb nomlari ham tilga olinadi: *İlgäriü Şantuj yazıqa tegi sülädim, taluyqa kiçig tegmädim. Birgäriü Toquz ärsänkä tegi sülädim, Tüpütkä kiçig tegmädim. Quriğaru Yincü özgür keçä Temir qapiğqa tegi sülädim. Yırğaru Yer Bayırqu yeringä tegi sülädim.* – Sharqqa – Shantung dashtiga qadar qo‘sishin tortdim, dengizga bir oz yetmadim. Janubga – To‘qiz arsanga qadar qo‘sishin tortdim, Tuputga bir oz yetmadim. G‘arbgä – Yinchu o‘guz(Sirdaryo)ni kechib, Temir qopiqqa qadar qo‘sishin tortdim. Shimolga – Yer Bayirqu yerigacha qo‘sishin tortdim (Ka.3–4).

Janub *oy janyaq* (~*oy yaq*) [ya’ni, o‘ng tomon], Shimol *čoŋ janyaq* (~*čoŋ jaq*) [ya’ni, so‘l tomon] deb ham yuritilgan.

Eski turklar qutbni quyoshning ko‘rinuvi (chiqishi va botishi, kecha-kunduz almashinuvi) bilan ham bog‘liq holda tasavvur etganlar. Jumladan, quyoshning chiqishi bilan bog‘liq ravishda yuzaga kelgan *Küntoğsiq* (Kunchiqar) tushunchasi – Sharqni, Quyoshning botish yeri bilan aloqador *Künbatsiç* (Kunbotar) esa G‘arbni bildirgan. Hozirgi o‘zbek tilida buning o‘rnida “kunchiqar” va “kunbotar” so‘zları qo‘llanadi.

Kün ortusi – tub ma’nosida “choshgoh, tush, peshin”ni, qutbga nisbatan Janubni, *Tün ortusi* – tub ma’nosida “qoq tun, yarim tun”ni, qutbga nisbatan Shimolni bildiradi. “Janub”ni *Kündünki* ham deyilgan: *Kündünki buluj* – Janub tomon.

“O‘g‘uzxoqon” dostonida qarama-qarshi qutblarni anglatuvchi *Kün toğushi* va *Kün batuši* atamalari qo‘llangan. Ushbu atamalardagi *toğushi* va *batuši* Quyoshning Sharqdan chiqishi va G‘arbgä botish holatini ifoda etmoqda. Shunga ko‘ra, *Kün toğushi* – “Sharq”, *Kün batuši* – “G‘arb”ni bildiradi.

Bu ikki atama qarama-qarshi ikki qutbni bildiruvchi *Küntoğsiq* va *Künbatsiq* qa tengdir.

“Qutadg‘u bilig”da kunning chiqishi bilan bog‘liq holda Sharqni *Tuğar*, G‘arbni esa kun botishi bilan bog‘liq ravishda *Batar* deyilgan.

Manbalarda vaqtini bildiruvchi *Taṣ*, *tün* so‘zlarini ham qutblarni ifoda etgan: *Taṣ sari* – Sharqqa, *Tün yanyaq* – Shimol tomon, *Tün sari* – Shimolga.

Ayrim koinot jismlarining harakat va holati qadim tasavvurlarda inson hayotini belgilovchi deb tushunilgan va ularga hurmat bilan qaralgan. Bunga “Qutadg‘u bilig”da asar qahramonlarining oti *Aytoldi* va *Küntuğdi* atalganini ham dalil keltirish mumkin: *Aytoldi* – “to‘lgan oy”, *Küntuğdi* – “quyosh chiqdi” degan ma’noda.

Quzuluš, *Quzordu* taponimlari tarkibidagi *quz* “kunga ters”, “kun botar” ma’nolarini bildiradi. *Quzuluš*, *Quzordu* – “kun botardagi shahar” degani. Hozirgi *quzgay*, *küngäy* degan so‘zlarimizning tub angłami ham “tomon” tushunchasi bilan bog‘likdir.

Mahmud Koshg‘ariy o‘zining “Devonu lug‘atit turk” asarida Yer yuzi xaritasini keltirgan va unda ham qutblar qayd etilgan. Biroq, ushbu xarita arab tilida bo‘lgani uchun qutblarning nomi ham arabchada. Chunonchi, ushbu xaritada doiraning to‘rt yog‘iga qutb nomlari yozib qo‘yilibdi: uning yuqori tomoni – Sharq (aš-Šarq), quyi tomoni – G‘arb (al-Ğarb), o‘ng tomoni – Janub (al-Janub), chap tomoni – Shimol (aš-Simāl).

Muhimi, ushbu xaritaning tuzilishida olam qutblari, tomonlar haqidagi qadimiy tushunchalar o‘z ifodasini topgan. Chunonchi, Mahmud Koshg‘ariy Yer yuzi xaritasini keltirar ekan, yuqori tomonda hozirgi xaritalardagi singari Shimolni emas, Sharqni ko‘rsatgan.

Qadimgi turklarda ranglar ham tomonni ifodalashga xizmat qilgan. Masalan, oq rang – G‘arbni, ko‘k rang – Sharqni, qora

rang – Shimolni, qizil rang – Janubni bildiradi. “Oq xunlar” deganda g‘arbiy o‘lkalardagi qanqa va kushonlar nazarda tutiladi. “Ko‘k turklar” deyilganda sharqiy turklar tushunilishi ham, ehtimol, shundandir.

Oltin O‘rda davlati ikkiga bo‘lingan edi: Oq o‘rda – g‘arbiy o‘lkalar, Ko‘k o‘rda – sharqiy davlat, uni Abulxayrxon qurgan.

Amir Temurning Shahrisabzda qurdirgan qarorgohi Oqsaroy, Samarqanddagagi qarorgohi esa Ko‘ksaroy deb atalgan edi. Ularning birinchisi g‘arbda, ikkinchisi esa sharqda joylashgani uchun shunday atalgan.

Demak, bitiglarda qo‘llangan “tomon” tushunchasi bilan bog‘liq atamalar tizimi qadimgi turklarning olam va uning tuzilishi to‘g‘risidagi qarashlari, ularning borliqqa munosabatini, falsafiy qarashlarini o‘rganishda eng ishonchli va kerakli manba bo‘lib xizmat qiladi.

“VAQT” TUSHUNCHASI BILAN BOG‘LIQ ATAMALAR

Qadimgi turkiy tilda “zamon, davr, vaqt” ma’nosida *öd*, “vaqt, fursat, chog” ma’nosida *tuš* so‘zi ishlatalgan.

Qadimgi turklar o‘tgan zomonni *oza~uza*, *ertä* degan. O‘scha zamonga oidlik *ozaqii~uzaqii*, *ertäki* deyilgan. Masalan: bu bir söz ozaqii urulmiš masal. – Bu bir so‘z burungi aytilgan maqol (AH.164). Hazirgi *uzaq* so‘zimizda ham shu ma’no saqlanib qolgan. Yoki: *ozayil* – “uzoq yil, o‘tgandan avvalgi yil” degani.

Kelasi zamon *kedinki* deyilgan. Buning o‘zagi *ket* ga bog‘lanadi: *ket~ked~keð>ketin~kedin~keðin>ketin~kedin~keðin*.

Ko‘k turklarda Yerning aylanishi, vaqt o‘tishi, tabiat o‘zgarishi bilan bog‘liq holda yil, oy kunlar farqlangan.

“Vaqt” tushunchasi mantiqiy va lingvistik jihatdan voqeahodisaning kechgan zamoni hamda vaqt o‘lchovlarini bildiradi. Voqeahodisaning kechgan zamoni, odatda, fe’llarda aks etadi. Fe’llarning zamon kategoriyasida harakat vaqt, uning

so‘zlanayotgan paytga nisbatan uch zamonda (o‘tgan, hozirgi va kelasi zamonda) ekanligi anglashilib turadi. Fe’llar masdar shaklidagina zamonni bildirmaydi.

Gapdag'i fe'lidan voqeа-hodisaning zamonи anglashilib turadi. Harakat zamonsiz bo‘lmaydi. Biroq, so‘zlovchi nutqidan harakat zamonining aniq bir muddati anglashilmасligi mumkin. Bunday hollarda nutqda payt ravishlaridan foydalaniladi. Payt ravishlari voqeа-hodisaning kechgan zamoniga aniqlik kiritadi. Masalan, *keldi* deyilganda birovning o‘tgan zamonda kelganligi tushuniladi. Agar *keča keldi* deyilsa, harakatning kechgan zamonи aniqlashadi: bugun vayo o‘tgan kuni emas, aynan kecha kelgani anglashiladi.

Vaqt aniqligini fe'lning turli shakllari bilan ham ifoda etish mumkin. Masalan, *kelgän edi* deyilganda o‘sha kimsaning “bir zamonlar kelganligini” tushunamiz. Tilshunoslikda, bunday fe'l shaklini “uzoq o‘tgan zamon” deyiladi. Uchta zamonning ichki bo‘linishlari shuning singari yo‘llar bilan hosil qilinadi.

“Vaqt o‘lchovlari” deyilganda aniq vaqt birligini, davriylikni tushunamiz. Vaqt o‘lchovi ana shu davriylikning atamasidir. Tilda ushbu vazifani otlar bajaradi.

Vaqt o‘lchovining aniqligini ifodalashda sonlardan foydalaniladi. Masalan, “oy” deganda “o‘ttiz kunlik muddat”ni tushunamiz. Agar “bir oy” yoki “ikki oy” deyilsa, vaqtning aniq bir muddati anglashiladi. Vaqtning aniqligini ifodalashda istalgan dona sondan foydalanish mumkin. Biroq bu masalada kasr sonlarning vazifasi cheklangan. Masalan, “yarim” sonini olaylik, uni asr, yil, oy, kun, soatga, hatto daqiqaga nisbatan ham qo‘llashimiz mumkin. “Yarim” deganda, odatda, o‘sha vaqt birligining teng yarmi tushuniladi. Endi “chorak”ni hamma vaqt birligiga nisbatan qo‘llay olmaymiz. Masalan, “chorak asr” deymiz. “Yilning choragi” deyilganda “yilning to‘rtadan biri – uch oy”, qadimgi turk tasavvurlarida “fasl” tushuniladi. Shuningdek, “chorak soat” deyishimiz mumkin, biroq “chorak oy”, “chorak kun” tushunchasi yo‘q.

Ba’zan ko’rsatish olmoshlari, sifatdoshlar ham vaqt aniqligini ifodalashga xizmat qilishi mumkin. Masalan, “o’sha yil”, “o’tgan oy”, “kelasi yil” deganimizda aniq bir muddat anglashiladi. Bu hodisalarining bari qadimgi turkiy tilga ham xos.

Vaqt o’lchovlarining darajalari bor. Qadimgi turklarda eng katta vaqt o’lchovi “asr”dir. Undan quyi daraja – “yil”. Bularidan keyin “fasl”, “oy”, “kun” va shu tartibda maydalashib boradi.

Qadimgi turklarda “asr” va “o’n asr” tushunchalari. Turkiy yozma manbalarda “asr”ni *yüz yıl* deydi. Yozma manbalarda *mij yil* (~*bij yil*) atamasi ham tez-tez uchrab turadi, bu “o’n asr”ni bildiradi. *Yil* so‘zining oldiga qo’shilayotgan *mij* soni boshlab uning aniqligini, tayin bir o’lchovini ifoda etgan. Qadimgi turkiy tilda *mij yil* (~*bij yil*) vaqt o’lchovining eng katta birligi bo’lgani bois, badiiy matnlarda “uzoq yillar, asrlar, nihoyatda uzoq vaqt” tushunchasini ham bergen. Masalan, bitiglarda *bij yilliq, tümän künlik* degan birikma uchrab turadi. Ushbu birikma “ko’p asrli, nihoyatda eski” degan ma’noni bildiradi. Misol uchun, uyg’ur xoqonlig’ining asoschisi Mo’yun-cho’rga atab tiklangan yodgorlikda uning tilidan shunday bitilgan: *Bij yilliq, tümän künlik bitigimin belgumin anta yasi taşqa yaratitdim.* – Ming yillik, tuman kunlik bitigimni-tuzugimni o’sha yerda yassi toshga yozdirdim (MČ.21)

Hozirgi o’zbek tilida ham, ayniqsa, so‘zlashuvda “ming yil”, “yuz yil” deyilganda “juda uzoq vaqt” anglashilishi mumkin.

Qadimgi turklarda yil hisobi. Qadimgi turklarda bir yil o’n ikki oydan iborat.

Qadimgi turklarda yangi yil *yaz* (ya’ni ko’klam)ning birinchi kunidan boshlangan. Eski hisobda ko’klamning birinchi kuni navruzga emas, hozirgi martning birinchi o’n kunliklariga, ya’ni yangi Oy chiqqan kunlarga to‘g’ri keladi.

Eski sana bo'yicha shu kundan eski oy tugab, yangisi boshlanadi. Yilning boshi ham shu kunlarga to'g'ri keladi. Bu kunni qadimgi turklar *yıl başı* degan. Bu so'z hozirgi "yangi yıl"dir.

Eskida yillar muchal hisobi bilan yuritilgan. Ular o'n ikki hayvon nomini o'n ikki yilga ot qo'yanlar. Muchal tizimi o'n ikki oy va o'n ikki burjga asoslanib belgilangan edi. Tug'ilish, janglar va boshqa tarixiy voqealarni ana shu hisob asosida yuritganlar.

Mahmud Koshg'ariy o'zining "Devonu lug'atit turk" asarida o'n ikki muchal otini tartib bilan keltirgan (MK.I.331–332). Ko'k turk bitiglarida, turfondan topilgan uyg'ur yozuvli matnlarda yoki keyingi davrlarda yaratilgan turkiy yodgorliklarda qo'llangan ayrim yil otlari Mahmud Koshg'ariy qo'llagan otlardan farq qiladi. Ular fonetik jihatdan o'zgargan, uning boshqa bir sinonimi bilan atalgan yoki o'zga tillardan o'zlashgan bo'ladi. Turkiy yozma yodgorliklarda qo'llangan yil otlari quyidagicha:

MK da: *Sicğan yılı* – sichqon yili. Ko'k turk bitiglarida: *Küskü* – sichqon.

MK da: *Ud yılı* – sigir yili.

MK da: *Bars yılı* – bars yili.

MK da: *Tawışğan yılı* – quyon yili. Berlin fondidagi U 5314 raqamli hujjatda: *Tawşan yıl*.

MK da: *Nek yılı* – timsoh yili. Ko'k turk bitiglarida: *Loo~luu* – ajdar yili.

MK da: *Yılan yılı* – ilon yili.

MK da: *Yund yılı* – ot yili. Ko'k turk bitiglarida: *Yont~yund* – ot.

MK da: *Qoy yılı* – qo'y yili. Kul tigin bitigida: *qoñ yıl* (K.III). Berlin fondidagi U 5254 raqamli hujjatda: *Qoyn yıl*.

MK da: *Biçin yılı* – maymun yili.

MK da: *Taqaqı yılı* – tovuq yili. Berlin fondidagi U 5238 raqamli hujjatda: *Taqiğu yıl*.

MK da: *İt yili* – it yili.

MK da: *Tojuz yili* – to‘ng‘iz yili. Ko‘k turk bitiglarida: *Lağzün, tojuz* – to‘ng‘iz.

Turkiy tillarda *yaş* so‘zi ham vaqt bilan bog‘liq. *yaş* – kishi umrining bir yillik bo‘lagidir. Shuning uchun qadimgi turkiy tilda “*yasha*” fe‘lining o‘rnida *yilla-* so‘zi ham ishlatilgan.

Hozirgi o‘zbekchadagi “*yosh*”ni anglatuvchi *yaşar* asli *yaşayur* dan; u “shuncha yil yashaganlik”ni bildiradi. Kul tigin bitigida sarkarda Kul tiginning faoliyati xotirlanar ekan, Bilga xoqon tilidan *otuz yaşayur erti* yoki *bir qırq yaşayur erti* deb qayd etilgan (K.42). Bu “o‘ttiz yashar edi”, “o‘ttiz bir yashar edi” degan ma’noni beradi.

Hozirgi o‘zbek tilida *qırq yaşar, ellik yaşar* deb ishlatamiz, bu o‘sha *yaşayur* ning o‘zgargan ko‘rinishidir. Yoki buning o‘rnida *čiqdī, kirdi* so‘zlari ham qo‘llanila oladi: *qırqqa čiqdī – qırqqa kirdi; ellikkä čiqdī – ellikkä kirdi*.

Bitiglarda *yaş* so‘zi o‘rin-payt kelishigi qo‘srimchasi bilan qo‘llanilib, vaqt aniqligini ifodalaydi. Masalan: *yeti yigirmi yaşıma* – o‘n yetti yoshimda (X.24); *otuz artuqi bir yaşıma* – o‘ttiz bir yoshimda (X.29). Qiyoslang, hozirgi o‘zbek tilida: *yaşı qırqda, yaşı ellikdä*.

Qadimgi turklarda fasl. Bir yil to‘rt faslga ajraladi. Bular: *yaz* – ko‘klam, *yay* – yoz, *küz* – kuz, *qiš* – qish. Bulardan *yaz* so‘zi hozir iste’moldan chiqqan, o‘rnida “ko‘klam”, “bahor” so‘zlarini ishlatamiz. “*Yoz*”ni bildiruvchi *yay* so‘zida tovush o‘zgarishi yuz berib, *yay* ga aylangan. Shunga qaramay, ularning qoldiqlari ayrim so‘zlarimizda uchrab turadi. Masalan, bolalar qo‘sing‘ida kechgan *Läyläk keldi, yaz boldi* jumlasidagi *yaz* so‘zi “ko‘klam, bahor”ni bildiradi. Yoki hozirgi *yaylaw* so‘zining o‘zagi *yay* (yoz) bilan bog‘liq: *yay+la+ğ/w* – “*yaylov, yozni o‘tkazadigan, yozlaydigan joy*”. Qiyoslang: *qišla+q* – “*qishloq, qishni o‘tkazadigan, qishlaydigan joy*”. Hozir biz qo‘llayotgan *yaylaw, qišlaq* so‘zlari tarixan qishda qishloqlarga ko‘chib kelib, yozda esa yaylovga chiqib kun

kechiruvchi chorvachilar hayoti bilan bog‘liq holda yuzaga kelgan.

Qadimgi turk taqvimiga ko‘ra yil yaz (ya’ni ko‘klam) bilan boshlanib, mavsum *qiš* bilan tugaydi.

Shunisi borki, turklar tasavvurida yilning to‘rtala fasli bir-biriga teng emas. Fasl – tabiatning bir yildagi mavsumiy o‘zgarishidir. Havoning o‘zgarishiga qarab, fasllar surilib ham turadi. Bundan tashqari, Yer yuzining turli nuqtasida fasllar almashinushi har xil. Masalan, Oltoy o‘lkalarida yozga qaraganda qish uzoq davom etadi. Boshqa turk o‘lkalarida esa buning aksi. Fasllarning mavsumiy hodisa ekanligi xalq tafakkurida yaxshi aks etgan. Kuzda kunlar erta sovib, qor tushsa, “bu yil qish erta keldi”, deb qo‘yamiz. Yoki ko‘klamda sovuqning zahri ko‘tarilavermasa, “qish cho‘zilib ketdi” deymiz. Demak, qish ham o‘sha yili shunchalik uzoq davom etgan bo‘ladi.

Chamasi, kishilikning ilk tasavvurlarida boshlab “qish” bilan “yoz” tushunchasi shakllangan. Biridan ikkinchisiga o‘tuvchi – oraliq fasllar tushunchasi keyin qo‘shilgan bo‘lishi kerak. Shuning singari, ilk tasavvurlarda “kun” bilan “tun” tushunchasi shakllangan. Ularni bog‘lab turuvchi, biridan ikkinchisiga o‘tuvchi vaqt birliklari haqidagi tasavvurlar esa keyinchalik yuzaga kelgan ko‘rinadi.

Qadimgi turklarda oy. Turkiy tillarda *ay* so‘zining ikki ma’nosi bor: “koinot jismi” va “vaqt birligi”. Harqalay, u ilkin ma’nosida “koinot jismi”ni bildirgan. Keyingi ma’nosi uning davriy aylanishi (o‘ttiz kunligi) asosida kelib chiqqan. Boshqa tillarda bunday emas (masalan, ingliz va rus tillarini qiyoslang). Bu ham bo‘lsa, qadimgi turklar tasavvurida vaqt tushunchalari astronomik tasavvurlar bilan uyg‘un holda yuzaga chiqqanligidan dalolat beradi. *Kün* so‘zi ham shunday: uning ilkin ma’nosi – “Kun(Quyosh)”, vaqt ma’nosi esa undan urchigan.

Yil o'n ikki oyga bo'linadi. Eski turklarda yil ko'klamdan boshlangani uchun yilning birinchi oyi ko'klamning birinchi oyiga teng keladi.

Yangi oy Oyning chiqqan kunidan boshlanadi. To'lgan Oyni *tolun* yoki *tolun ay* deydi. *Tolun* ning lug'aviy ma'nosи "to'liq, to'lishgan"dir. Turklarda *Aytoldi* degan ot ham bo'lgan, ma'ni si "to'lgan oy" degani.

Qadimda oylarga ot qo'yilmagan, ular o'z tartibi bilan aytilgan: *birinč ay, ikincı ay, üçüncü ay* singari. Keyinchalik, turklar buddizm, moniylikni qabul qilganlaridan keyin ularga nom qo'ydilar, to'g'rirog'i, bu nomlar qo'shni tillardan o'zlasha boshladgi.

Qadimgi uyg'ur taqvimda uchraydigan oy otlari:

aram ay // ram ay [*<sug'd. r'm*] – qadimgi uyg'ur taqvimining birinchi oyi

č(a)xš(a)p(a)t ay [*<skr. siksapada*] – ro'za oyi, taqvimning o'n ikkinchi oyidir.

Islom davridan turklar arab taqvimini qo'llay boshladilar va oylar ham arabcha atala boshladgi. Masalan: *zulqada ayi, rajap ay, muharram ay* singari.

Qadimda xalq ichida chorvachilik va dehqonchilik bog'liq holda yuzaga kelgan oy otlari ham qo'llanilgan. Bu xususda Mahmud Koshg'ariy shunday yozadi: "(Turklarda) oy ismlari ham shaharlarda arabcha yuritiladi. Ko'chmanchi va musulmon bo'lmagan turklar oylarni to'rt fasl bilan ataydilar. Har uch oyni bir ism bilan yuritadilar. Yil o'tishini shunday biladilar. Masalan: navro'zdan keyingi avval bahorga *oğlaq ay*, so'ngra *ulug oğlaq ay* derlar. Chunki oy bu vaqtida katta bo'lib qoladi. Bundan keyingisiga *ulug ay* deyiladi. Chunki bu yozning o'rtaida bo'lib, bu vaqtida sut va yer ne'matlari mo'l-ko'l bo'ladi" (MK.I.332).

O'zbek tilida chorvachilik yoki dehqonchilik bilan bog'liq holda yuzaga kelgan atamalar hozir ham uchrab turadi. Masalan, xalq tilida *qırqım ayi* deydi, bu qishdan chiqib,

qo‘ylarning junini oladigan paytga to‘g‘ri keladi. *orağ ayī* – bug‘doy o‘radigan vaqt, yoz chillasiga to‘g‘ri keladi. Yoki xalq tilida *Beş doğalda beşikdägi bala sawqatmas* degan gap bor. Bunda *beş doğal* deganda kunlar iliy boshlagan payt nazarda tutiladi.

Hozirgi turk tilida oylar shunday ataladi: *ocaq* – yanvar, *şubat* – fevral, *mart* – mart, *nisan* – aprel, *mayıs* – may, *haziran* – iyun, *temmuz* – iyul, *ağustos* – avgust, *eylül* – sentyabr, *ekim* – oktyabr, *qasım* – noyabr, *aralıq* – dekabr.

Qozoq tilida o‘n ikki oy otlari shunday: *qayıtar* – yanvar, *aqpan* – fevral, *naurız* – mart, *säuir* – aprel, *mamır* – may, *mausüm* – iyun, *şilde* – iyul, *tamız* – avgust, *qırkıiyek* – sentyabr, *qazan* – oktyabr, *qaraşa* – noyabr, *jeltoqsan* – dekabr.

O‘zbek shevalarida ham bu nomlarning ayrimlari qo‘llaniladi. Masalan, xalq og‘zida *qayıtar*, *aqpan* nomlari uchrab turadi. *Qantar ağdi* deydi, u “qora sovuq o‘tgan, qorning zahri ozaygandan keyingi muddat”ni bildiradi.

O‘zbeklarda yozning ayni qizigan payti, qishning qahraton pallasini *čillä* deyiladi. *Čillä* oy bilan teng emas, *čillä* deganda issiq yoki sovuq avjiga chiqqan “qirq kunlik” tushuniladi: *yaz čilläsi*, *qiş čilläsi*. Chilla boshlangan paytni – *čillä kirdi*, tugagan paytni esa *čillä čiqli* deyiladi.

Ko‘klam yoki kuzga nisbatan chilla qo‘llanilmaydi. Sababi, chillada, odatda, ob-havo bir maromda kechadi. Ko‘klam bilan kuz oraliq fasllar: ko‘klamning boshlanishida kun sovuq bo‘lsa, oxirlaganda isib ketadi yoki kuzda buning aksi.

Hafta tushunchasi. Ko‘k turklarda hafta tushunchasi yo‘q. Bu xususda Mahmud Koshg‘ariy yozadi: “Turklarda haftadagi yetti kunning ismi yo‘q, chunki hafta islomdan so‘ng shuhratlandi” (MK.I.332).

Qadim tasavvurlarda kun (kecha-kunduz). Qadimgi turklarda kecha-kunduz quyoshning harakati, kun bilan tunning almashinuviga qarab o‘lchanadi. *Keçä-kündüz* deganimizning

o‘zida bir kunning to‘liq yigirma to‘rt soati, Yerning o‘z o‘qi tevaragida to‘liq aylanib chiqish vaqtı tushuniladi. Kecha-kunduz boshlab ikkiga bo‘linadi: *kün – tün*.

Kün ning ikki xil ma’nosı bor: “Kun, Quyosh” hamda “kecha-kunduzning kunduzgi bo‘lagi”. Uning ikkinchi ma’nosı asli “Quyosh” ma’nosidan urchigan. Kecha-kunduzning kunduzgi bo‘lagini *kün* deyishimizning boisi, Kunning yorug‘liq sochib turishi, kunning yorishishiga nisbatan olingan. Demak, qadimgi turk astronomik o‘lchoviga ko‘ra kun hozirigiday yarim tundan (soat 24 dan o‘tib) boshlanmaydi. Yangi kun quyoshning ko‘tarilishidan, kunning yorishishidan boshlanadi.

Kunni qadimgi turkiy tilda *kündüz / küntüz* ham deyiladi. Bu ham *kün* (kun, yorig‘liq) so‘zidan yasalgan. Solishtiring: *yulduz* – “yorig‘liq sochuvchi” degani. *Tün* so‘zining sinonimi *kečä* bo‘ladi.

Ma’lumki, kecha bilan kunduz bir-biriga teng kelavermaydi. Qishda tun uzun bo‘lsa, ko‘klamdan boshlab kunlar uzaya boradi. Shunga qarab vaqt ham surilib turadi. Masalan, yozda tong ertaroq otsa, kun kechroq qorayadi yo aksincha.

Kun bilan tun ko‘klamda, mart oyining 21 kuniga, navruzning birinchi kuni, kuzda esa sentyabr oyining 21 kuni tenglashadi. Kunning eng uzuni iyun oyining 21 kuni, tunning eng uzun vaqtı dekabr oyining 21 kuniga to‘g‘ri keladi.

Kun kecha va kunduzning uzun yo qisqaligi bilan emas, Yerning o‘z o‘qi tevaragida to‘liq aylanib chiqishi bilan o‘lchanadi. Kecha-kunduz aylanasida, tik yo‘nalishda oladigan bo‘lsak, faqat tush bilan qoq tun o‘zaro qarama-qarshi nuqtada turadi, ular o‘zgarmas. Kecha-kunduzning qolgan bo‘laklari (kun va tun, tong va oqshom) bir-biriga qarama-qarshi vaqt nuqtasida turishi oz kutiladi. Chunki ular surilib turadi. Shu hodisa qadimgi turklarning ko‘zqarashida, falsafiy tushunchasida yaxshi aks etgan.

Kün / kündüz bilan *tün / kečä* ning ikkalasining ham teng yarmidan ikkiga ajratuvchi vaqt birliklari bor: *tüš* – kunning qoq o‘rtasi, choshgoh; *qaq tün* – tunning o‘rtasi. Qolgan vaqt birliklari ana shu aylanada harakat qiladi: *taj* – tunning oxiri, kunning boshlanishi, *aqşam* – kunning oxiri, tunning boshlanishi.

Kunning vaqt birligi sifatida *ertä*, *keč* so‘zлari ham qo‘llaniladi. Bular aslida, kunduzning vaqtini emas, zamonni bildirgan. Kunning vaqtisi sifatidagi ma’nosи ana shuning asosida yuzaga kelgan. *Ertä* so‘zining ilk lug‘aviy ma’nosи “bo‘lib o‘tgan, burungi” degani, *ertäk* so‘zi ham shundan. Yoki *ertäki* deydi, bu “o‘tgan zamonga oid, burungi, ilk” degani. *Ertä* so‘zi kunning vaqt birligi sifatida “tong”ni bildiradi. Muhimi shundaki, so‘zning har ikkala ma’nosи tilimizda yonma-yon qo‘llaniladi: *ertä taj* deganda “tongning boshlanishi” yoki *ertä keldi* deganda “vaqtning boshlanish paytida, hatto undan ham ilgariroq keldi” deb tushuniladi.

Hozirgi o‘zbek tilidagi *ertäläb* so‘zi ham shundan yasalgan (<*ertä-lä-b*): “erta bilan” degan ma’noni bildiradi.

Keč so‘zining ham ilk ma’nosи “kechgan, bo‘lib o‘tgan” degani. *Kečki söz* deydi, bu “burungi so‘z, qadimgi masal, hikmat” degani. Bu so‘z kunning vaqt birligi sifatida “kechib o‘tilgan, tugagan” ma’nosini bildiradi. Hozirgi o‘zbek tilida u “kunning kechki pallasi”, “zamonning oxiri” ma’nosida ham yonma-yon qo‘llanilaveradi: *keč keldi* deganda “muddati tugash chog‘ida, hatto muddatidan keyin keldi” deb tushuniladi.

Kečqurun so‘zi ham shundan yasalgan: *keč-qur-un*. *Qur* so‘zida “qorong‘i” ma’nosи bor, *-un* – tarixan vosita kelishigi.

Hozirgi turk tilida kecha-kunduz bilan bog‘liq vaqtlar shunday ataladi: *imsaq* – sahar, bomdod vaqt, *güneş* – kun chiqishi, *ögle* – tush payti, *ikindi* – kunning ikkinchi yarmi, tush bilan kechki payt oralig‘idagi vaqt, nomozga nisbatan kunning ikkinchi yarmida o‘qiladigan asr nomozi vaqt, *aqşam*

– oqshom, shom, *yatsi* – yotar payt, *gecä* – kecha, *gecä yarisi* – yarim tun.

O'ZBEK TILIDAGI QARINDOSH-URUG' OTLARI VA ULARNING ILDIZLARI

Hozirgi o'zbek tilida *tug'ishganlar*, bir uruqqa tegishli kishilar *qarindaš*, *uruğ* deyiladi. *Qarindaš* – “bir qorindan *tug'ilgan*”, *uruğ* – “bir urug‘dan taragan, urug‘dosh” degani.

Qarindosh-urug‘chilik oila munosabatlarining, turmush qurish va er-xotinlikning yuzaga kelishi bilan boshlanadi.

Turkiy tillarda, xususan, o'zbek tilida qarindosh-urug‘chilikka kiruvchi atamalar tizimi o'ta takomillashganligi bilan ajralib turadi. E'tiborlisi shundaki, ushbu tizimni tashkil etuvchi atamalarning asosiy qismi sof turkcha.

Yangi *tug'ilgan* bolani *čaqalaq* deyiladi. *Čaqalaq* so'zidagi *čaqa* – “mayda, kichik” ma’nosini beradi, *-laq* – kichraytirish, erkalash qo’shimchasi. Farzandni *bala* deyiladi: *qız bala* – “qız farzand”, *oğil (<oğul) bala* – “o‘g‘il farzand”. *Bala* so'zining “o‘g‘il” ma’nosi ham bor. Bola voyaga, balog‘at yoshiga yetib, o’smirga aylanadi. Bu yoshdagи shaxsni *ospürin* ham deyiladi. Voyaga yetganlik belgisi – *boy*. Bu so'z hali turmush qurmagan yigit yo qizni bildiradi. Qiz bolani *boy qızı*, yigitni esa *boydaq* deydi. *Boyı yetkän qızı bar* deganda, “qizning voyaga yetganligi” tushuniladi. Yoki *boyida boldi*, *boyida bar* deymiz. Endi bu “ikki qat bo‘ldi; homilador” degan ma’noni anglatadi. “Boshi ochiq o’smir”, “voyaga yetganlik” yoki “homiladorlik” anglamlaridagi *boy* so'zining tubi “urug‘; erlik yo xotinlik suvi” ma’nosiga taqaladi. Masalan, *boyı yetkän* deganda “urug‘i yetilgan” ma’nosi bor. Chunki insonda voyaga yetish o’shaning bilan o‘lchanadi. Keyingi so'zlarning asl ma’nosi ham o’shandan.

Eski o'zbek tilida *boy* so'zi “urug” ma’nosida qo’llanilgan. Buni Zahiriddin Bobur ham ishlatgan (qadimgi turkiy tildagi ko‘rinishi – *bod*). *Boy* so'zini hozirgi turklar ham “urug‘, kelib

chiqishi bir bo‘lgan jamoa” ma’nosida qo‘llamoqda. Bu so‘z “kelib chiqishi bir; bir urug‘dan chiqqan jamoa” ma’nosini beradi. So‘zning ushbu ma’nosi ham yuqorida biz qayd etgan ma’nosidan urchigan. O‘zbek tilida burungi *boy* so‘zining o‘rnida *urug* so‘zini ishlatalamiz. *Urug* so‘zining ham ma’no taraqqiyoti *boy* so‘zi singari kechgan: boshlab “erlik va xotinlik suvi” ni bildirgan, keyin “shundan tarqagan urug‘larni” (ya’ni tug‘ishgan, qarindoshlarni), oxirida “bir urug‘dan taragan jamoani” anglatla boshlagan.

Endi yaqinlik, qarindosh-urug‘likning bosqichlarini ko‘rib chiqamiz.

Yaqinlikning bosh chizig‘ida ota-onas turadi. O‘zbekchada *ada* (yoki *ata*) va *ana* bo‘ladi. Onani *ayi* yoki ora-chora *aya* deyuvchilar ham bor. Keyingi shakllari *ana* so‘zidagi [n] tovushining [y] ga o‘zgarishidan kelib chiqqan.

Yaqinlik *tug‘ishgandan* boshlanadi. *Tug‘ishgani* uy ichidagilarni (oilani) qamraydi. Bular, o‘g‘illarga nisbatan: ulug‘i – *aşa* yoki *äkä*, kichigi – *ini* yoki *üükä*; qizlarga nisbatan: ulug‘i – *egäči* yoki *apa*, kichigi – *sijil*.

O‘zbek tilida ushbu atamalarning ayrimlari juft holda qo‘llanilib, yangi ma’no bildirishga ham xizmat qiladi. Masalan, *ata-ana* birikmasi “родители”, *oğil-qız* birikmasi “farzand” ma’nosini anglatadi.

Ilk *qarindoshlik* ota yoki ona tomondan tarmoq otadi. Ota hamda onaning otasi – *dada* yoki *buwa*, onasi – *buwi* bo‘ladi. *dada* so‘zidagi *da-* komponentlari “katta” ma’nosini beradi: *dada* – “katta ada” degani. Buvini *kättä ayi* ham deydi.

Farzand uchun otaning *tug‘ishganlari*: akasi yoki ukasi – *ämäki*, egachi-singillari – *amma*; ona tomondan: onaning og‘ainilar – *tağa*, egachi-singillari – *xala* bo‘ladi.

Yigit yo qiz turmush qurgach, *qarindoshlikning ikkinchi tizimi*, tutungan qarindoshlik shakllanadi. Buni *qayin uruğlar* deydi. *Qayin* so‘zi turmush qurgandan keyingi er yo xotin tomonidan yuzaga kelgan qarindoshlikni anglatadi. Bu so‘z

burungi zamonda *qadın~qatın* shakllarida qo‘llanilgan bo‘lib, o‘zagi *qat* so‘ziga taqaladi. Masalan, hozirgi o‘zbek tilida *qat* (qavat), *ikki qat* (homilador) deb ishlatalamiz. -*in* – yasovchi qo‘sishimcha, *qatın* – “qatlangan” degan ma’noni beradi. Masalan, *tolun* (Oy) so‘zi ham shunday qolipda yasalgan.

Qayin urug‘larni atash tartibi bo‘y davridagi yaqin va tug‘ishganlikni bildiruvchi atamalarga *qayin* so‘zini qo‘sish bilan yasaladi: *qaynata* (<*qayin* ata) – kelin uchun kuyovning, kuyov uchun esa kelinning otasi; *qaynana* (<*qayin* ana) – kelin uchun kuyovning, kuyov uchun esa kelinning onasi; *qaynağa* (<*qayin* ağa) – kelin uchun erining, kuyov uchun esa xotinning og‘asi; *qayni* (<*qayin* ini) – kelin uchun erining, kuyov uchun esa xotinining inisi; *qaynägäči* (<*qayin* egäči) – kelin uchun arning, kuyov uchun xotinining egachisi, *qayni sijil* (<*qayin* sijil) – kelin uchun erining, kuyov uchun xotinining singlisi.

O‘zbekchada *qayin boy* degan so‘zimiz bor. Bu so‘zdagi *boy* – “urug‘”, *qayin boy* – “qayin urug‘lar” degani, ya’ni kelin uchun arning urug‘lari, kuyov uchun esa kelinning urug‘lari.

Qadimgi turkiy tilda *apa* so‘zining “ona; opa, egachi” ma’nolari bilan bir qatorda “katta, ulug‘” ma’nosи ham bor. Masalan, ko‘k turk bitiglarida *apa tarqan* atamasi uchraydi. Bu so‘z tarkibidagi *tarqan~tarxan* unvondir. Mahmud Koshg‘ariyning yozishchicha, *tarxan* – bek. Islomiyatdan oldin qo‘llanilgan ism (arg‘ucha) (MK.I.409). *Apa tarqan* atamasi tarkibidagi *apa* – “katta, ulug‘, bosh” ma’nosida; *apa tarqan* – “katta tarxon, bosh tarxon, bosh qo‘mondon” degani.

Apa~aba “katta, ulug‘” ma’nosida aqrabolik (qarindosh-urug‘chilik) otlari tarkibida ham keladi. Masalan, eski o‘zbek tilida (“chig‘atoy turkchasi”da) *abaşa* so‘zi qo‘llangan. Navoiy so‘zi bilan aytganda, turklar “atanij ağa (vä) inisin abaşa” deganlar (ML.176). Mazkur so‘z *apa~aba+aşa* – “katta og‘a” degan ma’noni anglatadi.

Hozirgi o‘zbek tilida ham *apa* ning “katta, ulug‘” ma’nosи qoldiq shaklida ayrim so‘zlar tarkibida saqlangan: *apağayı*

(<*apa+ayi*) – so‘zma-so‘z “ulug‘ ona, katta ona” degani, amakinining xotini; *apa(ğ)dada* yoki *apağada* – birinchisi *apa+dada* (“katta dada”)dan, keyingisi *apa+ada* (“katta ota”)dan. *Apağdada* – aslida dadanining yoki onanining buvasi? *Apağada* esa otaning yoki onanining otasi; *apağbuwi* (<*apa+buwi*) – ma’nosi “katta buvi” degani; *apaqii* (<*apa-qii*): -*qii* – so‘z yasovchi qo‘sishimcha. *Apaqii* – asl ma’nosi “apa, ya’ni katta tug‘ishgan (amaki yoki tog‘a)ga tegishli” degani, amakinining yoki tog‘anining xotini.

Ba’zi aqrabolik otlaridagi *da-* uzvida ham “katta, ulug”“ ma’nosi mujassam. Masalan: *dada*, kelib chiqishi *da-ada* dan, ma’nosi – “katta ada”, ya’ni buva. Ushbu so‘zda *da-* uzvi bo‘lmasa, unda “katta, ulug”“ ma’nosi ham ifodalanmaydi. Demak, “kattalik” ma’nosi ayni uzb orgiali anglashilayotgani tabiiy. Toshkentda “ota”ni *dada* deguchilar bor.

Yana bir misol: *tağa* (<*ta-ağa*) “katta og‘a” degani, onanining akasi yoki ukasi. “Chig‘atoy turkchasi”da bu so‘z *tağay~tağayı* shaklida qo‘llangan. Navoiyning ta’kidicha, turklar “ananij ağa (vä) inisin tağayı” deganlar (ML,176). Mahmud Koshg‘ariy devonida bu so‘z *tağay* shaklida berilgan. Lekin uning ma’nosini muallif “amaki” deb izohlagan (MK.III,256). Qadimgi turkiy til morfem tuzilishiga ko‘ra *tağay~tağayı* so‘zi tarkibidagi *ta* uzvida “katta, ulug”“ ma’nosi mujassamlashganligini kuzatish mumkin: *tağay* (<*ta-ağay*).

Shuning singari, *daya* so‘zida “katta aya” ma’nosi bor.

Harqalay, *dada*, *tağa*, *daya* so‘zлari tarkibidagi *ta~da* ning angłami “katta, ulug”“ ekanligi chin. Mazkur *ta~da* uzvini ayrim olimlar xitoychadagi “katta, ulug“, bosh, yirik” ma’nosini beruvchi *da* so‘ziga bog‘laydilar. Biroq, ayrim asl turkiy so‘zlar tarkibida uning mavjudligi bu qarashni butkul inkor etadi (masalan, *tağ* so‘zida). Shunga ko‘ra, uni boshqa tillar ta’sirida turkiyga o‘zlashgan deb qaramaslik kerak. U berisi bilan xun davri, ehtimol, oltoy davridan kelayotgan qoldiq bo‘lsa ajab emas.

S o‘r o q v a t o p s h i r i q l a r:

Lutfan qadimgi turkiy tilda qo‘llanilgan diniy atamalar tizimi,
ularning yuzaga kelish tarixiga qisqacha ta’rif bering.

Buddizm atamalari va ularning anglamalarini o‘rnaklar ko‘magida
ochiqlab bering.

Lug‘atlardan qadimgi turkiy tilga xitoychadan o‘zlashgan
so‘zlarini yig‘ing.

Yozma manbalardan islom bilan bog‘liq atamalarni yig‘ing.

Manbalardan astronomiya bilimiga tegishli atamalarni to‘plang.

Lutfan manbalardan yiqqan atamalaringizni to‘plib lug‘at tuzing.

Burungi tasavvur-qarashlar bilan bog‘liq kelib chiqqan qanday
atamalarni bilasiz?

OLTINCHI BO'LIM. MATN USLUBI MASALALARI

T a y a n ch t u sh u n ch a l a r: *stilistika, uslubshunoslik, matn uslubi, badiiy matn uslubi, hujjatlar uslubi, diniy matnlar uslubi* (“*sutra uslubi*”), *monumental matnlar uslubi*.

E' t i b o r q a r a t i l a y o t g a n m a s a l a l a r:

Yozma uslublar tarixi.

Badiiy matnlar uslubi.

Budda asarlariga xos bo‘lgan “*sutra uslubi*”.

O‘tmishdan qolgan rasmiy yozmalar va ularning uslubi.

Qadimgi turk monumental matnlarining uslubi.

Turkiy yozma yodgorliklarda sana va uning aytilishi.

YOZMA TIL VA UNING USLUBLARI

Til ikki xil ko‘rinishda amal qiladi: *og‘zaki til* va *yozma* (yoki *adabiy*) *til*. Turkiy tillar tarixida har ikkovining ham atamasi bo‘lgan. XI yuzyillikda yashab o‘tgan ulug‘ mutafakkir Yusuf Xos Hojib o‘zining “*Qutadg‘u bilig*” dostonida *og‘zaki tilni tilin söz* deb atagan. Mana o‘sha atamaning misoli:

Yoq ersä bitig bu kişilär ara,

Tilin sözkä kim bütgäy erdi kör-ä.

(Bu kishilar orasida yozuv yo‘q ersa, *og‘zaki so‘zga* kim ham ishongan bo‘lar edi, ko‘rgin) (QB.2660).

Adib Ahmad Yugnakiy o‘zining “*Hibatu-l-haqoyiq*” asarida *ağiz til* degan atamani qo‘llagan. Ushbu atamadagi *ağiz* – “*og‘zaki*” degani, *ağiz til* esa “*og‘zaki til*”, ya’ni “*nutq*” ma’nosini beradi. Demak, bu atama ostida “*kishining nutqi*” ko‘zda tutilmoqda. Mana asardan olingen o‘sha misol:

Ağiz til bezägi koni söz turur,

Köni sözlä sözni, tiliñni bezä.

(Nutqning bezagi to‘g‘ri so‘z turur, to‘g‘ri so‘zla so‘zni, tilingni (nutqingni) beza) (AH.155–156).

Alisher Navoiy “Muhokamatu-l-lug‘atayn” asarida *nutq* atamasini qo‘llagan. Insonning yaralishi to‘g‘risida so‘z yuritar ekan, u nutqi tufayli barcha jonzodlardan ustun ekanligini ta’kidlab yozadi:

Čun kun fayakun safxasiga boldi tiraz,
Qilgan ani nutq ilä baridin mumtaz (ML.165).

O‘tmishda yozma tilning ham atamasi bo‘lgan. Yusuf Xos Hojib yozma *tilni bitig söz* deb atagan edi. Turkiy bitig so‘zi tub anglamida “yozuv”ni bildirgan. U “yozmoq, bitmak” ma’nosidagi *biti-* fe’liga ot yasovchi -*g* qo‘shimchasini qo‘shib yasalgan. Keyinchalik uning ma’nosini kengayib, “xat, maktub; hujjat; kitob; matn” singari yozuv bilan bog‘liq narsalarni ham *bitig* deb ketilgan. *Bitig söz* atamasi “bitilgan so‘z; kitobiy so‘z; matn”, tilshunoslik tushunchasi bilan aytganda, “yozma til, matn tili, adabiy til” ma’nosini beradi.

Eski turkiy tilda matn uslubi bilan bog‘liq atamalar tizimi ham shakllangan edi. Ayrimlarini misollarda ko‘rib chiqamiz.

Manbalarda yozma til usuli, matn uslubi *bitig söz yanji* deyilgan. Yozma til usuli fikrni ifodalashning eng yaxshi yo‘li ekanligi ta’kidlab, Yusuf Xos Hojib yozadi:

Nekü ter esitkil İlä sir teñi,
Edi eðgü yan bu bitig söz yanji.

(Ila-sir tengi [ya’ni yoshi Ila daryosiday uzun, ko‘pni ko‘rgan donishmand] bu to‘g‘rida nima degan, eshitgil: Yozma til usuli juda yaxshi usuldir) (QB.2656).

Yozma manbalarda ravon, balog‘at darajasida bayon qilingan nutq *yoriq til* deyilgan. *Yoriq* so‘zi “yurmoq” ma’nosidagi *yori-* fe’lidan yasalgan bo‘lib, “ravon, keng, batafsil” ma’nosini beradi; *yoriq til* ning lug‘aviy ma’nosini “ravon til, ma’nili gap, balog‘at darajasida bayon qilingan so‘z” dir. Bunday nutq to‘g‘risida Yusuf Xos Hojib yozadi:

Uquşqa, biligkä bu tilmäçi til,
Yaruttaçï erni yorïq tilni bil.

(Uquvga, bilimga tilmoch – bu tildir. Kishini ro'shnolikka chiqaradigan ravon til, deb bil) (QB.158).

XV asrda yashab o'tgan Arslon Xo'ja tarxon Adib Ahmad Yugnakiy to'g'risida so'z yuritar ekan, "Hibatu-l-haqoyiq"ning tili va uslubi bilan bog'liq muhim bir atamani qo'llagan edi. U yozadi:

Tamami erür kaşgari til bilä,

Ayitmiš adip riqqat-i til bilä (AH.499–500).

Ushbu baytdagi *kaşgari til* atamasi o'sha chog'lardagi "turkiy adabiy til"ning atamasidir; arabchadagi *riqqat* – "nozik, jozibali" ma'nosini beradi; *riqqat-i til* – "jozibali til", ya'ni "she'riy til, badiiy til" anglamidadir. Buning bilan "Hibatu-l-haqoyiq" asari turkiy adabiy til(kaşgari til)da ekanligi, adib uni jozibali til(riqqat-i til)da aytganligi ta'kidlanmoqda .

Alisher Navoiy "Muhokamatu-l-lug'atayn" asarida *türkî uslub* atamasini qo'llagan. U turkiy so'zlarning nozik ma'nolari to'g'risida so'zlar ekan, *yïğlamaq* ning *yïğlamsinmaq*, *inrämk-u siyrämäk*, *sïqtamaq*, *ökürmäk*, *inçkirmäk*, *hay hay yïğlamaq* singari sinonimlarini qo'llash turkiy uslubga xos ekanligini ta'kidlaydi (ML.172).

Klassik filologiyada nutq va matnning ravonligi, yuksaklik darajasi *balâğat* ham deyilgan. Hozirda ko'plar "balog'at" deganda klassik adabiyotdagi she'riy san'atnigina tushunmoqdalar. Balog'at badiiy adabiyotdagi she'riy san'atning o'zigina emas.

Bilim egallahda ikki xil daraja bor: birinchisi – balog'at; ikkinchisi – tugallik (komillik). Balag'at – bu yetuklikdir. Balog'at darajasiga har bir bilimli, aqli raso yetuvi mumkin. Xalq tilida "o'g'il-qizi balog'atga yetdi; o'g'li balog'at yoshida" degan iboralar yuradi. Bu degani – "o'g'il-qiziga aql kirdi, jismi ham yetildi; endi uni uyli-joyli qilsa bo'ladi". Tugallik darajasiga esa har kimsa yeta olmaydi; bunga erishgan kishi komil insondir. Yusuf Xos Hojib "komil inson"ni *tiigäl er* deb atagan edi.

Tildagi balog‘at darajasi ham ayni tushunchada: u kishi nutqida ham, matnda, xat san’atida, nasrda, poetikada birday amal qiladi. O’tmishtagi balog‘at ilmi talabiga ko‘ra, notiq yoki matn bituvchi bilgin kishi balog‘at o‘lchovlariga amal qilmog‘i kerak.

Ushbu atamaning misoli uchun yana “Qutadg‘u bilig”ga murojaat qilamiz. Yusuf Xos Hojib yaqin kishilarga yo‘llanadigan maktublar to‘g‘risida so‘z yurita turib, ularning ajoyib bir uslubda, balog‘at darajasida bo‘lmog‘i kerakligini uqtiradi:

Balağat bilä xat teñässa qalî
Eði eðgü til bu bitig söz tili.

(Agar xat balog‘at bilan tenglashsa, yozma nutq juda ezgu bo‘ladi) (QB.2655).

Til uslublari ikki xil: *og‘zaki* va *yozma* ko‘rinishga ega. *Og‘zaki* uslub tarixi tilning paydo bo‘lishi, kishilik ongingin yuzaga kelishi, hukum va fikrni ta’sirli ifodalashga bo‘lgan zarurut asosida kelib chiqqan.

Yozma til uslublari ancha kech – yozuvning yaratilishi bilan bog‘liq holda yuzaga kelgan. Biroq, yozuvning o‘zi yozma uslubni belgilay olmaydi. Masalan, kishilar tasavvuridagi tushunchalar rasmlarda yoki harfiy belgilarda ifodalangani, biror so‘zning yozib qo‘yilgani bu hali yozma uslub degani emas. Yozma uslub matnda yuzaga chiqadi; kishi o‘z o‘y-qarashlarini matnda bayon eta boshlagani, matn tuzish an’analari ishlab chiqilgani, matn janrlari farqlana boshlaganidan keyingina tilning yozma uslublari, matn uslubi yuzaga kela boshlagan. Demak, yozma til uslublarining tarixi yozuvning yaratilishi, matn tuzish an’analaringning yuzaga kelishi, yozma adabiyot tarixi, qadimgi turkiy xalqlarning ijtimoiy-siyosiy, madaniy hayoti bilan uzviy bog‘liq.

Yozma adabiy til(bitig söz)ning o‘lchovlari, me’yorlari matnda o‘z ifodasini topadi. Maqsadi, yo‘nalishiga qarab matn uslublari bir-biridan farq qiladi.

Matn uslubi deganda o‘y-qarashlar, bitigli xabar(*saw yoki söz*), biron bir asarning matndagi ifodaviy ko‘rinishi, bayon tarzi, me’yoriy qoliplar, matn (*bitig*) talabidan kelib chiqqan holda grammatik birliklarning tanlanishi, matn komponentlarining uyg‘un bir tizimi tushuniladi. Matn uslubi (*bitig söz yayji*) adabiy til talablariga bo‘ysunadi. Matn uslubi tilshunoslikning *stilistika* yoki *uslubshunoslik* (*‘ilm-i balāğat*) bo‘limida o‘rganiladi.

BADIY MATNLAR USLUBI

Til uslublarining eng eskisi badiiy uslubdir. Badiiy matnlar she’r yoki nasrda bo‘ladi. Uslub ham matnning ana shu tuzilishiga moslashadi.

Badiiy uslubning tarixi xalq badiiy tafakkurining yuzaga kelishi va yuksalishi, badiiy adabiyot tarixi bilan bo‘ylashadi. U yozma adabiy tilning, yozma adabiyotning yuzaga kelishidan ancha burun kelib chiqqan. Xalq badiiy ijodi yuzaga kelishi bilan bog‘liq ravishda badiiy uslub ham shakllana bordi. So‘z ustalari, notiqlar xalq yaratgan rivoyat va afsonalar, qo‘schiqlar, maqollarning ta’sirini oshirish, tinglovchiga ularni ta’sirchan ko‘rinishda yetkazib berish istagida asarlarning badiiyligi, jumlalar uslubi, ravnoligi, qolaversa, ohangiga ayricha e’tibor qarata boshladilar. Bu ehtiyoj tilda o‘ziga yarasha bir uslubning yuzaga keluvini ta’minlab berdi.

Yozma adabiy til, matn tuzish an’anasi endigina yuzaga kelayotgan bir chog‘da xalq badiiy ijodi va ularning uslubi allaqachon shakllanib, takomil bosqichiga o‘tgan edi. Badiiy uslub o‘zining og‘zaki bosqichidayoq pishib yetilgan. Yozma badiiy uslub o‘z qolipini og‘zaki adabiyotdan oldi. Ana shuning ta’sirida yozma adabiy til o‘z yo‘lini yangi bir shaklda davom ettirdi. Shu bois ham badiiy ijod namunalarini yozuvga tushirish uqadar mushkullik tug‘dirgan emas. Yozuvchi-ijodkorlar ham boshda og‘zaki adabiyot uslubidan keng

foydalandilar. Qadimgi turkiy adabiyot namoyandalarining ko‘proq xalq ijodiga ergashganligining boisi ham ana shunda.

Badiiy uslub, yozma uslublarning boshqa turlaridan ayricha o‘laroq, badiiy tasvir vositalarning ishlatilishi, bayon tarzi, til me’yorlarining erkinligi bilan ajralib turadi. Masalan, badiiy matnlarda narsa-hodisalarning ta’rifi berilganda ularning sifatlari qo‘shib aytildi. To‘nyuquq bitigida: *qızıl qanım* – qizil qonim, *qara terim* – qora terim. Yoki “Qutadg“u biling”da yerga, tuproqqa *yağız* (*yağız yer* – bo‘z yer), tunga *qara* (*qara tün* – qaro tun), kunduzga nisbatan *yaruq* sifati berilgan (*yaruq kündiiz* – yorug‘ kunduz) va b. “Hibatu-l-haqoyiq” da: *örüj yüz* – oq (yorug‘) yuz, *qızıl ej* – qizil yuz. “O‘g“uzxoqon” dostonida: *kök yaruq* – “kundek ravshan yorug“ degani. Qiyoslang, boshqa bir o‘rinda: *kün-deg jaruq* – kundek yorug‘. Bitiglarda osmonning ta’rifi *kök* sifati bilan (*kök täyri*), yer esa *yağız* sifati bilan (*yağız yer*) qo‘llaniladi.

Shuningdek, badiiy matnda maqol va iboralar, badiiy tasvir vositalari keng qo‘llaniladi. Matn uslubi muallifning yoki asar qahramonlarining ruhiy holatini aks ettirishga, asarning badiiy-g‘oyaviy ta’sirini oshirishga xizmat qiladi.

Qadimgi turk eposi “O‘g“uzxoqon” dostoni ajoyib bir uslubda yozilgan. Ushbu dostonning ildizi meloddan burungi chog‘larga tutashadi. Dostonda turkiy xalqlarning qadimgi inonch-e’tiqodlari o‘z ifodasini topgan. Ushbu epos yuzyilliklar osha turkiy xalqlarning dunyoqarashi, badiiy tafakkuri etkisida yuksalib kelgan. Doston g‘oyasi va suyjetining taraqqiyoti bilan bog‘liq holda uning uslubi ham ravonlashib, sayqal topgan.

Badiiy uslubning ixcham, ammo go‘zal bir ko‘rinishini xalq moqollarida kuzatamiz. Maqol – xalqning yuz yil kuzatib, bir aytgan so‘zi. Ularda xalqning falsafiy mushohadasi, borliq, tiriklik va kishilik to‘g‘risidagi qarashlari, ularga munosabati aks etgan. Maqolning kuchi shundaki, u kishini tarbiyalaydi, tiriklikning o‘nqir-cho‘nqiri, oq-qorasini haqida saboq beradi.

Ota so‘zlarida bor narsaga pardalardan ortidan qarash, nokasning aybini yashirish, xushomad, ko‘zbo‘yamachilik tushunchasi yo‘q. Ular kishini tetik va irodali qiladi, hayotga to‘g‘ri ko‘z bilan qarashni o‘rgatadi. Xalqning bu dono fikrlari lo‘nda va aniq jumlalarda berilishi bilan ham ajralib turadi. Ota so‘zlar uslubiy va badiiy jihatdan mukammal bo‘lib, xalq badiiy tafakkurining yuksak mahsulidir.

Ko‘k turk bitiglarida, Turfon xarobalaridan topilgan eski qo‘lyozmalarda, ilmiy, tarixiy va adabiy manbalarda, o‘rnii bilan, qadimgi xalq hikmatlari keltirib o‘tilgan. Qadimgi turk otaso‘zlarining katta bir qismini XI asrda yashab o‘tgan ulug‘ tilshunos Mahmud Koshg‘ariy o‘zining “Devonu lug‘atit turk” asarida bergen edi. Olim turkiy so‘zlarning ma’nosini izohlamoq istagida ulardan foydalangan.

Maqol kishi nutqining bezagidir. Maqolni o‘rnida ishlata bilganning so‘zi ta’sirli bo‘ladi. So‘zamol, gapga chechan kishi so‘z orasida keltirgan ajoyib otaso‘zi bilan ko‘pning e’tiborini o‘ziga torta oladi.

Badiiy uslubning eng ko‘hna, shuning bilan birga, o‘ta ajoyib namunalarini biz ko‘k turk mangutoshlarida uchratamiz. Bitiglar ulug‘ yo‘lboshchilar, milliy qahramonlar xotirasiga bitilgan yodnomalar bo‘lib, ularda xalq qahramonlarining ko‘zi tirikligida olib borgan ezgu ishlari, yurt erki va farovonligi, tinchligi yo‘lida ko‘rsatgan jasoratlari yod etiladi. Bitiglarda tarixiy voqealar ajoyib til bilan, badiiy uslubda bayon etiladi. Tarixiy voqealar milliy qahramonlar obrazini, ularning ideal hayotini madh etish uchun fon bo‘lib xizmat qiladi. Xalq milliy qahramonlarining faoliyati badiiy tilda yoritiladi, mualliflar turli badiiy vositalardan foydalanadi. Matnlarning g‘oyaviy va uslubiy xususiyatlari ularni badiiy asar darajasiga ko‘targan. Bitiglar tarixiy asarlarga emas, qadimgi turk adabiyotining ajoyib namunalari hamdir.

Bitiglardan o‘rnaklar keltiramiz.

Täjri kütü bertük üçün qajin qağan süsi böri-täg ermis, yağısı qoñ-täg ermis (Tangri kuch bergani uchun otam xoqonning lashkari bo'ridek ekan, dushmani qo'ydek ekan) (K.12). Bitiglarda xoqonlarning ulug' yutuqlari ta'riflanar ekan, tangrining qo'llagani tufayli ana shunday ishlar amalga oshganligi e'tirof etiladi. Bunda *täjri yarlıqaduq üçün* (tangri yorliqagani uchun), *täjri kütü bertük üçün* (tangri kuch bergani uchun) singari iboralardan foydalaniladi. Ushbu jamlada tangri kuch bergani uchun xoqon qo'shining kuch-qudrati orta borganligi ta'riflanib, uning jasur va yengimasligi bo'riga, dushmanning ojizligi, bo'ysinuvchanligi esa qo'yga qiyoslanmoqda.

Qırq artuqı yeti yoli sülämış, yigirmi sütüs sütüsmiş. Täjri yarlıqaduq üçün elligig elsirätmış, qağanlığıq qağansıratmış, yağıq baz qılımış, tizligig sökürmış, başlığıq yüküntür(mış) (Qirq yetti yo'la lashkar tortgan, yigirma marta jang qilgan. Tangri yorliqagani uchun eli borni elidan ayirgan, xoqoni borni xoqonidan ayirgan, yovni el qilgan, tizzasi borni cho'ktirgan, boshi borni yukuntirgan) (K.15).

Yalay bodunuğ tonluğ qıltım, čığaň bodunuğ bay qıltım, az bodunuğ öküş qıltım (Yalang xalqni kiyimli qildim, qashshoq xalqni boy qildim, oz xalqni ko'paytirdim) (X.23–24). Xoqonlar xalqqa qilgan yaxshiliqi, el farovonligi yo'lida olib borgan ishlarining ta'rifida, ularning qo'l ostida xalq tinchosoyishta, to'q va boy yashagani, xalq ko'payganini bildirib qo'yish uchun ana shunday jumlalardan foydalangan. Yoki Bilga xoqon otasi Eltarish taxtda ekanligi chog'ida mamlakatda yuz bergen o'zgarishlar, xalqning to'q va boy yashaganligini eslab "Ol ödkä qul qulluğ bolmış (erti)" deb yozgan edi (qarang: K.21). Bu jumla "O'sha chog'lar qulning ham quli bor edi" degan ma'noni bildiradi.

Yoki milliy qahramonning xalq tinchligi, farovonligi yo'lida tinib-tinchimagani "Turk xalqi uchun tun uxlamatim,

kunduz o‘tirmadim” (*Türiik bodun üçün tün udımadım, küntüz olurmadım*) deya ta’riflanadi (K.27).

Boshqa bir misol: *Qanij subča yügürti, söyüküj tağča yatdī, beglig urī oğluj qul boltī, silig qız oğluj kūj boltī* (Qoning suvday oqdi, suyaging tog‘day (uyulib) yotdi, bek bo‘ladigan o‘g‘il bolang qul bo‘ldi, suluv qiz bolang cho‘ri bo‘ldi) (K.24). Ushbu jumlada Birinchi ko‘k turk xoqonlig‘i qulab, xalq yov qo‘lida qolgan chog‘lar ta’riflangan. Unda turk xalqining bosqinchilar siquvi ostida uqubatda qolgani, uning qirilib borayotgani ta’riflanib, kishilar qonining to‘kilishi daryoga, suyaklarning uyumi esa tog‘ga qiyos etiladi. Harakatning belgisi (gap bo‘lagiga ko‘ra hol) *subča, tağča ravishlari* yordamida berilgan. Keyingi jumladagi *urī oğul* – “o‘g‘il bola”, *qız oğul* – “qiz bola”; erkaklarga nisbatan – *qul*, xotin-qizlarga nisbatan esa *kūj* so‘zi qo‘llanilgan – u “joriya”ni bildiradi. Ushbu jumlada o‘sha kezlar turkning beglikka loyiq yigitlari qul, suluv qizlari esa joriyaga aylangani ta’kidlanmoqda.

Urxun bitiglarini tekshirgan olimlar matnlarning tuzilishi to‘g‘risida ikki xil qarashda: ayrimlar mazkur yodnomalarini she’riy asar desalar, boshqa birlari ularni nasriy asar sanaydilar. Bitiglarni nasrda yozilgan deb qarovchilarning fikricha, jumlalarning she’rga xos bir ohangda o‘qilishiga sabab, ularda sajdan keng foydalanganligidir.

Ta’kidlash kerak, urxun bitiglari, xususan, Kul tigin va Bilga xoqon yodnomalarining tuzilishi o‘ta murakkab. Qadimgi turk monumental matn tuzish an’anası yuksak daraja takomil topganidan dalolat beradi. Matnning bayon shakliga kelsak, u, asosan, nasrda. Biroq, ora-orada she’riy bo‘laklar ham joy olgan. Muhim tarixiy hodisalarning kulminatsion nuqtalari, milliy qahramonlarning faoliyati, qiliqlariga oid chizgilar she’r bilan bayon etiladi (buni o‘zbek xalq dostonlariga qiyoslash mumkin). Yodnomalarning bu tarzda tuzilganligi ularning badiiyligini yanada oshirgan. Kul tigin

bitigining so‘ngida Bilga xoqon tilidan aytilgan marsiya bunga o‘rnakdir:

Kül tigin yoq ersär, qop öltäči ertigiz.

İnim Kül tigin kärgäk bolti,

özüm saqıntıim:

körür közüm körmäz-täg,

bilir biligim bilmäz-täg bolti,

özüm saqıntıim.

Öd täŋri yasar,

kisi oğlı qop ölügli tirimis.

(Kul tigin bo‘lma ganda butunlay o‘lar edingiz. Inim Kul tigin vafot etdi, o‘zim alam chekdim: ko‘rar ko‘zim ko‘rmasdek, bilar bilimim bilmasdek bo‘ldi [ya’ni ko‘zimning nuri ketdi, es-xushim og‘di], o‘zim alam chekdim. Tiriglikni tangri belgilaydi, kishi o‘g‘li o‘lguchidir) (Kb.10). Bu she‘r yenisey bitiglaridagi qayg‘uli yig‘i mazmunini eslatadi.

Turk monumental matnlari ichida yenisey bitiglarining tuzilishi va uslubi o‘ziga xos. Yenisey bitiglarining muhim belgilaridan biri ularda matn o‘likning o‘z tilidan so‘zlanadi. Mangutoshlarda marhumning o‘z yaqinlari, yorug‘ dunyodan ayrılıq dardi, o‘kinchi bayon etiladi. Bu yig‘ilarni o‘liklar nidosi deyish mumkin. Bitiglarda undovlar, mungli bir mazmun yetakchi. Bitiglardan o‘rnak keltiramiz:

Yerimä, yiṭa, subuma, adıriltüm. Buja, sizimä, yiṭa, bodunüma, künimä, qadaşima, adıriltüm, bökmädim. Elimä, qanüma, bökmädim (E.11.4–5).

Matnda *yerim*, *subum*, *sizim*, *bodunüm* so‘zlariga qo‘shilayotgan -a, -ä qo‘shimchasi hayajon, undov, mung, qayg‘uni bildiradi. Mazkur undovlar matn ohangdorligini, ritmni ta’minlaydi. Shunga ko‘ra, yuqoridagi matn parchasini hozirgi o‘zbekchaga quyidagi tartibda o‘girish mumkin: “*Yerim-a, esiz, suvim-a, (baridan) ayrildim. Musibat-a, siz yaqinlarim-a, esiz, xalqim-a, urug‘im-a, do‘st(lar)im-a, (sizdan) ayrildim, (diydoringizga) to‘ymadim. Elim-a, xonim-a, (sizga)*

to‘ymadim”. O‘zbek marsiyalarida, azada xotinlarning aytib yig‘lashida bu holat hozir ham bor. Masalan, og‘zaki uslubda: *balam-a* – “voy bolam, bolam-a”, *anam-a* – “voy onam, onam-a”, *atam-a* – “voy otam, otam-a” degani.

Shu o‘rinda Oznachennaya qishlog‘idan topilgan bitigni ham o‘qib ko‘raylik (Orkun 1987, 573, 575):

1) Qunçuyim, qadaşim adiriltim. Bunta yağıqa kirdim.

2) Ökü, Čäkul tutuq sizimä adiriltim.

3) Elim, qanım sizimä adirildim. Altun keş adiriltim.

Mazmuni:

(1) Malikam, o‘rtog‘im (sizlarimdan) ayrıldim. Bu yerda yovga (qarshi jangga) kirdim. (2) O‘ku, Chakul tutuq, sizlarimdan ayrıldim (3). Elim, xonim, sizlarimdan ayrıldim. Oltin kesh[o‘qdon]imdan ayrıldim.

Xuddi shunday ohang qadimgi turklarning boshqa marsiyalarida ham kuzatiladi. Chunonchi, “Oltun tusli yorug”“ sutrasida og‘a-ini tiginlar (shahzodalar) qissasi berilgan. Qissada kenja tigin to‘qayda halok bo‘ladi. Bu mudhish voqeadan og‘alar faryod ko‘taradilar. Shu joyda bir marsiya berilgan. Mana o‘sha she’r:

... ulidilar siqtadilar, uliyu siqtayu inča tip tidilar:

körklä köwsäk toğiliğ inimiz / ertiň küwätzä!

ögkä qanqa / sewitmiš ertiň qadaš-a!

nečük in yana / birgärü
birläkiyä ünüp üçägү /
negülük tittij özünjin
bizni birlä / barmadın.

ögümüz qanımız bizijä /
utru körüp ayitsar,
biz ikägү negü / tep
ötünälüm sözlälim?

ol yig bolğay / üçägü
birläkiyä ölsärbiz.
näj / biziňä kergäksiz
bu et-özümüz tirigi.

(Og‘alar) baland un bilan yig‘ladilar-siqtadilar, yig‘lab-siqtab shunday dedilar:

Chiroylı, odob-axloqli inimiz eding, oh g‘ururimiz,
Ota-onamızning orzuli bolası eding-ku, qarindosh-a.
Nechunkim yana uchovımız birga unib o‘ssak edi,
Sen nima sababdan o‘z joningdan kechding?

Biz bilan birga qaytmasang, otamız, onamız bizni ko‘rib
seni so‘rasa, biz nima deb javob beramiz?

Undan ko‘ra uchovımız birga o‘lsak bo‘lmasmidi? Endi
bizga bu jonimiz tirikligining nima keragi bor? (AYar.277).

Og‘alar uylariga borib shum xabarni ota-onalariga
aytganlarida, ota-onaları ham aytib yig‘ladilar. Ular aytgan
marsiya mana bunday:

Ötrü iliglärin örү kötürüp uliyu sïqtayu inčä tip taqşurtılar:
Ne ada erti adayım,
körkläkyä / ögüküm,
Ölmäk emgäk nečükin
öñrä / kelip erttürüti.

Sintidä öñrä / ölmäkig
bulayın i künkiäm.
/ Körmäyin erti munï-teg
ulus ačiğ / emgäkig.
(Keyin (ona va otalari) qo‘llarini baland ko‘tarib, yig‘lab-siqtab shunday she’r aytdilar:

Ne balo erdi toychog‘im,
ushoqqina qo‘zim,
o‘lim azobi nima uchun
erta kelib, olib ketdi.

Sendan burun o‘lsam
bo‘lmasmidi, quyoshim?
Ko‘rmayin erdi muningdek
ulug‘ achchiq azobni) (AYar.281).

Muhim jihat shundaki, qadimgi she’riy matnlarning ayrimlari yozuvda misralarga ajratib emas, nasriy matn singari yozilgan. Buni qadimgi turk muhitida ko‘chirilgan boshqa matnlarda ham kuzatamiz. Jumladan, “O‘g‘uzxoqon” dostonida kechgan she’riy parchalar matnda misra va bandlarga ajratmay yozilgan. Toshga bitilgan urxun va yenisey matnlarini kuzatganda ham shunday holatga duch kelamiz.

Qadimgi turklardan qolgan dostonlar, she’riy asarlar, xalq ijodi namunalari badiiy uslubga misol.

“Irq bitigi”ning uslubi qadimgi turkiy tilda badiiy uslubning nihoyatda puxta ishlab chiqilganiga o‘rnak bo‘la oladi. Asarda yaxshilikka yo‘yluvchi ta’birlar *anca biliylär, edgü-ol /anca biliy, edgü-ol /anca bil, edgü-ol /edgü-ol*; yomonlikka yo‘yiladiganlari esa *anca biliylär, yablaq-ol /anca biliylär, yabiz-ol* jumlalari bilan tugaydi. Jumlalar o‘ta aniq va lo‘nda; uzoq takomillashib qiyomiga yetgan ravon bir uslubda. Misollarga e’tibor bering:

Bir tobilqu yüz bolti, yüz tobilqu miň bolti, miň tobilqu tümän bolti, ter. Anca biliylär: asig̊i bar, edgü-ol (Bir to‘bilqu yuz bo‘ldi, yuz to‘bilqu ming bo‘ldi, ming to‘bilqu o‘n ming bo‘ldi, – der. Shunday bilinglar: buning foydasi bor, (belgisi) yaxshidir).

Qan sükä barmiš, yağığ sančmiš, köcirü, qonturu kelir. Özi, süsi ögirä sebinü ordusüñaru kelir, ter. Anca biliylär – edgü-ol (Xon jangga bordi, yovni yengdi. Ko‘chirib, qo‘ndirib qaytmoqda. O‘zi va lashkari sevinib o‘rdasi tomon kelayotir. Bilib qo‘ying – bu yaxshi).

Adığlı tojuzlî art üzä soquşmıš ermiš. Adığış qarnı yarılımıš, tojuzuň aziğî sînmıš, ter. Anca biliy – yablaq-ol (Ayiq

va to‘ng‘iz qoya ustida to‘qnashdilar. Ayiqning qorni yorildi, to‘ng‘izning oziq tishi sindi, – der. Buni biling – yomondir).

Eki öküzung bir boqarsiqa kelmiš. Qamsayu umatiň turur, ter. Anča biliň – yablaq-ol (Ikki ho‘kizni bir omochga qo‘shdilar. Ularning yurishga majoli yo‘q, – der. Shunday biling – buning belgisi yomon).

Bularning bari qadimgi turk adabiy tilida badiiy uslub o‘lchovlari puxta ishlab chiqilganidan dalolat beradi.

“SUTRA USLUBI”

Yozma matnlar ichida diniy-falsafiy asarlarning uslubi ham ajralib turadi.

Buddizm davrida Sharq xalqlarining adabiy aloqalari kuchaydi, tarjima adabiyot yangi bosqichga ko‘tarildi. O‘sha kezlar turkiy tilga sanskrit, tohar, sug‘d, xitoy tillaridan ko‘plab budda asarlari tarjima qilingan. Muhimi, ana shu adabiy aloqalar etkisida turkiy adabiyotda yangi janrlar yuzaga keldi, ko‘k turk yozma adabiyotidan ayricha o‘laroq, diniy qonunlarni bayon etuvchi yirik voqeaband asarlar yaratila boshladi. Badiiy adabiyotdagи ushbu jarayon yozma adabiy tilda yangi bir uslubning yuzaga keluviga olib keldi: turkiy tilning uzoq asrli an’analari negizida budda asarlarigagina xos bo‘lgan, o‘ziga yarasha yangi bir uslub shakllandi. Buni shartli ravishda “*sutra uslubi*” deb atashimiz mumkin. O‘sha chog‘larning diniy qonunlarni bayon etuvchi adabiy asarlari – no‘m bitiglar ana shu uslubda. “*Maytri simit no‘m bitig*”, “*Oltun tusli yorug*”, “*Syuan-szan kechmishi*” singari asarlarning uslubi bunga misol.

“*Sutra uslubi*” budda diniy-falsafiy asarlari uchun xoslangan bir uslubdir. Uning o‘ziga xosligi, birinchi galda, atamalar tizimida ko‘zga tashlanadi. Budda asarlarida diniy atamalar tizimi puxta ishlab chiqilgan. Atamalarning katta bir qismi matn talabi bilan sanskrit va asar tarjima qilinayotgan boshqa tillardan o‘zlashgan. Muhimi, turkiy tilda burundan

qo‘llab kelinayotgan turkiy so‘zlar ham atama vazifasida qo‘llanilishi mumkin. “Sutra uslubi”da chet tildan olingan tayyor jumla, birikmalar ham uchrab turadi.

“Sutra uslubi”da bitilgan matnlar o‘zining badiiyligi, tasvir vositalarining ustalik bilan ishlatalgani, bayon shaklining ravon va aniqligi bilan ajralib turadi. Budda matnlari qadimgi turk badiiy adabiyotining sara namunalari qatoridan joy olgan. Misol sifatida “Oltun tusli yorug” sutrasiga kiritilgan “Tigin va tishi bars qissasi”da elig xon ta’rifiga bag‘ishlangan bir jumlanı ko‘rib chiqamiz:

Ol yemä Maxaradi elig xan ertiğü uluğ bay barimliğ, tsayları ağılıqları i tariğ, ed tawar özä tolu, alp atım sülüğ kücüňä tükällig, törttin siýar yer orunuğ iyimiş basmıš, öküškä ayatmiš ağırlatmıš, ürük uzati köni nomča töriüčä başladači, imärigmä qamağ bodunin qarasın ašmiš üklitmiş, qoptin siýar yağısız yawlaqsız erti (AYar.270).

Ushbu jumlada badiiy uslubning xarakterli belgilari ko‘zga yaqqol tashlanadi. Bir jumlaning o‘zida so‘zlarni juftlash orqali yangi-yangi ma’nolar hosil qilinmoqda. Qadimgi turkiy tilda keng amal qilgan ushbu usul matn badiyiligini, uning o‘qishli bo‘lishini ta’minlaydi. Shu o‘rinda yangi ma’nolarni yuzaga chiqaruvchi juftliklarni birma-bir ko‘rib chiqaylik. So‘zlarning juft holda anglatayotgan ma’nolariga e’tibor bering: *bay barimliğ* – birgalikda “boy-badavlat, davlatmand” ma’nosini beradi; *i tariğ* – i so‘zi qadimgi turkiyda “o’simlik”, *tariğ* bilan juft holda qo‘llanilib, “don-dun” ma’nosini beradi; *ed tawar* – “mol-mulk”degani; *alp atım* – *alp* – “alp, bahodir”, *atım* – “mergan”, birgalikda “shavkatli” ma’nosini beradi; *yer orun* – birgalikda “el, mamlakat” ma’nosida; *iy- bas-* “hukumronlik qilmoq” ma’nosida; *ayat- ağırlat-* “ko‘pning hurmatini qozongan” degani; *ürük uzati* – “uzoq, uzoq zamonlar” ma’nosida; *nomča töriüčä* – *nom* – “qonun, qoida”, *törü* – “siyosat”, birgalikda “qonun-qoidalar asosida, adolat bilan” ma’nosini beradi; *bodun qara* – “avom, xalq”

anglamida; *aş- ükli-* “xalqni oshirgan, ko‘paytirgan” degani. Qadimgi turkiy adabiyotda xoqonlarning elsevarligi, uning qo‘l ostida xalq tinch yashab, o‘zidan ko‘payganligi ta’riflanganda shuning singari so‘zlardan foydalanilgan; *yağısiz yawlaqsız* – *yağı* – “yov”, *yawlaq* – “yovuz”, juft holda “yovsiz-yovuzsiz” degan ma’noni anglatadi. Bu birikma adabiyotda yon-veridagi ellar bilan totuv yashagan xoqonlar ta’rifida keltiriladi.

Juft so‘zlarning yuqorida keltirilgan ma’nolariga tayanib, yuqoridagi matnni hozirgi tilimizga o‘girib ko‘ramiz. U shunday bo‘ladi: “O‘sha Maxaradi elig xon behad ulug‘, boybadavlat, omboru xazinalari don-dun, mol-mulkka to‘la, alpu mengan, kuchli cherikka ega, to‘rt tomondagi ellarni o‘ziga bo‘ysundirgan, ko‘pning hurmatini qozongan, uzoq yillar adolatli siyosat yuritgan, bo‘ysungan barcha ellarning xalqini ko‘paytirgan, yon-veri butunlay yovsiz-yovuzsiz edi”.

Matndan uzilmay, keyingi jumlanı o‘qiymiz: *Ol antağ osuğluğ čoğluğ yalıylığ küçlüğ küsünlüğ elig xanniğ uluğ'i xatuniňta toğmış körgäli sewiglig, körklüg menjizlig üç oğlanı erti* (AYar.270).

Ushbu jumlada: *čoğluğ yalıylığ* – juft holda “kuch-qudratga ega” ma’nosini beradi; *küçlüğ küsünlüğ* ham avvalgi birikmaning sinonimi. Bari birgalikda, uyushiq holda “shavkatli, cheksiz kuch-qudratga ega” degan ma’noni beradi; *körklüg menjizlig* – asli “chiroyli” ma’nosida, lekin so‘z yigitlar to‘g‘risida borayotgani uchun uni “istarasi issiq” deb o‘girganimiz yaxshi. Ana shularni inobatga olganda jumlaning ma’nosı quyidagicha bo‘ladi: “Ana o‘shandayin shavkatli, cheksiz kuch-qudratga ega bo‘lgan elig xonning katta xotinidan tug‘ilgan ko‘hli-suyukli, starasi issiq uch o‘g‘loni bo‘lar edi”.

Yana bir jihat, budda muhitida yaratilgan nasriy matnlargina emas, she’riy asarlar ham “sutra uslubi”da ijod qilingan. Budda she’rlari matnlarning o‘zida *küg, taqşut, küg taqşut, šlok, padak* atamalari bilan qayd etilgan. Bularning har biri qadimgi turk she’riyatining o‘ziga xos turlari bo‘lib, matn

tuzilishi, qatorlardagi bo‘g‘inlar soni, qofiya tizimi, ritmi bilan ajralib turadi. Biroq ularni hozirgi o‘lchovlar bilan o‘lchamaslik kerak. Ular qadimgi turkiy poetik uslubining talablari, yozma adabiy til me’yorlaridan kelib chiqqan holda yuzaga kelgan. Hatto qofiya tizimi ham ayricha. Qadimgi turk she’rlarida satrboshi qofiya tizimi amalda bo‘lib, yetakchi ritmni ham ana shular ta’minlaydi.

Qadimgi turk diniy-falsafiy asarlarini bitishda shakllangan va muqum bir qolipga tushgan adabiy til an’anasi diniy asarlar tilida asrlar osha saqlanib keldi.

HUJJATLAR USLUBI

Rasmiy uslubning kelib chiqish tarixi yozuvning yaratilishi, shuningdek, jamiyat o‘rtasida rasmiy-huquqiy munosabatlarning yuzaga kelishi, davlatchilik tarixi bilan bog‘liqdir. Davlat tashkil topgandan keyin ish yuritish va rasmiy hujjatchilik sohasi ham yuzaga keldi.

Davlat boshqaruv ishlarida yozuvning tutgan o‘rni to‘g‘risida Yusuf Xos Hojib shunday bitgan edi:

Eði keð keräklig turur bu bitig,

Bitig birlä beglär etär el etig. –

Bu yozuv juda ham keraklidir. Beklar yozuv bilan elni idora etadilar (QB.2662).

Yoki boshqa bir yerda yozuvning boshqaruv, kirim-chiqim ishlarida yetakchi ekanligini ta’kidlab yozadi:

Qamuğ el išin barča etgän bitig,

Bitigin tutar el kirişin tetig. –

El ishining barini xat izga soladi. Tetiklar el kirimini yozuv bilan qo‘lga oladilar (QB.2667).

Rasmiy uslubning tarixi yozma yodgorliklarda qo‘llangan matn bilan bog‘liq atamalarining lug‘aviy ma’nosida ham o‘z izini qoldirgan. Masalan, eng eski turkiy yozma yodgorliklarda *bitim* degan so‘z uchraydi. *Bitim* so‘zi *biti-* “yoz-” fe’lidan yasalgan bo‘lib, kelib chiqishiga ko‘ra, yozma hujjatlar

asosidagi kelishuvni bildiradi. Demak, *bitim* so‘zining qadimiyligi kishilar yoki jamoalar o‘rtasidagi yozma kelishuvning, uning huquqiyligini ta’minlaydigan ana shu hujjat turining eskiligiga dalolat qiladi.

Bundan tashqari eski bitiglarda *yarlıq~yarlığ* so‘zi ham bor. Ushbu atama asli “tangrining yorlig‘i, buyrug‘i, hukmi” ma’nosini anglatgan. Bitiglarda *Täyri yarlıqası* degan tilakduo tez-tez uchrab turadi, bu “tangri yorliqasin; tangri buyursin; tangrining buyrug‘i ana shunday bo‘lsin” deganidir. Yoki *Üzä täyri yarlıqadı* deyiladi. Bu “yuqorida tangri yorliqadi; ko‘k-tangri shuni buyurdi; ko‘k-tangri shuni istadi” degan ma’nolarni beradi. Keyinchalik hukumdorning buyrug‘ini ifodalash uchun ham ana shu so‘z qo‘llanilib ketgan. Rasmiy yozmalarda *yarlıq~yarlığ* atamasi “yorliq, farmon” ma’nosini bildiradi; *yarlıq yarlıqadı* deydi, bu “farmon berdi” degani. “O‘g‘uzxoqon” dostonida bu so‘z *çarlığ* ko‘rinishida qo‘llanilgan.

Muhimi, qadimgi turkiy tilda hujjat ishlari, rasmiy-huquqiy munosabatlarga tegishli butun bir atamalar tizimi ishlab chiqilgan edi. Bu ham bo‘lsa rasmiy uslubning takomillashganligini ko‘rsatuvchi belgidir.

Turkiy hujjatchilik tarixi turklar yer yuzida o‘z davlatlarini qura boshlagan, davlat idoralarida boshqaruv ishlari turkiy tilda yuritila boshlagan davrlarga ildiz otgan. Bizgacha qadimgi iskif va xun davlatlarida yaratilgan rasmiy yozmalar saqlangan emas. Eng eski turkiy rasmiy bitiglar ko‘k turk xoqonliqlari davridan qolgan. Shunday esa-da, ushbu matnlar rasmiy uslubning davrlar osha yuksalib, ana shu ko‘rinishga kelganidan dalolat beradi.

Rasmiy yozmalar o‘zining maqsadi, darajasi, huquqiy mavqeい nuqtai nazaridan turlarga bo‘linadi. Bunday hujjatlar tuzilishi, matn komponentlariga ko‘ra o‘zaro farqlanib turadi. Masalan, yorliqlarni olaylik. Ularni tuzilishiga ko‘ra *kirish*

(начальный протокол), *asosiy* va *yakun* qismiga (конечный протокол) ajratish mumkin.

Kirish qismi, ko‘pincha uch komponentdan tuziladi. Birinchisi – unvon. *Unvon* bitig(söz)ning kimga tegishliligi (kim tomonidan yozdirilayotganligi)ning qaydi, uning kim tomonidan yozilayotganligini dalillovchi yorliqdir. Masalan, Oltin O‘rda xoni To‘xtamishning 1393 yili polyak qiroli Yag‘ayliga yo‘llagan yorlig‘i *Toxtamiš sözüm Yağaylağa*, Temur Qutlug‘ning 1397 yili bitilgan yorlig‘i esa *Temür Qutluğ sözüm* deb boshlangan.

Shu o‘rinda ko‘k turk bitiglariga murojaat qilamiz. Bilga xoqon ulug‘ bitigi *Täyri-täg täyri yaratmiş türk Bilgä qağan sabım* jumlesi bilan boshlangan. Bu boshlama xoqonning el-ulusga yo‘llagan yorlig‘ining unvoni (preambulasi)dir. Unvon uch komponentdan tuzilgan: birinchisi yaratganning e’tirofi (*Täyri-täg täyri yaratmiş*), ikkinchisi xoqonning oti va unvoni (*türk Bilgä qağan*), uchinchisi esa *sab* (“so‘z, farmon, yorliq”)ning xoqonga qarashlilagini anglatuvchi bo‘lak (*sabım*). Birinci qismga kiruvchi *Täyri-täg* (“ko‘kday”) so‘zi *täyri* (“yaratgan, tangri”)ning sifati bo‘lib, uning ko‘kday ulug‘ligiga ishoradir. Ikkinci qismda *Bilgä qağan* ismidan avval qo‘llangan *türk* so‘zi ulug‘ shaxs, yurt egasining sifatidir.

O‘rta asrlarda bitilgan turkiy yorliqlarning boshlamasida ham ba‘zan yorliq yo‘llovchi yurt egasining darajasi, unvoni qo‘sib yozilgan. Masalan Shohruh Mirzoning 1422 yili yozilgan nishoni *Šāhruh bahadur* shaklida keladi. Ushbu birikmadagi *bahadur* so‘zi yuqqori tabaqa kishilariga beriluvchi nisbani, unvонни bildiradi. Qiyos uchun turkiy yorliqlar boshlamasida qo‘llangan *abu-l-muzaffar*, *abu-l-ğazi*: unvonlarini eslash yetarli. Bilga xoqon unvonidagi *sabım* – “mening so‘zim” degani emas, balki “mening murojaatim, menin yorlig‘im” ma’nosidadir. Turkiy tilning keyingi bosqichida *sab* (~saw) so‘zi iste’moldan chiqib, uning o‘rnida *söz* kalimasi qo‘llana boshladi. Endi rasmiy hujjatlar

boshlamasida ham qadimgi *sab*(~*saw*) o‘rnini *söz* egalladi. Bu ham tarixiy an'anaga uyg‘un holda “buyruq, farmon, yorliq” ma’nolarini beradi.

Yuqoridagilarga tayanib, Bilga xoqon ulug‘ bitigi boshlamasini shunday talqin etish mumkin: “Ko‘kday (ulug‘) tangri yaratgan qudratli Bilga xoqon so‘zim”. Bilga xoqon ana shu unvon bilan xalqiga, kelajak o‘g‘il-qizlarga murojaat qilgan. Ushbu boshlamada barcha komponentlarning to‘la-to‘kis, lo‘nda, ixcham holda muayyan qolipga joylashganligi ko‘k turk hujjatchiligidagi rasmiy hujjat unvonlarining uslub jihatdan anchayin takomillashgandan darak beradi.

O‘rta asrlarning yorliqlari (jumladan temuriylar zamonidan qolgan yorliqlar) unvonlarining qolipi qadimgi turk davriga ildiz otgan deyishga to‘la asos bor. Turkiy unvonlar qolipi ko‘k turk xoqonliqlari davrida ishlab chiqilib, zamonlar osha yozma til (*bitig söz*) uslublari bilan tengma-teng yuksalib kelgan.

Kirishning ikkinchi komponenti – *adresat* (*inscriptio*), qabul qiluvchi tomon. Ushbu komponentda xat yo‘llanayotgan kishining oti, uning kimga yuborilayotgani qayd etilgan.

Kirishning uchinchi komponenti – *salomlashish* (*salutatio*). Bu komponentda xat yo‘llovchining salomi bayon qilingan.

Bildirilgan salomdan keyin maqsadga (asosiy qismga) ko‘chiladi.

Yorliqlarning so‘nggi – yakuniy qismida ta’rix va yorliqning yozilgan yeri qayd etilgan.

O‘tmishdan narsani yoki yerni ishlovga olish uchun berilgan tilxatlar ham yetib kelgan. Bunday tilxatlarning matn komponenti yorliqlardan ajralib turadi. Ortig‘i bilan qaytarish evaziga olingan narsa yoki tushumidan ulush olish sharti bilan ishlovga olingan yer uchun yozilgan rasmiy hujjatlar (tilxatlar), odatda, o‘sha narsa nasiyaga olingan sanani qayd etish bilan boshlanadi. Muhim belgilaridan biri, tilxatlarda (odatda, uning oxirida) tilxat berayotgan kishi, hatto xatni yozgan kotib, guvohlar ham qayd etiladi.

Ortig‘i bilan qaytarish evaziga olingan narsa uchun yozilgan tilxatlarning boshlamasi uchta komponentdan tuzilgan bo‘ladi: 1) qarzga olinayotgan sana; 2) sabab: qarz oluvchiga qanday shart asosida kerak bo‘lgan narsa; 3) oqibat: kimdan va qancha narsa olinganligi.

Albatta, bunday matnda ikkinchi va uchinchi komponentlar (sabab va oqibat) muhimdir. Birinchi komponent esa ana shu hodisaning paytini ko‘rsatishga xizmat qiladi va uning yuridik maqomini mustahkamlaydi. Matnning birinchi komponentini tashkil etuvchi sana yil, oy va kun ketma-ketligida ifoda etiladi.

Ikkinci komponentda qarz olinishining sababi, qarz oluvchi va unga qanday shartga rozi bo‘lgan sharoitda nima kerak bo‘lganligi ta’kidlanadi. Ushbu komponentda qayd etilayotgan qarz oluvchining ismi, odatda, *mäjä* aniqlovchi-izohlovchisi bilan qo‘llanadi.

Matnning ushbu komponentida, ko‘pincha, *tüškä* so‘zi ishlataladi. Bu “ortig‘i (foizi) bilan qaytarish evaziga” degan ma’noni anglatadi. Biror shart asosida kerak bo‘lgan narsa esa *kärgäk bolup* birikmasi bilan keladi.

So‘nggi – uchinchi komponentda kimdan va qancha narsa olinganligi qayd etiladi. Bunday matnning kesimi o‘tgan zamon shaklidagi *aldim* so‘zi bilan tugaydi.

Shu o‘rinda Berlin fondida saqlanayotgan U 5252 raqamli kunjit olinganligi xususidagi o‘n bir qatorli hujjatning boshlamasidagi jumlanli ko‘rib chiqsak. Uni tarkibiy qismlarga (komponentlarga) shunday ajratishimiz mumkin: *Bičin yil törtünč ay on yanjiqa / mäjä Qimirqa tüškä künčit kärgäk bolup / Qiyümtudin tört qap künčit aldım.*

Yuqoridagi matnning birinchi komponentida qayd etilgan sana “Maymun yili, to‘rtinchи oyning o‘ninchи kunida” degan ma’noni bildiradi. Ikkinci komponent “Menga – Qimirga, ortig‘i bilan qaytarish evaziga kunjit kerak bo‘lib” degani. Uchinchi komponent “Qayimtudan to‘rt qop kunjit oldim” degan ma’noni anglatmoqda.

Yoki U 5254 raqamli tariq (*yüür*) olingenligi xususidagi o'n to'rt qatorli hujjatning boshlamasini komponentlarga shunday bo'lamiz: *Qoyn yil ikinti [ay] biš yanjiqa / mäňä Tuğamqa tüškä yür kärgäk bolup / Qayumtudin bir q[...Jin yür aldim.*

Bunday hujjatlarda keltiriluvchi ta'rix uchta komponentdan tuzilgan bo'ladi: yil, oy, kun. Yil, odatda, muchalyil otlari bilan keltiriladi.

Rasmiy uslubning muhim belgilardan biri, ularda mubolag'a, o'xshatish, sifatlash, ortiqcha ta'riflar, yo'q. Ularda fikr aniq va lo'nda bayon etiladi. Qolaversa, yorliqlar uslubi badiiy epistolyar matnlardan ham ajralib turadi. Epistolyar janrda, odatda, badiiylik ustivor bo'ladi. Yorliqlar esa rasmiy uslubda yozilgan.

Rasmiy yorliqlar tilida muayyan qolipdagи birikmalar ham uchrab turadi. Shulardan biri *Teyri 'inäyatü bulup* birikmasidir. U "Tangridan inoyat topib; Tangridan inoyat bo'lib; Tangridan inoyat yetib" degan ma'noni anglatadi (*bulup* – "topib, yetishib" anglamadadir). Bu birikma *Teyri 'inäyat qılıp, Teyri 'inäyatıga siğinip, Teyri 'inäyatidin, Teyri 'inäyatı birlä* shakllarida ham uchraydi. Shuningdek, rasmiy matnlarda o'ziga xos atamalar ham mavjud. Masalan, o'rta asr maktublarida o'ziga tobe kishilarga, yurt egasi uchun esa o'ziga qaram yurtning egasiga nisbatan *ini-oğulluq* so'zi ishlatalgan.

O'tmishdan qolgan ayrim hujjatlarda biron ma'lumotlar qayd etib qo'yilgan, xolos. Shu o'rinda Dunxuandan topib keltirilgan qog'ozdagи ko'k turk yozuvli bir hujjatga e'tibor qarataylik (Orkun 1987,288,292).

Qizig'i shundaki, urxun va yenisey bitiglarida, imlo qoidasiga ko'ra, **a** harfi yozuvda har qachon ham ifoda etilmaydi, lekin o'rniga [a], [ä] va [e] unlilarini qo'shib o'qilaveradi. Ushbu hujjatda esa **a** harfi so'z boshi va so'z o'rtasida izchil yozib borilgan. Chamasi, ushbu hujjat uyg'ur va ko'kturk yozuvlarini aralash qo'llaydigan turk-moniy

jamoasi ichida bitilgan chiqar. Uning bituvchisi uyg‘ur yozuvi prinsiplaridan kelib chiqib, ko‘k turk yozuvida ham unlilarni to‘liq berib ketgan.

- Matnning o‘qilishi shunday:
- (1) Yemä bišinč ay säkiz yig-
 - (2) irmikä Bilig Köňül
 - (3) sajun başlap kelti. Yabaş
 - (4) tutuq, Bozač tutuq, Ör-
 - (5) ä Bört tutuq, Altun T-
 - (6) ay sajun yartımlıq erür. Atï
 - (7) Öz Apa tutuq. Ulatï qam-
 - (8) ağ atlığ yüzlüg otuz er
 - (9) keltimiz. Bir kön, bir qoñ,
 - (10) iki küp begni. Bitgäči
 - (11) esiz yabız qul bitidim.
 - (12) Atïm Bağatur Čigši.

Shu o‘rinda matnning o‘qilushi va mazmuni bilan bog‘liq ayrim izohlarni keltirib o‘tamiz. Sakkizinchı qatordagi **GwlzwjxiLca** harf birikmasi *atlığ yüzlüg* deb o‘qiladi, u juft so‘z bo‘lib, “atoqli-obro‘li” degan ma’noni anglatadi; to‘qqizinchı qatordagi **nwK** harf birikmasini N. O‘rnun *kün* deb o‘qigan. Vaholanki, bu yerda so‘z kun to‘g‘risida borayotgani yo‘q. Shuning uchun uni *kön* deb o‘qiganimiz ma’qul. Chog‘ishtiring, MK da: *tewä könî* – tuya terisi; hozirgi o‘zbek tilida: *kön* – “otning shilib olingan terisi”, yoki *könči* – “teriga ishlov beruvchi usta”; o‘ninchı qatordagi **icaGtib** harf birikmasi *bitgäči* o‘qiladi, u “bituvchi, qayd etuvchi, idora xodimi” ma’nosida; o‘n birlinchi qatordagi **ziBJzisi** *esiz yabız* – so‘zma-so‘z “bechora yovuz”, ko‘chma ma’noda “faqir”, **LvQziBJzisi** *esiz yabız qul* – “faqir qul” ma’nosini bildiradi. Xat bitish odobiga ko‘ra, bituvchi, kotib kamtarlik bilan o‘ziga shunday sifatni ep ko‘rgan. O‘rnak keltiradigan bo‘lsak, “Rohatu-l-qulub” asarini ko‘chirgan kotib o‘zini *kātibu-l-faqir Mansur baxši* deb atagan va b. Shulardan kelib chiqib,

yuqoridagi hujjat mazmunini quyidagicha talqin qilish mumkin: (1) Yana beshinchи oyning o'n sakkizinchisida (2) Bilig Ko'ngul (3) sangun boshlab keldi. Yabash (4) tutuq, Bo'zach tutuq, O'ra (5) Bo'rt tutuq, Altun (6) Tay sangun (uning) yordamchilaridir. Oti (7) O'z Apa tutuq. So'ngra butun (8) dovrug'li-obro'li o'ttiz er (9) keldik. Bir ko'n, bir qo'y, (10) ikki kup sharob (keltirdik). Bituvchi (11) faqir qul bitidim. (12) Otim Bag'atur Chigshi.

TURKIY YOZMA YODGORLIKLARDA SANA VA UNING AYTILISHI

Yozma yodgorliklarda sanani aytishning yo'li o'ziga yarasha: biror voqeaneing sanasi ko'rsatilganda avval yil, keyin oy, so'ngra kun aytildi. Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asarida *yıl-ay-kun* degan atama qo'llanilgan. Buning ma'nisi "taqvim"dir. Muhim jihat, bu atama shu turishida sanani aytish ketma-ketligini aks ettirgan.

Qadimgi turklarda muchalyil sanog'i amal qilgan. Ko'k turklarda oylarning oti yo'q: ular tartib ko'rsatkichi bilan yurtilgan. Bir misol. Kul tigin bitigining yakunida sarkarda Kul tigin o'limining va uning xotirasiga atab o'tkazilgan yo'g' marosimining sanasi shunday beriladi: Kül tigin qoñ yılqa, yeti yigirmikä učdi. Toquzunč ay yeti otuzqa yoğ ertürtimiz. – Kul tigin qo'y yilda, (birinchi oyning) o'n yettinchi kunida (=731 yil, 27 fevral) o'ldi. To'qqizinchi oyning yigirma yettisida (=731 yil, 1 noyabr) yo'g' marosimini o'tkazdik (K.III). E'tibor berilsa, birinchi sanada oy ko'rsatilgan emas, faqat kun qayd etilgan. Nechanchi oy to'g'risida so'z borayotganini keyingi jumladan bilish mumkin. Keyingi jumlada yilning to'qqizinchi oyi (toquzunč ay) qayd etilgan. Demak, avvalgi jumlada yilning birinchi oyi ko'zda tutilmoxda.

Turkiy yozma yodgorliklarda sana, ko'pincha, asar yakunidagi ta'rixda qayd etiladi. "Ta'rix" asli "sana" demakdir. Lekin sharq manbashunosligida asar oxiridagi yakuniy

ma'lumotlarni “ta'rix” deyish rusum bo'lgan. Sababi, matnning yakuniy ma'lumotlar keltiriladigan bo'limida (ta'rixda) uning sanasi keltiriladi. Ta'rixda asarning bitilgan (yirik asarlarda ularning ko'chirilgan) sanasi, kotibi, yeri to'g'risidagi ma'lumot berilgan bo'ladi. Sana ta'rixning bиринчи, shuning bilan birga, eng kerakli komponentidir.

Ilmiy terminologiyada ta'rixni *kolofon* (rus manbashunosligida “выходные данные”) yoki *datum* ham deyliladi.

Turkiy yozma yodgorliklarda ta'rixni berish tartibi har xil: masalan, tilxatlarda keltirilgan ta'rix yorliqlardagi ta'rixdan ayricha. Yorliqlar, tarixiy yoki badiiy asarlardagi ta'rix uch komponentdan tuzilgan bo'ladi: sana, matnni ko'chiruvchi kotibning oti, matn bitilgan yer. Turkiy ta'rix ana shu komponentlarning birligidan iborat.

An'anaga ko'ra, ta'rixdan avval asar tugaganligi qayd etiladi. Bu gap *tügädi* // *tügändi* yoki *tamām boldi* so'zлari bilan boshlanadi. Yoki gapning kesimi *tamām boldi*, *bitildi*, uning kotibi qayd etilgan bo'lsa, *bitidi*, *bitidim* so'zлari bilan tugaydi. Masalan, “Qutadg'u bilig” uyg‘ur yozuvli hirot nusxasining oxirida asar ko'chirib tugallangandan keyin bitilgan ta'rix *Tügändi Qutadğu kitabı* deb boshlanadi. Yoki Britaniya muzeyida Or.8193 soni ostida saqlanayotgan uyg‘ur yozuvli qo'lyozmadan o'rin olgan “Muhabbatnoma”ning oxiriga ta'rixdan avval *Tamām boldi Muhab(b)atnāma kitābi* deb yozib qo'yilgan. Qo'lyozmalarda asar tugaganligi ma'lum qilingach, unga ba'zan *Qutluğ bolsun*; *Qutluğ bolsun, davlat kelsün, mehnat ketsün* degan tilaklar ham qo'shib qo'yiladi.

Islom davri matnlarida sana, ko'pincha, *tarix* degan umumlashtiruvchi so'z bilan birga qo'llanadi va buning bilan matnning bitilish sanasiga ishora qilinadi. Masalan: *tarix sekiz yüz otuz beştä*; *tarix sekiz yüz qırq üçtä* singari.

Islom davri matnlaridagi yıl sanog'i hijriyda. Masalan, *sekiz yüz qırq üçtä* deyilganda hijriy “sakkiz yuz qirq uchinchi

yil” ko‘zda tutiladi. Undan keyin turkiy muchalyil oti keltiriladi. Bunday matnlarda oy otlari ham musulmon taqvimi asosida.

Tabiiyki, keyin oyning nechanchi kuni ekanligi ta’kidlanadi. Ba’zan bunga haftaning kuni ham qo’shib qo’yiladi. Shuning singari bir-ikki o‘zgachaliklarni aytmaganda, komponentlarning ketma-ketligi, jumla tuzilishida islom davri matnchiligidagi sana bitish an’anasi o‘zidan burungi davr matnchiligidan uncha farq qilmaydi. Islom davri matnchiligi qadimgi turk an’anasini saqlagan.

Badiiy matnlardagi ta’rix bitish tartibini “Qutadg‘u bilig”ning hirot qo’lyozmasidan olingan misol bilan dalillaymiz. Chunonchi, asar ko‘chirib tugallangan o‘rindagi ta’rix shunday: *Tügändi Qutadgu kitabi tarix sekiz (yuz) qirq üç yulta qoy yil muhar(r)am ayniñ törti Haruda*.

Yoki, ayni qo’lyozmaning boshqa bir yerida berilgan ta’rix quyidagicha: *Tarix sekiz yüz qirq üçtä qoy yil axiri muhar(r)am ayniñ tört yanisi Haru şahrinda bitildi*.

“Hibatu-l-haqoyiq” istanbul nusxasining oxiridagi ta’rix esa shunday: *Tarix sekiz yüz seksän dörtlä töyuz yili zulqada ayniñ on yetisidä şamba kiini tamäm boldi. Qutluq bolsun, davlat kelsün, mehnat ketsün tep Şayxzäda Abdulrazzäq baxşı Qustantaniyada bitidi*.

Uyg‘ur yozuvli “Muhabbatnoma”ning oxiriga bitilgan ta’rix: *Qutluq bolsun. Tarix sekiz yüz otuz beštä čiçqan yil rajap ayniñ altisinda Yazd şahrinda Mir Jalāl(id)din buyurğan üçün bu faqir Mansur baxşı bit(i)di*.

Uyg‘ur yozuvli “Tazkirayi avliyo” asarining yakuniga shunday tarix bitilgan: *Emdi tazkirada bitilgän mašäyix avliyälarniñ hikäyat sözläri tügätildi. Tarix sekiz yüz qirqta at yil jumādul-āxira ayniñ onida Heruda Abu Malik baxşı bitidim*.

Ana shunday ta’rix bitish an’anasini o’rta asrlarning yorliqlarida ham kuzatamiz. Masalan, Oltin O’rda xoni To‘xtamishning 1393 yili polyak qiroli Yag‘ayliga uyg‘ur

xatida yo‘llagan yorlig‘ining oxirida berilgan ta’rix shunday: *Taqaǵı yıl tarix yeti yüz toqsan beštä rajap ayinij sekiz yańıda ordu Tanda erürdä bitiglädimiz* (Tovuq yili, ta’rix yetti yuz to‘qson beshda, rajab oyining sakkizinchı kuni o‘rda Tanda ekanligida yozdik).

Oltin O‘rda xoni Temur Qutlug‘ning 1397 yili uyg‘ur yozuvida bitilib, satrma-satr arab xatida izohi keltirilgan yorlig‘ida uning hijriy 800 yil (=1397) bars yili, sha’bon oyining oltinchi kunida Uzu suvining yoqasida Mujavaranda bitilganligi qayd etiladi: *Tarix sekiz yüzdä bars yili ša’ban ayinij altinči künidä Üzü suyinij kanarıda Mujavaranda erürdä bitildi*.

Shohruhning Hirotning Chechakto‘ba mavzeidagi Talxan ota mozorining mujovuri Ismoil nomiga bergen uyg‘ur yozuvli suyurg‘alida qayd etilgan ta’rix: *Tarix sekiz yüz yigirmi beşidä ud yıl muharram aynij yigirmi ikisidä Bāğ-i Šaharda bitildi* (Ta’rix sakkiz yuz yigirma beshinchı, sigir yili, muharram oyining yigirma ikkisida (=1422 yilning 16 yanvari) Bog‘i shaharda bitildi).

Tilxatlarda ta’rixni keltirish shakli bulardan farq qiladi. Ortig‘i bilan qaytarish evaziga olingan narsa yoki tushumidan ulush olish sharti bilan ishlovga olingan yer uchun yozilgan rasmiy hujjatlar (tilxatlar), odatda, o’sha narsa nasiyaga olingan sanani qayd etish bilan boshlanadi.

Muhim belgilardan biri, tilxatlarda (odatda, uning oxirida) tilxat berayotgan kishi, hatto xatni yozgan kotib, guvohlar ham qayd etiladi. Biroq xatning yozilgan sanasi va bitilgan yeri ko‘rsatilmaydi.

Shu o‘rinda Berlinda saqlanayotgan Turfondan topilgan uyg‘ur yozuvli rasmiy hujjatlarning sanalarini ko‘rib chiqamiz:

U 5238 soni bilan saqlanayotgan hujjat shunday boshlanadi: *Taqiǵı yıl aram ay alti ...* (Tovuq yili aram oyining olti ...). Bu o‘rinda *aram ay // ram ay* – qadimgi uyg‘ur taqvimining birinchi oyidir.

U 5329 soni bilan saqlanayotgan uch qatorli hujjat *Tojuz yil üčünč ay bir* ... (To‘ng‘iz yili, uchinchi oyining bir...) deb boshlangan.

U 5316 soni bilan saqlanayotgan uch mesh may (*üč qap süčük*) olinganligi haqidagi to‘rt qatordan iborat bo‘lgan hujjat *Ud yil yitinč ay bir otuzqa* (Sigir yili yettinchi oyning yigirma birida) deb boshlanadi.

U 5314 soni bilan saqlanayotgan besh qatorli hujjatning boshlanishi shunday: *Tawšan yil onunč ay tört yigirmikä* (Tovushqon yil o‘ninchgi oyining o‘n to‘rtinchchi kuni).

U 5301 soni bilan saqlanayotgan uch qatorli hujjatning boshlanishi: *İt yil onunč ay biš yanğıqa* (It yil o‘ninchgi oyining beshinchchi kuni).

U 5291 soni bilan saqlanayotgan o‘n qatorli hujjat *İt yil bir yigirmińč ay tö[rt ..]* (It yil, o‘n birinchi oyining to‘rt ...) deb boshlangan.

U 5284 soni bilan saqlanayotgan saqlanayotgan to‘rt qatorli hujjatning boshlanishi: *Ud yil č(a)xš(a)p(a)t ay iki otuzqa* (Sigir yil chaxshapat oyining yigirma ikkinchi kuni). Matnda uchragan *čaxşapat ay* – ro‘za oyi, taqvimning o‘n ikkinchi oyidir.

Bunday hujjatlarda keltiriluvchi ta’rix uchta komponentdan tuzilgan bo‘ladi: yil, oy, kun. Yil, odatda, muchalyil otlari bilan keltiriladi.

Islom davridan avval yaratilgan matnlarda oy ikki xil tartibda berilgan: 1) oyning tartib ko‘rsatkichi aytildi: *birinč ay, ikinč ay, üčünč ay* singari. Bu tartib turkiy tillar tarixidagi eng eski tartibdir; 2) oy qadimgi uyg‘ur taqvimi (budda taqvimi, moniylik davrida ham turklar ana shu taqvimdan foydalangan) asosida keltiriladi. Bu taqvimga ko‘ra har qaysi oyning o‘z oti bo‘lgan. Masalan: *aram ay // ram ay* [*<sug‘d. r‘m>*] – qadimgi uyg‘ur taqviminining birinchi oyi. Yoki: *čaxşapat ay* [*<skr. siksapada>*] – ro‘za oyi, taqvimning o‘n

ikkinci oyidir. Ushbu tartib turklar buddizm va moniylikni qabul qilganlaridan keyin ommalashdi.

Qadimgi turklarda kunlarning oti yo‘q, ular o‘z tartibi bilan aytildi. Faqat oyning birinchi kunlari (odatda, birinchi o‘n kunlik) tilga olinganda unga *yayi* so‘zi qo‘shib aytildi. *yayi* – “oyning birinchi kuni” degan ma’noni anglatadi. Masalan, *bis yayiga* deyilganda “yangi oyning beshinchisida, oyning beshinchchi kunda” deb tushuniladi.

Islom davridan boshlab hafta kunlari ham ommalashdi. Shuning uchun islom davri matnlarida oy kunlaridan keyin hafta kunlari ham qo‘shib qo‘yilgan.

Demak, turkiy tillar tarixidagi sanoq kishilik hisob-kitob tushunchalarining kelib chiqishidan boshlab uning tugal bir tizimga aylanishiga qadar davom etgan uzoq asrli taraqqiyotini o‘zida aks ettiradi.

QADIMGI TURK MONUMENTAL MATNLARINING USLUBI

Monumental matn deganda o‘liklar xotirasini mangulashtirish istagida mozor toshlariga yozilgan bitiglar, ziyoratchilar tomonidan qoya toshlarga, shuningdek, biror ulug‘ tarixiy voqealar sabab bo‘lib toshlarga yozib qo‘yilgan yozuvlar tushuniladi. Ko‘k turk yozuvli yenisey bitiglarida buning singari monumental matnlar **whb bejii~ wkhb bejkü~ wghb bejgi** deyilgan. Hozirgi matnshunoslikda “monumental matn” bilan birga “epigrafik matn” atamasi ham qo‘llanilmoqda. Eski turkhada uning ham o‘z atamasi bor. Ko‘k turk yozuvli urxun bitiglarida epigrafik matnni **Ycgtib bitigtaš**, yenisey bitiglarida esa **aJqwkhb bejkü qaya~ aJqwkhm mejkü qaya** deyilgan.

Kunimizga qadar saqlangan turk monumental bitiglarining eng ko‘hnasi urxun obidalaridir. Bitiglar ulug‘ yo‘lboshchilar, milliy qahramonlar xotirasiga bitilgan yodnomalar bo‘lib, ularda xalq qahramonlarining ko‘zi tirikligida olib borgan ezgu ishlari, yurt erki va farovonligi, tinchligi yo‘lida ko‘rsatgan

jasoratlari yod etiladi. Bitiglarda tarixiy voqealar ajoyib til bilan, badiiy uslubda bayon etilgan. Muhimi, bitigtosh ijodkorlari o'sha kezlardayoq fikrni el-ulusga, kelgusi o'g'il-qizlarga yetkazishning eng ta'sirchan yo'lini topganlar. Ular bitiglarda tarixiy bayon, rasmiy, monumental matnlarga xos ko'tarinkilik, epitafiyalarga xos qayg'uli ohang – bari-barini o'zida mujassamlashtirgan sinkretik uslubni qo'llaganlar.

Unutmaslik kerak, qabrtoshlardagi yozuvlarning bari badiiy uslubda emas. Yuqorida yenisey bitiglarining ko'pi badiiy uslubda bitilganini ta'kidlagan edik. Biroq ayrim bitiglarda o'lik to'g'risida ma'lumot berilgan, xolos. Tuvadan topilgan uchinchi uch qatorli toshbitigni (Orkun 1987, 580, 582) o'rnak uchun keltiramiz:

Qara qan ičrägi ben Ezgänä
alti otuz yašima erti
ben öltim. Türğäs el içindä beg-ben. Bitig.

(Mazmuni: Qoraxon o'rdasida men Azgana yigirma olti yoshimda edi men o'ldim. Turgash elida beg edim. Bitig.).

Yenisey qabrtoshlarini, tabiiyki, marhumning yaqinlari, o'g'il-qizlari o'rnatgan. Biroq, e'tiborga sazovorlisi shundaki, qabrtoshlardagi bitiglarning ko'pi o'liklar tilidan berilgan. Ularda marhumning ko'zi tirikligi chog'ida er sha'ni-shavkati uchun ko'rsatgan ezgu ishlari hikoya qilinadi. Qayg'uli o'lim ularni o'z yurti, yaqinlari, uy ichi, o'g'il-qizlari, do'stu yorlaridan ayirgani, yorug' dunyoda ularning diydoriga to'yib ham ulgurmagani bitiladi. O'tganlarning yoshiga qarab matn mazmuni ham o'zgara borgan: bu dunyodan erta ketganlar "yaqinlarimga, yorug' dunyoga to'ymadim" (*bökmädim*) deya nido qiladilar.

Abakanga yaqin yerdagi Oltinko'l bo'yidan topilgan ikkinchi bitigtosh (Orkun 1987, 514–515, 520–521) shunday o'qiladi:

a) Quyda qadašima, qunčuyima adrılı bardım. Men oğlumqa ... bodunumqa bökmädim.

Sekiz qırq yaşıma ...

Erdäm bolsar, bodunuğ erk bodunuğ. Er atım Erän Uluğa,
erdämig batur-men.

Erdämlig bolsar, bodun isräk yürmädi, erinčim ikizimä.

b) On ay eltdi ögüm, oğlan toğdum, erin ulğatim.

Elimdä tört tegzindim. Erdämmim üçün Inänčü Alp ...

e) Er erdäm bolsar andağ ermiş. Ešin-men, Altun qırqa
kirtim.

Er erdäm üçün Tüpüt qanqa yalabač bardım, kelürtim.

(Mazmuni: Quyda o'rtog'imdan, malikamdan ayrıldım.
Men o'g'limga, xalqimga to'ymadım. O'ttiz sakkız yoshimda
... erdam bo'lsa, xalqi erkli xalqıdır. Er otım Eran Ulug' erdamlı
botırmen. Erdamlı bo'lsa, xalq sarxush yurmadı, afsusım ikki
bor ortdı.

Onam (qornida) o'n oy eltdi, o'g'lon tug'ıldım, er bo'lib
ulg'aydım. Elimda to'rt bor tegzindim. Erdam uchun Inanchu
Alp ...

Er erdam bo'lsa, shunday ermish. Eshi(?)- men Altun qirga
kirdim. Er erdam uchun Tuput xoniga elchi bo'lib borib
keldim.)

Yenisey daryosining g'arb qirg'og'idagi Oznachennaya
qishlog'idan topilgan bitigtosh (Orkun 1987, 573–575) shunday
o'qiladi:

a) Qunçuyım, qadaşım, adrıltım, buň-a. Yağıqa kirdim,
Kü Čäkül tutuq, sizimä adrıldım.

Elim, qanım, sizimä adrıldım. Altun keş adrıltım.

b) beş qırq er yaš ert[im]

c) El īnanči elin

Qanıñız yuqlayur, qadaş alpiñız qarğanur, ününüz
Yağıım anča ermiş, adrıldım.

(Mazmuni: Malikam, o'rtog'im, ayrıldım, mung-a. Yovga
kirdim. Mashhur Chakul tutuq, sizlarimdan ayrıldım. Elim,
xonim, sizlarimdan ayrıldım. Oltin o'q-yoyimdan ayrıldım.

O'ttiz besh – eryosh edim.

El inonchi, elini ... xoningiz yuksalur, do'stu alpingiz zafar qozonur, dovrug'ingiz ... Dushmanim shunday emish, ayrildim).

Ulug' Kem daryosining irmoqlaridan biri bo'lmish Chakulning tevaragidan o'n bitta toshbitig topilgan.

Chakul yoqasidan topilgan to'rtinchi bitigtoshning o'qilishi (Orkun 1987,528–529):

Alp Uruju tutuq-ben. Quyda qunçuyim[a], eki oğlanıma, sizimä, yaňus qızıma

Yış, eči eşim, qadaşlarım-a, adrılı bardım-a. Qızıj erim-ä, bökmädim.

Täŋri elimkä, bašda begimkä bökmädim. Sizimä, qırq yaşında qač[tırm].

(Mazmuni: Men Alp Urungu tutuq-men. Quyda malikamdan, ikki o'g'limdan, sizlаримдан, yolg'iz qizimdan ... yish, akalarim, o'rtoqlarim-a, ayrılib qoldim. (?) mardlarim-a, to'ymadim. Qutlug' elimga, boshdagı begimga to'ymadim, sizlарим-a, qirq yoshimda qochdim).

Chakul bo'yidan topilgan yettinchi yodgorlikning matni quyidagicha o'qiladi (Orkun 1987,531,539):

Qutlug' Čigši-ben, qadır yağıda

Qara bodunuma, yïta, sizimä,

Elimä, sizimä.

(Mazmuni: Qutlug' Chigshi-man. Mudhish dushmanda. Avom xalqim-a, esiz, sizlарим-a. Elim-a, sizlарим-a)

Chakul yoqasidan topilgan sakkizinchı bitigtoshning o'qilishi (Orkun 1987,531–532,539):

Tört oğlum bar üçün beňkümin t(iki).

Külüğ apa-ben.

(Mazmuni: To'rt o'g'lim bor uchun mangutoshimni tikladi. (Men) Kulug apa-men).

Ba'zi qabrtoshlarga marqad egasining o'lган vaqtı qayd etiladi, uning otini yodga olib duo aytiladi. Tabiiyki, bunday matnlarni badiiy asarlar deb bo'lmaydi. Nasroniy muhitida

yaratilgan turk qabrtoshlarini bunga o'rnak qilib keltirish mumkin. 1313 yili tiklangan Denxa Arim yodgorligining (Малов 1959, 78–79) uslubiga e'tibor bering:

(1) Aleksandros qan (2) saqīš(i) mij alti (3) yüz yegirmi tört (4) erdi. (5) Ut erdi. (6) Bu qabra (7) Denxa Arim (8) Batmanij turur. (9) Yat bolsun! Kelmiş (10) yaziqija pušu bolsun.

Mazmuni:

(1) Aleksandr xon (2) tarixi ming olti (3) yuz yigirma to'rt(inchi yil) (4) edi. (5) (Turkcha hisobda) sigir (yili) edi. (6) Bu qabr (7) Denxa Arim (8) Bamtanikidir. (9) Yod bo'lsin! (Qabr tepasiga) kelgan (10) (yaratgandan marhumning) gunohlaridan o'tishni so'rasin.

Epigrafik matnlarning ba'zilari tarixiy sanalarni, muhim voqealarни qayd etish uchun bitilgan. Bunday matnlarning uslubi-da ayri. Matnda uning kim tomonidan bitilganligi, yodgorlik o'rnatalishining maqsadi, muhim tarixiy vaqea va albatta sana qayd etiladi. Bunga o'rnak sifatida Amir Temurning yetti yuz to'qson uchinchi yil ko'klamida (=1391 yilning apreli) To'xtamishxonga qarshi yurish boshlagan chog'da eski o'zbek tilida ("chig'atoy turkiysi"da) yozdirgan bitigini o'rnak sifatida keltirish mumkin (Ushbu bitigning ochiqlamasi kitobimizning "uyg'ur yozuvi" bo'limida berilgan edi).

Tashrif bitiglari ham uslub jihatdan ajralib turadi. Bunday yozuvlar ko'proq muqaddas qadamjolarga bitilgan. Bitigda ziyoratchining oti, ziyorat ta'ixi aniq ko'rsatiladi. Bunga Qirg'izistonning janubida Aqbeyit yaqinidagi Ungir degan joydagи qoyatoshga uyg'ur xatida yozilgan bitigni misol keltirishimiz mumkin. Bitig shunday o'qiladi:

Yıl tört yüz altmış altida men Qumar Arämük munii bitidim.
Yıl bars yılı erdi, beşi(n)č ay on erdi. Tuşambat (?) kün erdi.
Qutluğ bolsun, inşa(a)la.

Mazmuni: Yil to‘rt yuz oltmish oltida (melodiy 1061–1062) men, Qumar Aramuk, buni bitdim. Yil bars yili edi. Beshinchi oy(ning) o‘n(inchi kuni) edi. Tushambat (?) kun edi. Qutlug‘ bo‘lsin, inshoollo (Содиков 1997, 91).

ISLOM DAVRI QABRTOSHLARIDAGI YOZUVLAR

Qabrtoshlar o‘tmishning o‘ziga xos san’at asari, arxitektura yodgorligi bo‘lib, ularni tayyorlash juda katta mehnat va mahoratni talab etgan. Boshlab yodgorlik uchun noyob va qimmatli tosh tanlangan. Tarixiy manbalarda bunday toshlar hukumdorlar buyrug‘iga ko‘ra ba’zan uzoq o‘lkalardan tashib keltirilganligi to‘g‘risida xabarlar bor. Keltirilgan ashyo tosh yo‘nuvchi usta(sangrez)ga topshirilgan. U toshni yo‘nib sandiqbichimli yoki beshikbichimli shaklga solgan. Bu orada toshga bitilguchi yodnomaga matni ham tayyorlab qo‘yilgan. Matn, odatda, olim, muarrix yo shoirlar, diniy ulamolar tomonidan tuzilar edi. Ulug‘ kishilarga atalgan yodnomani tuzish uchun ba’zan ular orasida tanlov ham o‘tkazilgan. Oqibat, matnlardan eng ma’quli, talabga javob beradigani tanlab olinib, xattotga topshirilgan. Toshni bezashda naqqoshning xizmati ayricha o‘rin tutadi. U silliqlangan toshning yuzasi va yon bag‘irlarini naqshlar hamda islom san’atida ommalashgan geometrik shakllar bilan bezagan. Harqalay, keyingi jarayon xattot bilan birgalikda bajarilgan deya olamiz. Chunki, toshning qanchalik chiroyli chiqishi xattot va naqqoshning birgalikdagi mehnatiga bog‘liq edi. Bu yumushlar tugagach, tosh sangtaroshga topshirilgan. So‘nggi va eng zahmatli ishni sangtarosh yakunlagan. Shunday qilib, chiroyli bir qabrtoshni tayyorlash uchun oylab vaqt sarflangan.

O‘rta asr islom madaniyati tarixida turli madaniyat va san’at markazlarida sangtaroshlik maktablari shakllangani ma’lum. Bu davrlarda, ayniqsa, samarqand-kesh sangtaroshlik maktabi shuhrat qozongan. Samarqand-kesh ustalarining ishlarini boshqa yerlardagi yodgorliklarda ham kuzatamiz. Bu

ustalarning mehnatiga talab katta bo‘lgan va e’tiborli kishilar xotirasiga qabrtosh yasash uchun ular taklif etilgan.

Shakli, ishlanishiga ko‘ra turli davrlarda yaratilgan qabrtoshlar bir-biridan ajralib turadi. Qabrtoshlarning yuksak darajada ishlangan, klassik turi sandiq ko‘rinishidadir. Biz ularni shartli ravishda “sandiqbichimli” qabrtoshlar deb atadik. Shunday atalsa-da, ularning tepe qismi bo‘rtgan, ayvon peshtoqi ko‘rinishida. Hatto toshning to‘rt ustuni ham ko‘pincha saroy ustunlari shaklida. Umumiy ko‘rinishi eski turkiston arxitekturasiga tegishli bo‘lgan chiroyli bir uyni eslatadi. Bunda chuqur ma’no mujassam: qabr o‘likning uyi degan qarash bor. Sandiqbichimli qabrtoshlar, XIV-XVI asrlarda keng tarqalgan. Yodgorlik shakli, uning bezaklari marhumning tirikligi chog‘ida jamiyatda tutgan mavqeい va yoshiga ham bog‘liq bo‘lgan. Xonlar, sultonlar, amirlar, shayxlar qabriga o‘rnatilgan toshlar nihoyatda chiroyli va salobatli. Ularni o‘z davrining ajoyib arxitektura obidalari sanash mumkin.

Qabrtoshlarning yana bir xili “beshikbichimli” toshlardir. Ular beshik ko‘rinishida ishlangan (kishi chaqaloqligida beshikda ulg‘aygani singari uning so‘ng yeri ham beshikday osoyishta bo‘luvi tilangan buning bilan). Ba’zilari ikki bo‘lakdan iborat: asosi sandiqbichimli ishlanib, usti beshik ko‘rinishida. Beshiktoshlarning tarixi ham uzoq. Bunday toshlar ham kishining tiriklidagi darjasini, yoshiga qarab ishlangan. Ayniqsa, o‘siprin va go‘dak o‘tganlarning qabrtoshlari kichik va bejirimligi bilan ajralib turadi.

Shartli ravishda “relsbichimli” deb atalayotgan qabrtoshlar, nisbatan, keyingi davrlarga tegishlidir. Ular ko‘rinishdan qirqma temir yo‘l relsiga o‘xshaydi. Shakli jo‘n, bezaklari ham yo‘q hisob. Marhumning tiriklik chog‘ida nisbatan quyiroq amalda o‘tganidan dalolat beradi. Iqtisodiy tanazzul davrida bunday toshlar kengroq tarqalgan.

Shakli, ishlanishi jihatidan Qashqadaryo viloyatining Qamashi tumanida joylashgan Hazrati Langar ziyoratgohidagi qabrtoshlar boshqa qabrtoshlardan butkul ayrilib turadi. Maqbara ichidan bir necha qabr joy olgan. Birinchi qabr ustiga tobutbichimli tosh qo'yilgan. Lekin tobutbichimli toshning yozuvi yo'q. Toshning bosh tomoniga tepasi mehrob shaklidagi toshlavh (stela) tiklangan. Marhum xotirasiga atalgan yozuv mana shu toshlavhda.

Ikkinchi qabr ustidagi yodgorlikning ko'rinishi ham shunday. Qabrnинг bosh tomoniga lavh tiklanib, yozuv ana shu lavhga bitilgan. Lavhning ters yog'iga ham ramka ishlanib, ostiga mehrob chizilgan. Ramkaga *Lahu-l-hukmu va alayhi yurja'u:n* (Hukm Unikidir va Unga qaytadilar) deb yozilgan. Ostidagi mehrobda esa yozuv yo'q. Uchinchi qabrtoshning ishlanishi ham shunday. Undagi lavhning ters yog'ida ham avvalgisiday yozuvi bor.

Ustalar mazkur toshlavhlarni mahorat bilan ishlaganlar, ularning xati ham o'ta chiroyli. Umuman, mazkur qabrtoshlarni o'z davrining eng ajoyib san'at va arxitektura, epigrafik yodgorliklari sifatida baholash mumkin.

Yodgorliklar ichida trapesiya ko'rinishidagilarini ham uchratamiz.

Qabrtoshlarning ancha keyingi davrlarda ommalashgan simyog'och asosi shaklida ishlanganlari ham bor. Kesh-Shahrisabz tevaragida bunday toshlar juda oz. Bunday qabrtoshlar Jizzax viloyati Baxmal tumanidagi eski qabristonlarda bor. U yerda simyog'och asosi shaklidagi toshlar keng tarqalgan.

Qabrtoshlar orasida sopolak shaklidagilari ham bor. Bunday toshlarning shakli oddiy bo'lib, ularga naqshlar berilgan. Yozuvi chiroyli.

XIV asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida qayroq shaklidagi toshlar keng tarqalgan. Bularning shakli oddiy, bezaklari ham yo'q. Tosha asosan, basmala hamda

marhumning ismi-sharifi, o‘limining sanasi bitilgan, xolos. Bunday toshlarni Samarqand viloyatining Chelek tumanidagi eski qabristonlarda uchratamiz.

Yodgorliklar orasida qabr-sandiq ham ayricha o‘rin tutadi. Bu yerlarda qabr-sandiqlar, asosan, taxtadan ishlangan. Shuning uchun ham ular o‘ralgan, usti yopiq joylar, ko‘pincha, maqbaralardagi qabrlarga qo‘yilgan. Odatda, qabr-sandiq o‘zining ishlanishi, bezaklari jihatidan qabrtoshlardan qolishmaydi. Tabiiyki, bunday yodgorliklar ulug‘ kishilarining qabriga qo‘yilgan. Afsuski, kunimizgacha bunday yodgorliklar juda oz saqlangan. Xuddi shunday qabr-sandiq Kitob tumanidagi Sulton Said Ahmad (Hazrati Bashir) maqbarasida bor. Uni ayni turdagи san’at yodgorliklarining go‘zal namunalaridan biri deb sanash mumkin. Yodgorlik yaxshi saqlangan. Faqat u ayni chog‘da go‘r ustidan chetga olib qo‘yilibdi. Bu yerlik qariyalarning so‘ziga qaraganda, qabr-sandiq avval go‘r ustida turgan. Keyinchalik qabrga yangi marmar o‘rnatilgach, chetga olib qo‘yilgan. Aftidan, mazkur qabr-sandiq 300-330 yillar burun yasalgan.

Islom davri qabrtoshlarida matnga jiddiy e’tibor qaratilgan. Bu davr qabrtoshlaridagi matn o‘z tuzilishi, matn tanlash prinsipiغا ko‘ra O‘rta Osiyo xalqlari tomonidan ancha burun, boshqa diniy e’tiqodlar davrida yaratilgan epigrafik matnlardan farq qiladi. Muslim xotirasiga o‘rnatilgan qabrtosh islom madaniyatining muhim yodgorligidir. Bu davr toshlaridagi matn butkul islomiy ruhda. Tabiiyki, yodnomma matni toshning tuzilishi, kimga atalayotganiga qarab tanlangan. Yodgorliklarda marhumga oid tarixiy ma’lumotlardan tashqari islom e’tiqodidagi tushunchalar, Qur’oni karim oyatlari joy olgan. Chunonchi, e’tiborli kishilar sharafiga bitilgan yodnomma basmala bilan boshlanadi. Bundan tashqari toshga Ollohning ismi-sifatlari (asmau-l-husna) bitilgan. Ularning soni turlicha: o‘ta e’tiborli yodgorliklarda 99 ta, boshqalarida 66 yoki 33 ta keltiriladi. Toshga ba’zan Allah, Muhammad so‘zlar ham

bitilgan. Shuningdek, matnda Qur’oni karimdan oyatlar ham keltirilgan.

Matn ichida marsiyalar, ba’zan sharq klassiklarining teran falsafiy baytlari ham joy olgan. Va, eng asosiysi, matnda marhum to‘g‘risidagi ma’lumotlar alohida yer egallaydi. Sandiqbichimli qabrtoshlarda bunday ma’lumotlar toshning bosh va oyoq ko‘ndalangiga bitilgan. Bosh tomonda ushbu marqad kimga tegishli ekanligi ta’kidlansa, oyoq tomonda o‘limining ta’rxi beriladi.

Tosh qanchalik soddalashgan sari undagi matn ham oddiyashib, qisqara boradi. Ayrim toshlarda basmala, o‘likning ismi-sharifi va o‘limining sanasi qayd etilgan, xolos.

Islom davrida yaratilgan qabrtoshlar uch tilli: arabcha, forsiy hamda turkiy. Yodgorliklarda basmala, asmau-l-husna, Qur’oni karimdan olingan oyatlar arabcha shaklda keltirilgan. Marsiya va she’rlar, ko‘pincha, forsiyda keladi. Marhumga tegishli qaydlar, o‘limining ta’rxi XIV–XVI asrlarda, ko‘pincha, arab tilida bo‘lib, bular bilan oldinma-ketin forschada ham yozila boshlaydi. Keyingi davrlarda marhum to‘g‘risidagi qaydlar turkiyda beriladigan bo‘ldi.

Qabrtoshlarning bezaklari ham e’tiborga molik. Toshlarga ko‘pincha mehrob tasviri tushirilgan. Ba’zi toshlarning bezaklari boy, ta’rifiga so‘z ojiz. Hatto qirralariga ishlangan ustunchalar ham naqshinkor. Ustunchalar ishlanishiga ko‘ra uch xil: morpech (kulala ilon), kungirador hamda bezaksiz ustun shaklida. Yana bir jihat, toshlarning yuziga romashka gul, yulduzchalar o‘yib tushirilgan. Bu shakl, aftidan, shamdon vazifasini bajargan ko‘rinadi.

Yana toshlarga islom tushunchasidagi abadiyat belgisi(svastika)ni tushirish ham mumkin bo‘lgan.

Yozuv toshlarga o‘yib yoki bo‘rtma shaklda bitilgan. Xat uslubi ko‘pda suls, sulsi nasx, shuningdek, nasx va nasta’liqda. Ba’zi toshlarda Allah, Muhammad so‘zлari hamda matndagi muhim o‘rinlar ramkalarga olinib, kufiyda ham yozilar edi.

S o‘r o q v a t o p s h i r i q l a r:

Lurfan yozma uslublar tarixini, ularning kelib chiqishini so‘zlab bering.

Lutfan badiiy matnlar uslubi va uning belgilarini ochiqlab bering.

“Sutra uslubi” va uning belgilarini ta’riflang.

O‘tmishdan qolgan rasmiy yozmalarining muhim qirralarini ochib bering.

Qadimgi turk monumental matnlari qanday uslubda bitilgan? O‘rnaklar bilan tushuntiring.

Turli xil matnlardan olib, ularning uslubini tahlil qiling.

Turkiy yozma yodgorliklarda tarix qanday ko‘rinishda berilgan? O‘zingiz bilgan-o‘qigan matnlardan o‘rnaklar keltiring.

O‘zbekistonning turli o‘lkalarida o‘zingiz ko‘rgan-bilgan eski qabrtoshlardagi yozuvlar to‘g‘risida o‘z bilgingizcha ma’lumot yig‘ing. Imkon tug‘ilsa, o‘sha yerlarga o‘qituvchingiz bilan epigrafik ekspeditsiya uyuشتiring.

YETTINCHI BO‘LIM. MATNLAR

Matnni o‘qib o‘rganish uchun eng kerakli tu sh u n ch a l a r: *transkripsiya, transliteratsiya, ilk matn, asarning hozirgi o‘zbek tiliga o‘girmasi, asar tarjimasi.*

T i l t a r i x i o‘qituvchilar i uchun k o‘rsatmalalar:

Hurmatli o‘qituvchilar! Talabalarning matn ustida ihlashi uchun Sizning ko‘magingiz kerak bo‘ladi. Bunda quyidagi ko‘rsatmalarga e’tibor qilmoqlig‘ingizni so‘raymiz:

Lutfan berilgan matnlarni talabalaringizga bir boshdan o‘qiting.

Talabalaringiz matnni o‘qish bilan barobar hozirgi o‘zbek tiliga o‘girsinlar. Qiynalgan o‘rinlarda kitobda berilgan o‘zbekcha o‘girmalardan foydalanishlari mumkin. Kerak bo‘lsa, o‘z o‘girmalarini kitobdagi o‘girmalarga qiyoslab borishlari uchun yo‘l bering.

Lutfan matndagi unutilgan, eski so‘zlarning lug‘atini tuzdiring.

Ma’ruzalaringizda ham, mashq darslarida ham matnlardan misollar olib ishlating.

Talabalaringiz o‘zlarining kurs ishlari, bitiruv-malakaviy hamda magistrlik ishlarida berilgan matnlardan foydalanishlariga ko‘maklashing.

TO‘NYUQUQ BITIGI

Yodgorlik Ikkinci turk xoqonlig‘i davrida yashab o‘tgan davlat arbobi va sarkarda To‘nyuquq xotirasiga tiklangan. Bitig muallifi To‘nyuquqning o‘zidir.

Bitigning yozilgan sanasi aniq emas. Ba’zi olimlar u 712–716 yillar orasida yozilgan, ba’zilar 720, ayrimlar 725–726 yillarda bitilgan deya taxmin qiladilar. U. Sertkaya matnda kechgan tarixiy voqealarni tahlil qilar ekan, bitig, taxminan, 732–734 yillar orasida yozilgan, degan xulosaga keldi. Uning ko‘zqarashicha, To‘nyuquq bu kezlar 85 yoshlarda bo‘lgan (Sertkaya 1995, 119–128).

Yodgorlik Mo‘g‘ulistonidagi Bain Sokto manzilidan topilgan. Hozir ham tiklangan joyida. U 62 satrli bo‘lib, bir-biriga qaratib tiklangan ikki to‘rt qirrali toshga yozilgan (nashrlariga qarang:

Малов 1951; Orkun 1987, 99–124; Абдурахмонов, Рустамов 1982, 65–86; Аманжолов 2003, 176–185).

Quyida keltirilayotgan matn bitigning Orhun kitobida berilgan fotosi asosida tayyorlandı (Orhun.47–56).

Matn transkripsiyasi

1. Bilgä Toñuquq-bän. Özüm Tabğač äliňä qılıntım. Türk bodun Tabğačqa körür ärti.

2. Türk bodun qanın bulmayın tabğačda adrıltı, qanlantı, qanın qodup tabğačqa yana içikdi. Täjri anča tämis ärinč: Qan bärtim,

3. qanıňjin qodup içikdiň, içikdük üçün täjri öл tämis ärinč, türk bodun ölti, alqıntı, yoq boltı, türk sir bodun yärintä

4. bod qalmadı, ida tašda qalmısı qobranıp, yäti yüz boltı: äki ülügi atlığ ärti, bir ülügi yadağ ärti. Yäti yüz kişig

5. uduzuğma ulugı şad ärti. Yiğil, tädi, yiğmasi bän ärtim – bilgä Toñuquq. Qağan-mu qışayıň tädim, saqıntı, turuq buqalı sämiz buqalı arqda

6. bilsär, sämiz buqa, turuq buqa täyin bilmäz ärmis, täyin anča saqıntı. Anta kısrä täjri bilig bärtük üçün özüm-ök qağan qısdım. Bilgä Toñuquq boyla baǵa tarqan

7. birlä Ältäris qağan bulayın, bəriyä tabğačığ, öjrä qıtańıň, yıraya oğuzuğ öküşák ölürti. Bilgäsi, čabısı bän-ök ärtim. Čuǵay quzın, Qara qumuǵ olurur ärtimiz.

8. Käyik yayı, tabisğan yayı olurur ärtimiz, bodun boǵzi toq ärti. Yaǵımız tägrä učuq tägirti, biz šag ärtimiz. Anča olurur ärk äli. Oğuzd(a) antan körög kälти.

9. Körög sabı antaǵ: Toquz oğuz bodun üzä qağan olurtı, tir, Tabğačgaru Qonı sähjünög idmüs, Qıtańgaru Tonra Sämig idmüs, sab anča idmüs: Azqıňa türk bodun

10. yoriyor ärmis, qağanı alp ärmis, ayğučısı bilgä ärmis. Ol äki kişi bar ärsär, səni tabğačığ ölürtächi tir-män, öjrä qıtańıň, ölürtächi tir-män, bəni oğuzuğ

11. ölürtäči-ök tir-män. Tabğač, birdänäyin täg, qītaň, öñdänäyin täg, bän yıldanayın tägäyin. Türk sir bodun yärintä idi yorimazun, usar, idi yoq qīsalım

12. tir-män. Ol sabığ äsidip tün udışiqim kälmedi, küntüz olursiqim kälmedi. Anta ötrü qağanıma ötüntim, anča ötüntim: Tabgač, oğuz, qītaň, bu üçägү qabasar,

13. qaltači-biz, öz içi taşın tutmıs-täg-biz. Yuyqa ärklig topulgalı učuz ärmis, yinčä ärklig üzgäli učuz, yuyqa qalın bolsar, topulguluq alp ärmis, yinčä

14. yoğan bolsar, üzgülük alp ärmis. Öñrä Qītaňda, biriyä Tabgačda, quriya Qurdanta, yiraya Oğuzda äki üç biň sümüz, kältäči-miz bar-mu, nă? anča ötüntim.

15. Qağanıım bän özüm bilgä Toňuquq ötüntük ötüncümin äsidü bärti, köylüňčä uduz, tädi. Kök üňüg yoğaru Ötükän yišgaru uduztim, Inigäk kölükün Toğlada oğuz kälти.

16. Süsi üç biň ärmis, biz äki biň ärtimiz, sünüşdimiz, tähri yarlıqadı, yañdımız, ögüzkä tüşdi. Yañduq yolta yämä ölti kük, anta ötrü oğuz qopun kälти.

17. Kältürtim-ök türk bodunuğ Ötükän yärikä bän özüm bilgä Toňuquq. Ötükän yärig qonmıs täyin äsidip biriyäki bodun, quriyaqı, yirayaqı, öñräki bodun kälти.

18. äki biň ärtimiz biz, äki sü boltı. Türk bodun olurgalı, türk qağan olurgalı Şantuj balıqa, taluy ögüzkä tägmis yoq ärmis. Qağanıma ötünpü sü äldim.

19. Şantuj balıqa, taluy ögüzkä tägürtim. Üč otuz balıq sidi, usin buntatu yurtda yatu qalır ärti. Tabğač qağan yağımız ärti, on oq qağanı yağımız ärti,

20. artuq qırqız küchlüğ qağan yağımız boltı. Ol üç qağan ögläşip Altun yiš üzä qabasalım timis, anča ögläşmis, öñrä türk qağanğaru sülälîm, timis, ajanru sülämäsär, qačan änjirsär, ol bizni,

21. qağanı alp ärmis, ayğučisi bilgä ärmis, qačan änjirsär, ölürtäči kük. Üčägün qabsap, sülälîm, anı yoq qīsalım, tämis. Türğas qağan anča tämis: Bäniň bodunum anta ärir, tämis,

22. Türk bodun yämä bulğanč-ol, tämis. Oğuzi yämä tarqanč-ol, tämis. Ol sabin äsidip, tün yämä udusiqim kälözä ärti, (küntüz yämä) olursiqim kälözä ärti, anta saqintim a ...

23. ...a süləlim..., tädim. Kögmän yoli bir ärmis, tumis täyin äsidip, bu yolun yorisar, yaramači, tädim Yärchi tilädim, çölgı az äri bultum.

24. Özüm, Az yirim ..., anı bil ... ärmis, bir turuqı ärmis, Anın barmis ajar yatip, bir atlığ barmis täyin ol yolun yorisar, unç tädim, saqintim, qağanıma

25. ötüntim, sü yoritdim, atlat, tädim. Aq tärmäl käčä oğraqlatdim, at üzä bintürä qarığ sökdim, yoqaru at yätä yadağin, iğac tutunu ağturtim, öñräki är

26. yoğaru tägürip, ī bar art aśdimiz. Yobalu intimiz, on tünkä yantaqı tuğ birü bardimiz. Yärchi yär yanılıp, boğuzlantı, buñadip, qağan yälü kör, tämis.

27. Anı subug baralim. Ol sub qodı bardimiz, sanağalı tüşürtimiz, atığ iqa bayur ärtimiz, kün yämä, tün yämä yälü bardimiz. Qırqızıq uqa basdimiz,

28. sü äjägin ačdimiz. Qanı süsi tärilmis, süňüşdimiz, sančdimiz, qanın ölürtimiz. Qağanqa qırqız boduni içikdi, yükünti, yantimiz, Kögmän yişig äbirü kälitimiz.

29. Qırqızda yantimiz. Türğas qağanta körög kälti, sabi antäg: Öndän qağanğaru sü yorılım, tämis, yorimasar, bizni, qağanı alp ärmis, aygucısı bilgä ärmis, qaçan änirsär,

30. bizni ölürtäči kük, tämis. Türgis qağanı taşıqmıs, tädi. On oq boduni qalısız taşıqmıs, tär. Tabğač süsi bar ärmis. Ol sabıq äsidip, qağanım: Bän äbgärü tüşayın, tädi.

31. Qatun yoq bolmıs ärti, anı yoğlatayın, tädi. Sü bariň, tädi, Altun yišda olurun, tädi. Sü baši Inäl qağan, tarduš şad barzun, tädi. Bilgä Toňuquqa – bäßä aydī:

32. Bu süg ält, tädi, aqı yaniq köjlünçä ay, bän sänja nä ayayin, tädi. Kálir ärsär, kü är ökülür, kälözä ärsär, tiliq, sabıq alı olur, tädi. Altun yišda olurtimiz.

33. Üč körög kişi kälти, sabı bir: qaganı sü taşıqdır, on oq süsi qalısız taşıqdır, tär. Yarıs yazında tärilälim, tämis. Ol sabıg äsidip, qağanğaru ol sabıg it(t)ım: Qantayın sabıg yana

34. kälти, oluruň, täyin tämis. Yälmä, qarğı ädgüti urgıl, basıtma, tämis. Bög(ü) qağan bañaru anča ayıdmış, apa tarqanğaru içrä sab idmış: Bilgä Toñuquq aňıg-ol, öz-ol anlar,

nishoni yo‘suni bilan musallam tutib, (10) har yili yangi nishon talab qilmay, bu nishon bilan yil bo‘yi har turli soliq (11) solmay, daftarlarga qayd etilsin. (Daromadlaridan) o‘zi foydalansin. Hech kishi (undan) mol, (12) don-dun talab qilmasin. Unga ziyon-zahmat yetkazmasin deb, bu muhrli nishonni sigir yili, (13) shavval oyining yigirma sakkizida Andiganda bitildi.

SULTON ABU SAID BITIGI

Sulton Abu Saidning turk sultoni Hasan begga (=Uzun Hasanga) yo‘llagan bitigi uyg‘ur xatidadir. Bitig Istanbuldagı To‘pqopı saroyi muzeyida Ye 12307 raqami ostida saqlanmoqda. Eski o‘zbek tili(“chig‘atoy turkiysi”)dagi 76 qatorli ushbu bitig uyg‘ur xatida yozilgan bo‘lib, tagma-tag arab harflari bilan izohlab chiqilgan (Kurat 1940,119–134,196–200).

Bitigning matni

- 1) **Sultān Abu Sa’id Körägän sözüm.**
- 2) Hasan beggä salām tegäč, söz ul-kim,
- 3) **Tejri** ’ināyatı bulup Sāhib qırān
- 4) **Temür beg** tamām mamālikni musahhar qılıp yürügändä

Uluğ

- 5) atanj ’Usmān beg čin könli bilä
- 6) **Beg** davlatığa panāh keltürüp ihläsini bildürgän üçün
- 7) **Beg** dağı ’ināyatlar qılıp barča ulusdin artuqsı körüp
- 8) Diyārbakır vilāyatini bildürüp xāsa oğul uşaqqi-
- 9) niň tünčliqи üçün Hamid teg yerni dağı
- 10) suyurgap yurt bergän durur. ’Usmān beg dağı
- 11) **Begniň ul** ’ināyat şafqatini unutmayın
- 12) **Begdin** soňra oğlanlarıغا čin ihläsini bilä küč berip, burun
- 13) **Beg** čaqında da qılğan xiðmatlarini hargiz özgä qılmadı. Tejri ’ināyat

- 14) qılıp Sāhib qirān
 15) **Beg** atamnīn taxtīnī
 16) meñä rozi qıldi ersä, sen dağı atan yurtinī
 17) bilip el-ulusuññi başlağandın beri
 18) yaxšılığınjıñ čin etiqādīnī bildürüp
 19) erdiñ. **Teñri** 'ināyatı bilä eränlär himmatidin bu oçurlarda burunğıñ keçkän
 20) ata-ağalarıñdın artuqsı, köñül tilägän-deg, šäyasta xiðmat-
 21) lar qıldıñ. Ini-oğulluq, dostluq, qarındaşlığınjıñ bildürdüñ.
 22) Seniñ bu xiðmatlarıñdın asru räzi bolduq. Emdi sen dağı bilürsen-
 23) kim, ulus egäsi
 24) **Temür beg** tamām mamālikni zabit qılıp üläskändä Tabriz
 25) taxtīnī
 26) meniñ atam
 27) **Mirānshāh Mirzāga** bergän durur. Seňä dağı ma'lum durur-kim,
 28) ata yurti öz yurt bolur. **Teñri** 'ināyatıga siğinip
 29) bu fursatlarda Aðarbayjān vilâyatlarıñi zabit qılıp,
 30) atam yurtinī burunğıñ yosun bilä taxt qılıyın tep kelä durur-
 31) men. Hasan 'Alinij buzulğan xabarı örtüdin keldi. Bağayat davlatğa
 32) munâsib iş bolmuš. Miyânaña yetkändä iniñ Murâd
 33) bilä yaxşı sözlärinj keldi. Seniñ köylündä andaq
 34) kecmäsün-kim, Tabrizda Jihānshāh turup erdi, meñä bermädilär dep.
 35) Sen dağı bilürsen-kim, Jihānshāhğa bir vāsita bilän andaq tüşüp erdi.
 36) Arada bir ahd sözi dağı keçip erdi. Basa

- 37) biz dağı Xurāsān vilāyatlarığa yanla kelip erdük. Bir nečä
- 38) vilāylatlarnıň zabtını qılmaq muhim erdi. **Teñri** 'ināyatı
- 39) bilä eränlär himmatidin ul vilāyatlar musahhar bolup
- 40) erdi-kim, Jihānšāh seniň üstüňä yürüdü tep eşittük
- 41) ersä, ul ahd arada qalmadı. Sen dağı eşitmiş bolgay-sen-kim,
- 42) 'Ali beg degän joramnı bitiglär bitip Jihānšāhğa čapturdum-kim,
- 43) seniň bilä ahd qılğanda bir-birimizniň dostığa dosta, duşmaniňga
- 44) duşman bolalı tep söz keçip erdi. Emdi
- 45) bizniň Hasan begdin yaxšíraq dostumız yoq turur. Yüz yıldın
- 46) beri özgä bolmağan ahd seniň üstündä boldı.
- 47) Men dağı **Teñri** 'ināyatıga sığınıp seniň üstüňä yürüdüm tep
- 48) bildürä yibärip erdim. Yibärgän elçi Tabrizğa yetkändä
- 49) Jihānšāhnıň işini bir sarı qılghan ermiş-sen. **Teñri** 'ināyatı bilä
- 50) Tabrizğa kelgänimdä sen dağı yïraqsınmayın kelip körür yaraqını
- 51) tapsaň, kelip körgil. **Teñri** 'ināyatidin 'umidim ul durur-kim, Rum, Mïsir,
- 52) Šäm başlıq tamām mamālik fathını bāt
- 53) bizgä rozi qılgay esä, Allah ta'älä emdi bilä bolğan-
- 54) dün soj 'umid ul-kim, barça iş köňül tilägän-deg bolgay.
- 55) Ul sarıqı vilāylatlarnıň yaraq maslahatları-
- 56) nı sen yaxšíraq bilürsen. Ağär
- 57) men özüm barmaqlıq hājat bulmayın oğlanlarımdın basa
- 58) beglärdin, čerigdin ne mīqdär keräklik bolsa,
- 59) yaraq körüp tiläsän, ul čaqlıq kişi yibäräyin. Bu

- 60) čaqlıq inilik, qarındaşlıq, xiðmatkārlıqnı sen qıldınj.
 61) **Tenri** 'ināyatı bilä eränlär himmatidin Mısır, Rum,
 Šäm-teg yerlärni
 62) alıp bermäknı
 63) men biläyin. Sendin **Tenri** 'ināyatı bilän 'umidim ul
 durur-kim,
 64) mundin sonra dağı ini-oğulluq xidmat-
 65) kārlıqnı artturğay-sen. Hargiz özgä bolmağay-
 66) sen. Ne oğul bolğay-kim, bu keçär dunyāda burunğï
 yaxši-
 67) ları yüz yıldın beri qılğan dostluq, qarındaşlıq-
 68) nü özgä qılğay.
 69) **Temür beg** atan 'Usmān beggä Diyārbakir vilāyatini
 70) bergän bolsa, 'umidim ul durur-kim,
 71) men seňä **Tenri** 'ināyatı birlä Mısır, Rum vilāyatlarıñi
 72) alıp bergäy-
 73) men. Keçär dunyāda qiyāmatğa deginč bu yaxši at
 arada
 74) qalğay. Seniň esänligiňi körä Mahmud beg-
 75) ni yibärildi. Sičqan yılı Rabi'ul-avval ayinjı yigirmi
 76) ikisidä Miyānada erkändä bitildi.

Bitigning mazmuni

- (1) **Sulton Abu Said Ko‘ragan so‘zim.**
 (2) Hasan begga salom degach, so‘z ul-kim, (3) **Tangridan** inoyat yetib Sohibqiron (4) **Temur beg** tamom mamlakatlarnı musahhar qilib [egallab] yurganda ulug‘ (5) otang [ya’ni, bobong] Usmon beg chin ko‘ngil bilan (6) **Beg** davlatiga panoh keltirib [ya’ni, beg davlatining tinchligi uchun kurashib], o‘z ixlosini bildirgani uchun (7) **Beg** ham inoyatlar qilib, (uni) barcha ulusdan ortiq darajada ko‘rib, (8) Diyorbakir viloyatini berdi. Barcha bola-chaqasi(9)ning tinchligi uchun Hamid tag yerni ham (10) suyurg‘al qilib, yurt qilib bergen edi. Usmon

beg ham (11) **Begning** ul inoyat shafqatini unutmayin (12) **Begdan** so‘ngra (uning) o‘g‘lonlariga chin ixlosi bilan xizmat qilib, burun (13) **Beg** chog‘ida-da qilgan xizmatlarini hargiz o‘zga qilmadi.

Tangri inoyat (14) qilib, Sohibqiron (15) **Beg** otamning taxtini (16) menga nasib qildi ersa, sen ham otang yurtini (17) bilib, el-ulusingni boshlagandan beri (18) yaxshilig‘ing, chin e’tiqodingni bildirib (19) erding. **Tangri** inoyati bilan mardlar himmatidan bu chog‘larda burungi kechgan (20) ota-og‘alaringdan ortiq, ko‘ngil tilagandek, shoyasta xizmat(21)lar qilding. Ini-o‘g‘illik, do‘slik, qarindoshlig‘ingni bildirding.

(22) Sening bu xizmatlaringdan benihoya rozi bo‘ldik. Endi sen yana bilursen-(23)kim, ulus egasi (24) **Temer beg** tamom mamlakatlarni zabit qilib, (ularni o‘z yaqinlariga) ulashganda Tabriz (25) taxtini (26) mening otam (27) **Mironshoh Mirzoga** bergen edi. Senga-da ma’lum turur-kim, (28) ota yurti o‘z yurting bo‘lur. **Tangri** inoyatiga sig‘inib (29) bu fursatlarda Azarbajyon viloyatlarini zabit qilib, (30) otam yurtini burungi yo‘sun [ya’ni, Temurbek zamonidagi qonun] bilan boshqarayin deb kelyapman(31). Hasan Alining buzuq xabari chappasidan keldi. Davlat uchun bag‘oyat (32) munosib (bir) ish bo‘ldi. Miyonaga yetganda ining Murod (33) bilan yaxshi so‘zlaring keldi. Sening ko‘nglingda andoq (34) kechmasin-kim, Tabrizda Jihonshoh turur erdi, menga bermadilar, deb. (35) Sen yana bilursen-kim, Jihonshohga bir vosita bilan andoq tushib erdi [ya’ni, bir sabab bilan berilgan edi]. (36) Orada bir ahd so‘zi ham kechib erdi. So‘ng (37) biz ham Xuroson viloyatlariga qaytib kelib erdik. Bir necha (38) viloyatlarning zabitini qilmoq muhim erdi. **Tangri** inoyati (39) bilan, mardlar himmatidan ul viloyatlar musahhar bo‘lib (40) erdi-kim, Jihonshoh sening ustingga yuridi, deb eshitganimizda (41) ul ahd orada qolmadi. Sen ham eshitgan bo‘lsang kerak-kim, (42) Ali beg degan jo‘ramni bitiglar bitib Jihonshohga choptirdim-kim, (43) sening bilan ahd qilganda bir-birimizning do‘siga do‘s, dushmaniga

(44) dushman bo‘laylik deb, so‘z kechib erdi. Endi (45) bizning Hasan begdan yaxshiroq do‘stimiz yo‘q turur. Yuz yildan (46) beri o‘zga (bilan) bo‘lмаган ahd sening ustingda bo‘ldi. (47) Men ham **Tangri** inoyatiga sig‘inib, sening ustingga yuridim deb (48) bildirgulik yuborib edim. Yuborgan elchi Tabrizga yetganda (49) Jihonshohning ishini bir yoqli qilgan emishsan.

Tangri inoyati bilan (50) Tabrizga kelganimda sen ham yiroqsinmay, kelib ko‘rishning yarog‘ini [ya’ni, ilojini] (51) topsang, kelib ko‘rgin. **Tangri** inoyatidin umidim ul turur-kim, Rum, Misr, (52) Shom boshli butun mamlakatlar fathini bot (53) bizga nasib qilsa, Alloh taolo shunga yetishtirgandan (54) so‘ng, umidim ul-kim, barcha ish ko‘ngil tilagandek bo‘lg‘ay. (55) U yoqlardagi viloyatlarning harbiy qudratini (56) sen yaxshiroq bilursen. Agar (57) men o‘zim bormoqqa hojat topmay, o‘g‘lonlarimdan, so‘ngra (58) beklardan, cherigdan ne miqdor kerakli bo‘lsa, (59) (cherigning) harbiy ahvolini qarab chiqib, yana tilasang, ul choqli kishi yuborayin. Bunga (60) teng keladigan [ya’ni, bunga arzirli] inilik, qarindoshlik, xizmatkorlikni sen qilding.

(61) **Tangri** inoyati bilan, mardlar himmatidan Misr, Rum, Shomdek yerlarni (62) olib bermakni (63) men bilayin [ya’ni, men shuni bilay; o‘z ustimga olay]. Sendan **Tangri** inoyati bilan umidim ul turur-kim, (64) bundan so‘ng ham ini-o‘g‘illik, xizmat(65)korlikni orttirg‘aysen. Hargiz o‘zga bo‘lмаг‘ay(66)sen. Bu qanday o‘g‘il-kim, bu kechar dunyoda burungi yaxshi(67)lari yuz yildan beri qilgan do‘stlik, qarindoshlik(68)ni o‘zga qilsa?!

(69) **Temur beg** otang Usmon begga Diyorbakir viloyatini (70) bergen bo‘lsa, umidim ul turur-kim, (71) men senga **Tangri** inoyati birla Misr, Rum viloyatlarini (72) olib bergay(73)men. Kechar dunyoda qiyomatga qadar bu yaxshi ot orada (74) qolg‘ay.

Sening esonligingni ko‘rish uchun Mahmud beg(75)ni yuborildi.

Sichqon yili, Rabiul avval oyining yigirma (76) ikkisida Miyonada ekanligimizda bitildi.

MISOLLAR KELTIRILGAN MANBALAR

AH – Adib Ahmad Yugnakiyning “Hibatu-l-haqoyiq” dostoni: Arat 1992, 41–81.

AT – “Og‘a-ini tiginlar qissasi”: Gabain 1950, 283–285.

AZFT – Аттухфатуз закияту филлугатит туркия (Туркий тил (қипчоқ тили) ҳақида ноёб тухфа). Таржимон ва нашрга тайёрловчи С. Муталлибов. Тошкент, 1968.

AYar – “Oltun tusli yorug”: Gabain 1950, 270–283.

B.critical. – *Zahir Al-din Muhammad Babur*. Babur-nama (Vaqayi’). Critical edition based on four Chaghatai texts with introduction and notes by Eiji Mano. Kyoto Syokado, 1995.

BN – Захириддин Мұхаммад Бобур. Бобурнома. Тошкент, 1989.

DDT – Dictionnaire Djaghatai-turc. V. de Vilimino-Zernof. SPb., 1869.

DTS – Древнетюркский словарь. Л., 1969.

İB – Irq bitigi: Малов 1951, 80–92; Orkun 1987, 263–285.

E – Yenisey bitiglari: Малов 1952; Orkun 1987, 295–616.

K – Kul tigin bitigi: *Ka* – kichig bitig, *Kb* – ulug‘ bitig, *K.I-III*, *Kc* – toshning taroshlangan qirralari va ters tomonidagi yozuv. Nashrlari: Малов 1951, 19–55; Аманжолов 2003, 153–170; Содиков 2004, 96–112; 2009, 31–49.

KN – Мұхаммед Якуб Чинги. Келур-наме. Подготовка к изданию А. Ибрагимовой. Ташкент, 1982.

KKT – Kitab-ı Mecmü-i Tercüman-ı Türki ve Acemi ve Mügali. Recep Toparlı, M. Sadi Çögenli, Nevzat H. Yanık. Ankara, 2000.

LT – Ali Şir Nevayi. Lisanü’t-tayr. Hazırlayan M. Canpolat. Ankara, 1995.

MA – Ҳасанхожса Нисорий. Музаккири аҳбоб. Форс тилидан И. Бекжон таржимаси. Тошкент, 1993.

Maj. – Алишер Навоий. Мажолисун нафоис. Танланган асарлар. III том. Тошкент, 1948. 5–149.

MČ – Mo‘yuncho‘r bitigi: Малов 1959, 30–44.

MK – Maҳмуд Кошарий. Девону луготит турк I–III. Тошкент, 1960–1963.

MK.facsimile – Kaşgarlı Mahmud. Divanü Lugati’t-Türk. Tipkibasım / Facsimile. Ankara, 1990.

ML – ‘Ali Şir Nevayi. Muhakemetü'l-lugateyn (İki Dilin Muhakemesi). Hazırlayan F. Sema Baruşçu Özönder. Ankara, 1996.

Mun. – Alisher Navoiy. Munshaot. İstanbul, To'pqopи saroyi kutubxonasi, 808- sonli qo'lyozma.

MS – Qadimki uyğur yeziğidiki “Maytri simit” I. Ürümči, 1987.

MTA – Moğolistan'daki Türk Antıtları Projesi Albümü. Hazırlayanlar: O.F. Sertkaya, C. Alyılmaz, T. Battulga. Ankara, 2001.

NM – Ali-şir Nevayi. Nesayimü'l-mahabbe min Şemayimi'l-fütüvve. I Metin. Hazırlayan K. Eraslan. Ankara, 1996.

O – O'ngin bitigi: *O* – toshning yuz tomoni, *Os* – o'ng yog'i, *Ob* – yuqoridagi yozuv, *Os* – boshqa bir toshdagı yozuv. Orkun 1987, 127–132.

OD – O'g'uzxoqon dostoni: Щербак 1959, 11–110; Махмудов, Содиков 1994, 96–117.

RQ – “Rohatu-l-qulub”. Britaniya muzeyida saqlanayotgan Or. 8193 raqamli qo'lyozmada. Nashri: Содиков 2009, 134–148.

Sak. – Mevlana Sekkaki Divani. Hazırlayan K. Eraslan. Ankara, 1999.

SI – Алишер Навоий. Садди Искандарий. Тошкент, 1991.

ST – Тугушева Л.Ю. Уйгурская версия биографии Сюаньцзана. М., 1991.

ŞN – Мұхаммад Солих. Шайбонийнома. Нашрга тайёрловчи Э. Шодиев. Тошкент, 1989.

Taf. – Turkiy tafsir: Боровков 1963.

Ton – To'nyuquq bitigi: Аманжолов 2003, 175–185: Содиков 2009, 17–30.

TR – Мирза Мұхаммад Ҳайдар. Тарихи Рашидий (XIX аср уйғурча таржимаси). Нашрга тайёрловчи Д. Райхонов. Алмута, 2004.

Huast. – “Xuastuanift”. Asarning Sankt-Peterburgda saqlanayotgan uyg'ur yozuvli qo'lyozmasi asosida. Nashri: Содиков 2009, 85–99.

X – Bilga xoqon bitigi: *X* – toshning yuz tomonidagi yozuv, *Xa*, *Xb* – ikki yonidagi yozuv, *Xc* – toshning ters yog'idagi yozuv, *X,I-II* – taroshlangan qirralardagi yozuv. Nashrlari: Содиков 2004, 112–120; 2009, 49–58.

QB – Йосуф Хос Ҳожиб. Кутадғу билиг. Нашрга тайёрловчи К. Каримов. Тошкент, 1971.

ILMIY ASARLAR

Абдураҳмонов, Рустамов 1982 – Абдураҳмонов F., Рустамов A. Қадимги туркий тил. Тошкент, 1982.

Абдураҳмонов, Рустамов 1984 – Абдураҳмонов F., Рустамов A. Навоий тилининг грамматик хусусиятлари. Тошкент, 1984.

Абдуллаев 1968 – Абдуллаев Ф. XV аср ўзбек адабий тилининг диалектал асослари масаласи. – Навоий ва адабий таъсир масалалари. Тошкент, 1968. 238–257- б.

Аманжолов 1978 – Аманжолов А.С. К генезису тюркских рун. // «Вопросы языкоznания». 1978 № 2. С. 76–87.

Аманжолов 2003 – Аманжолов А.С. История и теория древнетюркского письма. Алматы, 2003.

Азимджанова 1963 – Азимджанова С. Новые сведения о «Хатт-и Бабури». – XXVI Международный конгресс востоковедов. Доклады делегации СССР. М., 1963. С. 5–10.

Аҳмедов 1992 – Аҳмедов Б. Ўзбек улуси. Тошкент, 1992.

Благова 1982 – Благова Г.Ф. Тюркское склонение в ареально-историческом освещении. М., 1982.

Боровков 1963 – Боровков А.К. Лексика Среднеазиатского тифсира XII–XIII вв. М., 1963.

Васильев 1983 – Васильев Д.Д. Графический фонд памятников тюркской рунической письменности Азиатского ареала. М., 1983.

Григорьев 1978 – Григорьев А.П. Конкретные формуляры чингизидских жалованных грамот XIII–XV вв. – Тюркологический сборник. 1974. М., 1978. С. 208–209.

Григорьев 1981 – Григорьев А.П. Официальный язык Золотой Орды XIII–XIV вв. – Тюркологический сборник. 1977. М., 1981. С. 81–89.

Дмитриева 1963 – Дмитриева Л.В. Хуастуанифт (введение, текст, перевод). – Тюркологические исследования. М.–Л., 1963. С.214–232.

Дониёр 1968 – Дониёр X. Алишер Навоий тилининг диалектал асосларини ўрганиш масаласига доир (унлилар системаси ҳақида). – Навоий ва адабий таъсир масалалари. Тошкент, 1968. 279–301- б.

Иброҳимов 1993 – Иброҳимов Н. Ибн Баттута ва унинг Ўрта Осиёга саёҳати. Тошкент, 1993.

Кызласов 1994 – Кызласов И.Л. Древняя письменность Саяно-Алтайских тюрков. М., 1994.

Малов 1951 – Малов С.Е. Памятники древнетюркской письменности. М.–Л., 1951.

Малов 1952 – Малов С.Е. Енисейская письменность тюрков. Тексты и переводы. М.–Л., 1952.

Малов 1959 – Малов С.Е. Памятники древнетюркской письменности Монголии и Киргизии. М.–Л., 1959.

Маҳмудов 1990 – Маҳмудов Қ. XIII–XIV аср туркий ёзма обидалар тилининг фонетик системаси. Тошкент, 1990.

Маҳмудов 2004 – Маҳмудов Қ. Ўзбек тилининг тарихий фонетикаси. Тошкент, 2004.

Маҳмудов, Содиқов 1994 – [Маҳмудов Қ., Содиқов Қ.] XI–XV асрнинг туркий ёзуидаги ёдгорликлар. Тошкент, 1994.

Мелиоранский 1900 – Мелиоранский П.М. Араб филолог о турецком языке. СПб., 1900.

Мелиоранский 1906 – Мелиоранский П. Документ уйгурского письма султана Омер Шейха. – Записки Восточного Отделения. Т. XVI. 1904–1905. СПб., 1906. С. 01–012, таблица I.

Содиқов 1997 – Содиқов Қ. Уйғур ёзуви тарихи (Манбашунослик ва китобат тарихи масалалари). Тошкент, 1997.

Содиқов 2004 – Содиқов Қ. Кўк турк битиглари: матн ва унинг тарихий талқини. Тошкент, 2004.

Содиқов 2009 – Содиқов Қ. Эски туркий битиглар. Тошкент, 2009.

Радлов 1890 – Радлов В.В. Кутадку-Билик. Факсимиле уйгурской рукописи. СПб., 1890.

Рустамов 1968 – Рустамов А. Навоий тилининг фонетик хусусиятлари. – Навоий ва адабий таъсир масалалари. Тошкент, 1968. 258–278- б.

Рустамов 1976 – Рустамов А. Ибн Арабшоҳ туркий ёзувлар ҳақида. // “Адабий мерос” (5). Тошкент, 1976. 39–42- б.

Умаров 1992 – Умаров Э. Эски ўзбек лугатлари. Тошкент, 1992.

Щербак 1959 – Щербак А.М. Огуз-наме. Мухаббат-наме. М., 1959.

Щербак 1970 – Щербак А.М. Сравнительная фонетика тюркских языков. Л., 1970.

Щербак 1983 – Щербак А.М. Рукописный сборник Ог. 8193 и его значение для узбекской филологии. // «Советская тюркология». Баку, 1983 (3). С. 72–77.

Arat 1991 – Arat R.R. Eski Türk Şiiri. Ankara, 1991.

Arat 1992 – Edib Ahmed b. Mahmud Yükneki. Atebetü'l-hakayık. R.R. Arat. Ankara, 1992.

Eckmann 2003 – Janos Eckmann. Harezm, Kıpçak ve Çağatay Türkçesi Üzerine Araştırmalar. Yayıma hazırlayan: O.F. Sertkaya. Ankara, 2003.

Orkun 1987 – Orkun H.N. Eski Türk Yazıtları. Ankara, 1987.

Orhun – Moğolistan Tarihi Eserleri Atlası. Ankara, 1995.

Gabain 1950 – Gabain, von A. Alttürkische Grammatik. Leipzig, 1950.

Kurat 1940 – Kurat A.N. Topkarı Sarayı Müzesi Arşivindeki Altın Ordular, Kırım ve Türkistân Hanlarına ait Yarlık ve Bitikler. İstanbul, 1940.

Sertkaya 1975 – Sertkaya O.F. Uygur Harflarıyle Yazılmış Bazı Manzum Parçalar. II. İstanbul, 1975.

Sertkaya 1977 – Sertkaya O.F. İslami Devrenin Uygur Harfleri Eserlerine Toplu Bir Bakış. Bochum, 1977.

Sertkaya 1995 – Sertkaya O.F. Göktürk Tarihinin Meseleleri. Ankara, 1995.

Sertkaya 2001 – Sertkaya O.F. Eski Türkler Okur Yazar mıydı? - Göktürk Devleti'nin Kuruluşunun 1450. Yıldönümü. Sempozyum Bildirileri. // Yeni Avrasya Yayınları: 2. Ankara, 2001.

Sertkaya 2007 – Sertkaya O.F. Timür Bek'in Toktamış Han'a 793=1391'de Yapmış Olduğu Seferin Arap ve Uygur Harfleri Kitabeleri (Karsakpay Yazıtı). – Ölümünün 600. Yılında Emir Timür ve Mirası. Uluslararası Sempozyumu. 26–27 Mayıs 2005. İstanbul 2007. S. 31–39.

Pavet de Courteille 1882 – A. Pavet de Courteille. Miradj-Nameh. Paris, 1882.

Hazai 1975 – Hazai G. Fragmente eines uigurischen Blockdruck-Faltbuches. – Altorientalische Forschungen, III. Akademie-Verlag. Berlin, 1975. P. 91–108.

QO'SHIMCHA

"TURKIY TIL TARIXI" FANINING O'QUV DASTURI Ta'lif yo'naliishi: 5220700 – Sharq mumtoz filologiyasi

T u z u v ch i: filologiya fanlari doktori, professor
Q. SODIQOV

KIRISH

Toshkent Davlat Sharqshunoslik instituti Sharq mumtoz filologiyasi ta'lif yo'naliishing o'quv rejasiga "Turkiy til tarixi" fani kiritilgan. Ushbu fan turkiy (o'zbek) adabiy tilining yuzaga kelishi va taraqqiyoti, ko'hna turkiy bitiglarning til o'zgachaliklari to'g'risidagi yalpi bilimlarni qamraydi.

Fanning maqsadi va vazifalari

Fanni o'qitishdan murod – talabalarga o'zbek adabiy tilining kelib chiqishi, uning ildizlari, yuksalish bosqichlari, fonetik, grammatik o'chovlarining qat'iy lashuv yo'llari, turkiy til lug'at boyligining ko'lam-qamrovi, atamalarning yuzaga kelish tarixi, yozma til uslublari va ularning o'ziga yarasha belgilari haqida bilim berishdir.

Bosh vazifa – o'tmishdan qolgan turkiy manbalarni, badiiy ijod namunalarini o'qiy olish va ularni hozirgi o'zbek tiliga ag'darish uchun yetarli bilimlarni shakllantirish, turkiy yozma yodgorliklar ustida ilmiy ish yaratish yo'llarini o'rgatish hamda shu yo'naliishda yetuk mutaxassislarni yetishtirishdan iborat.

Fan bo'yicha talabalarning uquvi va ko'nikmasiga qo'yiladigan talablar

"Turkiy til tarixi" o'quv fanini o'zlashtirish jarayonida bakalavr:

- turkiy adabiy tilining yuzaga kelishi va uning tarixiy takomilini;

- turkiy tilning leksik-semantic, fonetik, morfologik, sintaktik-stilistik o‘lchovlari, ularning yuzaga kelish tarixi va tarixiy takomili masalalarini ***bilishi kerak***;
- turkiy yozma yodgorliklar bo‘yicha tadqiqot olib borish ***ko‘nikmasiga ega bo‘lishi***;
- turkiy yozma yodgorliklarni o‘qib, matn ma’nosini to‘g‘ri anglashi va hozirgi o‘zbek tiliga o‘gira olishi;
- klassik turkiy matnlardagi, adabiy asarlardagi ilg‘or g‘oyalarni, kishilikning yuksalishiga xizmat qiluvni fikrlarni uqib, ularni to‘g‘ri talqin qila olish ***malakasiga ega bo‘lishi kerak***.

Fanning o‘quv rejasidagi boshqa fanlar bilan o‘zaro bog‘liqligi va uslubiy jihatdan uzviyligi

“Turkiy til tarixi” ixtisoslik fanlari qatorida turadi. Ushbu fanini o‘zlashtirish uchun o‘quv rejasida ko‘zda tutilgan gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy, matematik va tabiiy-ilmiy, umumkasbiy fanlar (eski turkiy yozuvlar, asosiy sharq tili, tilshunoslikka kirish, qo‘sishimcha sharq tili v.b.) va ixtisoslik fanlaridan yetarli bilim hamda ko‘nikmalarga ega bo‘lishi talab etiladi.

Fanning gumanitar fanlar tizimidagi o‘rni

Maktabgacha ta’lim muassasasi, o‘rtal umumta’lim maktabi, akademik litsey, kasb-hunar kollejlarida hamda O‘zR FA Sharqshunoslik instituti, Til va adabiyot instituti, Tarix ilmiy tekshirish institutlarida faoliyat olib borilganda “Turkiy til tarixi” kursidan olingan bilimlar asqotadi. Shuning uchun ushbu fan asosiy ixtisoslik fani sanalib, mumtoz filologiya ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavr tayyorlash bosqichining ajralmas bo‘g‘inidir.

Fanni o‘qitishda yangi axborot va pedagogik texnologiyalarni qo‘llash

Ilmi toliblarning “Turkiy til tarixi” fanini o‘zlashtirishlari uchun o‘qitishning ilg‘or va yetakchi usullarini qo‘llash, yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning bilan birga, mumtoz filologiya mutaxassislarini tayyorlashda

o‘tmishda ota-bobolarimiz tomonidan yaratilgan ilg‘or ta’lim usullari, notiqlik san’ati, balog‘at bilimi masalalarini egallash, yozma adabiy til, adabiy tilning uslubiy imkoniyatlaridan ustalik bilan foydalanish mahoratini singdira borish talab etiladi.

Fanni o‘qitish jarayonida darslik, o‘quv va uslubiy qo‘llanmalar, ma’ruza matnlari, dars yo‘rug‘lari, tarqatma materiallar va ko‘rgazmali qurollardan foydalaniлади.

ASOSIY QISM

Nazariy darslar

Kirish. “Turkiy til tarixi” fanining maqsad va vazifalari. Fanning o‘rganish va o‘rgatish chegaralari. Uning boshqa fanlar qatorida egallagan o‘rni.

Til tarixining jamiyatning ijtimoy-siyosiy, madaniyat tarixi, xalqning diniy-falsafiy qarashlari, qo‘shti xalqlar bilan bo‘lgan madaniy-siyosiy, savdo munosabatlari bilan bog‘liqligi.

Turkiy tillar tarixini o‘rganishda xizmat qiluvchi manbalar. Yozma yodgorliklar til tarixini o‘rganishda eng ishonchli manbalardir. Xalq og‘zaki ijodi namunalari va ularning til tarixini o‘rganishdagi o‘rni. Hozirgi turkiy tillar va ularning shevalari. Joy otlari (toponimlar) va boshqa geografik otlar, gidronimlar, etnonimlar.

Til tarixini o‘qitishning metod va usullari.

Turkiy adabiy tilining yuzaga kelishi.

Adabiy til tarixini davrlashtirish masalasi. Eng qadimgi turkiy til (qadimgi davrlardan melodning V asrlariga qadar. Oltoy va xun davri). Qadimgi turkiy adabiy til (melodiy VI–X asrlar). Eng ko‘hna turkiy yozma yodgorliklar tili. Uning bo‘linishlari: ko‘k turk tili (Birinchi va Ikkinci turk xoqonliqlari davrida yaratilgan ko‘k turk yozuvli urxun va yenisey, tuva, talas, farg‘ona yodgorliklarining tili); Uyg‘ur xoqonliqlari davrida yaratilgan ko‘k turk, uyg‘ur, moniy, brahma yozuvlaridagi yodgorliklar tili (“qadimgi uyg‘ur tili”). Eski turkiy adabiy til (XI asrdan XIV yuzyillikning boshlariga qadar). Uning bosqichlari: Qoraxoniylar davri tili (qoraxoniylar davrida yaratilgan yodgorliklar tili); “chig‘atoy turkiysi”; eski xorazm turkiysi (Oltin O‘rda va Xorazm muhitida amal qilgan adabiy til);

eski qipchoq tili (Misrda yozilgan grammatic asarlar, lug‘atlar hamda g‘arbdagi qipchoqlar yaratgan asarlar tili); eski anato‘li turkchasi (XIII–XV asrlarda o‘g‘uz turklari qo‘llagan yozma adabiy til). Eski o‘zbek adabiy tili (XIV asrdan XX asrning boshlariga qadar). “Chig‘atoy turkchasi”, “chig‘atoy turkiysi” otini olgan XIII–XVI asrlarning adabiy tili. Hozirgi o‘zbek adabiy tili (XX asrning boshlaridan to shu kunga qadar amal qilayotgan adabiy til).

O‘zbek xalqi va tilining tarixiy atalishi. *Türk, türkî, čiğatay ulusî, sart, özbek* atamalari va ularning kelib chiqish tarixi. O‘zbek tili tarixida qo‘llanilgan *türkçä, türk tili, türkî til; čiğatay tili; sart tili; özbek tili* atamalari va ularning qo‘llanilishi. Adabiy tilning atalishi. “Qutadg‘u biling” asarida qayd etilgan *buğraxan tili, xan tili* atamalari, “Hibatu-l-haqoqiy” asariga ilova qilingan Amir Arslon tarxon masnaviysida tilgan olingan *kaşgar tili, kaşgarî til* atamasi to‘g‘risida. XIV–XVI asrlarning manbalarida qayd etilgan *čiğatay ulusî, Čiğatay eli* hamda *čiğatay tili* atamalarining ma’nosи.

Turkiy tilshunoslik va uning yuzaga kelish tarixi. Qadimgi turk xoqonliqlari (ko‘k turk va uyg‘ur xoqonliq va davlatlari) davrida tilshunoslik. Sharq, xusan, arab tilshunosligi asosida shakllangan turkiy tilshunoslik. Hozirgi zamon tilshunosligi. Uning metod va usullari. Adabiy tilning yuzaga kelishi, yozma uslublarning muayyan bir qolipda harakat kilishi, til an'analarini, uzviylikni ta’minlashda yozuvning o‘rni. Matn tuzish an'analarining shakllanishi. Turkiy yozma uslublarning kelib chiqishi va takomili. Badiiy uslub va uning tarixi. Monumental matnlar uslubi. Rasmiy uslub. Turkiy hujjatchilik tarixidan.

Til tarixining “Qadimgi turkiy adabiy til” bosqichi.

Ilk o‘rta asrlarda Markaziy Osiyoda kechgan etnik jarayon. Til va etnos. Ko‘k turk xoqonliqlari, uyg‘ur xoqonlig‘i va davlatlarda til vaziyati.

Ko‘k turklarda yozuv madaniyati. Ko‘k turk yozuvi – bobolarimizning ulug‘ kashfiyotidir. Ko‘k turk yozuvi yodgorliklari – turkiy yozma adabiy tilning eng eski naunalari sifatida. To‘nyuquq, Yo‘llug‘ tigin singari tarixchi va adiblarning adabiy til ravnaqiga qo‘sghan ulushi. Yozma uslublar va ularning yuzaga kelishi.

Uyg‘ur yozuvi va uning tarixi. Uyg‘ur yozuvi yodgorliklari – til tarixining manbalari sifatida. Uyg‘ur yozuvidagi qadimgi turkiy til

davriga tegishli diniy-falsafiy va badiiy asarlar. Ko'k tangri diniy tasavvurlari ta'sirida yaratilgan asarlar. Buddizm ta'sirida yaratilgan asarlar. Sanskrit, tohar, xitoy, sug'd tillaridan qadimgi turkiy tilga o'girilgan diniy-falsafiy yodgorliklar. Moniylik muhitida yaratilgan turkiy asarlar.

Qadimgi turkiy tilning fonetik xususiyatlari. Unlilar tizimi. Turkiy singarmonizm – yodgorliklar tilining temir qonuni. Undoshlar tizimi. Fonetik hodisalar.

Morfemika. So'zning morfem qurilishida tarixiylik. So'z yasalishi. Qadimgi turkiy tilda amal qilgan so'z yasash yo'llari.

So'z turkumlari. Ot va uning kategoriyalari. Ko'plik. Egalik. Kelishik kategoriyasi. Unutilgan kelishik qo'shimchalarining hozirgi o'zbek tilidagi qoldiqlari. Otlarda jins. Otlarning yasalishi.

Sifat va uning muhim belgilari. Sifatlarning yasalishi.

Son. Sanoq sonlar. Sonning darajalari: birliklar, o'nliklar, yuzliklar, mingliklar. Qadimgi turkiy tilda ikki xonali sonlar. Tartib sonlar. Qadimgi turkiy tilda yasama sonlar.

Olmosh va uning turlari.

Fe'l va uning kategoriyalari. Fe'lning sifatdosh formalari, ularning yasalishi. Ravishdosh. Masdar alomati. Fe'lning buyruq shakli. Bo'lishsizlik. Fe'llarda shaxs-son ko'rsatkichi. Shart ko'rsatkichi. Fe'l nisbatlari. O'tgan zamon fe'li. Hozirgi zamon fe'li. Kelasi zamon fe'li. Fe'llarning yasalishi.

Ravish va uning turlari. Ravishlarning yasalishi. Yordamchi so'zlar. Qadimgi turkiy tilda qo'llangan bog'lovchilar. Ko'makchi so'zlar. Yuklamalar. Qadimgi turkiy tilning sintaktik qurilishi.

So'z birikmasi: oti va fe'lli birikmalar.

Sodda gap va uning turlari. Gapning ifoda maqsadiga ko'ra turlari. Gap bo'laklari: aniqlovchi, to'ldiruvchi, hol. Gapning yuushiq bo'laklari. Qo'shma gaplar va ularning turlari: bog'lovchili va bog'lovchisiz bog'langan qo'shma gap, ergashgan qo'shma gap. Bir necha ergash gapli qo'shma gap. Ko'chirma gap.

Til tarixinining “Eski turkiy adabiy til” bosqichi.

XI–XIV asrlarda O'rta va Markaziy Osiyoda til vaziyati. Qoraxoniylar davrida turkiy adabiy til. Mo'g'ullar istelosi davrida turkiy til. Chingiziylar tasarrufidagi davlatlarda turkiy tilning mavqeい. Oltin O'rda davlatida, Chig'atoy ellarida davlat tili masalasi.

Eski turkiy adabiy tilning yozma yodgorliklari. Eski turkiy til davrida yozuv. Arab alifbosi negizida shakllangan turkiy yozuv. Uyg‘ur va arab youvlarining parallel qo‘llaniluvi – hayotning ijtimoiy-siyosiy, madaniy taqazosi sifatida.

Mahmud Koshg‘ariy va uning turkshunoslik, xususan, tilshunoslik sohasidagi ishlari. “Devonu lug‘atit turk” – turkiy tillar tarixini o‘rganishda muhim manba.

Turkiy adabiy til taraqqiyotida Yusuf Xos Hojib, Adib Ahmad Yugnakiy singari adiblarning xizmatlari.

Turkiy ellarda mo‘g‘ullar istelosidan keyingi ko‘tarilish. XIII va XIV asrlarda turkiy tilda yaratilgan yozma yodgorliklar.

Eski turkiy til yodgorliklarining fonetik tizimi. “Birlamchi” cho‘ziq unlilar masalasi. Turkiy til fonetik tizimida yuz bergan o‘zgarishlar, fonetik hodisalar.

Turkiy tilning grammatik qurilishida yuz bergan o‘zgarishlar. Ot va uning kategoriyalari, sifat, son, olmosh turkumlarining o‘ziga xos belgilari. Fe’l va uning shakllari. Ravish. Yordamchi so‘zlar.

Til tarixining “Eski o‘zbek adabiy tili” bosqichi.

XV–XVI asrlarda O‘rta va Markaziy Osiyoda til vaziyati. Temuriylar davlatida davlat tili va rasmiy yozuv masalalari (uyg‘ur va arab alifbolari). Mavlono Lutfiy, Atoiy, Sakkokiy singari adiblarning adabiy til taraqqiyotiga qo‘sghan ulushi. Turkiy tilning yuksalishida Alisher Navoiyning xizmatlari. Navoiyning “Muhokamatu-l-lug‘atayn” asari va uning tahlili. Husayn Boyqaro, Zahiriddin Bobur, Muhammad Solih, Muhammad Shayboniyxonning adabiy til tarixidagi xizmatlari.

Eski o‘zbek tili (“chig‘atoy turkiysi”)ning fonetik xususiyatlari. Unlilar tizimi (a, ä, e, ã, i, ī, u, ü, o, ö). Ularning ochiqlamasi. Hozirgi o‘zbek tilidagi ã tovushining tarixiga doir. Klassik o‘zbek tilida singarmonizm. Singarmonizm – eski o‘zbek tilining temir qonuni sifatida. Undoshlar tizimi. Eski o‘zbek tilida undoshlar tizimida yuz bergan o‘zgarishlar.

Ot va uning kategoriyalari. Ko‘plik, forsiy va arabiyo ko‘plik shakllari. Egalik. Kelishik qo‘sheimchalari. Sifat va uning muhim belgilari. Son va uning belgilari. Olmoshlar. Eski o‘zbek tilida fe’l va uning shakllari. Yordamchi so‘zlar.

Eski o‘zbek tilida gap va uning muhim belgilari. Klassik matnlarda gaplarni ajratish o‘lchovlari. Sodda gap. Gapning ifoda maqsadiga ko‘ra turlari. Gap bo‘laklari: aniqlovchi, to‘ldiruvchi, hol.

Qo‘shma gaplar va ularning turlari: bog‘lovchili va bog‘lovchisiz bog‘langan qo‘shma gap, ergashgan qo‘shma gap. Ergash gapning bosh gapga birikish usullari. -kim, čun bog‘lovchili ergashgan qo‘shma gaplar. Ko‘chirma gap. Arab va fors tillariga xos ayrim sintaktik-grammatik formalarining turkiy matnga, turkiy gap qurilishiga ta’siri masalasi. Eski o‘zbek tilida matn uslubi. Uning o‘ziga xos belgilari. Gapdagi leksik, morfologik, sintaktik munosabatlarning, gap qurilishining matn uslubiga ta’siri masalasi. O‘zbek mumtoz she’riyati uslubi. Nasriy asarlar uslubi. Maktublar va ularning uslubi.

O‘zbek adabiy tilining XVII–XIX asrlardagi taraqqiyoti.

Abulg‘oziy Bahodirxon, Turdi Farog‘iy, Boborahim Mashrab, Xuvaydo, Shermuhammad Munis, Muhammad Sharif Gulxaniy, Amiri, Jahon otin – Uvaysiy, Muhammadrizo Erniyozbek o‘g‘li Ogahiy, Muhammad Aminxo‘ja Muqimiyy, Zokirjon Xolmuhammad o‘g‘li Furqat singari adiblarning adabiy til taraqqiyotidagi xizmatlari.

Turkiy tillar tarixi, o‘zbek adabiy tili tarixini o‘rganish sohasida turkshunoslik va tilshunoslik oldida turgan vazifalar.

Amaliy darslarni uyushtirish bo‘yicha ko‘rsatma va yo‘llanmalar

Ko‘k turk yozuvida bitilgan To‘nyuquq, Kul tigin, Bilga xoqon, O‘ngin bitiglaridan misollar olib, ularni leksik-grammatik jihatdan tahlil qilish. Uyg‘ur xoqonlig‘i davridan qolgan Mo‘yun-cho‘r, Tariat yodgorliklaridan misollar ishlash. Yenisey bitiglaridan misollar ishlash. “Irq bitigi” va uning tahlili. Uyg‘ur yozuvli yodgorliklar. “Maytri simit no‘m bitig”, “Xuastuanift”, “Oltun tusli yorug”, “Syuan-szan kechmishi” asarlaridan misollar olib, ularni grammatik jihatdan tahlil qilish. Qadimgi turk she’riyatidan namunalar tahlil qilish.

Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘atit turk” asarida keltirilgan to‘rtliklar, xalq maqollaridan misollar ishlash. Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” dostonidan misollar olib, ularni grammatik tahlil qilish. Adib Ahmad Yugnakiyning “Hibatu-l-

haqoyiq” asaridan misollar tahlil qilish. “Turkiy tafsir” va uning tahlili. Nasiruddin Rabg‘uziyning “Qisasi Rabg‘uziy”, Qutbning “Xusrav va Shirin”, shuningdek, “Nahju-l-faradis”, Xorazmiyning “Muhabbatnoma” asarlaridan misollar olib, matnlarni semantik, grammatik jihatdan tahlil qilish.

Mavlono Lutfiyning tuyuq va g‘azallaridan misollar ishlash.

Alisher Navoiy g‘azallari tahlili. G‘azallar semantikasi. Navoiyning ruboiy va tuyuqlari. “Farhod va Shirin”, “Sab’ai sayyora”, “Saddi Iskandariy”, “Lisonu-t-tayr” dostonlaridan misollar olib, ularni lingvistik tahlil qilish.

Navoiyning nasriy asarlaridan misollar olib, grammatik jihatdan tahlil qilish. “Muhokamatu-l-lug‘atayn” asarini o‘qib o‘rganish. “Munshoot”dagi maktublarni o‘rganish. Zahiriddin Bobur lirikasi. “Boburnoma” asaridan misollar olib, grammatik jihatdan tahlil qilish.

Boborahim Mashrab, Xuvaydo, Shermuhammad Munis, Muhammad Sharif Gulxaniy, Amiri, Jahon otin – Uvaysiy, Muhammadrizo Erniyozbek o‘g‘li Ogahiy, Muhammad Aminxo‘ja Muqimiy, Zokirjon Xolmuhammad o‘g‘li Furqat she’rlaridan olib, ularni lingvistik jihatdan tahlil qilish. Adiblarning til imkoniyatlaridan foydalana olish mahoratini baholash.

Til tarixi, tarixiy grammatik ko‘rsatkichlar, ularning tarixiy takomilini aks ettiruvchi rasmlar, chizmalar tahlili.

Turkiy yozma yodgorliklar, o‘zbek mumtoz adabiyoti yodgorliklarining faksimil nashrlari, ko‘k turk, uyg‘ur, arab yozuvlaridagi nashrlari, transkripsion nashrlaridan olib ulardan tarqatma materiallar, slaydlar tayyorlash va amaliy mashg‘ulotlar chog‘ida ulardan foydalanish.

Internet saytlaridan turkologiya bo‘yicha e’lon qilingan matnlarni izlab topish va ulardan dars davomida foydalanish.

Mustaqil topshiriqlarni uyushtirishning shakli va mazmuni

Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘atit turk” asarini o‘qib o‘rganish. “O‘g‘uzxoqon” dostonini o‘qib o‘rganish. Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asaridan olingen boblarni o‘rganish.

Rabg‘uziyning “Qisasi Rabg‘uziy” asarini o‘qib o‘rganish.

Temuriy xonlarning yorliqlarni o‘qib o‘rganish. Boburning “Boburnoma” asarini o‘qib o‘rganish. “Boburnoma”dagi geografik otlarni yig‘ish. Muhammad Solihning “Shayboniy nomma” asarini o‘qib o‘rganish.

XVII–XIX asrlarda o‘zbek klassik adabiyoti namoyandalari asarlarining tili va uslubi.

Talabalalar mustaqil topshiriqlarni tayyorlash jarayonida quyidagi ko‘rsatmalardan foydalanishlari tavsiya etiladi:

- darslik, o‘quv va uslubiy qo‘llanmalar, ma’ruza matnlari va dars yo‘rug‘laridan kurs mavzularini o‘rganish;
- yozuvning kelib chiqishi bilan bog‘liq mavzularni o‘zlashtirish;
- ko‘k turk xatidagi matnlarni tahlil etish;
- eski uyg‘ur va arab xatidagi yodgorliklarni bilsish.

Talabalarning o‘zi o‘qib o‘rganadigan mavzular:

Yozuv va uning turlari.

Turkiy xalqlar qo‘llagan yozuvlar.

Urxun bitiglari.

Uyg‘ur yozuvli budda, moniy matnlari.

XI–XV asrlarning matnlari.

“Qutadg‘u bilig”, “Devonu lug‘atit turk”, “Hibatu-l-haqoyiq” asarlari.

Dasturning informasion-uslubiy ta’minoti

Ushbu fanni o‘rgatish chog‘ida o‘qitishning yangi usullari va axborot texnologiyalarini qo‘llash ko‘zda tutilgan.

- yozuvning kelib chiqishiga tegishli mavzularni o‘zlashtirishda kompyuter texnologiyalari ko‘magida tanituv o‘tkaziladi, elektron-didaktik vositalar qo‘llaniladi;

- turkiy xalqlarning qadimgi yozuvlari bilan bog‘liq masalalarni o‘tganda o‘qitishning yetakchi pedagogik texnologiyalaridan foydalaniladi;

- ko‘k turk, uyg‘ur va arab yozuvlari to‘g‘risidagi mavzularni o‘qitganda kompyuter texnologiyalari ko‘magida tanituv o‘tkaziladi, unda elektron-didaktik hamda o‘qitishning yangi pedagogik texnologiyalari qo‘llaniladi.

O'QISH UCHUN TAVSIYA ETILADIGAN KITOBLAR

Eng kerakli kitoblar:

Абдураҳмонов F., Рустамов А. Қадимги туркий тил. Тошкент, 1982.

Абдураҳмонов F., Рустамов А. Навоий тилининг грамматик хусусиятлари. Тошкент, 1984.

Алиев А., Содиқов Қ. Ўзбек адабий тили тарихидан. Тошкент, 1994.

Rahmonov N., Sodiqov Q. O'zbek tili tarixi. Toshkent, 2009.

Содиқов Қ. Туркий ёзма ёдгорликлар тили: адабий тилнинг юзага келиши ва тикланиши. Тошкент, 2006.

Sodiqov Q. Turkiy til tarixi. Toshkent, 2009.

Qo'shimcha kitoblar:

Абдураҳмонов F., Рустамов А. Навоий тилининг грамматик хусусиятлари. Тошкент, 1984.

Айдаров Г. Язык орхонских памятников древнетюркской письменности VIII века. Алма-Ата, 1971.

Аманжолов А.С. История и теория древнетюркского письма. Алматы, 2003.

Басқаков Н.А. Историко-типологическая фонология тюркских языков. М., 1988.

Благова Г.Ф. Тюркское склонение в ареально-историческом освещении. М., 1982.

Исҳоқов М., Содиқов Қ. Омонов Қ. Мангу битиглар. Тошкент, 2009.

Кононов А.Н. Грамматика тюркских рунических памятников VII–XI вв.. Л., 1980.

Маҳмудов Қ. XIII–XIV аср туркий ёзма обидалар тилининг фонетик системаси. Тошкент, 1990.

Маҳмудов Қ. Ўзбек тилининг тарихий фонетикаси. Тошкент, 2004.

Сравнительно-историческая грамматика тюркских языков. Фонетика. М., 1984.

Содиқов Қ. Кўк турк битиглари: матн ва унинг тарихий талқини. Тошкент, 2004.

Содиқов Қ. Эски турк фалсафаси. Тошкент, 2008.

Содиқов Қ. Эски туркий ёзувлар. Тошкент, 2008.

- Содиқов К.* Эски туркий битиглар. Тошкент, 2009.
- Щербак А.М.* Сравнительная фонетика тюркских языков. Л., 1970.
- Щербак А.М.* Грамматика староузбекского языка. М.–Л., 1962.
- Gabain, von A.* Alttürkische Grammatik. Leipzig, 1950.
- Eckmann, Jonas.* Harezm, Kıpçak ve Çağatay Türkçesi Üzerine Araştırmalar. Yayıma Hazırlayan O.F. Sertkaya. Ankara, 2003.
- Sertkaya O.F.* Göktürk Tarihinin Meseleleri. Ankara, 1995.
- Tekin, Talat.* Orhon Türkçesi Grameri. Ankara, 2000.
- Orkun H.N.* Eski Türk Yazitları. Ankara, 1987.

MUNDARIJA

So‘z boshi	3
Kirish.....	4
Birinchi bo‘lim. O‘zbek adabiy tilining yuzaga kelishi va yuksalushi.....	9
O‘zbek tili o‘tmishda qanday atalgan?	9
Ilk va o‘rta asrlarda Markaziy Osiyodagi til vaziyati.....	20
O‘zbek adabiy tilining yuksalushi	35
Qadimgi turk dialektlari va ularning yozma adabiy tilga bog‘liqligi	61
O‘zbek tilshunosligining yuzaga kelishi va yuksaluv bosqichlari.....	69
Ikkinci bo‘lim. Eski turkiy yozuvlar.....	79
Ko‘k turk yozuvi.....	81
Uyg‘ur yozuvi.....	88
Moniy yozuvi.....	103
Sug‘d yozuvi.....	103
Brahma yozuvi.....	104
Suryoni yozuvi.....	104
Arab alifbosi asosidagi turkiy yozuv.....	105
Sig‘naq xati.....	107
Xatt-i boburiy.....	108
Lotin yozuvi.....	109
Uchinchi bo‘lim. Fonetika.....	110
Unlilar tizimi.....	110
Undoshlar tizimi.....	119
Turkiy singarmonizm.....	122
Tovush o‘zgarishlari.....	125
To‘rtinchi bo‘lim. Qadimgi turkiy tilning morfologik xususiyatlari.....	131
So‘z yasalishi.....	131
Ot.....	145
Sifat.....	161
Son.....	164
Olmosh.....	168
Ravish.....	171
Fe‘l.....	173

Yordamchi so‘zlar.....	196
Beshinchi bo‘lim. Leksikologiya va atamashunoslik masalalari.....	204
Qadimgi turkiy tilda qo‘llanilgan buddizm atamaları.....	204
Qadimgi turkiy tilga xitoychadan o‘zlashgan so‘zlar.....	212
Islom bilan bog‘liq atamalar.....	218
Yetti yulduz va o‘n ikki burj atamalari.....	223
Eski turk qarashlarida “tomon” tushunchasi va uning bilan bog‘liq atamalar.....	229
“Vaqt” tushunchası bilan bog‘liq atamalar.....	235
O‘zbek tilidagi qarindosh-urug‘ otlari va ularning ildizlari.....	245
Oltinchi bo‘lim. Matn uslubi masalalari.....	250
Yozma til va uning uslublari.....	250
Badiiy matnlari uslubi.....	254
“Sutra uslubi”	263
Hujjatlar uslubi.....	266
Turkiy yozma yodgorliklarda sana va uning aytilishi.....	273
Qadimgi turk monumental matnlarining uslubi.....	278
Islom davri qabrtoshlaridagi yozuvlar.....	283
Yettinchi bo‘lim. Matnlar.....	289
To‘nyuquq bitigi.....	289
Kul tigin bitigi.....	300
“Xuastuanift”ning eski turkcha versiyasi.....	318
“Oltun tusli yorug“dan.....	331
“Og‘a-ini tiginlar qissasi”dan.....	340
Sulton umarshayxning uyg‘ur yozuvli yorlig‘i.....	342
Sulton abu said bitigi.....	344
Misollar keltirilgan manbalar.....	351
Ilmiy asarlar.....	353
Qo‘sishimcha. “Turkiy til tarixi” fanining o‘quv dasturi.....	357

Qosimjon Sodiqov

TURKIY TIL TARIXI

5220700 – Sharq mumtoz filologiyasi ta’lim yo’nalishi bo‘yicha bakalavrlik bosqichida o‘qiyotgan talabalar uchun qo’llanma

Texnik muharrir: **N. Rahmatullayev**

2009 yilning 10 dekabrida bosishga ruxsat etildi.
Bichimi: 60x84 1/16. “Times New Roman” garniturasida ofset bosma usulida
bosildi. Soni 200 ta. ..- son buyurtma.